O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

URUNBAYEVA YULDUZ PIRNAZAROVNA

MAKROIQTISODIYOT

DARSLIK

SAMARQAND - 2024

UO‘K: 330.1.541(075)
U 64
KBK: 65.012.2ya73

Urunbayeva Yu.P.

Makroiqtisodiyot [Matn]: **darslik** / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2024 - 356 bet.

E’tiboringizga havola qilinayotgan ushbu darslik 60310100-«Iqtisodiyot» (sohalar va tarmoqlar bo‘yicha) yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, asosiy e’tibor zamonaviy makroiqtisodiy usullar va ularning amaliyotga tadbiq etilishiga qaratilgan, mamlakat makroiqtisodiy rivojlanish bosqichlarini aniqlash hamda ularni takomillashtirish borasidagi makroiqtisodiy jarayonlarga alohida e’tibor qaratilgan. Yurtimizda Yangi O‘zbekistonni va uchinchi Renessans poydevorini barpo etish to‘g‘risida ham fikr yuritilgan.

Darslik Oliy o‘quv yurtlari talabalari, magistrlar va professor-o‘qituvchilarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

M.M.Muhammedov – i.f.d., professor.
N.Arabov –i.f.d., professor.

Darslik institut Kengashining 2024 - yil 24 - maydagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (10-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-720-77-2

© Urunbayeva Yu.P., SamISI. 2024 y.
©“STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2024 y.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga erishish “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” shiori ostida ro‘y bermoqda. Shu ma’noda, har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o‘ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O‘zbekiston fenomeni ham bundan mustasno emas. Ushbu tushuncha mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, yurtimizda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi islohotlarimizning tayanch g‘oyasini ifoda etadi[1]. Shu jihatdan, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularning o‘zgarishlarini baholash bugungi kunda o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda barcha sohalarni isloh etishga qaratilib, yoshlarni yetuk shakillanishida ta’lim tizimida ham keng ko‘lamli yangilanishlar amalga oshirilmokda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Prezident Farmonida ta’lim sohasidagi yangiliklar, Yangi O‘zbekistonni shakllantirish jarayonida mamlakatimiz yoshlarini yetuk, bilimdon qilib tarbiyalash va intellektual salohiyatini yuksaltirish, yurtimiz taraqqiyotini yanada yuqori bosqichga ko‘taradigan malakali kadrlar tayyorlash, xususan, talaba-yoshlarning puxta bilim olishi, o‘zlari tanlagan sohaning yetuk mutaxassisi bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda “Yangi O‘zbekiston” iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e’tirofidir”[2]. Ana shunday yangilanish davrida nima bo‘lganda ham iqtisodiyotimizning orqada qolishiga imkon bermaslik choralarini ko‘rishimiz lozim. Chunki

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” “O`zbekiston” Toshkent 2023 25 b.

[2] Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va maьrifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. “MA’NAVIYAT HAYOTIMIZDA YANGI KUCH, YANGI HARAKATGA AYLANISHI KERAK”Xalk so‘zi 2023 yil 23 dekabr, №274(8617) 2 bet.

bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2024 yilda amalga oshirish natijalari ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, internet tarmog‘ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka tushuntirilish, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarning borishi va natijalari to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma’lumotlar aholiga tezkorlik bilan yetkazilishi ta`kidlandi.

Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi doirasida: yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’ati 6 foizdan kam bo‘lmagan darajada bo‘lishini, investisiyalar esa yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan kamida 30 foiz bo‘lishini ta’minlash, iqtisodiyot tarmoqlarida qiymati 18 milliard dollar bo‘lgan 309 ta yirik loyihalar ishga tushirilishi, yillik inflatsiya darajasi 9 foizgacha va fiskal taqchillik 4 foizgacha bo‘lishi ta’minlanishi bilan bir qatorda, keyinchalik inflatsiya va Davlat byudjeti taqchilligi ko‘rsatkichlarini pasaytirish[3] choralari belgilab berildi.

Ushbu tamoyillarning mazmuni avvalo iqtisodiyit siyosatdan ustun tarmog’i, yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog’i qolaversa, ijtimoiy muhofaza sohasida turli chora-tadbirlar inson qadri uchun asoslanmog’i lozim.

Makroiqtisodiyotning umumiy nazariyasini bilmay turib, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish ancha qiyin. Shu tufayli mazkur darslikda makroiqtisodiyot ko‘rsatkichlar tizimi, ularni aniqlash yo‘llari va makroiqtisodiy o‘sishning turlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan, o‘zaro bog‘liq holda yoritilgan. Ushbu masalalarni talabalarga tushunarli tarzda ifodalash uchun barcha masalalar aniq misollar bilan ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ushbu ishda iqtisodiy o‘sishning ta’rifi bo‘yicha turli olimlarning qarashlari tahlil qilinib, mualliflar tamonidan ushbu tushunchaning yangi takomillashgan ta’rifi ham asoslangan.

[3] “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida.

Mazkur ishdagi muhim jihatlardan biri iqtisodiy o‘sishni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning turlari va darajasini belgilovchi mezonlarning ishlab chiqilganligidir. Ushbu me’zonlar ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan holda tavsiya qilindi.

Darslik oliy o‘quv yurtlari talabalari, magistrlar va professor-o‘qituvchilarga mo‘ljallangan. Bundan katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilarga, malaka oshirish kurslari tinglovchilari va mamlakatning makroiqtisodiy holatini, o‘sish darajasini aniqlashga va baho berishga qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Makroiqtisodiyot fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda makroiqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiy tahlil va davlatning makroiqtisodiy siyosati to‘g‘risida bir tizimga solingan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari – makroiqtisodiy kategoriyalar, makroiqtisodiy muammolarning namoyon bo‘lishi shakllari va sabablari, iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy modellar vositasida tahlil etish, makroiqtisodiy siyosat maqsadlari va vositalari, ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy siyosat yuritish xususiyatlari to‘g‘risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish hamda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash, makroiqtisodiy konsepsiya va modellardan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, makroiqtisodiy siyosat natijalarini prognoz qilish usullarini o‘rgatishdan iborat.

“Makroiqtisodiyot” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- makroiqtisodiyot fanining predmetini, asosiy kategoriyalarini va tadqiqot usullarini; makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning mohiyatini va ularni hisoblash shartlarini; asosiy makroiqtisodiy modellarni va ularda iqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosat natijalarini aks ettirishni; tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmining mohiyatini; pulga talab, pul taklifi va pul bozorida muvozanatga ta’sir etuvchi omillarni; byudjet-soliq va pul – kredit siyosatining maqsadlarini, vositalarini, ko‘rinishlarini; iqtisodiy o‘sishning mohiyatini, o‘lchanishini, omillarini va modellarini, tashqi savdo siyosatining nazariy asoslarini va vositalarini; mamlakat

to‘lov balansining tuzilishini, makroiqtisodiy ahamiyatini va uni tartibga solish usullarini; valyuta kursining mohiyatini, makroiqtisodiy ahamiyatini, uni belgilovchi omillarni va barqarorligini ta’minlash shartlarini, ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish xususiyatlarini bilishi kerak;

- makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash; asosiy makroiqtisodiy modellarning o‘zgaruvchilarini aniqlash va tenglamalarini tuzish[4]; tovarlar va xizmatlar bozorida qisqa va uzoq muddatli muvozanatni ta’minlash mexanizmini tushuntirib berish; pul bozorida muvozanat yuzaga kelishining o‘ziga xos xususiyatlarini; makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy jarayonlar va alohida ko‘rsatkichlarga ta’sir ko‘rsatishi qonuniyatlarini aniqlash; turli makroiqtisodiy vaziyatlarda byudjet-soliq yoki pul-kredit siyosatini qo‘llash hamda o‘zaro muvofiqlashtirish shartlarini tushuntirib berish; tashqi savdo siyosati va valyuta kursini tartibga solish orqali to‘lov balansi holatiga, yalpi talab va yalpi taklif hajmlariga ta’sir ko‘rsatish usullarini tavsiflab berish; ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlarini, milliy va jahon iqtisodiyoti darajasida bozor mexanizmi qanday amal qilishini izohlab berish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;

- iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda makroiqtisodiy modellarni qo‘llash; makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish; makroiqtisodiy siyosatning ijobiy va salbiy oqibatlariga baho berish; makroiqtisodiy siyosatning natijalarini prognoz qilish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

[4] “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturidan: (Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi doirasida 2024 yilda: Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning bilimlarni baholash tizimi qo‘shimcha 1 000 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy qilinib, fanlardagi amaliy mashg‘ulotlar ulushi 60 foizgacha oshirilsin).

Authorship and Reviewers:

Authored by Urunbayeva Yu.P., the textbook is published by Samarkand Institute of Economy and Service (SamISI) in 2024, spanning 268 pages.

Reviewed by esteemed scholars, M.M. Muhammedov and N. Arabov, both Ph.D. professors, the content guarantees academic rigor and excellence.

Content Focus:

The textbook offers a comprehensive exploration of contemporary macroeconomic methodologies and their practical implementations. Emphasizing the intricate dynamics of macroeconomic processes, it delves into the stages of a nation's macroeconomic evolution and strategies for enhancement. Notably, it scrutinizes the transformative vision of establishing New Uzbekistan and lays the groundwork for the Third Renaissance.

Target Audience:

Tailored for students, postgraduates, and faculty members of tertiary institutions, the textbook serves as a vital resource for academic enrichment and professional development.

Endorsement:

Endorsed by the Scientific Methodological Council of the Samarkand Institute of Economy and Service, the textbook has undergone rigorous evaluation and is recommended for publication, ensuring its scholarly relevance and contribution to economic discourse.

INTRODUCTION

The contemporary socio-economic landscape of our nation is shaped by the overarching vision encapsulated in the slogan "New Uzbekistan - Towards the Third Renaissance". Every facet of our society undergoes its own evolutionary process, and the emergence of the New Uzbekistan phenomenon is emblematic of this trajectory. This concept embodies the core principles driving our reforms, aimed at sculpting a modern national identity, fostering democratic governance, nurturing a

vibrant civil society, and laying the groundwork for the Third Renaissance. In this context, the evaluation of macroeconomic indicators and their fluctuations assumes paramount importance. Uzbekistan is currently witnessing sweeping reforms across its education system, with a concerted focus on comprehensive overhauls across all sectors, geared towards fostering the holistic development of its youth. In the realm of education, the Presidential Decree outlining the implementation of the "Uzbekistan-2030" strategy during the "Year of Youth and Business Support" heralds a multitude of initiatives aimed at fostering knowledge acquisition and intellectual enrichment. These endeavors are geared towards cultivating a pool of qualified professionals who will catalyze the nation's advancement to new heights. Notably, the focus lies on equipping students and young individuals with comprehensive knowledge and expertise in their respective fields, nurturing their development into adept specialists. President Sh.M. Mirziyoyev aptly remarked on the global recognition of Uzbekistan, as the phrase "New Uzbekistan" reverberates on the international stage, underscoring the nation's transformative journey and significant progress. President Sh.M. Mirziyoyev eloquently observed that Uzbekistan's global prominence is underscored by the frequent mention of the phrase "New Uzbekistan." This acknowledgment signifies our nation's transition into a distinctly new phase of development, marked by substantial progress in recent years. In this era of renewal, it is imperative to implement measures that prevent economic stagnation, recognizing that today's Uzbekistan stands apart from its past iterations.

The outcomes of the "Uzbekistan - 2030" strategy's implementation in 2024 will be subject to extensive commentary in various media platforms, including mass media, the internet, and social networks. It is crucial to disseminate impartial and comprehensive information about the progress and results of all activities undertaken within the framework of this strategy, ensuring transparency and fostering public understanding. Within the framework of ensuring the populace's well-being through sustained economic growth, specific targets have been outlined: maintaining a minimum GDP growth rate of 6 percent, ensuring

investments constitute at least 30 percent of the GDP to facilitate the launch of 309 large-scale projects valued at $18 billion across various economic sectors, curbing annual inflation to 9 percent, and limiting the fiscal deficit to 4 percent. Additionally, strategies to mitigate inflation and address the state budget deficit are to be formulated. These principles underscore the primacy of economics over politics, advocating for a renewal and development process grounded in legal frameworks, with a strong emphasis on implementing social protection measures that uphold human dignity. A thorough understanding of macroeconomics is indispensable for the development of the national economy. Therefore, this textbook delves into the intricacies of macroeconomic indicators, their determination methods, and different forms of macroeconomic growth from both a theoretical and practical standpoint, supplemented with concrete examples to aid student comprehension. Furthermore, it examines various scholars' perspectives on economic growth definitions, culminating in a refined interpretation proposed by the authors. A pivotal aspect of this work entails the establishment of criteria for assessing the types and levels of indicators indicative of economic growth, grounded in scientific and theoretical principles. Designed for students, postgraduates, and faculty members of higher education institutions, this textbook is also beneficial for senior researchers, independent scholars, professionals undergoing continuing education, and individuals interested in evaluating the nation's macroeconomic landscape and growth trajectory. The overarching objective of teaching macroeconomics is to equip students with a comprehensive understanding of macroeconomic theory, analysis, and state macroeconomic policies, fostering the development of requisite knowledge and skills. The objectives of macroeconomics encompass the exploration of macroeconomic categories, identification of macroeconomic problems, analysis of economic phenomena through macroeconomic models, formulation of scientific insights into macroeconomic policy objectives and instruments, examination of macroeconomic policy implementation within an open economy framework, and comprehension of macroeconomic indicators. To

achieve these goals, instruction in macroeconomics aims to impart methodologies for calculating macroeconomic variables, analyzing economic phenomena utilizing macroeconomic concepts and models, and forecasting the outcomes of macroeconomic policy decisions. As part of the curriculum for mastering the academic subject of "Macroeconomics," bachelor students are expected to engage with the following key areas:

- Understanding the subject matter, fundamental categories, and research methodologies of macroeconomics.
- Exploring the nature of macroeconomic indicators and the methodologies for their calculation.
- Familiarizing themselves with prominent macroeconomic models and analyzing economic processes and policy outcomes within these frameworks.
- Comprehending the mechanisms for achieving macroeconomic equilibrium in the market for goods and services.
- Investigating the factors influencing demand for money, money supply, and equilibrium in the money market.
- Grasping the objectives, instruments, and modalities of budgetary, taxation, monetary, and credit policies.
- Delving into the essence, measurement, determinants, and models of economic growth, as well as the theoretical foundations and tools of foreign policy.
- Understanding the structure of the country's balance of payments, its macroeconomic significance, and the methods for its regulation.
- Gaining insights into the nature of exchange rates, their macroeconomic implications, determinants, and conditions for ensuring stability, alongside the nuances of implementing macroeconomic policy within an open economy context.

Students are expected to develop the following skills as part of their study of macroeconomics:

- Proficiency in calculating macroeconomic indicators and constructing equations for the main macroeconomic models.

- Understanding the mechanisms for achieving short-term and long-term equilibrium in the market for goods and services.

- Recognition of the distinctive characteristics of equilibrium in the money market.

- Ability to discern the principles governing the impact of macroeconomic policy on economic processes and individual indicators.

- Comprehension of the conditions necessitating the application of budgetary, taxation, monetary, and credit policies, and their mutual coordination in diverse macroeconomic scenarios.

- Description of strategies for influencing the state of the balance of payments, aggregate demand, and aggregate supply through foreign trade policies and exchange rate regulations.

- Proficiency in elucidating the dynamics of macroeconomic processes within an open economy context and understanding the unique features of macroeconomic policy, including the operation of market mechanisms at the national and global levels.

- Application of macroeconomic models in analyzing economic phenomena.

- Analysis of macroeconomic indicators and assessment of the positive and negative ramifications of macroeconomic policies.

- Forecasting the outcomes of macroeconomic policies.

I bob. MAKROIQTISODIYOTGA KIRISH

1.1. “Makroiqtisodiyot” fanining shakllanish tarixi, predmeti va ob’ekti

Makroiqtisodiyot atamasi kundalik foydalanishga nisbatan yaqindagina kiritilgan bo‘lsada makroiqtisodiy tahlil elimentlari iqtisodiyot fani bilan deyarli birga paydo bo‘ldi. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini yaxlit bir jarayon sifatida tadqiq qilish, unga turli elementlarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri xos bo‘lgan tizim sifatida yondoshish dastlab F. Kene asarlarida uchraydi. Fransiya qiroli Lyudovik XV saroyi vrachi F.Kene 1758 yilda, milliy mahsulot ishlab chiqarish jarayoni pul oqimlarining doiraviy aylanishi sifatida tasvirlangan “Kene jadvali” ni tuzishda ilk bor makroiqtisodiy tahlil elimentlarini qo‘lladi.

Makroiqtisodiy tahlilning tamal toshlari, shuningdek, J.B.Sey, L.Valras, V.Pareto va boshqa olimlar tomonidan XIX asrdanoq qo‘yilgan edi deb ta’kidlash mumkin. Keyinchalik, K.Marks o‘zining jami ijtimoiy mahsulot(JIM)ni takror ishlab chiqarish sxemasi, V.Leontev esa o‘zining tarmoqlararo balansi bilan makroiqtisodiyotni iqtisodiy nazariyaning alohida bo‘limi sifatida ajralib chiqishi uchun mustahkam asos yaratishdi. J.M. Keyns esa o‘zining “Ish bilan bandlilik, foiz va pulning umumiy nazariyasi”(1936 yil) asari bilan bu jarayonni mantiqiy yakuniga etkazdi. Shu sababli ham J.M. Keyns makroiqtisodiyot fanining asoschisi sifatida tan olinadi.

Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida iqtisodiyotning o‘zaro aloqada va ta’sirda harakat qiladigan sohalari, tarmoqlari, hududiy tuzilmalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy xo‘jalik tizimidir[5]. Makroiqtisodiyot o‘z ichiga iqtisodiyotning moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarini, bank, moliya, sug‘urta, soliq, bojxona tizimlarini o‘z ichiga oladi.

Makroiqtisodiy tahlilning maqsadi – takror ishlab chiqarish jarayonini obyektiv ravishda aks ettiruvchi ko‘rsatkichlardan

[5] McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 8

foydalanish asosida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida vujudga kelgan holatlarni ochib berishdan iborat. Bu maqsadga yerishishning muhim shartlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Shunday qilib, makroiqtisodiyot o‘z predmeti va tadqiqot usullariga ko‘ra mustaqil fan sifatida XX asrning o‘rtalariga kelib shakllanib bo‘ldi.

Makroiqtisodiyot umumiy iqtisodiy nazariyaning bo‘limi hisoblanib, unda milliy xo‘jalik darajasida iqtisodiyotning fundamental muammolari tadqiq qilinadi.

Makroiqtisodiy nazariyaning ikki ko‘rinishi o‘zaro farqlanadi:

a) pozitiv makroiqtisodiyot;

b) normativ makroiqtisodiyot.

Pozitiv makroiqtisodiyot real iqtisodiy hodisalarni va ularning aloqadorliklarini o‘rganadi.

Normativ makroiqtisodiyot esa qaysi sharoitlar yoki jihatlar maqbul yoki nomaqbul ekanligini belgilaydi, harakatning aniq yo‘nalishlarini taklif etadi.

Shu joyda iqtisodiy nazariyaning ikki mustaqil bo‘limi sifatida makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot fanlarining predmetlarini o‘zaro farqlab olishimiz zarur.

Mikroiqtisodiyot predmeti bo‘lib “belgilangangan” iqtisodiy shart-sharoitlarda uy xo‘jaliklari va firmalar darajasida iqtisodiy qaror qabul qilish mexanizmi hisoblanadi. Mikroiqtisodiy tahlil obyekti bo‘lib alohida tovarlar bozorlari, resurslar bozorlari, ulardagi talab va taklif hisoblansa makroiqtisodiyotda milliy iqtisodiyot darajasida mehnat, pul, tovarlar va xizmatlar bozorlarining o‘zaro munosabatlari va o‘zaro ta’sirini tahlil qilinadi..

Makroiqtisodiy nazariyaning tadqiqot obyektiga quyidagilar kiradi:

- Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar (YaIM, YaMM, MD va boshqalar.);
- Iqtisodiy xatti-harakatlar (iqtisodiy o‘sish, iqtisodiyotning davriyligi, inflatsiya va ishsizlik darajasi);

■ Iqtisodiy siyosat (davlatning byudjet-soliq, pul-kredit, tashqi iqtisodiy siyosati va uning investitsion jarayonlarga va iqtisodiy o‘sishga ta’siri);

■ Iqtisodiy omillar (foiz stavkasi, narx, davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari).

Makroiqtisodiy siyosatning maqsadlari quyidagilardan iborat:

■ Milliy ishlab chiqarishning bir maromda o‘sishi — aholi turmush darajasini oshishining asosi;

■ Baho darajasining barqarorligi, inflatsiyani kamaytirish;

■ Aholining bandligini oshirish;

■ Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qulay tashqi-iqtisodiy sharoitlar yaratish.

Mikroiqtisodiyotda “belgilangan” deb qabul qilingan, Ya’ni mikroiqtisodiy tadqiqot predmeti hisoblanmaydigan ko‘pgina ko‘rsatkichlar, jumladan iste’molchilarning daromadlari, jamg‘armalari, foiz stavkasining dinamikasini va buni belgilovchi omillarni makroiqtisodiyot tadqiq qiladi.

Makroiqtisodiyot Yalpi ishlab chiqarishining barqaror o‘sishini, resurslarning to‘liq bandliligini, inflatsiyaning past sur’atlarini va to‘lov balansining muvozanatini ta’minlash nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qiladi va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o‘rganadi.

Keltirilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki makroiqtisodiyot predmetida o‘zaro bog‘liq uch jihatni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular:

1. milliy iqtisodiyot;
2. davlat tomonidan iqtisodiy siyosati yuritish va iqtisodiyotni tartibga solish;
3. jahon xo‘jaligi doirasida milliy iqtisodiyotni boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti bilan o‘zaro munosabatlari masalasi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan muammolarni o‘z vaqtida va joy-joyida hal qilishda ko‘pgina iqtisodiy fanlar qatori mikro va makroiqtisodiyot fanlari ham bevosita shug‘ullanadi. Masalan, biror-bir mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun har xil qaror va qonunlar qabul

qilishda iqtisodchilar ikki xil tahlillar orqali yondoshadilar. Ya'ni, mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy yondoshuvlardan iborat.

Iqtisodiyotning mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyotning taqqoslama jadvali (1.1.1-jadval)

1.1.1-jadval

Mikro va makroiqtisodiyotning o'zaro taqqoslanma tahlili

№	Mikroiqtisodiyot	Makroiqtisodiyot
1	Bozor munosabatlarining subyektlari	
	Alohida ishlab chiqaruvchi Alohida iste'molchi	Yalpi ishlab chiqaruvchilar Yalpi iste'molchilar Davlat (ijtimoiy institutlar). Xorij
2	Bozor munosabatlarini boshqarish subyekti	
	Mavjud emas	Davlat (hukumat)
3	Tahlil etiluvchi bozor	
	Aniq tovar yoki xizmat bozori	Barcha tovar va xizmatlar bozori
4	Tahlil etiluvchi bozor holati	
	Xususiy	Umumiqtisodiy
5	Foydalaniluvchi ko'rsatkichlar	
A	-narx;	-umumiy narx darajasi;
B	-talab;	-Yalpi talab;
V	-taklif;	-Yalpi taklif;
G	-mahsulot;	-Yalpi milliy mahsulot;
D	-daromad;	-milliy daromad;
E		-inflatsiya;
J		-ishsizlik;
Z		-iqtisodiy o'sish va x.
6	O'rganiluvchi markaziy muammo	
	Talab va taklif muvozanati	AD=AS bo'lgan holatda ishlab chiqarish hajmi.
7	Dastlabki tarixiy iqtisodiy maktab	
	Neoklassik maktab	Keyns maktabi

Mikroiqtisodiy yondashuv yoki mikroiqtisod bu biror bir aniq iqtisodiy birlikni to'liq tahlil qilishdan iboratdir. Masalan, biror-bir ishlab chiqarish korxonasini o'rganish, ya'ni, korxonini tashkil qilishdagi ichki (insonlar, ishlab chiqarish vositalari, kapital va

ma’lumotlar bilan ta’minlanganlik darajasi) *va tashqi* (ma’muriy va markaziy boshqaruv tashkilotlari, iste’molchilar, ishlab chiqarish komponentlarini yetkazib beruvchilar va aholi yashash joylariga uzoq-yaqinligi) *omillar,* ishlab chiqargan mahsulotlarining xarajatlari, foydasi, tushumi, to‘lanadigan soliqlar va shuningdek korxona faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlarini *to‘liq o‘rganishdan iboratdir*. Yoki boshqacha qilib aytganda resurslar, tovarlar va daromadlar doiraviy aylanishini alohida olingan korxona, tarmoq hudud darajasida o‘rganishdan iboratdir.

Makroiqtisodiyot esa keng ko‘lamdagi iqtisodiyot bilan shug‘ullanadi. Makroiqtisodiyot mustaqil fan sifatida XX asrning 30-yillarida shakllandi. Uning asoschisi britaniyalik iqtisodchi Djon Meynard Keyns. Keyns ilmiy konsepsiyasining muhimligi va dolzarbligi shundaki, u ilk bor aralash iqtisodiyot modelini ishlab chiqdi va to‘liq asoslab berdi. Shu bilan birga u iqtisodiyotdagi siklik rivojlanish masalalarini o‘rganib makroiqtisodiy tahlillar olib borish kerakligini tavsiya etdi. Aytib o‘tish joizki, Keyns nazariyasi AQSHda 1929-1933-yillarda yuz bergan buyuk depressiya davriga to‘g‘ri keldi. Keynsning nazariyasi qo‘yidagilarni o‘z ichiga oldi:

1) Aralash iqtisodiyot nazariyasi ilgari surildi va o‘z-o‘zidan klassik bozor iqtisodiyoti konsepsiyasi va A.Smitning “Ko‘rinmas qo‘l” nazariyasi o‘z kuchini yo‘qota boshladi;
2) Bozor iqtisodiyoti sharoitida jami talabining taklifdan ustunligi tan olindi va biri ikkinchisidan kelib chiqishi asoslab byerildi;
3) Milliy iqtisodiyotda “boylik samarasi” amal qilishi, ya’ni shaxsiy jamg‘armalarning ko‘payishi o‘z navbatida xalq farovonligini oshirishda salbiy ta’sir etishi isbotlab berildi.

Uning obyekti bo‘lib yalpi ishlab chiqarish, ish bilan bandlik, baho va tashqi iqtisodiy savdo, inflatsiya hisoblanadi. Ya’ni, resurslar, tovarlar va daromadlar doiraviy aylanishni xalq xo‘jaligi yoki mamlakat miqiyosida o‘rganishlardan iborat. Hozirgi jahon xo‘jaligi rivojlangan, ilmiy texnika taraqqiyoti davrida barcha mamlakatlarning iqtisodiyotlari uzviy bog‘liqdir. Mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va mudofaa qobiliyatlari ko‘p jihatdan ularning makroiqtisodiyotiga

bog‘liqdir. U murakkab va ko‘p qirrali masalalarni o‘z ichiga olganligi tufayli hozirda iqtisodchilar orasida makroiqtisodiyot munozarali fan bo‘lib kelmoqda.

1.2. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari

Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullariga ilmiy mavhumlashish, analiz va sintez, deduksiya, induksiya, statistik kuzatuv, iqtisodiy matematik modellashtirish usullari kiradi.

Juda murakkab tizim hisoblangan milliy iqtisodiyotni tadqiq qilish o‘ziga xos usullardan foydalanishni talab etadi. Son-sanoqsiz faktlarni, minglab ko‘rsatkichlarni alohida-alohida o‘rganib chiqish va ular borasida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish o‘ta qiyin vazifadir. Shu sababli ham makroiqtisodiyot fanida **agregat kattaliklardan** foydalanishga asoslangan tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

Agregatlash, ya’ni bir qancha iqtisodiy ko‘rsatkichlar va kategoriyalarni yagona makroiqtisodiy ko‘rsatkich yoki kategoriyaga umumlashtirish orqali milliy iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilish imkoniyati yuzaga keladi. Agregat ko‘rsatkichlar yordamida minglab alohida bozorlarni mamlakatning yagona bozori sifatida ko‘rib chiqish mumkin bo‘ladi. Makroiqtisodiy tahlil jarayonida alohida tovarlar va xizmatlarning bahosi, ularga bo‘lgan talab va ularni taklif etish hajmlari ko‘rsatkichlari emas, balki agregat ko‘rsatkichlar hisoblangan baholarning o‘rtacha darajasi, yalpi talab va yalpi taklif ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.

Davlat obligatsiyalari bo‘ycha foiz stavkalari, Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklarining kreditlar uchun belgilagan foiz stavkalari kabi kapital uchun to‘lov stavkalari umumlashtirilib ularning o‘rtacha miqdori bozor foiz stavkasi deb yuritiladi va makroiqtisodiy tahlil jarayonida bu agregat ko‘rsatkichdan foydalaniladi.

Makroiqtisodiy tahlilda asosiy tadqiqot usuli makroiqtisodiy jarayonlarni agregat ko‘rsatkichlardan foydalangan holda iqtisodiy matematik modellashtirishdir.

Makroiqtisodiy modellar iqtisodiy ko‘rsatkichlar va jarayonlar o‘rtasidagi miqdoriy, sabab-oqibat bog‘lanishlarini matematik formula, grafik va chizmalar ko‘rinishida ifodalaydi.

Bunga yalpi talab-yalpi taklif (AD-AC) modelini, Keyns xochini, Fillips egri chizig‘ini, IS-LM modelini, iqtisodiy o‘sishning Domar, Xarrod va Solou modellarini keltirish mumkin. Bu modellarni bir vaqtning o‘zida ham grafik ko‘rinishda, ham algebraik formula ko‘rinishida tasvirlash mumkin . Algebraik formulalar kabi makroiqtisodiy modellar ham ikki, uch yoki bundan ko‘p o‘zgaruvchili bo‘lishi mumkin.

AD-AS modelida yalpi talab va yalpi taklif hajmlarining baholarning umumiy darajasi dinamikasi ta’sirida o‘zgarishi va makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi o‘rganilsa, Fillips egri chizig‘i yordamida ishsizlik va inflatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tadqiq qilinadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan modellar barcha mamlakatlar iqtisodiyotini tahlil qilishda qo‘llanaveradi. Ammo ularda keltirilgan empirik koeffitsentlar, turli iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi xususiyati bir mamlakatda ikkinchisidan farq qilishi mumkin. Har qanday makroiqtisodiy modelda, u qanchalik sodda yoki murakkab bo‘lmasin, ma’lum darajada mavhumlikka yo‘l qo‘yiladi. Masalan, makroiqtisodiy tahlil davomida milliy iqtisodiyot ba’zan yopiq iqtisodiy tizim, ya’ni tashqi iqtisodiy aloqalari mavjud bo‘lmagan “yopiq iqtisodiyot” deb qaraladi. Amalda esa barcha mamlakatlar tashqi dunyo bilan iqtisodiy aloqalarga ega, ya’ni “ochiq iqtisodiyot”ga ega. Hech bir model iqtisodiy hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni to‘la-to‘kis qamrab olmaydi.

Shunga qaramasdan makroiqtisodiy modellardan foydalanish eng muhim iqtisodiy qonuniyatlarni aniqlash, qabul qilinadigan turli iqtisodiy qarorlarning olinishi mumkin bo‘lgan ko‘p variantli natijalarini oldindan aniqlab olish, makroiqtisodiy siyosatning turli yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Makroiqtisodiy modellarda tashqaridan belgilanadigan, ya’ni modelda tayyor kattalik sifatida qabul qilinadigan **ekzogen** o‘zgaruvchilar hamda modelni yechish natijasida topiladigan **ichki-endogen** o‘zgaruvchilar farqlanadi. Bir modelda ekzogen hisoblangan o‘zgaruvchi (ko‘rsatkich) ikkinchi model uchun endogen hisoblanishi mumkin.

Tarixda ma’lum bo‘lgan birinchi makroiqtisodiy model mavzuning birinchi savolida qayd etilgan “ Kene jadvali” hisoblanadi. Bu modelda F.Kene milliy iqtisodiyot amal qilishini uch sinfning - 5 mlrd. frank qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi dehqonlar, jami 2 mlrd. frank turadigan buyumlar yasashadigan hunarmandlar va 2 mlrd. frank renta olishadigan yer egalarining o‘zaro aloqalari sifatida tasvirlaydi. Kene modeliga ko‘ra yer egalari olgan 2 mlrd. frank yer rentasining 1 mlrd. frankini qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olishga, qolgan 1 mlrd. frankini esa hunarmandchilik buyumlarini sotib olishga sarflaydilar.

Hunarmandlar dehqonlarga 1mlrd. franklik buyumlarini sotadilar va dehqonlardan o‘zlari ega bo‘lgan 2 mlrd. frankning 1mlrd frankiga oziq ovqat mahsulotlari, qolgan 1 mlrd. frankiga esa ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun xomashyo sotib oladilar.



1

1

1.2.1-chizma. F.Kenening pul oqimlarining doiraviy aylanish modeli.(Keltirilgan raqamlar o‘lchami mlrd. frank)

Dehqonlar yer egalariga 1 mlrd. franklik qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotadilar va qolgan 2 mlrd. franklik mahsulotni iste’mol va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun o‘zlarida qoldiradilar. Jami olingan

3 mlrd. franklik daromadning 1 mlrd. franki dehqonlar tomonidan hunarmandchilik buyumlari sotib olishga, yana 2 mlrd. franki esa yer rentasi to‘lashga sarflanadi. Shunday qilib makroiqtisodiy bozorlarning balanslashishi ro‘y beradi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ekzogen va endogen o‘zgaruvchilarga guruhlanibgina qolmasdan zaxiralarni tavsiflovchi va oqimlarni tavsiflovchi o‘zgaruvchilarga ajratiladi. Birinchi guruh ko‘rsatkichlar tadqiqot obyektining ma’lum sanadagi holatini tavsiflaydi. Bularga kapital bilan qurollanganlik darajasi, ishsizlik darajasi, davlat qarzi kabi ko‘rsatkichlar misol bo‘ladi. Ikkinchi guruh ko‘rsatkichlar ma’lum davr oralig‘ida iqtisodiy jarayonlarning kechishini tavsiflaydi. Bularga yil davomida ishlab chiqilgan YaIM hajmi, iste’mol va investitsiya xarajatlari miqdori, inflatsiya sur’ati kabi kabi ko‘rsatkichlar misol bo‘ladi. Oqimlar ma’lum davr mobaynida zaxiralarning o‘zgarishini keltirib chiqaradi. Masalan yil davomida qilingan investitsiyalar iqtisodiyotda to‘plangan kapital hajmi, o‘z navbatida esa mehnatni kapital bilan qurollanganligi darajasining ham oshishiga olib keladi.

1.3. “Resurslar- tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy oqimi modeli

Har qanday iqtisodiy tizimda tovarlar va xizmatlarni takror ishlab chiqarish umumiy jarayonini resurslar, tovar va xizmatlar, daromadlar hamda xarajatlarning **doiraviy oqimi modeli** ko‘rinishida tasavvur qilish mumkin. Bu sodda model makroiqtisodiy tahlil asosini tashkil etadi. Faqat xususiy mulkka tayangan (ya’ni davlat ishtiroki mavjud bo‘lmagan) yopiq iqtisodiyotda bunday doiraviy oqimi firmalar va uy xo‘jaliklari o‘rtasida amalga oshiriladi.

Uy xo‘jaliklari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha iqtisodiy resurslarni resurslar bozoriga yetkazib beradilar, korxonalar esa bu resurslarni sotib olib turli xil mahsulotlarga, xizmatlarga aylantiradilar, so‘ngra esa ularni tayyor mahsulotlar va xizmatlar bozoriga yetkazib beradilar. Ayni paytda “resurslar - tovarlar va xizmatlar” oqimiga qarama qarshi yo‘nalishda “daromadlar - xarajatlar”ning ham doiraviy oqimi amalga oshiriladi. Ya’ni, uy

xo‘jaliklari o‘zlari yetkazib bergan iqtisodiy resurslar evaziga daromad oladi hamda ularni tovarlar va xizmatlar iste’mol qilish uchun sarflaydilar yoki aksincha korxonalar resurslar uchun sarf-xarajatlar qiladilar hamda tayyor mahsulotlarni sotish evaziga daromad oladilar.

Resurslar hamda tovarlar va xizmatlar oqimi jami taklifni, daromadlar va xarajatlar oqimi jami talabni ko‘rsatadi. Davlat ishtiroki mavjud bo‘lmagan yopiq iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklifning o‘zaro teng bo‘lishi
firmalarnining yalpi sotuvi, yoki yalpi ishlab chiqarishi hajmi uy xo‘jaliklarining yalpi daromadlari, yoki yalpi daromadlariga teng bo‘lishi shaklida namoyon bo‘ladi.



1.3.1 - chizma. Sof bozor iqtisodiyoti sharoiti “resurslar - mahsulotlar” va “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy aylanishi modeli

Bu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tenglikning buzilishi ishlab chiqarishning pasayishi, inflatsiya va ishsizlik darajalarining ko‘tarilib ketishiga sabab bo‘ladi. Davlat aralashuvi mavjud bo‘lgan iqtisodiyotda bu model ancha murakkab ko‘rinish oladi.

Bunday iqtisodiyotda resurslar - tovarlar va xizmatlar, daromadlar-xarajatlarning uzluksiz harakati ham bozor mexanizmlari orqali, ham davlat aralashuvi bilan ta’minlanadi. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning harakatini bevosita boshqarmaydi, balki resurslar va tovarlar bozorlarida qatnashish orqali ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay sharoitlar yaratadi. Davlat korxonalar va uy xo‘jaliklarini soliqqa tortish bilan birga korxonalarga subsidiyalar berish, aholiga transfert to‘lash orqali ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari va xaridga qodir talablariga ta’sir etadi. Ayni paytda davlat resurslar bozoridan hamda tovarlar va xizmatlar bozorida sotib oluvchi sifatida ishtirok etadi.



1.3.2 - chizma. Aralash bozor iqtisodiyoti sharoiti resurslar, mahsulotlar, daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishi

Bunda:

1,2-Yer, mehnat, kapital.	9-Iste'mol xarajatlari.
3,4-Tovar va xizmatlar.	10-Daromad
5-Resurslar.	11- Xarajatlar.
6-Tovar va xizmatlar	12,13-Soliqlar.
7-Transfertlar.	14-Xarajatlar.
8-Pul daromadlari (ish haqi, renta, foiz, foyda)	15-Tovar va xizmatlar 16-Subsidiyalar.

Davlat o‘z ishtiroki bilan firmalarning ishlab chiqarish hajmlari va uy xo‘jaliklarining tovarlar va xizmatlar harid qilish miqdolari to‘g‘risidagi qarorlari o‘zaro mos kelmagan hollarda ro‘y byeradigan iqtisodiy tebranishlarni tartibga solib turadi. Ochiq iqtisodiyot sharoitida doiraviy oqimlar modeli yanada murakkablashadi. Endi unda to‘rtinchi makroiqtisodiy subyekt- tashqi dunyo ham paydo bo‘ladi. Chet el investitsiyalarinig kiritilishi va xorijga investitsiya qilish, eksport va import operatsiyalari shu jumladan moliyaviy bozor orqali jamg‘armalarning investitsiyalarga oqib o‘tishi va moliyaviy mablag‘larning qayta taqsimlanishini e'tiborga olsak ko‘rib o‘tilgan model mukammal emasligiga iqror bo‘lamiz. Ammo shu ko‘rinishda ham bu model makroiqtisodiy jarayonlarni yaxlit holda tasavvur qilishga imkon beradi. Doiraviy oqimlar modelidan chiqariladigan xulosa shuki, davlat, firmalar, uy xo‘jaliklari va tashqi dunyoning yalpi xarajatlari yalpi ishlab chiqarish hajmiga teng bo‘lishi resurslar, tovarlar va xizmatlar oqimlari(ya'ni real oqim) bilan daromadlar va xarajatlar oqimlari (ya'ni pul oqimlari) o‘zaro teng bo‘lishining asosiy shartidir yalpi xarajatlar hajmining oshishi ishlab chiqarish hajmlari va ish bilan bandlilik darajasining o‘sishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida yalpi daromadlarning oshishiga sabab bo‘ladi. Kattaroq hajmdagi yalpi daromadlar unga mos hajmdagi yalpi xarajatlarni belgilab beradi. Sabab oqibat bog‘lanishlari o‘rin almashishi tufayli doiraviy oqimlar modeli doiraviy aylanish ko‘rinishini oladi. Iqtisodiyot barqaror rivojlanib borishi uchun yalpi xarajatlar to‘xtovsiz o‘sib borishi shart. Bu vazifa

byudjet-soliq siyosati vositalari bo‘lgan soliqlarni hamda davlat xarajatlarini o‘zgartirish hamda pul-kredit siyosati vositalari yordamida pul massasini o‘zgartirish orqali bajariladi.

Qisqacha xulosalar

«Makroiqtisodiyot» fani umumiy iqtisodiy nazariyaning ikki muhim bo‘limidan biri bo‘lib, iqtisodiyotni bir butun holda o‘rganadi va ishsizlik, inflatsiya, iqtisodiy o‘sish, to‘lov balansi barqarorligi, davlat byudjeti, davlat qarzi kabi hozirgi zamon iqtisodining barcha muhim muammolarini tadqiq qiladi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan makroiqtisodiy tahlil elementlari XVIII asrdanoq qo‘llanila boshlagan bo‘lsada makroiqtisodiyot fani XX asrning o‘rtalariga kelib mustaqil fan sifatida shakllanib bo‘ldi va uning asoschisi deb J.M. Keyns tan olinadi.

Makroiqtisodiy tahlilning o‘ziga xos xususiyati unda agregat ko‘rsatkichlardan foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Uy xo‘jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo makroiqtisodiyot subyektlarini tashkil etadi.

Makroiqtisodiy tahlilda matematik formula, grafik va chizmalar ko‘rinishidagi makroiqtisodiy modellardan foydalaniladi. Iqtisodiyotdagi barcha muammolarni o‘rganish imkonini beradigan yagona model mavjud emas. Shuning uchun ham makroiqtisodiy tadqiqotlarda o‘zaro bir birini to‘ldiradigan ko‘pgina modellardan foydalaniladi.

Davlatning iqtisodiy tizimning barqarorligini va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasidagi xatti-harakatlari iqtisodiy siyosat deb ataladi.

“Resurslar - tovarlar va daromadlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy oqimi sxemasi soddalashtirilgan makroiqtisodiy model bo‘lib makroiqtisodiyot subyektlarining o‘zaro munosabatlarini va makroiqtisodiy jarayonlarning kechishini shartli tarzda aks ettiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. “Makroiqtisodiyot” fani predmetining o‘ziga xos xususiyati nimada va u mikroiqtisodiyot predmetidan nimasi bilan farq qiladi?

2. Pozitiv va normativ makroiqtisodiyot tushunchalariga izoh bering.

3. Makroiqtisodiyot subyektlari orasida davlatning roli qanday?

4 Agregat ko‘rsatkichlar deganda nimani tushunasiz? Makroiqtisodiy tahlilda agregat ko‘rsatkichlardan foydalanish zaruriyati nima uchun yuzaga keladi?

5. Makroiqtisodiy modellarning mohiyatiga izoh bering.

6. Zaxiralarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va oqimlarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar o‘rtasida qanday bog‘liqliklar mavjud?

7. **“**Resurslar- tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy oqimi modelidagi qarama-qarshi omillarga izoh bering.

8. Doiraviy oqimlar modelini doiraviy aylanish tusini olishining shartlari qanday?

Mavzular bo‘yicha test savollari

1.Qaysi yilda F.Kene “Kene jadvali” ni tuzishda ilk bor makroiqtisodiy tahlil elimentlarini qo‘llagan?

A) 1758

B) 1760

C) 1755

D) 1759

2.Makroiqtisodiyot fanining asoschisi sifatida kim tan olingan?

A) F.Kene

B) J.B.Sey

C) J.M.Keyns

D) L.Valras

3.Makroiqtisodiyot nima?

A) ishlab chigarish, taqsimlash, iste'mol va ayirboshlash faoliyatida alohida iqtisodiy

agentlarni o'rganuvchi iqtisodiyot nazariyasining bo'limi

B) insonlarning cheksiz ehtiyojlarini qondirish uchun cheklangan resurslardan samarali foydalanishni va xo‘jalik yuritish jarayonida turli tomonlar orasida yuzaga keluvchi munosabatlarni o‘rganuvchi fan

C) ishlab chiqarish, taqsimlash va savdo, shuningdek tovarlar va xizmatlarni iste’mol qilish sohasini o‘rganish sohasi

D) mamlakat miqyosida iqtisodiyotning o‘zaro aloqada va ta’sirda harakat qiladigan sohalari, tarmoqlari, hududiy tuzilmalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy xo‘jalik tizimidir

4.Makroiqtisodiy nazariyaning necha xil ko‘rinishi o‘zaro farqlanadi?

A) 3

B) 2

C) 4

D) 5

5.Makroiqtisodiyot ga doir bozor munosabatlarining subyektlari qaysilar?

A) yalpi ishlab chiqaruvchilar, yalpi iste’molchilar, davlat, xorij

B) alohida ishlab chiqaruvchilar, alohida iste’molchilar

C) barcha tovar va xizmatlar bozori

D) xususiy korxonalar

6. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari?

A) muvozanatni aniqlash, o‘rganish uslubi, abstrak mushohada

B) tajribaviy, monografik, konstruktiv

C) ilmiy mavhumlashish, analiz va sintez, deduksiya, induksiya,statistik kuzatuv

D) umumiy muvozanat usuli, fundamental, miqdoriy va sifatiy

7. Resurslar hamda tovarlar va xizmatlar oqimi qaysi ko‘rsatkichni ko‘rsatadi?

A) jami talabni

B) jami taklifni

C) yalpi talabni

D) yalpi taklifni

8. Makroiqtisodiyot fani nechanchi asrdan boshlab mustaqil fan sifatida rivojlana bo‘lgan?

A) XIX asrning o‘rtalaridan

B) XIX asrning oxirlaridan

C) XX asrning boshlaridan

D) XX asrning o‘rtalaridan

9. Jami taklif va jami talabning buzilishi nimaga sabab bo‘ladi?

A) ishlab chiqarishning pasayishi, inflatsiya va ishsizlik darajasining ko‘tarilib ketishiga

B) makroiqtisodiy muvozanatga

C) ishlab chiqarishning oshishiga va inflyatsiyaning pasayishiga

D) narx darajasining ko‘tarilib ketishiga

10. Makroiqtisodiyotdagi dastlabki tarixiy iqtisodiy maktab qaysi?

A) Klassik maktab

B) Neoklassik maktab

C) Keyns maktabi

D) Sey maktabi

II bob. ASOSIY MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR

2.1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2024-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo‘lgan dasturiy va maqsadli vazifalar belgilab berildi. Murojaatnomadagi birinchi qayd etilgan vazifalardan biri, “2024 yilda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va inflatsiyani jilovlash – iqtisodiy islohotlar jarayonidagi bosh vazifamizdir”, deb ko‘rsatgani bo‘ldi[6]. Ushbu vazifani bajarish uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha belgilangan parametrlarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Milliy iqtisodiyotning asosiy negizini makroiqtisodiyot tashkil qiladi.

Milliy iqtisodiyot deganda ko‘z oldimizga ma’lum bir mamlakatning iqtisodiyoti, ya’ni xalq xo‘jaligining alohida tarmoqlari va sohalari majmui tushuniladi. Ammo uni nazariy jihatdan tahlil qilinsa, bu o‘zining ta’rifiga ega. Bu borada olimlarimiz asarlariga e’tibor qaratilsa, ular turli qarashlarga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, **Sh.Sh.Shodmonov va B.E.Mamarahimov**lar milliy iqtisodiyotni quyidagicha izohlaydi. “Milliy iqtisodiyot – barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro va makro darajadagi iqtisodiyotlarni, funksional iqtisodiyotni, ko‘plab infratuzilmalarni o‘z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyotdir”[7] , deb ta’rif berganlar. Mazkur olimlar milliy xo‘jalikning tarkib topgan tuzulishi ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojining natijasi hisoblanadi, degan izohni keltirgan. **M.M.Muhammedov** rahbarligida nashr qilingan darslikda[8], ushbu ta’rifni to‘liq qo‘llab-quvvatlagan .

Nazariyatchi olimlarimizdan biri **T.T.Jo‘rayev** milliy iqtisodiyotga quyidagicha ta’rif bergan. “Milliy iqtisodiyot – alohida

[6] Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va maьrifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. “MA’NAVIYAT HAYOTIMIZDA YANGI KUCH, YANGI HARAKATGA AYLANISHI KERAK”Xalk so‘zi 2023 yil 23 dekabr, №274(8617) 2 bet.

[7] Шодмонов Ш.Ш., Мамараҳимов Б.Э.Иқтисодиёт назарияси. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”нашриёти, 2016. – 261 бет.

[8] М.Мухаммедов., Ю.П.Урунбаева ва бошқалар “Иқтисодиёт назарияси” –Ўқув қўлланма Самарқанд – 2016 –270 бет., Иқтисодиёт назарияси. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2018. – 181 бет.

mamlakat miqyosida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan hamda mehnat taqsimoti orqali o‘zaro bog‘langan tarmoqlar, sohalar va infratuzilma muassasalaridan iborat yaxlit iqtisodiyot tushuniladi”[9]. Milliy iqtisodiyotning muhim xususiyatlari sifatida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi va ularni iste’mol qilinishi, rivojlanish sur’ati va umuman iqtisodiyotning tuzilishi, hududlarning alohida tarmoqlari va sohalarini olish mumkinligi e’tirof etilgan. Shu tariqa milliy iqtisodiyot mamlakat iqtisodiyotini to‘liq qamrab oladi.

Mamlakatimizning yetakchi nazariyatchi olimlaridan professorlar **A.O‘lmasov** va **A.Vahabov**lar milliy iqtisodiyotni quyidagicha izohlashni taklif qiladilar. “Milliy iqtisodiyot muayyan mamlakatning ichida yuz beradigan iqtisodiy faoliyat bo‘lib, bunda firmalar, xonadonlar va davlat ishtirok etadi”[10] , deb ko‘rsatilgan. Yuqorida keltirilgan barcha ta’riflar u yoki bu ma’noda milliy iqtisodiyotning mazmunini ochib beradi. Ammo turli olimlarda milliy iqtisodiyotning ta’rifini ochib berishda yondoshuvlar turli ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Birida milliy iqtisodiyot uchun subyektlar asos qilib olinsa, ikkinchisida jarayonlar, uchinchisida ham subyektlar, ham jarayonlar qamrab olingan.

Aslida mamlakatning milliy iqtisodiyoti iqtisodiyot sohasiga oid barcha tarmoqlar, sohalar va xonadon xo‘jaliklarini qamrab oladi. Chunki tarmoqlar va sohalarda moddiy ne’matlar ishlab chiqariladi va xizmat ko‘rsatiladi. Xonadon xo‘jaligida bevosita iste’mol qilinadi. Albatta hozirgi paytda oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan ushbu subyektda ham ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini bajarishga kirishganlar. Umuman olganda barcha jarayonda turli soha yoki tarmoq bo‘lishidan qat’i nazar, hammasining yagona yaratuvchisi mehnatdir. Ushbu ijtimoiy mehnat barcha shakllarining asosiy hujayrasi tovarlar ishlab chiqaraishga va xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan. Bular korxonalar, tashkilotlar, muassasalarga birlashtirilgan. Bularning hammasini jamlansa O‘zbekistonning milliy iqtisodiyotini tashkil qiladi.

[9] Жўраев Т.Т. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2017. – 337 бет.
[10] Ўлмасов А. Ваҳабов А. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA” нашриёти, 2014. – 264 бет.

Milliy iqtisodiyotning tarkibi bir qancha belgilari bo‘yicha tavsiflanadi. Bu quyidagi rasmda o‘z aksini topgan (2.1.1-jadval).

2.1.1 -jadval

Milliy iqtisodiyotni tasniflash belgilari va tasnifi[11]

T/r	Iqtisodiyotni tasniflashning tasnifiy belgilari	Alohida tarmoq va soha turlari
1.	**Mulkchilik shakli bo‘yicha**	Xususiy sector
		Davlat sektori
		Davlat va xususiy sherikchilik sektori
2.	**Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha**	Sanoat
		Qishloq xo‘jaligi
		Transport
		Qurilish
		Savdo
		Barcha xizmat ko‘rsatish sohasi kabilar
3.	**Hududiy zonalar asosida**	Barcha viloyatlar
		Qoraqalpog‘iston respublikasi
		Toshkent shahri
		Har bir hududda tumanlar kesimidagi bo‘linishlar va boshqalar
4.	**Sohalar bo‘yicha**	Ishlab chiqarish sohasi
		Xizmat ko‘rsatish sohasi
		Iste’molchilarga yetkazib berish sohasi
5.	**Iqtisodiyotning darajasi bo‘yicha**	Mikroiqtisodiyot
		Mezoiqtisodiyot
		Makroiqtisodiyot

[11]Muallif ishlanmasi.

Mamlakatimiz olimlarining qarashlari va turli mushohadalari va milliy iqtisodiyotning tasnifidan kelib chiqib ushbu tuShunchaga ta’rif berish mumkin bo‘ladi. **Milliy iqtisodiyot deganda, barcha mulk shaklini, tarmoqlarni, hududlarni, sohalarni va iqtisodiyotning barcha darajasini qamrab oladigan mamlakatga tegishli bo‘lgan iqtisodiy jarayonlarni sodir etadigan turli darajadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar majmui tuhuniladi**[12]. Agar Shu ta’rifga asoslanadigan bo‘lsak, har bir mamlakat iqtisodiyoti Shu mamlakatning milliy iqtisodiyotini tashkil qiladi. Bundan xulosa, hozirgi paytda dunyoda 200 tadan ziyod davlat mavjud bo‘lsa, demak shuncha milliy iqtisodiyoti ham mavjudir.

Milliy iqtisodiyotning har bir yo‘nalishi bo‘yicha baho berish uchun ularni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Agar asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi (2.1.2-jadval).

2.1.2-jadval

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, ularning mazmuni va aniqlash yo‘llari[13]

T/r	Ko‘rsatkichlar-ning nomi	Ko‘rsatkichlarning mazmuni	Ko‘rsatkichlarni aniqlash yo‘llari
1.	**Yalpi ichki mahsulot (YAIM)**	Ishlab chiqaruvchi biron bir davlatga mansubligidan qat’i nazar, ma’lum bir vaqt ichida (odatda yiliga) ishlab chiqarilgan barcha tayyor mahsulotlarning bozor qiymati.	$ЯИМ = \sum_{i=1}^{п} яим i;$ $ЯИМ = М_1 + М_2;$
2.	**Yalpi milliy mahsulot (YAMM)**	Ma’lum bir mamlakatning milliy xo‘jalik yurituvchi subektlari tomonidan ishlab chiqarilgan	$ЯММ = М_2 + М_3;$

[12] Ta`rif bizniki.
[13] Muallif ishlanmasi.

		barcha tayyor mahsulotlarning bozor qiymati, ularning joylashgan joyidan qat'iy nazar.	
3.	**Sof ichki (yoki milliy) mahsulot SIM (SMM)**	YAIMdan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati yoki yillik amortizatsiya summasi ayirmasi.	**SIM (SMM) = YAIM - Ama;**
4.	**Milliy daromad (MD)**	Yil davomida ishlatilgan ishlab chiqarish manbalaridan egri soliqlarning ayirmasi.	**MD = SIM - BSO;**
5.	**Shaxsiy daromad (SHD)**	Individual soliqlar to'langandan keyin, uy xo'jaliklarining to'liq tasarrufida qoladigan daromad shakli.	**SHD = MD – KF – ISB + KDS + D + IT;**
6.	**Ixtiyordagida romad (ID)**	Bu shaxsiy daromadning bir qis-mini aholi o'z xohishiga ko'ra sarflashi mumkin bo'lgan aholining shaxsiy foydalanishdagi daromadi. Ixtiyordagi daromad iste'mol va tejash uchun ishlatiladi.	**ID = SHD – SHS;**

M_1- mamlakat ichidagi ishlab chiqarilgan xorijiy korxonalar mahsuloti.
M_2- mamlakat ichidagi ishlab chiqarilgan milliy korxonalar mahsuloti.
M_3- chet ellardagi milliy korxonalar mahsuloti.
Ama - amortizatsiya yillik summasi.
BSO - biznesga bilvosita soliqlar.
KF - korporativ foyda.
ISB - ijtimoiy sug'urta badallari.
KDS - korporativ daromad solig'i.
D - dividendlar.
IT - ijtimoiy transfertlar.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, makroiqtisodiy jarayonlar kabi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq ekan. Buni quyidagi hisob-kitoblarda ham ko‘rish mumkin:

YAIM hajmi ma’lum bir vaqt ichida (odatda yiliga) ishlab chiqarilgan barcha tayyor mahsulotlarning bozor qiymatini tashkil qiladi. Jadvalda keltirilishicha u bir qancha mahsulot va xizmatlar yig‘indisidan iborat. Bu quyidagicha hisoblangan edi:

$$\boldsymbol{ЯИМ = \sum_{i=1}^{n} яимi};$$

Ushbu YAIMning tarkibida sof milliy mahsulot (SMM) yoki sof ichki mahsulot (SIM) mavjud. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun YAIMdan amartizatsiya summasi (Ama) ayriladi:

SIM = YAIM –Ama;

Sof milliy mahsulot tarkibida mamlakatning milliy daromadi (MD) ham mavjud. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun SIMdan biznesga bilvosita soliqlar (BSO) ayriladi:

MD = SIM–BSO;

Navbatdagi ko‘rsatkich shaxsiy daromadlar (SHD) bo‘lib hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun mamlakatning milliy daromadidan korporativ foyda (KF), ijtimoiy sug‘urta badallari (ISB) olib tashlanib, korporativ daromad solig‘i (KDS), dividendlar (D) va ijtimoiy transfertlar (IT) qo‘shiladi. Bularning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi formulada o‘z aksini topgan:

SHD = MD –KF – ISB + KDS + D + IT;

Shaxsiy daromadning bir qismi aholining ixtiyoridagi daromadlardan (ID) iborat. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun SHDdan majburiy to‘lovlarni qo‘shgan holda shaxsiy soliqlar (SHS) chegirib tashlanadi:

ID = SHD –SHS;

Ko‘rinib turibdiki, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekan. Ushbu bog‘liqlik ushbu ko‘rsatkichlar o‘zgarishida

ham aks etadi. Birining ko‘paygani yoki kamaygani albatta ikkinchisiga ta’sir qiladi. Shu tufayli iqtisodiy jarayonlarning dialektik bog‘liqligiga baho berish uchun ham ko‘rsatkichlar tizim orqali baho beriladi.

Milliy iqtisodiyotning tarkibida, yuqorida ta’kidlanganidek, makroiqtisodiyot mavjud. Ko‘p adabiyotlarda bularning ikkalasini biroz chalkashtirgan holda bir xil tushunchalar sifatida qaraladiganlar ham bor. Milliy iqtisodiyot o‘zining darajasi bo‘yicha makroiqtisodiyot, mezoiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot turlariga bo‘linadi. Ammo ular bir-biridan farq qiladi. Mikroiqtisodiyot qaysi bir tarmoqqa daxldor bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’yekt (firma, korxona kabi) hisoblanadi. Mezoiqtisodiyot bitta soha bo‘yicha, lekin mamlakat miqyosida amal qiladi. Masalan, qishloq xo‘jaligi, ushbu soha quyidan tortib vazirlik doirasigacha yirik soha. Hammasi mezoiqtisodiyot bo‘lib hisoblanadi. Endi makroiqtisodiyotga keladigan bo‘lsak, u barcha soha va tarmoqlarni o‘zida qamrab oladi va makro darajada ish olib boradi. Shu tufayli makroiqtisodiyot boshqa iqtisodiyotlarga nisbatan ko‘lami jihatidan farq qiladi.

Bu borada ham olimlarimiz tamonidan turli fikrlar aytilgan. Jumladan, **T.Jo‘rayev** “Makroiqtisodiyot – bu milliy iqtisodiyot, uning alohida mulkiy sektorlari va jahon xo‘jaligi darajasida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini bir butun qilib birlashtirgan iqtisodiyot tuzulmasidir” , deb ta’rif beradi[14].

Sh.Sh.Shodmonov va B.E.Mamarahimovlar makroiqtisodiyotni quyidagicha izohlaydi. “Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida barcha iqtisodiyotning o‘zaro aloqa va ta’sirida harakat qiladigan sohalari, tarmoqlari, hududiy tuzulmalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy xo‘jalik tizimidir”[15] , deb keng qamravli ma’noda ta’rif berganlar. Makroiqtisodiyot iqtisodiyotning moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarini, bank, moliya, sug‘urta, soliq, bojxon tizimlarini o‘z ichiga olishi ham ta’kidlangan.

[14] Жўраев Т.Т. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2017. – 337 бет.
[15] Шодмонов Ш.Ш., Мамараҳимов Б.Э. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”нашриёти, 2016. – 261 бет.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, makroiqtisodiyotni o‘rganadigan maxsus “Makroiqtisodiyot” fani mavjud. Shu bilan bog‘liq yana “Makroiqtisodiy tahlil” va “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” kabi fanlar ham mavjud. Makroiqtisodiyot xalq xo‘jaligi faoliyati va rivojlanish tendensiyalarini, shuningdek uni tartibga solish vositalari va usullarini makroiqtisodiyot darajasida o‘rganishga qaratilgan. Ushbu fan o‘z tarkibiga makro darajadagi tarmoqlar, sohalar va makroiqtisodiyotning boshqa subyektlarini qamrab oladi. Makroiqtisodiyot iqtisodiyotning alohida bo‘g‘ini sifatida o‘ziga xos siyosatga ega.

Bularni inobatga olib, makroiqtisodiyot tuuhunchasining ham ta’rifini ishlab chiqdik. **Makroiqtisodiyot deganda, barcha mulk shaklini, tarmoqlarni, hududlarni, sohalarni va iqtisodiyotning makro darajasini o‘zida qamrab oladigan mamlakatning yaxlit iqtisodiyoti tushuniladi**[16], degan ta’rifni maqsadga muvofiq, deb topdik. Makroiqtisodiyot makroiqtisodiy siyosat orqali amalga oshiriladi.

Makroiqtisodiy siyosat - davlatning umuman iqtisodiyotga ta’sirida namoyon bo‘ladi. Makroiqtisodiy siyosatning asosiy vazifasi bozor iqtisodiyoti faoliyatining samaradorligi va ijtimoiy yo‘nalishini oshirishdan iboratdir. Ushbu muammoni hal qilish davlatning makroiqtisodiy siyosatining quyidagi asosiy maqsadlarga yo‘naltirishni nazarda tutadi.

Birinchidan, barqaror va samarali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash. Bunga erishish uchun mahsulot va xizmatlar sifatli va arzon bo‘lishligini taqozo qiladi. Shu tufayli ushbu makro darajada ham raqobat muhiti yaratilgan bo‘lishligi lozim.

Ikkinchidan, to‘liq ish bilan ta’minlash pirovard maqsadga aylangan bo‘lishi lozim. Chunki jamiyatning ravnaqi va aholining farovonligi bevosita ularning ish bilan ta’minlanganligiga bog‘liq. Iqtisodiyot shunday darajada bo‘lishi kerakki, har bir ish bilan band

[16] Мамаюнус Пардаев., Юлдуз Урунбаева “МАКРОИҚТИСОДИЙ КЎРСАТКИЧЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЗГАРИШЛАРИНИ БАҲОЛАШ ЙЎЛЛАРИ”Самарқанд: 2020. 52 бет.

bo‘lgan kishi o‘zlarining ehtiyojlarini bemalol qondiradigan bo‘lishligi lozim.

Uchinchidan, umumiy narx darajasining ham barqarorligi to‘liq ta’minlangan bo‘lishi lozim. Narxning o‘sib borishi iqtisodiyotning qaloqligidan, ijtimoiy hayotning beqarorligidan dalolat beradi. Shu tufayli mamlakatimizda erkin raqobatni kuchaytirib, narxning barqarorligiga erishish lozim.

To‘rtinchidan, ijtimoiy adolat va nogironlarning iqtisodiy xavfsizligi ham ta’minlangan bo‘lishligi lozim. Barcha muvoffaqiyatlarning, natijadorlikning omillaridan biri ijtimoiy adolatning o‘rnatilganligi bilan belgilanadi. Bejiz “Kuch - adolatda” prinsipi Amir Temur bobomizning shioriga aylanmagan. Hozirgi kunda ham mamlakatimiz prezidenti xalqni rozi qilishning yagona yo‘li sifatida barcha jabhalarda adolat prinsipiga amal qilish masalasini ustuvor vazifa sifatida belgilab bergan.

Beshinchidan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun eng avvalo, mamlakatning savdo va to‘lov balansi barqarorligini ta’minlash lozim bo‘ladi. Bunga erishishning bir yo‘nalishi savdo korxonalarining ham xufyona iqtisodiyotga yo‘l qo‘ymasdan halol ishlashini taqozo qiladi. Ushbu muammoning hal bo‘lishida to‘lov balansining ham roli katta.

Makroiqtisodiyot asosan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali tartibga solinib, boshqarilib boriladi. **Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar** deganda, makroiqtisodiyotning holati, rivojlanishi va istiqbollariga baho beradigan indikatorlar majmui tuhuniladi. Makroiqtisodiy tahlilning umumlashtirilgan qiymatlari. Agregatlar narxlarning umumiy darajasi, ish bilan bandlik darajasi, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmi, umumiy daromadlar, iste’mol va jamg‘armalarning ko‘rsatkichlari.

Deflyator deganda, bu iqtisodiy ko‘rsatkichlarni pul bilan hisoblab chiqilgan holda ularni oldingi davr narxlari darajasiga yetkazish uchun qayta hisoblash koeffisiyenti tuhuniladi.

Milliy iqtisodiyot, makroiqtisodiyot va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tadqiq qilish natijasida bir qancha xulosalarga kelindi va takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, milliy iqtisodiyotning ta’rifi olimlarimiz o‘rtasida turli qaralganligini inobatga olib, ushbu tuhunchani nazariy jihatdan tadqiq qilgan holda, uning ta’rifi takomillashtirildi va quyidagicha ifodalash tavsiya qilindi: **Milliy iqtisodiyot deganda, barcha mulk shaklini, tarmoqlarni, hududlarni, sohalarni va iqtisodiyotning barcha darajasini qamrab oladigan mamlakatga tegishli bo‘lgan iqtisodiy jarayonlarni sodir etadigan turli darajadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar majmui tushuniladi.**

Ikkinchidan, milliy iqtisodiyotni aksariyat adabiyotlarda ikkiga (makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot) bo‘lib ifoda etilgan. Biz uni uchga bo‘lingan qarashlarga qo‘shilgan holda tarkibi makroiqtisodiyot, mezoiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot guruhlarga bo‘linishini tavsiya qilmoqdamiz. Chunki ko‘lami jihatidan makroiqtisodiyotga sohasi jihatidan mikroiqtisodiyotga o‘xshaydi. Ammo ushbu iqtisodiyotni unisiga ham bunisiga ham qo‘shib bo‘lmaydi.

Uchinchidan, makroiqtisodiyot tushunchasi bo‘yicha ham olimlarimiz o‘rtasida turli qarashlar mavjud. Ayrimlari milliy iqtisodiyot bilan bir xil tushunchalar deb qaraydi. Bularni inobatga olib, makroiqtisodiyot tushunchasining ham ta’rifini ishlab chiqdik. **Makroiqtisodiyot deganda, barcha mulk shaklini, tarmoqlarni, hududlarni, sohalarni va iqtisodiyotning makro darajasini o‘zida qamrab oladigan mamlakatning yaxlit iqtisodiyoti tushuniladi,** degan ta’rif berilgan.

To‘rtinchidan, milliy iqtisodiyotning tarkibi bo‘yicha tasnifiy belgilari va tasnifi oltita belgisi: mulkchilik shakli bo‘yicha, iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha, hududiy zonalar asosida, sohalar bo‘yicha iqtisodiyotning darajasi bo‘yicha guruhlar ishlab chiqildi.

Beshinchidan, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi: yalpi ichki mahsulot (YAIM), yalpi milliy mahsuloti (YAMM), sof ichki (yoki milliy) mahsulot SIM (SMM), milliy daromad (MD), shaxsiy daromad (SHD), ixtiyordagi daromad (ID) kabilardan iboratligi asoslandi va

ularning mazmuni hamda aniqlash yo‘llari ko‘rsatib berildi. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqliklariga ham baho berildi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijasining darsliklarda va boshqa o‘quv adabiyotlarida qo‘llanilishi milliy va makroiqtisodiyot bilan bog‘liq nazariy masalalarning takomillashuviga xizmat qiladi.

2.2. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari

Makroiqtisodiy statistika va tahlilda uzoq davr mobaynida Yalpi milliy mahsulot va Yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlaridan baravar foydalanib kelindi. Har ikkala agregat ko‘rsatkich ham mamlakatdagi iqtisodiy faollik darajasini harakterlasada kapital va ishchi kuchi migratsiyasi mavjudligi sababli ular o‘zaro farq qilishadi.

Milliy mahsulot – mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmidir. Yalpi milliy mahsulot – bu o‘z mamlakati yoki xorijda joylashgan milliy korxonalar tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmining jami qiymatidir[17].

Milliy hisoblar tizimi (MHT) bu bir tomondan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tovarlarni sotib olish xarajatlari, ikkinchi tomondan ularning iqtisodiy faoliyat natijalaridan olgan daromadlarini aks ettiruvchi balansli iqtisodiy jadvallar to‘plami.

Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy maqsadi statistik hisobot ma’lumotlari asosida ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash va undan foydalanish to‘g‘risida miqdoriy ma’lumotlarni olishdir. Buning uchun har bir makroiqtisodiy subyekt va umuman milliy iqtisodiyot uchun ushbu subyektning quyidagi iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini aks ettiruvchi funksional hisoblar tizimi tuzilgan:

-tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish;

-milliy daromadlarning shakllanishi;

-milliy daromadlarni taqsimlash;

- milliy daromadni qayta taqsimlash;

[17] McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 131

-milliy daromadlardan foydalanish;

-mulkni o‘zgartirish;

- kreditlash va moliyalashtirish.

Ko‘pgina davlatlarning, shu jumladan O‘zbekistonning, jahon MHTga o‘tishda birinchi qadamlarni qo‘ygan hisoblar tizimida tabiiy resurslarni ishlab chiqarishni ko‘p hollarda fizik jihatdan hisobga oladi, bu esa ularni hozirgi me’yorlarda baholashga kiritishga imkon beradi (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkich – yalpi ichki mahsulotni (YAIM) hisoblash usullari

T/r	Makroiqti-sodiy ko‘rsat-kichlarni hisoblash yo‘nalishlari	Izohi	Aniqlanish yo‘llari (formulasi)
1.	**Xarajatlar bo‘yicha**	Yalpi milliy mahsulotni (YAMM) xarajatlar bo‘yicha hisoblashda asosan to‘rtta xarajatlar turlari (formulada keltirilgan) jamlanadi	**YAMM = S + I + G + Xn** **S** - shaxsiy iste’mol xarajatlari; **I** - yalpi xususiy investisiya; **G** - davlat xaridlari (xarajatlar); **Xn** - import va eksport o‘rtasidagi saldo
2.	**Daromadlar bo‘yicha**	Daromad bo‘yicha Yalpi ichki mahsulot (YAMM)ni daromadlar bo‘yicha hisoblash uni	**YAMM = W + R + K +P + A+T** **W** - mehnatga haq to‘lash;

		xo‘jalik yurituvchi sub’-yektlarning daromadlariga taqsimlash va daromadlarni to‘lash bilan bog‘liq bo‘lmagan (oltita ko‘rsatkich) taqsimlangan mablag‘larni shakllantirish tartibini tavsiflaydi.	**R** - ijara to‘lovlari; **K** - foiz, ya’ni. pul kapitali egalarining daromadlari; **R** - foyda; **A** - amortizatsiya; **T** - bilvosita soliqlar. **D** - mulkdan keladigan daromadlar.
3.	**Qo‘shilgan qiymat**	Bu firma tomonidan mahsulot ishlab chiqarish uchun sotib olgan materiallarning qiymatini (Ma) olib tashlangan savdo hajmi (Sh).	**Qq = Sh - Ma**

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yalpi milliy mahsulotni (YAMM) xarajatlar bo‘yicha hisoblashda asosan to‘rtta xarajatlar turlari jamlanadi. Bularga shaxsiy iste’mol xarajatlari (S), yalpi xususiy investisiya (I), davlat xaridlari (xarajatlar) (G) hamda import va eksport o‘rtasidagi saldo (Xn) kiradi. Bularning bog‘liqlik formulasi quyidagicha ifodalanadi:

YAMM = S + I + G + Xn ;

Ikkinchi yo‘nalish, yalpi ichki mahsulot (YAMM)ni daromadlar bo‘yicha hisoblash uni xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning daromadlariga taqsimlash va daromadlarni to‘lash bilan bog‘liq bo‘lmagan taqsimlangan mablag‘larni shakllantirish tartibini tavsiflaydi. Ushbu ko‘rsatkichlar guruhiga quyidagi oltita ko‘rsatkichni kiritish mumkin. Bular tarkibiga mehnatga haq to‘lash (W), ijara to‘lovlari (R), foiz, ya’ni. pul kapitali egalarining daromadlari (K), foyda (R), amortizatsiya (A), bilvosita soliqlar (T) va mulkdan keladigan

daromadlar (D) kiradi. Bularning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi formulada o‘z ifodasini topgan:

YAMM = W + R + K +P + A+T + D ;

Yalpi milliy mahsulot (YAIM)ni qo‘shilgan qiymat bo‘yicha hisoblashda har bir firma va soha tomonidan YAIMni yaratish uchun qo‘shilgan qiymat hisobga olinadi, bu holda YAMMning qiymati iqtisodiyotga qo‘shilgan qiymatdir. Buni sodda qilib tushuntiriladigan bo‘lsa, savdo hajmidan (Sh). firma tomonidan mahsulot ishlab chiqarish uchun sotib olgan materiallarning qiymati (Ma) olib tashlanadi. Bu quyidagicha aniqlanadi:

Qq = Sh – Ma ;

Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakat YAIMga tegishli baho berishda qo‘llaniladi.

2.3. YaIMni ishlab chiqarish usulida aniqlash

Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YaIM yakuniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishning turli bosqichlarida qo‘shilgan qiymatlar yig‘indisi sifatida aniqlanadi. YaIMni bu usulda aniqlash statistik jihatdan qulay bo‘lishi bilan birga uni hisoblashning muhim shartiga amal qilish, ya’ni bir qiymatni ikki bor hisobga olish, yoki oraliq mahsulot qiymatini YaIMga kiritib yuborishning oldini oladi.

Ishlab chiqarish hajmini to‘g‘ri hisoblash uchun joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati bir marta hisobga olinish kerak. Ko‘pgina mahsulotlar bozorga borguncha bir nechta ishlab chiqarish bosqichini o‘taydi. Shu sababli YaMMda ayrim mahsulotlarni ikki va undan ko‘p marta hisobga olmaslik uchun, faqat pirovard mahsulotning bozor qiymati hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar esa hisobga olinmaydi.

Yakuniy tovarlar va xizmatlar deganda ularning ishlab chiqarish, yoki ichki ayirboshlash siklidan chiqqan, yakuniy iste’mol, jamg‘arish yoki eksport uchun foydalaniladigan qismi tushuniladi.

Yakuniy tovarlar va xizmrtlarni ishlab chiqarishda sarflangan oraliq tovarlar va xizmatlar bahosi YaIMga qo‘shilmaydi..

Qo‘shilgan qiymat tovar va xizmatlarning sotish bahosi bilan ularni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan xom ashyo va materiallarni sotib olishga qilingan xarajatlar o‘rtasidagi farq ko‘rinishida aniqlanadi.

Ishlab chiqarish usulida aniqlangan YaIM ko‘rsatkichinig strukturasini va undagi siljishlarni tahlil qilish juda muhim xulosalar byeradi. Alohida tarmoqlarning mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan Yalpi qo‘shilgan qiymatdagi ulushi, bu ulushning o‘zgarishi bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va kutilayotgan istiqboliga baho berish imkonini beradi.

2.3.1-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlarining 2000-2022 yillarda yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (foizlarda)[18]

T /r	Tarmoqlar	Yillar									
		2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2015	2020	2022
1	**YAIM, jami, shu jumladan:**	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
2	**Sanoat**	14,2	21,1	21,8	24,0	22,3	23,6	26,7	25,7	27,7	25,6
3	**Qishloq xo‘jaligi**	30,1	26,3	25,1	21,7	19,4	18,2	19,8	18,3	28,8	27,1
4	**Qurilish**	6,0	4,8	5,1	5,5	5,6	5,9	6,6	7,3	6,1	6,4
5	**Xizmat ko‘rsatish**	37,0	37,0	39,5	42,5	45,3	47,2	46,9	48,7	37,4	40,9
6	**Sof soliqlar**	12,7	10,8	8,5	6,3	7,4	6,7	9,2	8,8	7,8	4,9

2.3.1-jadval ma’lumotlariga tayangan holda O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan YaIMning tarmoq bo‘yicha taribini ko‘rib chiqamiz. Respublikamizda barqaror iqtisodiy o‘sish tendensiyasiga erishilganligi va 2000 – 2022 yillar oralig’ida yalpi ichki mahsulotining yuqori ulushi xizmatlar sohasiga to‘g’ri kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishi, investitsiyalarning keng jalb qilinishi natijasida nafaqat iqtisodiy o‘sish

[18] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 1999-2022 yy ma’lumotlari bo‘yicha muallif ishlanmasi.

sur’atlarining oshishi, balki iqtisodiyot tarkibida muhim sifat o‘zgarishlarining yuz byerishi ta’minlandi.

Tarkibiy o‘zgarishlar borasidagi siyosatning izchil amalga oshirilishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti tarkibi diversifikatsiya qilindi.

2.3.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi va Samarqand viloyatida 2010-2022 yillarda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va uning aholi jon boshiga taqsimoti [19]

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston			Samarqand		
		Yillar					
		2010	2015	2022	2010	2015	2022
1	**Doimiy aholi soni (ming.k)**	29123,4	31575,4	35271,3	3270,8	3583,9	4031,3
2	**O‘tgan yilga nisbatan foiz**	104,0	101,8	102,1	101,8	101,9	102,1
3	**Yalpi ichki mahsulot (mlrd.s)**	62388,3	171808,3	896617,9	3974,4	12218,5	61627,7
4	**O‘tgan yilga nisbatan foiz**	108,5	107,9	105,7	113,6	109,6	105,1
5	**Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (mlrd.s)**	2184,3	5489,3	25151,9	1244,0	3442,4	15124,1
6	**O‘tgan yilga nisbatan foiz**	105,4	106,0	103,5	109,8	107,4	102,9

Mustaqillik yillarida sanoat tarmog‘i va xizmatlar sohasining rivojlanish salohiyati yanada kengaytirilishi natijasida YaIM tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining bosqichma-bosqich kamayishi tendensiyasi saqlanib qoldi. Shu bilan birga, YaIM tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining kamayishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ijobiy o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlari fonida sodir bo‘ldi.

[19] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 1999-2022 yy ma’lumotlari bo‘yicha muallif ishlanmasi.

Sanoat tarmog‘ini diversifikatsiyalash, modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash bo‘yicha chora-tadbirlarning qabul qilinishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmining o‘sishi va YaIM tarkibida sanoatning ulushi oshishi ta’minlandi.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti, bandlik va aholi daromadlari o‘sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish va servis sohasini isloh qilish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi natijasida, mazkur tarmoq qisqa muddat ichida iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan sektoriga aylandi.

2.4. YaIMni xarajatlar bo‘yicha hisoblash

Bu usul yakuniy foydalanish usuli deb ham yuritilib, unda YaMMni hisoblash uchun yakuniy mahsulotlarni sotib olishga qilingan barcha xarajatlar o‘zaro qo‘shib chiqiladi. Bu xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

Uy xo‘jaliklarining iste’mol xarajatlari (C):

a) uzoq muddat foydalaniladigan iste’mol buyumlari sotib olishga;

b) kundalik foydalaniladigan iste’mol buyumlari sotib olishga;

b) iste’mol xizmatlari to‘loviga.

Yalpi **ichki xususiy investitsiya xarajatlari (I):**

a) asbob-uskunalar, mashinalarni yakuniy sotib olishga;

b) korxonalar, inshootlar, turarjoy binolarini qurishga sarflangan;

b) tovar zaxiralari o‘rtasidagi farqlar yoki zaxiralarning o‘zgarishi.

T**ovar va xizmatlarning davlat haridi (G**).

Bu guruh xarajatlariga mahalliy va markaziy boshqaruv hokimiyati idoralari tomonidan korxonalarning pirovard mahsulotlari va resurslari xaridi (avtomobil yo‘llari va pochta muassasalari qurilishi, davlat korxonalarida to‘lanadigan ish haqi) xarajatlari kiritiladi. Lekin shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bu xarajatlarga davlat transfert to‘lovlari kiritilmaydi.

S**of eksport (X_p):** mamlakatning import va eksport operatsiyalari bo‘yicha xarajatlar o‘rtasidagi farq.

YaMMni xarajatlar orqali hisoblash formulasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\mathbf{YaIM = S + I + G + X_p}$$

O‘zbekiston Respublikasida yaratilgan YaIMning foydalanish (xarajatlarga ko‘ra) tarkibi tahlili (2.4.1-jadval) shuni ko‘rsatadiki uy xo‘jaliklarining iste’mol xarajatlari YaIM tarkibidagi eng salmoqli komponent ekan. Bu ko‘rsatkichning YaIMdagi ulushiga ko‘ra.

2.4.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida YAIMning yakuniy iste’mol yo‘nalishlari bo‘yicha tarkibi (2000-2022yy %)

	Yillar				
	2000	**2005**	**2010**	**2015**	**2022**
YaIM-jami	100	100	100	100	100
Yakuniy iste’mol xarajatlari	80,6	64,3	64,8	72,9	69,9
uy xo‘jaliklari	60,9	47,4	47,9	54,3	52,3
davlat boshqaruvi organlari	18,7	15,9	15,8	17,6	16,7
UXXKNT	1,0	1,0	1,1	1,0	0,9
Yalpi jamg‘arilish	19,6	28,0	25,5	26,8	27,6
asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilish	24	22,0	27,3	26,9	27,6
moddiy aylanma vositalari zaxirasining o‘zgarishi (statistik tafovutni qo‘shgan holda)	-4.4	6.0	-1.8	-0.1	1.5
Tovar va xizmatlar eksport-importi saldosi	-0.2	7.7	9.7	0.3	2.5
Eksport	26,5	37,9	33,1	18,8	28,9
Import	26,7	30,2	23,4	18,5	26,4

YaIM iste’moli tarkibida asosiy ulush yakuniy iste’mol xarajatlariga hissasiga to‘g‘ri keladi. Yakuniy iste’mol xarajatlarida asosiy ulush uy xo‘jaliklari xarajatlari hissasiga to‘g‘ri keladi va ularning salmog‘i kengaygan.

Yalpi jamg‘arilish asosiy fondlar va moddiy aylanma vositalari o‘sishini ifodalaydi. 2000-2022 yillarda yalpi jamg‘arilishning ulushi barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega.

Yalpi jamg‘arilishning asosiy ulushini asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi tashkil qilib, iqtisodiyotda investitsion faollikni ifodalaydi. 2000-2022 yillarda asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi ko‘rsatkichining YaIM dagi ulushi ham usuvchi.

Kuzatilayotgan davr mobaynida tovarlar va xizmatlar sof eksportining YaIM dagi ulushi o‘rtacha 2,3 % ni tashkil qildi.

2.5. YaIMni daromadlar bo‘yicha hisoblash

YaIMni daromadlar bo‘yicha aniqlashda yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida rezident-ishlab chiqarish birliklari tomonidan, qo‘shilgan qiymatlar hisobidan, to‘langan dastlabki daromadlar qo‘shib chiqiladi.

YaMMni daromadlari yig‘indisi ko‘rinishida hisoblashda asosan quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

-sof bilvostia soliqlar (T_n) – bilvosita soliqlar(qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, bojxona bojlari) va subsidiyalar hajmlari o‘rtasidagi farq;

- **yollanma ishchilarning ish haqlari (W) -** xususiy va davlat kompaniyalarining yollanma ishchilarga hisoblagan barcha turdagi mehnat haqi to‘lovlarining nominal miqdori plus ish beruvchilar tomonidan ish haqi fondiga nisbatan hisoblanib to‘lanadigan ijtimoiy sug‘urta ajratmalari. O‘zbekiston Respublikasida bu ajratma normasi 2022 yilda ish haqi fondiga nisbatan 28% bo‘lgan bo‘lsa. 2023 yildan boshlab 20 % qilib belgilandi

- **Korporatsiyalarning yalpi foydasi + nokorporativ korxonalar daromadi (R).**

Nokorporativ korxonalar- kichik hajmdagi, uy xo‘jaliklariga tegishli korxonalar bo‘lib ularda korxona foydasi va korxona egasining ish haqi elementlari o‘zaro qo‘shilib ketgan bo‘ladi. Bu holat aralash daromad atamasini qo‘llashga sabab bo‘ladi.

R= Korporatsiyalarning sof foydasi **(R_1)** + nokorporativ korxonalar sof daromadlari**(R_2)** +amortizatsiya **(A);**

YaIMni daromadlar ko‘rinishida yalpi qo‘shilgan qiymatni ko‘rsatilgan uch guruhga bo‘lib topish mumkin:

YaIM = T_n + W+R

Olingan dastlabki daromadlar qayta taqsimlanishi natijasida dividend, renta, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardan olingan reinvestitsiya ko‘rinishidagi daromadlar paydo bo‘ladi.

Shuningdek, YaIMni daromadlar ko‘rinishida aniqlashda, iqtisodiy nazariyada, daromadlarni quyidagi komponentlarga bo‘lish ko‘zda tutiladi:

-amortizatsiya (A);

- bilvostia soliqlar (T);

-yollanma ishchilarning ish haqlari (W);

- ijara haqi to‘lovi va renta ko‘rinishidagi daromadlar(R_1);

- kapital uchun olingan foiz daromadlari (R_2);

-mulkdan keladigan daromad (nokorporativ korxonalar daromadi) (R_1);

-korporatsiya foydasi (R_2).

Korporatsiyalar foydasi o‘z navbatida quyidagilarga bo‘linadi:

a) korporatsiyasi foydasidan to‘lanadigan soliqlar ($R_{1.1}$);

b) hissadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan dividendlar($R_{1.2}$);

b) korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi($R_{1.3}$).

Keltirilgan yondashuvga ko‘ra:

YaIM (Y) = A + T + W + R_1 + R_2 + R_1 + R_2

Xarajatlar va daromadlar ko‘rinishida hisoblab topilgan YaIM hajmi o‘zaro mos keladi. Chunki milliy iqtisodiyot doirasida bir sub’yekt tomonidan qilingan har qanday xarajat ikkinchi sub’yekt uchun daromad bo‘lib tushadi.

2.6. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko‘rsatkichlar va ular o‘rtasidagi nisbat

Milliy hisobchilik tizimiga ko‘ra milliy iqtisodiyot rivojlanishini tahlil etish uchun YaIM ko‘rsatkichidan boshqa yana bir qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Bu ko‘rsatkichlar jumlasiga Yalpi milliy daromad (YaMD) ko‘rsatkichi ham kiradi. Bu ko‘rsatkich MHTning oldingi ko‘rinishida hisoblangan Yalpi milliy mahsulot (YaMM) ko‘rsatkichi bilan mohiyatan bir xil.

YaMD - mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtirok etish va mulkdan olgan boshlang‘ich daromadlari yig‘indisidir.

YaIM va YaMD ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farqni quyidagi formula ko‘rinishida tasavvur etish mumkin:

YaMD = YaIM + mamlakat rezidentlaroi tomonidan xorijdan olingan daromadlari - norezidentlarning mamlakatdan xorijga jo‘natgan daromadlari.

YAIMva YAMD ning prinsipal farqlari shundaki ulardan birinchisi mamlakat rezidentlri tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlar oqimini o‘lchasa, ikkinchisi ular olgan boshlang‘ich daromadlarni o‘lchaydi.

Sof ichki mahsulot (SIM) va **Sof milliy daromad (SMD**) ko‘rsatkichlari YaIM va YaMD ko‘rsatkichlaridan amortizatsiya (iste’mol qilingan asosiy kapital) summasi miqdoriga farq qiladi.

SIM = YaIM - A

SMD = YaMD - A

Makroiqtisodiy tahlilda shuningdek MHTga kirmagan Shaxsiy daromad **(SHD)** ko‘rsatkichi ham qo‘llaniladi.

SHD = SMD –[ISA (Ijtimoiy sug‘urta ajratmalari) + T (bilvosita soliqlar) + ($R_{1.1}$) korporatsiya foydasiga soliqlar) + $R_{1.3}$ (Korporatsiya-larning taqsimlanmagan foydasi + biznesning foiz daromadlari] + transfert to‘lovlari (TR) + foizlar ko‘rinishida olingan shaxsiy daromad

Foizlar ko‘rinishida aholi olgan daromadga davlat qarzlari bo‘yicha olingan foiz daromadlari ham kiritiladi.

Shaxsiy daromaddan aholi to‘laydigan daromad solig‘i, mulk solig‘i va ayrim nosoliq to‘lovlarini ayirib tashlab **shaxsiy tasarrufdagi daromad (SHTD)** ko‘rsatkichi topiladi.

SHTD uy xo‘jaliklari tomonidan **iste’mol (C)** va **jamg‘arish (C)** uchun ishlatiladi.

SHTD =C + S

Makroiqtisodiy tahlilda uy xo‘jaliklarining SHTD va Yalpi milliy tasarrufdagi daromad (YAMTD) ko‘rsatkichlari o‘zaro farqlanadi.

YaMTD= YaMD + Xorijdan olingan sof transfertlar

Xorijdan olingan sof transfertlar = Mamlakat tashqarisidan olingan transfertlar – Mamlakatdan tashqariga berilgan transfertlar)

Yalpi milliy tasarrufidagi daromad yakuniy iste’mol va milliy jamg‘arish uchun ishlatiladi.

YaMTD= Yakuniy iste’mol + Milliy jamg‘armalar

Yakuniy iste’mol uy xo‘jaliklarining iste’mol xarajatlaridan tashqari hukumatning iste’molga xarajatlarini ham o‘z ichiga oladi.

2.7. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar

Milliy iqtisodiyot rivojlanishi jarayonlarida turli makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida ma’lum proporsiyalar yoki tenglik ta’minlanishi lozim. Proporsiya atamasi aynan tenglikni bildirmasdan bir butunga nisbatan uning bo‘laklarining nisbatini, yoki Shu bo‘laklar o‘rtasidagi nisbatni bildiradi. Bunga mavzuimizning YaMTD ning yakuniy iste’mol va milliy jamg‘arishga bo‘linishini misol qilib keltirish mumkin.

Odatda YaMTD hajmida yakuniy iste’mol hajmi yuqori bo‘ladi. Ammo mavzuning 4-savolida Xitoy Xalq Respublikasi misolida ko‘rdikki milliy jamg‘armalarning ulushi ham yuqori bo‘lishi mumkin ekan. Demak yakuniy iste’mol va milliy jamg‘armalarning YaMTD dagi ulushi 3:1 proporsiyada ham, 2:1 proporsiyada ham bo‘lishi mumkin ekan

Shu bilan birga iqtisodiyotda muvozanat bo‘lishi uchun ayrim ko‘rsatkichlarning aynan teng bo‘lishi talab etiladi. **Turli makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, yoki ko‘rsatkichlar guruhlari o‘rtasidagi mavjud bo‘ladigan, yoki mavjud bo‘lishi iqtisodiy qonuniyat hisoblagan o‘zaro tenglikka makroiqtisodiy ayniyat deyiladi.**

Xarajatlar va daromadlar ko‘rinishida hisoblangan YAIM ko‘rsatkichlarining o‘zaro tengligi asosiy makroiqtisodiy ayniyat hisoblanadi.

$$\mathbf{Y= C+ I + G + X_n}$$

Ikkinchi bir makroiqtisodiy ayniyat investitsiyalar va jamg‘armalar o‘rtasidagi tenglik hisoblanadi.

Investitsiyalar miqdori mamlakatdagi jamg‘armalar miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Bu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi tenglikka yerishish makroiqtisodiy barqarorlikka yerishishning muhim shartidir.

Agarda, milliy iqtisodiyot tashqi dunyo bilan hech qanday aloqaga ega emas (**Xn** = 0) va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi nolga teng (G=O), deb faraz qilinsa, unda YaIM orqali ifodalangan ishlab chiqarish hajmi SHTD ga teng bo‘ladi. Ya’ni:

$$\mathbf{YaIM = SHTD = S + S,}$$

ayni paytda:

$$\mathbf{YaIM = S + I}$$

Bu yerda makroiqtisodiy ayniyat quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\mathbf{S + I = S + S \ \ yoki \ \ I = S}$$

Ushbu ayniyatdan ko‘rinib turibdiki, uy xo‘jaliklarining jamg‘arishga bo‘lgan istaklari tadbirkorlikning qancha miqdorda investitsiyalash xohishlariga mos tushsa, unda daromadlar hajmi (SQC) va yalpi xarajatlar (SQI) hajmiga tengligiga yoki ishlab chiqarishning muvozanat darajasiga yerishish mumkin.

Aytaylik, mamlakat iqtisodiyoti ochiq, ya’ni eksport-import aloqalari yo‘lga qo‘yilgan, soliq solish va transfert to‘lovlari ko‘rinishida davlat aralashuvi mavjud bo‘lsin. Bunday holatda jamg‘arish tushunchasi murakkablashib, quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\mathbf{S = S_p + S_d + S_x}$$

Bu yerda: S_p - xususiy jamg‘armalar;

S_d - davlat jamg‘armalari;

S_x - boshqa mamlakatlar jamg‘armalari.

Bunda xususiy jamg‘armalar daromadlar (U), transfert to‘lovlari (TR), davlat zayomlari bo‘yicha foizlar yig‘indisidan (N) soliqlar (T) va iste’mol (C) xarajatlari yig‘indisini ayirish natijasiga teng bo‘ladi.

$$\mathbf{S_p = (U + TR + N - T) – C}$$

Davlat jag‘marmalari quyidagi miqdorga teng bo‘ladi:

$$\mathbf{S_g = (T - TR - N) – G}$$

Agar davlat jamg‘armalari nolga teng bo‘lsa, davlat byudjeti muvozanatlashgan, jamg‘arishning manfiy miqdori byudjet taqchilligini (BT) bildiradi:

$$\mathbf{BT = - S_g}$$

Bu yerda: BT – byudjet taqchilligi miqdori.

Boshqa mamlakatlarning jamg‘armalari tashqi dunyoning bizning importimiz hisobiga olgan daromadlaridan ularning bizning eksportimizga sarflangan harajatlarini ayirib topiladi.

$$\mathbf{Sxq=M – X} \text{ yoki } \mathbf{S_x = - X_n}$$

Agar mamlakat eksportiga nisbatan ko‘proq import qilsa, unda daromadlarning bir qismi xorijda qoladi va keyinchalik undan xorijiy

sheriklar tomonidan mamlakatimizda ko‘chmas mulk va moliyaviy aktiv sotib olishda foydalaniladi.

Har qanday holatda ham barcha turdagi jamg‘armalarning umumiy yig‘indisi investitsiyalarga teng bo‘ladi:

$$S_p = S_d + S_x = (U + TR + N - T) - C + (T - TR - N)) - G + (-X_n)$$

yoki

$$S_p + S_d + S_x = U - C - G - X_n$$

$$S = C + I + G - X_n - C - G - X_n$$

$$S = I$$

Demak, iqtisodiyotdagi investitsiya xarajatlari nafaqat ichki jamg‘armalar hisobiga, balki tashqi dunyo jamg‘armalari hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Mamlakatda investorlarga kafolatlangan yuqori foyda olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar xorijiy investorlar oqimining o‘sishiga olib keluvchi muhim shartlardan biridir.

Keynschilar fikriga ko‘ra, **S= I** ayniyatga bozor mexanizmlari vositasida tasodifan yerishiladi, xolos. Chunki investorlar va jamg‘aruvchilarnnig rejalari o‘zaro mos kelavermaydi. Shu tufayli davlat to‘g‘ri iqtisodiy siyosat yurgizib makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashi shart.

2.8. Nominal va real YaIM

Iqtisodiyotda mavjud bo‘lgan inflyasiya jarayonlari YaIMni hisoblashni qiyinlashtiradi. Bu ko‘rsatkich dinamikasi bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdor va baho darajalarining o‘zgarishini ifodalaydi. Bu shuni bildiradiki, YaIM miqdoriga bir vaqtning o‘zida ham ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning fizik hajmi, ham baho darajasi o‘zgarishi ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiyotda doimiy inflyasiya jarayonining mavjudligi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni taqqoslama baholarda hisoblashni zarur etib qo‘yadi. Chunki, inflyasiya iqtisodiyotning real holatini buzib ko‘rsatadi. Iqtisodiyotni tahlil qilish, muammolarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bu vazifani bajarish

uchun joriy baholarda hisoblangan nominal ko‘rsatkichlardan emas, balki taqqoslama (bazis) baholarda hisoblangan real ko‘rsatkichlardan foydalanish zarur. Ayrim yagona firmadan farqli o‘laroq milliy iqtisodiyotda juda ko‘p sonli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi sababli ularning barchasini bir varakayiga taqqoslama baholarda hisoblash qiyin. Shu tufayli YaIM tarkibida katta ulushni tashkil etgan eng muhim tovarlar va xizmatlar bahosining o‘zgarishi koeffitsienti (baholar indeksi) hisoblab topilib olingan natija butun milliy iqtisodiyot uchun tadbiq etiladi.

Baholar indeksini yoki inflatsiya darajasini hisoblash uchun:

- deflyator (Paashe indeksi);
- iste’mol narxlari indeksi (Laspeyres indeksi);
- sanoat ishlab chiqarish baholari indekslari hisoblanishi lozim.

Deflyator ko‘rsatkichi quyidagi formula bilan hisoblaganadi:

$$\textbf{Deflyator} = \; = \frac{\sum Q^{i}_{1} P^{i}_{0}}{\sum Q^{i}_{1} P^{i}_{0}} * 100$$

Bu yerda: i – deflyatorni hisoblash uchun bozor savatiga kiritilgan tovarlar soni;

Q^{i}_{1} – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan i – tovar yoki xizmatlar hajmi miqdori (Masalan 2 kg shakar, 2 dona ko‘ylak va h.k);

P^{i}_{1} – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan i — mahsulotning Shu yilga bahosi;

P^{i}_{0} – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan i – mahsulotning bazis yildagi bahosi.

Deflyatorni hisoblash shartlari:

- odatda o‘tgan yilga nisbatan hisoblanadi;
- bozor savati joriy yilda aniqlanib keyingi yillarda o‘zgartirilishi mumkin;
- bozor savatiga ham iste’mol ishlab chiqarish harakteridagi tovarlar va xizmatlar kiritiladi;

- bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlar turlarining umumiy YaIM dagi ulushi katta qismini tashkil qilishi kerak;

- bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlar hajmlari o‘rtasidagi nisbat ularning YaIM dagi ulushlari o‘rtasidagi nisbatga mos kelishi kerak.

$$\text{Real YaIM} = \frac{\text{Nominal YaMM}}{\text{Deflyator}} \cdot 100$$

Iste’mol narxlari indeksi quyidagicha aniqlanadi:

$$INI = \frac{\sum Q^i_0 P^i_1}{\sum Q^i_0 P^i_0} \cdot 100$$

Bu yerda:

Q^i_0 – bazis yilda bozor savatiga kiritilgan i – tovar va xizmatlar hajmi;

P^i_1 – i – tovarning joriy yildagi bahosi;

P^i_0 – i – tovarning bazis yildagi hajmi.

Iste’mol narxlari indeksi hisoblashning shartlari;

- bozor savati bazis yil uchun aniqlanadi va bir necha yil davomida o‘zgarmaydi;

- bozor savatiga faqat iste’mol harakteridagi tovarlar va xizmatlar kiritiladi;

- bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlarning hajmi iste’mol xarajatlarining katta qismini tashkil etishi kerak.

INI ko‘rsatkichining kamchiligi shundaki bozor savati tarkibi o‘zgarmas bo‘lganligi tufayli aholi iste’moli tarkibida tovarlar va xizmatlar ulushining o‘zgarganligini, shuningdek tovarlar va xizmatlar sifatida ro‘y byergan o‘zgarishlarni hisobga olish imkonini bermaydi. Shu sababli bu indeks baholar darajasini biroz oshirib ko‘rsatadi.

YaIM deflyatori esa bozor savatiga joriy yida kiritilmay qolgan tovarlar baholarining oshishini hisobga olish imkonini bermasligi tufayli baholar darajasini biroz pasaytirib ko‘rsatadi. Shu sababli bu ikki indeksning o‘rtacha darajasini harakterlovchi Fisher indeksi hisoblanadi:

$$If = \sqrt{Idef * Iini}$$

Sanoat ishlab chiqaruvchilar baho indeksi iste’mol narxlari indeksi singari hisoblanadi. Lekin bozor savatiga sanoat mahsulotlarigina kiritilib ular ulgurji baholarda hisoblanadi.

2.8.1-jadval

Oxirgi 10 yillikda (2000-2022yillar) YaIM deflyatori indeksi dinamikasi, o‘tgan yilga nisbatan % da

	Yillar								
	2000	**2009**	**2010**	**2011**	**2012**	**2013**	**2014**	**2016**	**2022**
YaIM deflyatori indeksi	126,8	117,3	116,5	116,6	115	114,3	109,2	109,6	120,8

O‘zbekistonda 2000-2022 yillar uchun YaIM deflyatori indeksi 126,8 % dan 109,6 % gacha kamaydi. 2022 yilda YaIM deflyatori indeksining nisbatan yuqori darajasi (120,8 %) qayd etildi, bu esa asosan, 2022 yil sentyabr oyida valyuta bozorini liberallashtirish va milliy valyutaning devalvatsiyasi bilan bog‘liqdir.

Qisqacha xulosalar

Mamlakatning makroiqtisodiy holati ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Makroiqtisodiy tahlilda YaIM, YaMD, SIM, SMD, SHD, SHTD, YaMTD, S ,S, INI, YaIM deflyatori kabi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

YaIM - mamlakat rezidentlari tomonidan ma’lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarininng umumiy yig‘indisidan iborat.

YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish, yakuniy iste’mol va taqsimot usulari mavjud bo‘lib, ulardan dastlabki ikki turi keng qo‘llaniladi.

YaIMni hisoblashda bir qiymatni ikki qayta hisoblashga yo‘l qo‘ymaslik uchun uni qo‘shilgan qiymatlar yig‘indisi ko‘rinishida hisoblanadi. Bu usul YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli deyiladi.

YaIMni xarajatlar ko‘rinishida to‘rt guruhdagi xarajatlar - iste’mol, investitsiya, davlat xaridi va sof eksport xarajatlari yig‘indisi orqali hisoblanadi.

Har uchala usulda hisoblangan YaIM ko‘rsatkichi hajmi statistik xatolar istisno etilganda o‘zaro teng bo‘ladi.

Milliy hisobchilik tizimining barcha ko‘rsatkichlarini hisoblashning uslubiy bazasi bitta bo‘lgani uchun ularni o‘zaro taqqoslash imkoni mavjud.

Makroiqtisodiy tahlilda YaIM ko‘rsatkichi bilan birga YaMD ko‘rsatkichidan ham foydalaniladi. YaMD - mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtirok etish va mulkdan olgan boshlang‘ich daromadlari yig‘indisidir.

Soddalik uchun YaIM yalpi ishlab chiqarish, YaMD esa yalpi daromad deb ham yuritiladi.

Nominal YaIM yakuniy tovarlar va xizmatlar hajmini joriy narxlarda, real YaIM esa doimiy narxlarda baholaydi. Shunday qilib, real YaMM hajmi faqatgina ishlab chiqarish hajmi o‘sishi bilan oshadi, nominal YaMM esa tovar va xizmatlar baho darajasining o‘sishi natijasida ham oshishi mumkin. Milliy ishlab chiqarish va daromad hajmining real o‘zgarishini aniqlash uchun baholar indekslaridan: YaIM deflyatori va INI ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilish uchun foydalaniladigan ko‘rsatkichlardan qaysilari makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi?
2. Qo‘shilgan qiymat, yakuniy mahsulot, oraliq mahsulot ko‘rsatkichlarini tavsiflab byering.
3. Nima uchun YaIM ko‘rsatkichini qayta hisoblashdan ehtiyot bo‘lish zarur va bunga qanday yerishiladi?
4. YaIMni xarajatlar bo‘yicha hisoblashda qo‘llaniladigan komponentlar tarkibini sanab o‘ting.
5. O‘zbekiston Respublikasida YaIMning ishlab chiqarish strukturasiga tahliliy sharh bering.
5. YaIMni taqsimot usulida aniqlashda MHTning yangi talqinida keltirilgan hamda iqtisodiy adabiyotlarda qo‘llab kelinayotgan uslublardagi farqlarni tushuntirib bering.
6. YaMD ko‘rsatkichi qanday hisoblanadi va YaIM ko‘rsatkichidan nimasi bilan farq qiladi?
7. SHD, SHTD, YaMTD ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik va farqlar nimada?
8. Baholar indekslarini va real YaIM ni hisoblash zaruratini asoslab bering?
9. YaIM deflyatori va iste’mol narxlari indeksi ko‘rsatkichlarining farqlarini izohlang.

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Umumiy makroiqtisodiy vaziyatga baho berishda qaysi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi ?

A) davlat byudjeti taqchilligi va inflatsiya surati

B) YaIM ,YaMD ,SIM

C) mamlakat eksporti va importi hajmi

D) iqtisodiyotning tarkibiy tuzulishi va iste’mol baholari indeksi

2. Milliy ishlab chiqarishning parametrlarini va dinamikasini tahlil etishda foydalaniladigan ko‘rsatkichlar qaysilar?

A) davlat byudjeti taqchilligi

B) ishsizlik darajasi va ishsizlar soni

C) YaIM, SIM, YAMD, SMD, SHD

D) iste'mol hajmi va iste'mol baholari indeksi

3. YaIM, YaMD, SIM, SMD kabi ko'rsatkichlar iqtisodiyotning barcha sub'yektlari faoliyatlari natijasi sifatida aniqlanib, ularni hisoblashning asosini nima tashkil etadi?

A) buxgalteriya hisobi

B) milliy hisobchilik tizimi

C) statistika hisobi

D) moliyaviy hisobotlar

4. …… – mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmidir?

A) yalpi milliy mahsulot

B) qo'shilgan qiymat

C) yalpi ichki mahsulot

D) milliy mahsulot

5. Yalpi ichki mahsulotni hisoblashda nimadan foydalaniladi?

A) milliy hisoblar tizimidan

B) buxgalteriya hisobidan

C) iqtisoddan

D) moliyaviy instrumentlardan

6. MHT BMT tomonidan e'lon qilingan «Milliy hisoblar va yordamchi jadvallar tizimi» nomli hujjat asosida halqaro statistikada standart tizim sifatida nechanchi yildan boshlab qo'llanila boshladi ?

A) 1960

B) 1948

C) 1953

D) 1955

7. YAIM necha xil usul bilan hisoblanadi ?

A) 4

B) 3

C) 2

D)5

8. YaIMni xarajatlar orqali hisoblash formulasini toping?

A) YaIM = S + I

B) YaIM = A + T + W + R1 + R2 + R1 + R2

C) YaIM = Tn + W+R

D) YaIM = S + I + G + Xp

9. YaIMni daromadlar usulida hisoblash formulasini toping?

A) YaIM = S + I + G + Xp

B) YaIM = Tn + W+R

C) YaIM (Y) = A + T + W + R1 + R2 + R1 + R2

D) YaIM = SHTD+ S + S

10. YaIM necha xil bo‘ladi?

A) 2

B) 3

C) 1

D) 4

III bob. IQTISODIY TEBRANISHLAR. ISHSIZLIK

3.1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tarixini o‘rganish, ulardan hech biri uzoq muddatda bir tekis rivojlanmaganligi, aksincha, barcha malakatlar uchun davriy rivojlanish xos ekanligini ko‘rsatadi**.**

Iqtisodiy davr deganda, odatda iqtisodiyot rivojlanishining bir holatidan boshlanib, birin ketin bir necha fazalarni bosib o‘tib, o‘zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o‘tgan davr tushuniladi[20]**.**. Ayrim iqtisodiy davrlar boshqalaridan o‘tish davrining davomiyligi va faolligi bilan farq qiladi. Shunga qaramasdan ularning barchasi bir xil bosqichlardan tashkil topadi (3.1.1-chizma).



3.1.1 -chizma. Iqtisodiyotning davriy rivojlanishi

Iqtisodiy davrlar to‘rtta bosqichni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqich iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori darajasiga yerishilgan bosqich bo‘lib, u «**cho‘qqi**» deb yuritiladi. Bu iqtisodiyotda ish bilan to‘liq bandlik, ishlab chiqarish to‘la quvvatda ishlayotganligi, shuningdek, mahsulotlarning baho darajasining o‘sish holati kuzatiladi.

Keyingi bosqich **pasayish (retsessiya)** bosqichidir. Bunda ishlab chiqarish va bandlik darajalari kamayadi, ammo bahoning o‘sish darajasi pasaymaydi. Bu bosqich faol va uzoq davom etsagina bahoning o‘sish

[20] McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 157

darajasi sustlashishi mumkin. **Pasayishning quyi** nuqtasida ishlab chiqarish va bandlik eng quyi darajaga tushadi va turg‘unlik davri boshlanadi.

Ko‘tarilish bosqichida ishlab chiqarish va bandlik darajasi asta-sekin oshib, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish va to‘liq bandlik darajasiga yerishiladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, iqtisodiy davrlar bir xil bosqichlarga ega bo‘lsada, ammo ular davomiyligi va faolligiga ko‘ra o‘zaro farq qilib turadi. Shuning uchun ham iqtisodchilar, bu jarayonlarni iqtisodiy davrlar deb emas, balki iqtisodiy tebranishlar deb atash to‘g‘ri bo‘ladi deb hisoblashadi. Iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi sifatida iqtisodichilar uch omilni ko‘rsatadi.

Birinchi guruh olimlar iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi texnika va texnologiyalarda ro‘y beradigan o‘zgarishlar deb hisoblaydilar. Ularning fikricha fan-texnika yutuqlarini qo‘llash natijasida iqtisodiyotda o‘sish ro‘y beradi. Masalan avtomobilning yaratilishi yoqilg‘i sanoati, neft qazib chiqarish, ximiya, yo‘l qurilishi materiallari sanoatlarining jadal rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish unumdorligini bir necha baravar oshirish, ilgari foydalanilmagan resurslarni ishga tushirish imkonini beradi. Texnik va texnologik yangiliklar doim ham yaratilavermasligi iqtisodiyotdagi tebranishlarga sabab bo‘ladi.

Olimlarning yana bir guruhi iqtisodiy bosqichlarni siyosiy va tasodifiy vaziyatlarga bog‘lashadi.

Bu jarayonni monetar siyosatga bog‘laydigan olimlar ham mavjud. ya’ni, davlat qanchalik ko‘p pul bosib chiqarsa, uning qadri shunchalik kamayib boradi, va aksincha, pul miqdori qanchalik kam bo‘lsa, ishlab chiqarish ko‘lamining pasayishi va ishsizlar sonining ortishi shunchalik tezlashadi. Xullas, iqtisodiy bosqichlarni baholashga turli xil yondashuvlar mavjud. Ammo barcha iqtisodchilar, ishlab chiqarish va bandlilik darajalarini Yalpi talab va boshqacha aytganda Yalpi xarajatlar miqdoriga bog‘liq, degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydilar. Chunki, korxonalar o‘z tovar va xizmatlarini ularga talab bo‘lsagina ishlab chiqaradi. Boshqacha aytganda, talab katta bo‘lmasa, korxonalarda tovar

va xizmatlarni katta miqdorda ishlab chiqarish foydali emas. O‘z navbatida, ishlab chiqarishda bandlilik va daromadlar darajasi ham, aynan shu sababli, past bo‘ladi. Yalpi xarajatlar miqdori qanchalik ko‘p bo‘lsa, ishlab chiqarishning o‘sishi katta foyda olib keladi. Shuning uchun ishlab chiqarish, bandlilik va daromadlar darajasi ortib boradi. Iqtisodiy tebranishlar sabablarini, ularga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish, iqtisodiy tebranishlar amplitudasini qisqartirish barcha hukumatlar makroiqtisodiy siyosatining muhim maqsadlaridan biridir.

3.1.1- jadval

Sikllarning asosiy turlari

Sikl turlari	Siklning davomiyligi	Asosiy xususiyatlari
Kitchin sikli	2–4 yil	Zaxiralar miqdori → YaMM, inflatsiya, bandlikning tebranishi, tijorat sikllari
Juglar sikli	7–12 yil	Investitsion sikl → YaMM, inflatsiya va bandlikning tebranishi
Kuznets sikli	16-25 yil	Daromad → immigratsiya → uy-joy qurilishi → yalpi talab → daromad
Kondratev sikli	40-60 yil	Texnika taraqqiyoti, tarkibiy o‘zgarishlar
Forrestyer sikli	200 yil	Energiya va materiallar
Tofflyer sikli	1000-2000 yil	Sivilizatsiyalarning rivojlanishi

Kitchin sikli zaxiralar sikli deb ham nomlanadi. Bunda Jozef Kitchin (1926 y.) o‘zining e’tiborini tovar zaxiralarining harakat chog‘idagi moliyaviy hisoblar va sotish narxlarini tahlil qilish asosida 2 yildan 4 yilgacha davr davomidagi qisqa to‘lqinlarni tadqiq qilishga qaratadi. Ayniqsa, u siklning davomiyligini jahondagi oltin zaxiralarining tebranishlari bilan bog‘lab, uni 3 yilu 4 oyga teng, deb

hisoblaydi. Biroq qisqa muddatli sikllar sabablarining bunday izohi bugungi kunda ko‘pchilik iqtisodchilarni qoniqtirmaydi.

Juglar sikli «biznes-sikl», «sanoat sikli», «o‘rtacha sikl» va «katta sikl» kabi nomlar bilan ham ataladi. Oldingi davrlarda iqtisodiy fan 7-12 yillik sikllarni ajratib ko‘rsatganligi tufayli, aynan Shu sikl Fransiya, Angliya va AQSHda foiz stavkalari va narxdagi tebranishlarni asosiy tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan Klement Juglar (1819-1905 yy.) nomi bilan ataladi.

Birinchi sanoat sikli 1825 yili Angliyada metallurgiya va boshqa etakchi tarmoqlarda mashinali ishlab chiqarish hukmron mavqeni egallagan davrda kuzatiladi. 1836 yildagi inqiroz dastlab Angliyada boshlanib, keyin AQSHga ham tarqaladi, 1847-1848 yillarda AQSH va qator Yevropa davlatlarida boshlangan inqiroz tub mohiyatiga ko‘ra birinchi jahon sanoat inqirozi bo‘lgan.

Agar XIX asrda sanoat sikli 10-12 yilni tashkil qilgan bo‘lsa, XX asrda uning davomiyligi 7-9 yil va undan ham kam davrgacha qisqargan.

AQSH va Yevropaning rivojlangan davlatlari XX asrda 12 ta sanoat siklini boshdan kechirgan bo‘lib, ulardan yettitasi ikkinchi jahon urushidan keyin ro‘y bergan.

Kuznets sikli ko‘p hollarda «qurilish sikli» deb ham nomlanib, 20 yilgacha bo‘lgan iqtisodiy tebranishlar bilan aniqlanadi. Saymon Kuznets o‘zining «Milliy daromad» (1946 y.) nomli kitobida milliy daromad, iste’mol sarflari, ishlab chiqarish maqsadidagi uskunalar hamda bino va inshootlarga Yalpi investitsiyalar ko‘rsatkichlarida 20 yillik o‘zaro bog‘liq tebranishlar mavjud bo‘lishini ko‘rsatib byergan. 1955 yilda amerikalik iqtisodchining xizmatlarini tan olish ramzi sifatida sanoat siklini Kuznets sikli deb nomlashga qaror qilinadi.

Kondratev sikli «uzoq to‘lqinlar» sikli deb ham ataladi. Sikllilikning bu nazariyasini ishlab chiqishga rus olimi N.D.Kondratev katta hissa qo‘shgan. Uning tadqiqoti Angliya, Fransiya va AQSHning 100-150 yil davomidagi rivojlanishini qamrab olgan. Bunda u iqtisodiy o‘sishning ko‘p omilli tahlilini o‘tkazib, ya’ni tovar narxlari kapital uchun foiz, nominal ish haqi, tashqi savdo aylanmasi kabi

makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘rtacha darajasini umumlashtirish natijasida bir qator katta sikllarni ajratib ko‘rsatadi.

I-sikl: 1787-1814 yillar – ko‘taruvchi to‘lqin; 1814-1851 yillar – pasaytiruvchi to‘lqin.

II-sikl: 1844-1851 yillar – ko‘taruvchi to‘lqin; 1870-1896 yillar – pasaytiruvchi to‘lqin.

III-sikl: 1896-1920 yillar – ko‘taruvchi to‘lqin.

Kondratev siklining davomiyligi o‘rtacha 40-60 yilni tashkil qiladi va uning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirishi hisoblanadi. Kondratev birinchi katta siklning yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolyutsiyasi, ikkinchisini – temir yo‘l transportining rivojlanishi, uchinchisini – elektr energiyasi, telefon va radioning kashf etilishi, to‘rtinchisini – avtomobil sanoatining rivojlanishi bilan bog‘laydi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari beshinchi siklni elektronika, gen injenerligi va mikroprotsessorlar rivojlanishi taqozo qilishini ko‘rsatadi.

3.2. Mehnat bozori, ishsizlik tushunchasi, ishsizlikning turlari, o‘lchanishi va to‘la bandlik

Mamlakat iqtisodiyotida YaMM yoki YaIMni yaratishda qatnashadigan iqtisodiy resurslarning eng asosiylaridan biri mexnat resurslari hisoblanadi. Inson resurslari avvalo yollanma xodimlar mexnati va insonlarning tadbirkorlik qobiliyatlaridan iborat. Mexnat yoki inson resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini demografik fanlar, Statistika, Etnografiya, Mehnat iqtisodi, Ijtimoiy-madaniy kompleksni prognozlashtirish fanlari qatori Makroiqtisodiyot fani ham o‘rganadi.

Makroiqtisodiyot inson resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarini tadqiq etish orqali ularni samarali boshqarishni maqsad qilib oladi. Chunki, mexnat resurslari va ularning faol qismi bo‘lgan ishchi kuchi ishlab chiqarish kuchlarining eng asosiy qismidir. Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda mexnatga layoqatli yoshdagi ishlayotgan va ishsiz yurgan aholining umumiy soni tushuniladi.

Mehnat resurslarini sifat jixatdan takomillashtirish iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari bilan bevosita bog‘likdir. Shuning uchun ham mamlakatda mehnat bozorini, mehnatni boshqarish institutlarini va uning iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarini yaratish eng asosiy vazifalardan biridir.

Demak, mexnat bozori va uning maromida faoliyat ko‘rsatishi qo‘yidagi omillarga bog‘lik:

1. aholi soni, yoshi va jinsining salmog‘idagi o‘zgarishlarga;
2. ish bilan bandlilikdagi xudud va tarmok o‘zgarishlariga;
3. qo‘shimcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish mexanizmiga;
4. ishlab chiqarish hajmiga, uning o‘sish sur’atiga, ishlab chiqarish tarkibiga;
5. ishlab chiqarish kuchlarining xududiy joylaShuviga;
6. mexnat resurslarini boshqarish usuli va boshqalarga.

Hozirgi sharoitda mexnat bozorida talab va taklif qonuni amal qiladi. Chunki, ishchi kuchi ham boshqa mexnat maxsullari qatori, tovar shakliga ega bo‘lib, tovar-pul munosabatlariga faol jalb qilinadi. Uning bu xususiyati mexnat ko‘rsatkichlari tizimida o‘z aksini topadi. Ular orasida ish bilan bandlik va ishsizlik ko‘rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Ya’ni, ishbilarmonlar ishchi kuchidan shunday miqdorlarda foydalanadilarki, bunda mexnatning yuqori maxsuli real ish xaqi bilan yoki ish haqi hajmining puldagi ifodasi mexnatning yuqori maxsuli qiymatiga teng bo‘lishi kerak. Agarda, real ish haqi hajmi oshsa, ishbilarmon ishchi kuchiga bo‘lgan talabni qisqartiradi, agar real ish haqi hajmi kamaysa, ishchi kuchiga bo‘lgan talab ortadi.

Amaliyotda aholining «to‘la ish bilan bandligi» degan tushuncha bor. Lekin bunday natijaga o‘z-o‘zidan erishish qiyin. Chunki aholining ishlamoqchi bo‘lgan qismini ish bilan deyarli to‘liq band qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham aholining ma’lum miqdorda ishsiz bo‘lishi iqtisodiy jihatdan me’yoriy xol va asoslidir.

Ishsizlar–bu, ishchi kuchlarining bir qismi bo‘lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lmagan, lekin ishlashni xohlovchi va ish qidirayotganlardan iborat.

Ishsizlikning qo‘yidagi turlari mavjud:

Friksion ishsizlik. Unga ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta’minlanishni kutayotgan ishchi kuchlari kiradi. Ishsizlikning bu turi asosan mavsumiy ishlar, ishlab chiqarishdagi eski modelning yangisi bilan almashtirilishi, ish yoki turarjoylarni o‘zgartirishlar, o‘quv yurtlarini tugatish va shuningdek, boshqa sabablardan kelib chiqadi. U doimo mavjud bo‘lib, ma’lum bir darajada kerakli hisoblanadi.

Tarkibiy (strukturali) ishsizlik. Unga asosan malakalarini o‘zgartirishi va oshirishi, ma’lumot olishi, kasb egallashi lozim bo‘lgan ishsizlar guruhlari kiradi. Friksion ishsizlik bilan strukturali ishsizlikning asosiy farqi shundaki, birinchisida, ma’lum malaka va tajriba mavjud bo‘ladi va undan foydalanib, ish joylarini tezroq topib olishadi, ikkinchisida esa, ishchi kuchi darhol va tezroq ish joylarini topa olmaydi. Strukturali ishsizlik iste’mol bozori ma’lum mahsulotlar bilan to‘ldirilganda va ularga ehtiyoj qolmaganda paydo bo‘ladi.

Davriy ishsizlik asosan ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo‘lgan talabning kamayishidan paydo bo‘ladi. Davriy pasayish tovar va xizmatlarga bo‘lgan Yalpi taklifning kamayishini, shunga muvofiq, yalpi taklifning kamayishini, va oqibatda aholining ish bilan bandligi qisqarishi va ishsizlikning o‘sishini bildiradi.

To‘la ish bilan bandlik barcha ishchi kuchining 100% ish bilan ta’minlanganligini bildirmaydi. Aksincha, friksion va strukturali ishsizlik ilojsiz xol bo‘lganligini hisobga olsak, biz mutlaq to‘la ish bilan bandlilikka erishib bo‘lmasligini tushunamiz.

Agarda davriy ishsizlik bo‘lmasa, u holda to‘la ish bilan bandlilikka erishiladi. To‘la ish bilan bandlik davridagi ishsizlik, **ishsizlikning tabiiy darajasi** deyiladi. Bunga ish qidiruvchilar soni bo‘sh ish joylari soniga muvofiq kelsagina erishish mumkin.

Ishsizlikning tabiiy darajasi birinchidan, u iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensialidan to‘liq foydalanayotganligini ko‘rsata olmaydi, chunki amaliyotda ishsizlik darajasi «ishsizlikning tabiiy darajasi»dan ko‘proq bo‘ladi, ikkinchidan, ishsizlikning tabiiy darajasi doimiy emas, chunki u qonun va milliy an’analar bilan bog‘liq holda o‘zgarishini bilishimiz lozim.

Umumiy xolda ishchi kuchi ish bilan band va faol ish qidirib yurgan ishsizlarga bo‘linadi. **Ishsizlik darajasi** deb ishsizlarning ishchi kuchiga nisbatiga (% hisobida) aytiladi va uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

Ishsizlik darajasi = (ishsizlar / ishchi kuchi) x 100%

Barcha mavjud resurslardan to‘liq foydalanish yoki ishsizlikning tabiiy darajasi holatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo‘lgan mahsulot hajmini iqtisodiyotning **ishlab chiqarish potensiali** deb ataladi.

YaMM uzilishi = ((potensial YaIM-xaqiqiy YaIM) / potensial YaIM) x 100%

Mahsulotlarning potensial va xaqiqiy ishlab chiqarilishi o‘rtasidagi farq YaMM hajmining uzilishi yoki orqada qolishi deb ataladi. U potensial ishlab chiqarishga nisbatan foizda aks ettiriladi.

3.3. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. A. Ouken qonuni

Ishsizlikning ko‘payishi natijasida mumkin bo‘lgan YaMM hajmini iqtisodiyot ololmaydi. Shu sababli mamlakat miqyosida ishsizlikni tabiiy darajasida saqlash va uni tartibga solish iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan qanchalik yuqori bo‘lsa, YaMM uzilishi shuncha ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun ham potensial hajmdagi YaMM haqiqiy YaMMdan katta bo‘ladi.

ya’ni, **YAMM*>YAMM**
yoki **U*>U**

Potensial YaMM*ni hisoblashda mamlakatda ishsizlik mutlaqo yo‘q deb emas, balki mavjud, biroq u tabiiy darajada, deb hisoblanadi.

Ishsizlik darajasi va YaMM uzilishi o‘rtasidagi miqdoriy nisbatni ingliz iqtisodchisi Artur Ouken matematik xolda isbotlab byergan.

Shuning uchun bu qonun, Ouken qonuni deyiladi. Qonunning mohiyati Shundan iboratki, agar haqiqiy ishsizlik ishsizlikning tabiiy darajasidan bir foizga oshib ketsa, milliy iqtisodiyot YaMMni ikki yarim foizga kam oladi. Ushbu nisbat ishsizlikning turli darajalaridagi mahsulot yo‘qotishlarni aniqlash imkonini byeradi.

YaMM uzilishi=-2,5 (ishsizlikning tabiiy darajasi – ishsizlikning haqiqiy darajasi)

Demak, mos ravishda ularning nisbati 1:2,5 Yoki 2:5 ga teng. Yo‘qotilgan YaMMning esa mutlaq qiymatini hisoblash mumkin. Misol uchun, 2016 yili ishlab chiqarish pasaygan davrda ishsizlik 9,5 foizga teng bo‘lgan, deb olaylik. Ishsizlikning tabiiy darajasi esa 6 foizga teng bo‘lishi kerak yoki 3,5 foiz ishsizlik uning tabiiy darajasidan ko‘p: 3,5 foizni Ouken koeffitsientiga (2,5) ko‘paytirib, 2016 yilda YaMMning potensial YaMM*dan 8,75 foizga kam olinganligini aniqlaymiz. YaMMning pastroq darajasi o‘z navbatida, ishlab chiqarishda qatnaShuvchilar daromadlarining nisbatan kamroq bo‘lishini va iqtisodiyotning kelgusi taraqqiyotini investitsiyalash imkoniyatlari qisqarishini bildiradi.

YaMM uzilishini ifodalaydigan formula bilan Ouken formulasini umumlashtirib qo‘yidagi formulani olamiz:

$$(YaMM_{potensial} - YaMM_{haqiqiy})/ YaMM_{potensial}*100 = -ß(ITD-IXD)$$

Aholi bandligini ta’minlash xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday fikr bildirgan: “Aholini ish bilan ta’minlash biz uchun nafaqat iqtisodiy, ayni paytda katta ijtimoiy ahamiyatga egadir. Hokimliklar, vazirliklar va idoralar, ish beruvchi tashkilotlar bilan bir qatorda bank muassasalarini ham bu ishga yanada faol jalb etishi kerak. Aholi bandligini hal etishda turizmni rivojlantirish bo‘yicha katta imkoniyatlarni ham ishga solishimiz lozim” . Ushbu muhim vazifalarni bajarishda xizmat ko‘rsatish sohasi yetakchi rol o‘ynashi lozim deb o‘ylaymiz. Xizmat ko‘rsatish sohasining bandlik

muammolarini hal etishda mavjud imkoniyatlarini aniqlash va ulardan unumli foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi ko‘rsatkichlarini Samarqand viloyati bilan taqqoslama tahlil o‘tkazdik.

Viloyat iqtisodiyoti tarmoqlarida 2010-2022 yillar davomida aholi bandlik holatining tahlili quyidagi natijalarni berdi. Tadqiqotlar viloyatda keyingi 2010-2022 yillar davomida doimiy aholi soni yildan yilga oshib borganligidan dalolat beradi. Ayniqsa iqtisodiyotda band aholi soni tez sur’atlar bilan oshib bordi jumladan, (2010 yilda 1229.9 ming kishi 2022 yilda esa, 1479,8 ming kishiga yetdi). Bu viloyat iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan jiddiy o‘zgarishlar natijasi hisoblanadi. Viloyatda iqtisodiy faol aholi sonining mehnat resurslari sonidagi ulushida sezilarli darajada o‘sish kuzatilmoqda. Agar 2010 yilda viloyat iqtisodiyotida iqtisodiy faol aholi 1324,6 ming.kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib, ularning soni 1632,3 ming. kishini tashkil etdi yoki shu davr mobaynida (307,7 ming kishiga) oshgan. 2010-2022 yillar mobaynida viloyat aholisining tarmoqlar bo‘yicha bandligida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Umuman olganda, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida (sanoat, qishloq xo‘jalik, qurilish) xizmat ko‘rsatish sohasiga nisbatan kamroq yangi ish o‘rinlarini yaratishga erishilgan. Iqtisodiyot tarmoqlarida aholi bandligidagi eng yuqori ko‘rsatkich xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. 2010 yilda 654,4 ming kishi 2022 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 797,8 ming kishiga yetgan. Aholi bandligi tarkibida bunday o‘zgarishlarni ijobiy jarayon sifatida baholash mumkin. Chunki u mamlakatda xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi rolini oshirish yo‘lida olib borilayotgan makroiqtisodiy siyosatning mohiyatiga mos keladi (3.3.1-jadval).

3.3.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi va Samarqand viloyati iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha 2010-2022 yillarda aholi bandligining o‘sish sur’atlari [21]

	Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston			Samarqand		
		Yillar					
		2010	2022	2022yil 2010yilga nisbatan (foiz; +;-)	2010	2022	2022yil 2010yilga nisbatan (foiz; +;-)
1	Doimiy aholi soni (ming.kish)	29123,4	35271,3	121,1	3270,8	4031,3	123,3
2	Mehnat resurslari (ming.kish)	17157,0	19517,5	113,8	1815,7	2164,8	119,2
3	Doimiy aholi soniga nisbatan, (foiz)	58,9	42,6	72,3	55,5	40,5	73,0
4	Iqtisodiy faol aholi (ming.k)	12286,6	15038,9	122,4	1324,6	1632,3	123,2
5	Mehnat resurslariga nisbatan, (foiz)	71,6	77,1	107,7	72,9	75,4	103,4
6	Iqtisodiyotda band aholi, (ming kishi)	11628,0	13706,2	117,9	1229,9	1479,8	120,3
7	Jumladan: Sanoatda bandlar (ming kishi)	1540,0	1823,3	118,4	131,6	178,5	135,6
8	Iqtisodiyotda band aholi soniga nisbatan, (foiz)	13,2	13,3	100,8	10,7	12,1	113,1
9	Qishloq xo‘jaligida (ming kish)	3127,0	3438,7	110,0	367,7	384,9	104,7
10	Iqtisodiyotda band aholi soniga nisbatan, (foiz)	26,9	25,1	93,3	29,9	26,0	87,0
11	Qurilishda (ming kishi)	1065,0	1314,3	123,4	76,2	118,6	155,6

[21] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi va Samarqand viloyati statistika boshqarmasining 2009-2023 yy ma’lumotlari bo‘yicha muallif ishlanmasi.

12	**Iqtisodiyotda band aholi soniga nisbatan, (foiz)**	9,1	9,6	105,5	6,2	8,0	129,0
13	**Xizmat ko‘rsatish sohasida (ming kishi)**	5896,0	7129,9	120,9	654,4	797,8	121,9
14	**Iqtisodiyotda band aholi soniga nisbatan, (foiz)**	50,7	52,0	102,6	53,2	54,0	101,5

Samarqand viloyatida aholining soha va tarmoqlar bo‘yicha bandligini oshirish imkoniyatlari va istiqbollarini baholash maqsadida uni respublika ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash, ijtimoiy masalalarga javob topishda muhim ahamiyat kasb etadi

Taqqoslash natijasida Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida band aholi sonining iqtisodiyotda band aholi sonidagi ulushi 2010 yilda 53,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, respublikada ushbu ko‘rsatkich 50,7 foizni, 2022 yilda esa (mos ravishda 54,0-52,0 foizni) nisbatan past darajaga erishilganligini ko‘rsatdi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, unda mehnat unumdorligi oshib borgan sayin, ushbu tarmoqda band aholi soni bundan keyin ham qisqarib boraveradi. Tahlil natijalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, ular asosan tez rivojlanib borayotgan va ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratilayotgan xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarida ishga joylashishlari mumkin bo‘ladi.

3.4 .O‘zbekiston Respublikasida ishsizlar sonini hisoblash metodiksi

1. Ishsizlar soni mehnat rusurslari sonidan ish bilan bandlar va iqtisodiy nofaol axoli soni ayirish orqali hisoblanadi:

U = LR - E - EIP, bu yerda:

U – ishsizlar soni;

LR – mexnat resurslari;

E - ish bilan bandlar;

EIP – iqtisodiy nofaol aholi soni.

2. Mehnat resurslari soni, mexnat yoshidagi mehnatga loyoqatli aholi soni bilan mehnat yoshidan katta va kichik bo‘lgan aholi soni yig‘indisi orqali quyidagi formula bilan hisoblanadi:

LR = WAPM + WTP, bu yerda:

LR - mehnat resurslari;

WAPM – mehnat yoshidagi mehnatga layoqatli aholi soni;

WTP – ishlayotgan yoshlar va nafaqaxo‘rlar.

3. **WAPM** soni mehnatga layoqatli aholi sonidan (erkaklar 16 yoshdan 60 yoshgacha va ayollar 16 yoshdan 55 yoshgacha) birinchi va ikkinchi guruh nogironlar, mehnat yoshidagi imtiyozli shartlarda nafaqa olayotgan aholi soni ayirish orqali quyidagi formula bilan hisoblanadi:

WAPM = Mp(16 - 59) + Wp(16 - 54) - Ip - PP, bu yerda:

Mp (16 - 59) – 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar;

Wp (16 - 54) - 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar;

Ip - mehnat yoshidagi birinchi va ikkinchi guruh nogironlari;

PP - mehnat yoshidagi imtiyozli shartlarda nafaqa olayotgan aholi soni.

Ma’lumotlar manbai:

Mp (16 - 59), **Wp** (16 - 54) – statistika tashkilotlari ma’lumotlari;

Ip - byudjetdan tashqari Pensiya fondi ma’lumotlari;

PP - byudjetdan tashqari Pensiya fondi ma’lumotlari.

WTP - byudjetdan tashqari Pensiya fondi va statistika tashkilotlari ma’lumotlari;

4. Ish bilan bandlar soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

E = EOs + EIs + LM, bu yerda:

Eos – iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan bandlar;

EIs – iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar;

LM – mehnat migrantlari - fuqaro xorijiy mamlakatlarda mehnat faoliyatini yuritayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqoralari, O‘zbekiston Respublikasiga qarashli xorijiy mamlakatlaridagi tashkilotlarda ishlayotganlar fuqoralardan tashqari.

Ma’lumotlar manbaii:

Eos – Statistika tashkilotlarining ma’lumotlari;

EIs – Bandlik va va mehnat munosobatlari Vazirligi tomonidan bandlik masalalari bo‘yicha uy xo‘jaliklarini o‘rganish ma’lumotlari;

LM - ichki ishlar , bojxona organlari va mehnat tashkilotlari tomonidan bandlik masalalarini o‘rganish bo‘yicha ma’lumotlari.

5. Aholining iqtisodiy faol soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

EP = U + E, bu yerda:

EP – iqtisodiy faol aholi.

6. Iqtisodiy nofaol aholi soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

EIP = PS + IW + VUP, bu yerda:

EIP - iqtisodiy nofaol aholi;

PS – ishlab chiqarishda ajralgan holda o‘qiyotgan o‘quvchilar va talabalar soni;

IW – bola tarbiyasi bilan shug‘ullayotgan ishlamayotgan ayollar;

VUP – uybekalari, o‘z xohishi bilan ishlamayotgan shaxslar va ko‘chmas va boshqa mulklardan daromad olayotgan aholi.

Ma’lumotlar manbai:

PS - Statistika tashkilotlarining ma’lumotlari

IW - Statistika tashkilotlarining ma’lumotlari

VUP –mehnat tashkilotlarining bandlikni o‘rganish bo‘yicha ma’lumotlari.

band bo‘lmagan, mustaqil ish izlayotgan aholi soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

US = U - UO, bu yerda:

US – band bo‘lmagan va mustaqil ish izlayotganlar soni;
U – band bo‘lmagan aholi, ishsizlar;
UO – rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan ishsizlar.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy davrlar asosan to‘rtta bosqichini o‘z ichiga oladi va ularni iqtisodiy tebranishlar deb yuritish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy tebranishlarning sabablari xilma - xil bo‘lsada, ularning barchasi yalpi xarajatlar hajmining o‘zgarishi orqali YaIM dinamikasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ishsizlik darajasi deb ishsizlar soninning ishchi kuchi soniga nisbatiga aytiladi. Ishchi kuchi ham boshqa tovar mahsulotlari kabi bozorda sotiladi va sotib olinadi. To‘la ish bilan bandlik 100% ish bilan ta’minlanganlik darajasini anglatmaydi.

Kelib chiqish sabablariga ko‘ra friksion, tarkibiy va davriy ishsizlik turlari mavjud.

Ishsizlikning tabiiy darajasi friksion va tarkibiy ishsizlik darajalari yig‘indisiga teng bo‘lib, mamlakatdagi oxirgi o‘n yilda mavjud bo‘lgan haqiqiy ishsizlik darajasi va keyingi o‘n yil uchun prognoz qilib hisoblangan ishsizlik darajalarining o‘rtacha miqdori sifatida belgilanadi.

Ishsizlar sonining oshishi, ya’ni ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan yuqori bo‘lishi potensial hajmdagi YaIM bilan haqiqiy hajmdagi YAIM o‘rtasida uzilishga olib keladi. Ouken qonuni bunday bog‘liqlikning miqdoriy darajasini ifodalaydi.

Nazarot va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy tebranishlarning sabablarini qanday izohlaysiz?
2. Ishsizlikning qanday turlari mavjud? Ishsizlik darajasi qanday aniqlanadi?

3. Ishsizlikning tabiiy darajasi, ish bilan to‘liq bandlilik tuShunchalariga tavsif byering.

4. Potensial YAIM ko‘rsatkichini izohlab byering.

5. Makrodarajada ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini qanday o‘lchash mumkin ?

6. Ishsizlik darajasi oshishining salbiy oqibatlariga izoh bering.

7. O‘zbekistonda ishsizlik darajasi o‘zgarishi qay tariqa ro‘y berdi?

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. ….ishsizlik. Unga ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta'minlanishni kutayotgan ishchi kuchlari kiradi ?

A) Davriy ishsizlik

B) Tarkibiy ishsizlik

C) Friksion ishsizlik

D) Mavsumiy ishsizlik

2. YaMM uzilishi=…

A) -2.5

B) 2.5

C) -1.5

D) 1

3. …..barcha ishchi kuchining 100% ish bilan ta'minlanganligini bildirmaydi ?

A) Tarkibiy ishsizlik

B) To‘la ish bilan bandlik

C) Mavsumiy ishsizlik

D) Davriy ishsizlik

4. …..sikli «biznes-sikl», «sanoat sikli», «o'rtacha sikl» va «katta sikl» kabi nomlar bilan ham ataladi?

A) Tofflyer sikl

B) Kuznets sikl

C) Kitchin sikl

D) Juglar sikl

5.Kitchin sikli davomiyligi nechi yil?

A) 2-4 yil

B) 5-7 yil

C) 7-12 yil

D) 16-25 yil

6. O‘zbekiston Respublikasida ishsizlar sonini hisoblash metodiksi qaysi formula asosida hisoblanadi?

A) U=LR-EP

B) U=LR+EIP

C) U=LR-EIP

D) U=L+EI

7. Ish bilan bandlar soni qaysi formula bilan aniqlanadi?

A) E=Eos+EIs+LM

B) E=E+Els-LM

C) E=Eos-Els-LM

D) E=EOs+LM-Els

8. Iqtisodiy davrlar nechta davrni o‘z ichiga oladi?

A) 1

B) 5

C) 4

D) 3

9. Ishsizlik darajasi va YaMM uzilishi o'rtasidagi miqdoriy nisbatni ingliz iqtisodchisi …… matematik holda isbotlab bergan. Mamlakatda inflyatsiya darajasi nimaga asoslanib belgilanadi?

A) Keyns

B) Nate

C) Nauke

D) Ouken

10. Sikllarni asosiy nechta turi mavjud?

A) 6

B) 5

C) 4

D) 7

IV bob. INFLYATSIYA VA INFILYATSIYAGA QARSHI SIYOSAT

4.1. Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari

Inflyatsiya (lotincha inflatio - shishish, bo‘rtish, taranglashish) – ma’lum davr mobaynida mamlakatda baholar o‘rtacha (umumiy) darajasining barqaror o‘sishi, pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishi. Inflyatsiya bozor iqtisodiyotining asosiy izdan chiqaruvchi omillari jumlasiga kiradi, uning sur’ati qanchalik yuqori bo‘lsa, iqtisodiyotga xavfli ta’siri shunchalik katta bo‘ladi. Ayniqsa bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi bir iqtisodiy tizimga o‘tayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta’siri ancha xavfli. Chunki, bu davr narxlarning erkinlashuvi va shunga muvofiq ularning umumiy darajasi keskin oshib ketishi bilan bog‘liq.

Ammo inflyatsiya davrida barcha tovarlarning baholari ham oshavermaydi: ayrimlariniki barqaror bo‘lib tursa, ba’zilariniki esa tushishi mumkin.

“Inflyatsiya” atamasi ilk bor Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi Fuqarolar urushi davrida qo‘llanildi. Inflyatsiyaning atamasi muomaladagi qog‘oz pul massasining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan ziyod ko‘payib ketishi holatini izohlangan. Ammo inflyatsiyaning bunday tavsifi mukammal emas va uning sabablarini ochib bermaydi. Umuman olganda inflyatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

Keynschilar maktabi namoyondalari bunday nomutanosiblikning sababi to‘liq bandlik sharoitida talabning haddan ziyod bo‘lishida deb bilishadi. Shu sababli ular ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past bo‘lsa byudjet taqchilligi va qo‘shimcha pul chiqarish yo‘li bilan xarid qobiliyatini, boshqacha aytganda yalpi talabni ko‘paytirish inflyatsiyaga olib kelmaydi deb hisoblashishadi.

Neoklassik yondoshuv tarafdorlari inflyatsiyaning manbai ishlab chiqarishning haddan ziyod o‘sishida, ishlab chiqarish xarajatlarining

ko‘payishida deb bilishadi. Demak keynschilar inflyatsiyaga talab tomonidan, neoklassiklar esa taklif tomonidan yondoshishadi.

Agar iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar massasi yalpi talabga nisbatan sekinroq o‘ssa, yoki yalpi talab ko‘paygani holda o‘zgarmasdan tursa, bu nomutanosiblik baholar darajasining ko‘tarilishi orqali bartaraf etiladi. Oqibatda pul birligining xarid qobiliyati pasayadi va milliy iqtisodiyotning qo‘shimcha pul massasiga ehtiyoji paydo bo‘ladi.

Inflyatsiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmining kasali, makroiqtisodiy buzilishlar natijasidir. Baholarning o‘sishi, pul birligi xarid qobiliyatining pasayishidan tashqari inflyatsiya namoyon bo‘lishining quyidagi uch belgisi ham bor. Bular:

1) valyuta kurslarining o‘zgarishi;
2) kredit berish shartlarining qimmatlashuv va muddatlarining qisqarishi tomon o‘zgarishi;
3) kundalik ehtiyoj mollaridan iborat iste’mol savati bahosining o‘sishi.

Inflyatsiya baho indekslari - deflyator va iste’mol narxlar indeksi yordamida aniqlanadi.

Baholar o‘rtacha (umumiy) darajasining nisbiy o‘zgarishi **inflyatsiya darajasi (baholarning o‘sish sur’ati)** deb ataladi. Makroiqtisodiy modellarda inflyatsiya darajasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$\pi = \frac{P - P_1}{P_1}$$

bunda: π– yillik inflyatsiya sur’ati

P - joriy yilning narxlar indeksi; $\mathbf{P_1}$- o‘tgan yilning narxlar indeksi.

Inflyatsiyani miqdoran o‘lchash uchun makroiqtisodiyotda «70-miqdor qoidasi» deb atalgan usuldan ham foydalaniladi. Bu usul narxlarning barqaror o‘sishi sharoitida inflyatsiya darajasi necha yilda ikki baravarga oshishini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun 70 ni yillik inflyatsiya darajasiga bo‘lish kifoya:

Baholar ikki martaga oshishi uchun zarur yillar soni $= \frac{70}{\pi}$

Misol uchun, yillik inflyatsiya darajasi 7 % ga teng bo‘lsa, taxminan 10 yilda baholar ikki martaga oshadi, Ya’ni, (70:7 = 10).

Real YaMM va jamg‘armaning necha yildan so‘ng ikki marta oshishini hisoblash zarur bo‘lgan hollarda ham «70-miqdor qoidasidan» foydalaniladi.

4.2. Inflyatsiyaning turlari. Talab va taklif inflyatsiyasi

Talab inflyatsiyasi iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo‘lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi. Ya’ni, to‘liq bandlilikka yaqin sharoitda iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari o‘sib borayotgan yalpi talabni qondirolmaydi. Ortiqcha talab esa real tovarlar bahosining ko‘payishiga iqtisodiy bosim beradi va talab inflyatsiyasi kelib chiqadi. Yoki, oddiy so‘zlar bilan aytganda, «haddan ziyod pullar haddan kam tovarlarni ovlaydi». Talab inflyatsiyasini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar aholining ish bilan to‘liq bandligi va ish haqining oshib borishi hisoblanadi. Demak, inflyatsiya talab, taklif, ish bilan bandlik, baho, ishlab chiqarish sur’atlari kabi ko‘pgina omillarga bog‘liq.

Iqtisod pasayish holatida bo‘lganda mamlakatda jami talab oshsa, ishlab chiqarish hajmi ko‘payadi, ishsizlik kamayadi, baho darajasi esa deyarli o‘zgarmaydi yoki kam miqdorda o‘zgaradi. Baho o‘zgarmasligining sababi shundaki katta hajmdagi bo‘sh turgan mehnat va xom ashyo resurlarini shu o‘zgarmas bahoda ishga tushirish mumkin bo‘ladi. Chunki, ishsiz yurgan kishi ish haqini oshirishni talab qilmaydi, uning uchun ishga yollanishning o‘zi kifoya hamda qo‘shimcha stanok sotib olishga hojat yo‘q.

Bundan tashqari, baho ishchi kuchini to‘la ish bilan bandligiga erishishdan oldin ham oshishi mumkin. Ya’ni, ba’zi sanoat korxonalarida bo‘sh turgan resurs va zaxiralarni ishlab chiqarishga

yertaroq to‘liq jalb qilinadi, natijada ular talabning o‘sishiga mos ishlab chiqarishga, taklifga erisha olmaydi. Talab, taklifdan ko‘payib ketadi, natijada baho yana osha boshlaydi.

Taklif inflyatsiyasi bu, mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar baholarining oshishidan paydo bo‘ladi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo‘lmasa ham tovarlarning baholari oshib boradi. Hatto ish bilan bandlik va YaIM ishlab chiqarish kamaygan yillari tovarlarning bahosi oshadi. Jami taklif qisqarishining asosiy sababi mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning o‘sishi hisoblanadi. Bunda nominal ish haqi, xom ashyo va yoqilg‘i narxlarining oshishi natijasida ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi.

Taklif inflyasiyasining kelib chiqishiga, shuningdek, taklif mexanizmining buzilishi ham ta’sir qiladi. Taklif mexanizmi esa tasodifiy holda asosiy ishlab chiqarish omillari bahosining keskin ko‘payishidan kelib chiqadi. Iqtisodchi olimlarning fikriga ko‘ra, taklif inflyatsiyasi o‘z-o‘zini cheklaydi. Ishlab chiqarishning pasayishi xarajatlarning qo‘shimcha o‘sishini cheklaydi, chunki ishsizlikning o‘sishi nominal ish haqining asta-sekin pasayishiga olib keladi. Talab inflyatsiyasini cheklash uchun esa maxsus chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘ladi.

Inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi qisqarishi bilan bir vaqtda nominal hajmining ortib borishi kabi vaziyat sodir bo‘ladi. Daromadlarni ishlab chiqarish tomonidan ta’minlanmagan o‘sishi aholi qo‘lidagi pulning taklif qilinayotgan tovar va xizmatlardan oshiqchaligiga olib keladi. Bunday hol pul birligining xarid quvvatini pasaytiradi, bir miqdordagi pulga joriy yilda o‘tgan yildagiga nisbatan aholi kamroq mahsulot sotib oladi.

Uning real daromadi kamayadi. Misol uchun, joriy yilda aholining nominal daromadlari 30% ga ko‘paygan, narxlar darajasi 50% ga oshgan bo‘lsa, unda aholining real daromadlari 20% ga kamaygan bo‘ladi. Chunki, narxlarning o‘sishi aholi pul daromadlarining o‘sishidan yuqori bo‘lgan (30% - 50%q- 20%).

Inflyatsiyani real daromadlar darajasiga ta’siri u kutilayotgan yoki kutilmayotganiga ham bog‘liq. **Kutilayotgan inflyatsiya** sharoitida daromad oluvchi inflyatsiyaning u olayotgan daromadga ta’sirini kamaytirish, ya’ni real daromadi darajasini saqlab qolish chorasini ko‘radi.

Bu uchun Fisher tenglamasidan foydalanish mumkin:

i = r + πkut., bu yerda i-nominal foiz stavkasi; r- real foiz stavkasi; πkut- kutilayotgan inflyatsiya darajasi.

Inflyatsiya sur’ati 10 foizdan oshganda Fisher tenglamasi quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$r = \frac{i - \pi kut}{1 + \pi kut}$$

Kutilmagan inflyatsiya daromadlarni debitorlar va kreditorlar o‘rtasida kreditorlar foydasiga qayta taqsimlaydi. Shuningdek kutilmagan inflyatsiya daromadlarni qayd qilingan daromad oluvchilar va qayd qilinmagan daromad oluvchilar o‘rtasida keyingilari foydasiga qayta taqsimlaydi. Talab va taklif inflyatsiyasini qat’iy chegaralash qiyin. Ba’zida bu ikki turdagi inflyatsiya bir-biri bilan qo‘shilib ketadi. Masalan, talab inflyatsiyasi sharoitida yollanma ishchilar kutilayotgan inflyatsiya darajasini e’tiborga olib ish haqlari oshirilishini mehnat shartnomalariga kiritadilar. Bu esa mahsulot tannarxini oshirib taklif inflyatsiyasini keltirib chiqaradi.

Tovarlar taklifning kamayishini kuzatayotgan iqtisodiy agentlar pul mablag‘larini tovarlarga aylantirishga shoshadilar. Bu holat talab inflyasiyasi ko‘rinishini keltirib chiqaradi. Bunday ketma-ketlik oxir-oqibat giperinflyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Giperinflyatsiya boshqarib bo‘lmaydigan inflyatsiya jarayoni bo‘lib, ishlab chiqarish va bandlik darajalariga halokatli ta’sir ko‘rsatadi.

Yillik sur’ati bir necha o‘n yoki yuz foizni tashkil etgan inflyatsiya pul tizimining boshlanayotgan yoki kuchayayotgan inqirozi belgisidir. Giperinflyatsiya uning halokatini, butun bozor mexanizmi falajlanishini

anglatadi. Giperinflyatsiyaning rasmiy mezoni amyerikalik iqtisodchi Fillipp Kegan tomonidan kiritilgan. F. Kegan giperinflyatsiyaning boshlanishi deb baholarning birinchi bor 50% dan oshgan oyni, tugallanishi deb esa baholarning o‘sishi bu sur’atdan pasaygan va shundan so‘ng kamida bir yil davomida undan oshmagan oydan oldingisini hisoblash kerak deb taklif qilgan. Giperinflyatsiya sharoitida pul o‘zining qiymat o‘lchovi va almashinuv vositasi singari funksiyalarini bajarolmay qoladi. Normal iqtisodiy munosabatlar buziladi. Mablag‘lar ishlab chiqarishga emas, balki tovar-moddiy boyliklari jamg‘arishga yo‘naltiriladi.

4.3. Inflyatsiya va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlik. Fillips egri chizig‘i

Iqtisodiyot o‘z rivojlanishida potensial darajaga yaqinlashgan shariotda yoki bandlilik darajasini oshirish yoxud inflyatsiya darajasini pasaytirish kabi muqobil variantlardan birini tanlashga majbur bo‘linadi. Chunki qisqa muddatli davrda ishsizlik va inflyatsiya darajalari o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud. Ishsizlikni pasaytirish ish joylarini yaratish uchun qo‘shimcha mablag‘lar ajratilishini anglatadi. Ayni paytda bu ish haqi miqdorining oshishiga ham olib keladi. Har ikkala holat ham baholar darajasinining ko‘tarilishiga olib keladi, Ya’ni talab inflyatsiyasi ro‘y byeradi.



4.3.1-chizma. Fillips egri chizig‘i

Ishsizlik va inflyatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ingliz iqtisodchisi A.V.Fillips tomonidan aniqlangan va **Fillips egri chizig‘i** (4.3.1 -chizma) deb ataladi.

Fillips egri chizig‘i ishsizlik va inflyatsiya darajalari o‘rtasidagi teskari bog‘liqlikni harakterlaydi.

Mamlakat iqtisodiyotining xususiyatiga ko‘ra, shuningdek, inflyatsiyaning qaysi turi mavjudligiga qarab Fillips egri chizig‘idagi inflyatsiya va ishsizlik darajalarining kombinatsiyasi farq qilishi mumkin. Bunday tanlov kutilayotgan inflyatsiyaning sur’atiga bog‘liq. Kutilayotgan inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa ishsizlikning har qanday darajasida (sur’ati past bo‘lgan inflyatsiya darajasiga nisbatan) haqiqiy inflyatsiya darajasi yuqori bo‘ladi. Ishsizlik darajasi va inflyatsiya sur’atining maqbul miqdorlari quyidagi formula ko‘rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$\pi = \pi kut + f\left(\frac{Yh - Yp}{Yp}\right) + \varepsilon$$

Bu yerda π - inflyatsiyaning haqiqiy darajasi; πkut- inflyatsiyaning kutilayotgan darajasi;

$f\left(\frac{Yh - Yp}{Yp}\right) + \varepsilon$ - **talab inflyatsiyasi;**

f - Fillips egri chizig‘ining og‘ish burchagini belgilovchi empirik koeffitsent;

ε - tashqi baho shoki (taklif inflyatsiyasi).

Ouken qonuniga ko‘ra YAIMning uzilishi, ya’ni (Yh – Yp) / Yp miqdor davriy ishsizlikning o‘zgarishiga bog‘liqligi sababli qisqa muddatli Fillips egri chizig‘ini tenglamasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\pi = \pi kut - \beta [u - u*] + \varepsilon$$

Keltirilgan tenglamadan ko‘rinib turibdiki, haqiqiy inflyatsiya darajasi miqdori kutilayotgan inflyatsiya darajasiga hamda tashqi baho shoklari darajasi bilan to‘g‘ri bog‘liqlikka, davriy ishsizlik darajasi bilan esa teskari bog‘likka ega ekan.

Hukumat Fillips egri chizig‘iga asoslanib, qisqa davr uchun, iqtisodiy siyosat maqsadlaridan kelib chiqib ishsizlik va inflyatsiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

4.4. Aksilinflyatsiya siyosati va uni amalga oshirish xususiyatlari

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash borasidagi chora tadbirlarning muhim qismi aksilinflyatsiya siyosatidir.

Aksilinflyatsiya siyosati-baholar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflyatsion keskinlikni yumshatishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Aksilinflyatsiya siyosati inflyatsiyani yuzaga keltirgan sabablarni tugatishga qaratilgan faol va inflyatsiya sharoitlariga moslashishga qaratilgan passiv ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Aksilinflyatsiya siyosati o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

-Yalpi talabni tartibga solish;

-Yalpi taklifni tartibga solish.

Keynschi iqtisodchilar birinchi yo‘nalish tarafdorlari bo‘lib, ular davlat buyurtmasi va arzon kredit hisobiga samarali talabni shakllantirish asosida yalpi taklif darajasini ko‘tarish mumkin deb hisoblashadi. Hukumatning bu tadbirlar iqtisodiy pasayishni qisqartiradi va ishsizlikni kamaytiradi.

Ammo bunday aksilinflyatsiya siyosati davlat byudjeti taqchilligini yuzaga keltiradi va qo‘shimcha pul emissiyasiga ehtiyoj tug‘diradi. Keyns davlat byudjeti taqchilligini davlat tomonidan olinadigan uzoq muddatli qarzlar hisobiga qoplashni taklif etgan.

“Aksilinflyatsiya siyosatining monetaristik yo‘nalishi tarafdorlari keyinchalik, keynschilarning inflyatsiyaga qarshi kurash bo‘yicha takliflari doimo samara beravermagach va kamchiliklari yuzaga chiqib qolgach yuzaga keldi. Jumladan, bir qator mamlakatlarda davlat qarzi haddan oshib ketdi. Bunday sharoitda monetaristlar radikal asilinflyatsiya

usullarini taklif etishdi. Ular yalpi talabni konfiskatsiya tipidagi pul islohoti o‘tkazish hisobiga cheklash va byudjet taqchilligini ijtimoiy dasturlarni qisqartirish kamaytirishni taklif etishdi”*.

Monetaristlar inflyatsiya aynan pul bilan bog‘liq hodisa bo‘lganligi sababli shok terapiyasi pul massasining o‘sish sur’atlarini keskin qisqartiradi va inflyatsiya sur’atlarini tushiradi deb hisoblashadi. Ammo bunda ishlab chiqarish keskin pasayishi va bandlilik qisqarishi mumkin.

Konfiskatsiya tipidagi shok terapiyasi ko‘rinishlaridan biri bo‘lib daromadlarning va baholarning nominal darajalarini o‘zgartirmagan holda eski pullarni belgilangan nisbatda yangisiga alishtirishtirish hisoblanadi. Bunday tadbirlar aholi tomonidan ohir qabul qilinishi sababli,u qisqa muddatda samara byerishi zarur.

Monetaristlar tomonidan taklif qilinayotgan aksilinflyatsiya siyosatining yana bir ko‘rinishi - inflyatsiya sur’atlarini asta sekinlik bilan pasaytirib borish (graduallash) usulidir. Bu usulda inflyatsiya sur’atlari pul massasini ko‘p marotalaba, lekin oz ozdan kamaytirish orqali pul massasining o‘sish sur’atini pasaytirishni ko‘zda tutadi. Graduallash usuli inflyatsiyani asta sekinlik bilan pasaytira borib iqtisodiyotda chuqur pasayishni oldini olish imkonini beradi.

Graduallash usulini qo‘llash pul massasi va baholar darajasining yillik o‘sish sur’ati 20-30 foizdan oshmaganda muvaffaqiyatli bo‘ladi, deb hisoblanadi.

Aksilinflyatsiya siyosatining monetar usullarga muqobil bo‘lgan variantlaridan biri baholar va daromadlarni tartibga solish siyosatidir. Bu usul daromadlarning o‘sishi va baholarning o‘sishini muvofiqlashtirishni (adaptiv siyosat) ko‘zda tutadi.

Daromadlar va baholarni tartibga solish siyosatini amalga oshirish hukumat tomonidan baholar (narxlar) va daromadlar darajalarini muzlatib qo‘yish, pul ko‘rinishidagi ish haqining o‘sishini o‘rtacha mehnat unumdorligining o‘sishiga bog‘lab qo‘yish orqali amalga oshiriladi.

---

* Агапова Т.А.Серегина С.Ф. Макроэкономика:Учебник.-7-е изд.перераб. и доп.-М.:Издательство “Дело и сервис”, 2005. с. 214.

“Soliqlar tarkibini o‘zgartirish, yalpi soliq tushumlaridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlarning ulushini kamaytirish, bilvosita soliqlar ulushini ko‘paytirish, soliq stavkalarini pasaytirish, ularning rag‘batlantirish funksiyalarini kuchaytirish, davlat byudjeti xarajatlarini pasaytirish kabilar ham inflyatsiyaga qarshi kurash tadbirlari hisoblanadi”*.

Aksilinflyatsiya siyosatining u yoki bu turini tanlash inflyatsiya jarayonlarining xususiyatiga bog‘liq.

Inflyatsiyaning yuqori sur’atlarini oldini olish uchun hukumat quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- samarali soliq tizimini va davlat xarajatlarining barqarorligini;
- pul massasi va milliy daromadning bir maromdagi o‘sish sur’atlarini;
- “inflyatsiyani import qilish” ga yo‘l qo‘ymaslik.

Har qanday inflyatsiyaning negizida asosiy iqtisodiy muvozanatlarning buzilishi yotadi. Shu sababli inflyatsiyaga qarshi kurash — uni shunchaki bostirish emas, balki iqtisodiyotda vujudga kelgan nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan baquvvat tarkibiy siyosati-ni amalga oshirishdir. Bir qator chet mamla-katlarning inflyatsiyaga qarshi kurash tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ular inflyatsiya bilan iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining buzilishi bir-biriga chambarchas bog‘liq ekanligini anglagan holda, muomala sohasini qat’iy boshqarish va to‘lovga qobiliyatli ortiqcha umumiy talabni bartaraf etish bilangina cheklanmadilar.

Muayyan maqsadlarga qaratilgan yirik investitsiya dasturlarini ishlab chiqdilar va amalga oshirdilar. Bu dasturlar ana shu nomutanosiblikni tugatish va, binobarin, inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish imkonini byerdi.

Keyingi yillarda jahon bozorida narxlar darajasining keskin oshib borayotganligi aksilinflyatsiya siyosatini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

---

* Киселёва Е.А. Макроэкономика. /Экспресс курс:учебное пособие- М.:КНОРУС,2007, с.62.

O‘zbekistonda inflyatsiya qanday hisoblanadi

O‘zbekistonga iste’mol tovarlarining baholarining indeksini hisoblash tizimi 1994-yildan boshlab Xalqaro valyuta fondining texnik yordamida joriy qilina boshlandi.

Dastlabki yillarda iste’mol tovarlar va xizmatlar soni 285 tani tashkil qilgan bo‘lsa, bozordagi holatning o‘zgarishi hisobiga o‘shbu ro‘yxat kengaytirilib bordi va 2010 yilda u 305 taga etdi. 2022-yilda tovarlar va xizmatlar 386 tani tashkil etib: Shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari -112, nooziq-ovqat mahsulotlari - 206 va 68 ta xizmat turlarida tashkil topgan.

Shuni, ta’kidlab o‘tish kerakki iste’mol tovarlar tarkibi nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlardan (non, un, yog‘, go‘sht, kommunal xizmatlar va boshqalar) tashqari , foydadalanish majburiy bo‘lmagan mahsulotlar (masalan, avtomobillar, benzin, zargarlik tovarlar, qishloq xo‘jalik vositalari va boshqalar) ham kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasida 2010-2022 yillardagi inflyatsiya darajasini quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin (4.4.1-jadval).

4.4.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2010-2022 yillardagi inflyasiya darajasini

	yillar								
	2010	**2011**	**2012**	**2013**	**2014**	**2015**	**2016**	**2017**	**2022**
Inflyasiya darajasi %	9,38	12,81	12,071	11,19	8,42	9,75	13,2	14,4	14,3

Qisqacha xulosalar

Inflyatsiya ma’lum davr mobaynida mamlakatda baholar o‘rtacha (umumiy) darajasining barqaror o‘sishi va pulning harid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishini anglatadi. Inflyatsiyaning iqtisodiyotga salbiy ta’siri normal iqtisodiy munosabatlarni izdan chiqarishida namoyon bo‘ladi.

Inflyatsiya darajasi baho indekslari vositasida o‘lchanadi.

Kelib chiqish sabablariga ko‘ra talab inflyatsiyasi va taklif inflyatsiyasi o‘zaro farqlanadi. Inflyatsiyaning bu ikki turi ko‘pincha

aralash holda yuzaga keladi. Kutilmagan inflyatsiya daromadlarni debitorlar va kreditorlar, aholining turli qatlamlari hamda davlat va aholi o‘rtasida qayta taqsimlaydi.

Ishsizlik va inflyatsiya sur’atlari o‘rtasidagi teskari bog‘liqlik Fillips egri chizig‘ida aks etadi.

Hukumat Fillips egri chizig‘iga asoslanib qisqa davr uchun ishsizlik va inflyatsiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

Aksilinflyatsiya siyosati-baholar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflyatsion keskinlikni yumshatishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Aksilinflyatsiya siyosati o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

-Yalpi talabni tartibga solish;

-Yalpi taklifni tartibga solish.

Nazarot va muhokama uchun savollar

1. Inflyatsiyaning mohiyati faqatgina muomaladagi pul massasining ortiqchaligi bilan izohlanishi to‘g‘rimi?
2. Inflyatsiyani tushuntirib berishga keynchilarning va neoklassiklarning yondoshuvlari qanday farq qiladi?
3. Inflyatsiyaning ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari qanday?
4. Talab inflyatsiyasi qanday sodir bo‘ladi?
5. Taklif inflyatsiyasiga izoh bering?
6. Fillips egri chizig‘i qaysi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi? Bu bog‘liqlik qanday tavsiflanadi?
7. Aksilinflyatsiya siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. O'zbekistonda 2013-yilda inflyatsiyaning yillik darajasi necha foizni tashkil etdi?

A) 7,3

B) 6,8

C) 7,6

D) 7.4

2. Quyidagilardan qaysi biri inflyatsiyaning shakliga kirmaydi?
A) Monopol inflyatsiya
B) shiddatli inflyatsiya
C) sudraluvchi inflyatsiya
D) giperinflyatsiya
3. Giperinflyatsiya sharoitida pul aylanish holati qanday?
A) Pul ogimi barqarorlashadi.
B) Pul harakati buziladi,
C) Pul muomalasini tartibga solish mumkin
D) Pul muomalasida hech qanday o'zgarish bo'lm
4. Inflyatsiyaning yillik darajasi necha foizdan oshmasa mo'tadil inflyatsiya xisoblanadi?
A) 10
B) 1
C) 7
D) 3
5. Inflyatsiya muammosi qachon yuzaga keldi?
A) Oltin tangalar muomalada bo'lgan davrda
B) Kumush tanga muomalaga kirganida
C) Qog'oz pullar to'lov vositasi sifatida harakat qila boshlaganida
D) Muomaladagi oltin va kumush miqdori kamayganda.
6. Sudraluvchi inflyatsiyada baholarning oylik o'sishi necha foizni tashkil etdi?
A) 5 7
B) 10 50
C) 50 70
D) 70 100
7. Inflyatsiya tushunchasi qachon iqtisodiy muomalaga kirgan?
A) 1861-yilda.
B) 1863-yilda.
C) 1864-yilda.
D) 1866-yilda.
8. Giperinflyatsiyada baholarning oylik o'sishi necha foizni tashkil etdi?

A) 25

B) 50

C) 10

D) 100

9. Mamlakatda inflyatsiya darajasi nimaga asoslanib belgilanadi?

A) iste'mol savatchasiga;

B) pul massasiga,

C) muomaladagi naqd pul massasiga

D) chet valyuta miqdoriga ko'ra

10. Yo'rg'alovchi inflyatsiyada baxolarning oylik o'sish surati necha foizni tashkil etadi?

A) 10-50

B) 5-7

C) 50-70

D) 70-100

V bob. YALPI TALAB - YALPI TAKLIF MODELI

5.1. AD-AS modeli xaqida tushuncha

Bir xil turdagi tovarlarga bo‘lgan talab va taklif modeli tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ularning narxlari o‘rtasidagi farqlarni tushunish imkonini beradi. Shuningdek, ishlab chiqarilgan biror mahsulotning barqaror narxlari va hajmi turli yillarda turlicha bo‘lishini tushunishga imkon yaratadi. Ammo bir xil turdagi tovarlarga bo‘lgan talab va taklif modeli bir nechta zaruriy iqtisodiy muammolar haqidagi savollarga, chunonchi, nima uchun narxlar oshadi va kamayadi; nima uchun narxlar darajasi ayrim davrlarda o‘zgarishsiz qoladi va boshqa davrlarda zudlik bilan o‘sadi; nima uchun ayrim vaqtlarda milliy ishlab chiqarishning real hajmi kamayadi yoki ko‘payadi va shuningdek, boshqa savollarga javob bermaydi.



5.1.1 -chizma. Jami talab, taklif va narxlar darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liklik

Bu savollarga javob berish uchun mamlakatdagi barcha bozorlarni umumiy holda o‘rganishimiz kyerak. Aniq aytganda, minglab alohida narxlarni birlashtirib, yig‘ilgan baholar birligiga yoki baholar darajasiga olib kelishimiz lozim. Turli xildagi tovar va xizmatlar narxlarining umumiy baho darajasini birlashtirish, shuningdek, turli tovar va

xizmatlarni milliy ishlab chiqarishning real hajmiga birlashtirish - agregatlash (Yyki yiriklashtirish) deb ataladi.

Birlashtirilgan baholar (baholar darajasi) va turli xil tovar va xizmatlar birlashishi (milliy ishlab chiqarishning real hajmi) yig‘indi deb ataladi. Ko‘rsatkichlarni yiriklashtirishning bu usulidan makroiqtisodiy tadqiqotlarda tez-tez foydalanib turiladi. Demak, turli xil tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab va taklif, ya’ni, ular hajmining o‘zgarishi milliy ishlab chiqarish holatini ko‘rsatadi.

Milliy bozordagi talab va taklif alohida xaridorlar istagi ko‘rinishida bo‘lmasdan, balki barcha xaridorlarning yig‘ma talabi va taklifi ko‘rinishida aks etadi.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, umumiy talab milliy iqtisodiyotdagi barcha uy xo‘jaliklari, korxonalar, hukumat va shuningdek, xorijiy xaridorlarning tovar va xizmatlariga bo‘lgan talabidan iborat. Jami talab va taklif hamda narxlar darajasi barcha makroiqtisodiy modellar tuzilishining asosi hisoblanadi.

5.2. AD egri chizig‘i va unga ta’sir etuvchi omillar

Oldingi mavzularda qayd etilganidek narxlar darajasi va jami talab o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud bo‘lib, narxlar qanchalik past bo‘lsa, xaridorlar ko‘proq tovar va xizmatlarni sotib olishni istab qolishadi.



5.2.1 -chizma. Jami talab egri chizig‘i

Shunga e’tibor beringki, talab egri chizig‘i doimo pastga va o‘ngga suriladi. Nima uchun?

Bunday surilishning sababi har xil. Ya’ni, alohida olingan tovarlarda talab egri chizig‘ining surilishiga asosan daromad samarasi va o‘rinbosar tovarlar sabab bo‘lar edi. Ayrim tovarlarning bahosi pasayganda, iste’molchilarning pul daromadlari ko‘prok mahsulotlar sotib olish imkonini beradi (daromad samarasi). Shuningdek, baho pasayganda iste’molchi ushbu tovarni ko‘proq sotib oladi, chunki u boshqa tovarlarga nisbatan arzonroq bo‘ladi (o‘rnini bosadigan tovarlar).

Bunday izohlar jami talab to‘g‘risida gapirganda to‘g‘ri kelmaydi. Chizmadan ko‘rinib turibdiki, agar biz talab egri chizig‘i bo‘yicha pastga qarab siljitsak, barcha tovarlarning bahosi pasayadi. Shuningdek, alohida tovarlarga individning egri talabi iste’molchining daromadiga bog‘liq bo‘lsa, bu yerda esa umumiy daromadlar miqdoriga bog‘liq. Agarda jami talab egri chizig‘ini daromad va o‘rnini almashtiradigan tovarlar samarasi bilan tushuntirib bo‘lmas ekan, u holda nima uchun u pastga siljiydi?

Avvalo jami talab egri chizig‘ining bunday holati qo‘yidagi uchta omil bilan bog‘liq:

1. Foiz stavkasi samarasi;

2. Moddiy qiymatliklar samarasi yoki real kassa qoldiklari yohud boylik samarasi;

3. Import xaridlar samarasi.

Foiz stavkasi samarasi shuni bildiradiki,jami talab egri chizig‘ining siljishi narxlar darajasi o‘zgarishining foiz stavkasiga, demak, iste’mol xarajatlari va investitsiyalarga bo‘lgan ta’siriga bog‘liq. Aniq aytganimizda, agar baho darajasi oshsa, foiz stavkasi ham oshadi, o‘sgan foiz stavkalari o‘z navbatida iste’mol xarajatlari va investitsiyalarning kamayishiga olib keladi.

Demak, tovarlarning baho darajalari oshsa, iste’molchilarga harid qilish uchun katta miqdorda naqd pul kerak bo‘ladi. Ishbilarmonlar uchun ham ish xaqi va boshqa xarajatlarni to‘lashga katta miqdorda pul zarur bo‘ladi. Qisqacha aytganda, tovarlar bahosi darajalarining yuqoriligi pulga bo‘lgan talabni oshiradi.

Pul birligi hajmi o‘zgarmagan holatda talabning oshishi puldan foydalanishni chigallashtiradi. Bu foiz stavkasini ko‘rsatadi. Foiz

stavkalari yuqori sharoitda ishbilarmonlar va aholi xarajatlari miqdori kamayib, tezda foiz stavkalari oshishiga moslashadi.

Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, narxlarning o‘sishi pulga bo‘lgan talabni ko‘paytirib, foiz stavkasining oshishiga olib keladi va shu tufayli milliy mahsulotning real hajmiga bo‘lgan talab qisqaradi.

Moddiy qiymatliklar samarasi yoki real kassa qoldiqlari shuni bildiradiki, narxlar darjasining oshishi, jamg‘arilgan pul aktivlari (omonatlar, obligatsiyalar) real xarid qobiliyatini pasaytirib yuboradi. Bunday sharoitda aholi yanada kambag‘allashib boradi va bu o‘z-o‘zidan xarajatlar miqdorini qisqartiradi.

Masalan, muayyan shaxs aktivida 10 mln. so‘m bo‘lsa, undan xech ikkilanmasdan birorta avtomashina sotib olishi, agarda inflyatsiya ushbu shaxs aktivining to‘lash qobiliyatini 6 mln. so‘mga tushurib yuborsa, u mashina sotib ololmasligi mumkin.

Import xaridlar samarasi shuni bildiradiki, biror mamlakatda tovar va xizmatlarning ichki narxlari tashki narxlarga nisbatan oshib borsa, shu xizmat va tovarlarga talab kamayadi va o‘z navbatida import mahsulotlarga bo‘lgan talab oshadi. Va, aksincha, ichki narxlarning pasayishi importning kamayishiga va eksportning oshishiga yoki milliy mahsulotga talab oshishiga olib keladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan omillar jami talabning narx omillari deb ataladi, chunki milliy ishlab chiqarish real hajmining o‘zgarishi faqat narxlargagina bog‘liq. U egiluvchan narx modeli deb ataladi. Bundan tashqari jami talabning narxlarga bog‘liq bo‘lmagan omillari ham mavjud. Demak, jami talab uy xo‘jaligi, korxonalar, hukumat va xorijiy sheriklar talablaridan tashkil topadi. Unda xarajatlardagi o‘zgarishlar jami talabning miqdorida o‘z aksini topadi va uning egri chizig‘ini chapga yoki o‘ngga siljitadi. Jami talabning narxlarga bog‘liq bo‘lmagan omillariga qo‘yidagilarni kiritamiz:

1. Iste’mol xarajatlaridagi o‘zgarishlar:

a) iste’molchilarning qo‘llaridagi moddiy qiymatliklar o‘sganda;

b) iste’molchilar kelajakda o‘z daromadlari ko‘payishini kutishi natijasida ko‘proq xarid qilishni afzal ko‘rishsa;

b) iste’molchilarning qarzlari miqdori kamaysa va ularga xozirgi kunda ko‘prok xarid qilish imkonini bersa;

g) iste’molchilar daromadlaridan olinadigan soliqlar stavkasi kamaysa.

2. Investitsiya xarajatlaridagi o‘zgarishlar:

a) foiz stavkalari pul massasi ko‘payishi bilan oshib boradi va shunga muvofiq investitsiya xarajatlari qisqaradi;

b) investitsiyalardan kutilayotgan foyda normasi oshsa;

b) korxonalardan olinadigan soliqlar miqdori kamaysa;

g) texnologiya - yangi texnikalar ishlab chiqarishga jalb qilinsa;

d) zaxiradagi quvvatlar o‘zgarishi natijasida.

3. Davlat xarajatlarining o‘zgarishi, ya’ni davlat yangi-yangi xarajatlar miqdorini oshirganda. Masalan, harbiy xarajatlar va yangi kasalxona va boshqa muassasalar qurishga qaror qilganda.

4. Sof eksport xarajatlari.

5. Boshqa mamlakatlar milliy daromadlarining o‘sib borishi.

6. Valyuta kurslaridagi o‘zgarishlar.

5.3. AS egri chizig‘i va unga ta’sir etuvchi omillar

Jami taklif deganda muayyan narxlar sharoitida real ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlarning real hajmi tushuniladi. Narxlarning yuqori darajasi ishlab chiqaruvchilarga qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarishga imkoniyat yaratadi va aksincha past narxlar mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqartiradi. Shuning uchun ham milliy ishlab chiqarish hajmi bilan narxlar darajasi o‘rtasida to‘g‘ri aloqa mavjud. Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmi narxlar o‘sib borishi bilan o‘sib, pasayishi bilan tushib boradi.

5.3.1-chizmada aks ettirilganidek, jami taklif egri chizig‘i uch qismdan, gorizantal yoki keynsian kesma, ko‘tarilib boruvchi yoki oraliq kesma va vertikal yoki klassik kesmadan iborat.



5.3.1-chizma. Jami taklif egri chizig‘i

Jami taklif egri chizig‘idagi bu kesmalar qanday iqtisodiy vaziyatlarni aks ettiradi?

1. Gorizantal kesma iqtisodiyot chuqur inqirozga uchragan va katta miqdordagi resurslardan foydalanilmagan sharoitni ko‘rsatadi. Foydalanilmayotgan ushbu resurslarni narxlar darajasiga ta’sir ko‘rsatmagan holda ishga tushirish mumkin. Bu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi o‘sa boshlasa, ishlab chiqarishdagi xech qanday vaziyat narxlar oshishiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Chunki, uch-to‘rt oy bo‘sh yurgan ishchilar ish joylariga qaytishgach, maoshlarini oshirishni talab qilishmaydi.

Shuningdek, ishlab chiqaruvchilar o‘ziga zarur bo‘lgan resurslarni barqaror narxlarda sotib olishlari mumkin, ishlab chiqarish xarajatlari ko‘paymaydi. Demak, mahsulotlar narxining oshishiga asos yo‘q. Ushbu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi o‘zgarganda narxlar darajasi o‘zgarmaydi.

2. Vertikal yoki klassik kesma egri chiziq bo‘yicha o‘ngga siljishi natijasida ishlab chiqarishning mavjud hajmida iqtisodiyot to‘liq bandlik sharoitiga yoki ishsizlikning tabiiy darajasi sharoitiga erishgan vaziyatni ko‘ramiz. Egri chiziqning bu nuqtasida iqtisodiyot o‘zining ishlab chiqarish imkoniyatlari darajasida bo‘ladi. Bu shuni bildiradiki, narxlarning har qanday oshishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib

kelmaydi. Chunki, iqtisodiyot to‘liq quvvatda faoliyat ko‘rsatayapti. To‘liq bandlik sharoitida ayrim firmalar boshqa firmalarga nisbatan resurslarga yuqoriroq narxlarni taklif etish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishga harakat qiladi. Ammo, bunday holatda ayrim firmalar resurslar va ishlab chiqarish hajmini oshirishi mumkin, boshqalari esa yo‘qotadi. Natijada bu narxlar oshishidan mahsulotlar narxi oshishi mumkin, ammo ishlab chiqarishning real hajmi o‘zgarmay qoladi.

Jami taklif egri chizig‘ining vertikal qismida ikkita kamchilik mavjud:

a) bu kesma klassik iqtisodiy fanlar nuqtai nazaridan qaralgan va to‘liq bandlik-me’yor-deb qabul qilingan.

b) «to‘liq bandlik» va «to‘liq bandlik sharoitidagi milliy ishlab chiqarishning real hajmi»-bu, o‘zgaruvchan tushunchalar. Chunki, ishchi kuni va ishchi kuchlari ayrim vaqtlarda me’yordan oshib ketishi ham mumkin.

3. Oraliq kesma-ishlab chiqarish real hajmining o‘sishi narxlar darajasining o‘sishiga mos ravishda o‘sib boradi. Nima uchun? Chunki, iqtisodiyotning iqtisodiy pasayish holatidan to‘liq bandlikka o‘tish sharoiti notekis va turli vaziyatlarda ro‘y beradi. Masalan, ayrim tarmoqlarda resurslarning etishmasligiga duch kelinsa, boshqa tarmoqlarda aksincha. Shuningdek, ular ishlab chiqarishni kengaytirish uchun eski asosiy vositalardan va malakasiz mutaxassislardan foydalanishiga to‘g‘ri keladi. Bu esa mahsulotlar birligiga ketadigan xarajatlarning oshishiga va natijada narxlar darajasining o‘sishiga olib keladi. Jami taklif egri chizig‘idagi bu uchta kesma ayrim iqtisodchilar o‘rtasida tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda.

Keynschilik maktabi vakillari jami taklif egri chizig‘ini goh gorizantal, goh ko‘tarilib boruvchi, deb hisoblaydilar va shu sababli jami taklifdagi har qanday o‘zgarishlar ishlab chiqarish hajmi va bandlikka ta’sir etadi, deydilar.

Klassik yoki neoklassik maktab vakillari egri chiziq butunlay vertikal ko‘rinishda bo‘ladi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, jami taklifning o‘zgarishi iqtisodiyot uchun unchalik sezilarli emas. Chunki,

bu o‘zgarish faqat narx darajasiga ta’sir etib, ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasining o‘zgarishiga olib kelmaydi.

Shuningdek, ishlab chiqarish hajmi ko‘payishi yoki kamayishi narxga bog‘liq bo‘lmagan omillar hisobiga ham ro‘y berishi, bu omillar jami taklif egri chizig‘ini goh o‘ng tomonga, goh chap tomonga surishi mumkin. Narxga bog‘liq bo‘lmagan omillarnig xususiyati shundaki, ular mahsulot birligiga ketgan xarajatlarga bevosita ta’sir qiladi va shu orqali jami taklif egri chizig‘ining surilishiga sabab bo‘ladi.

Bu omillar qo‘yidagilardan iborat:

1. Resurslarga bo‘lgan talabning o‘zgarishi:

a) ichki bozordagi resurslar miqdorining kamayishi; yer resurslari; mexnat resurslari; kapital resurslari; tadbirkorlik qobiliyatlari;

b) import resurslar narxlaridagi o‘zgarishlar:

b) bozordagi xukmronlik va monopoliya.

2. Unumdorlikdagi o‘zgarishlar.

3. Huquqiy me’yordagi o‘zgarishlar:

a) soliq va subsidiyalarning o‘zgarishi;

b) davlatning tartibga solish jarayonidagi o‘zgarishlar va boshqalar.

5.4. AD-AS modelida narxlar va milliy ishlab chiqarish real hajmining muvozanatli darajalari

Narxlarning muvozanatli darajasi deganda shunday narx darajasi tushuniladiki, unda jami talab va taklif bir-biriga mos kelishi yoki teng bo‘lishi kyerak.

Birinchi jami talab egri chizig‘i va jami taklif egri chizig‘ining oraliq kesmada mos kelishini ko‘rib chiqamiz. Narxlarning muvozanatli darajasi va milliy ishlab chiqarish hajmining muvozanatli darajalari mos ravishda R_e va Q_e lar bilan belgilangan.

Nima uchun R_e narxlarning muvozanatli darajasi va Q_e milliy ishlab chiqarishning muvozanatli darajasini bildirishini ko‘rsatishimiz uchun narxlar darajasi R_e bilan emas, balki R_1 bilan ko‘rsatilgan. Jami taklif egri chizig‘i ko‘rsatayaptiki, narxlar darajasi R_1 bo‘lgan vaziyatda korxonalar milliy ishlab chiqarish hajmini Q_1 miqdoridan oshirmaydi.

Iste’molchilar bunday xajmdagi mahsulotlarni R_1 darajada sotib olishga tayyor turadi. Iste’molchilar o‘rtasidagi raqobat narxlar darajasini Re gacha suradi. 5.4.1-chizmadagi strelkaning ko‘rsatishicha, narxlar darajasining R_1 dan R_e gacha ko‘tarilishi ishlab chiqarish hajmini Q_1 dan Q_e gacha oshirishga va iste’molchilarning iste’molini Q_2 dan Q_e gacha kamaytirishga olib keladi.



5.4.1-chizma. Jami taklif egri chizig‘ining oralik kesmadagi muvozanat

Jami taklif egri chizig‘i keynsian kesma orqali o‘tadi. Bunday vaziyatda narxlar darajasi xech qanday ahamiyatga ega emas.

Buni tushunish uchun avvalo milliy ishlab chiqarishning muvazanatli hajmini Qe va muvozanatli narxlar darajasini Re bilan belgilaymiz.

Jami taklifning keyingi o‘sishi egri chiziqning yanada yuqoriroq surilishiga olib keladi. Jami talab egri chizig‘i jami taklif egri chizig‘ining vertikal kesmasida kesishadi. Bu yerda muvozanat narx R_2 darajasida, ishlab chiqarishning muvozanat hajmi Q_3 nuqtasida o‘rnatiladi. Jami taklifning bu kesmasida talabning har qanday o‘zgarishi fakat narxlar darajasi o‘zgarishga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmi esa to‘liq bandlik sharoitida o‘zgarmay qoladi.



5.4.2-chizma. Jami taklif egri chizig‘ining keynsian kesmadagi muvozanati

Oraliq va vertikal kesmalarda narxlar o‘sib borishi bilan kuzatilgan jami talabning ko‘payishi talab inflyatsiyasi mavjudligini ko‘rsatadi.

Jami taklifning o‘zgarishi muvozanat narxlar darajasiga va milliy ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘ramiz.

Import mahsulotlari narxining oshishi mamlakatda ishlab chiqarilayotgan barcha mahsulotlar va import qilinayotgan resurslar narxini oshirib yuboradi. Shunday qilib, milliy ishlab chiqarishning barcha bo‘g‘inlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar birligi xarajatlari oshib ketadi. Shuning uchun ham jami taklif egri chizig‘i AS_1 dan AS_2 ga qarab siljiydi. Bunday vaziyatda narxlar darajasining oshishi inflyatsiyaga olib keladi.

Birinchidan, tashki hamkorlar import mahsulotlariga bo‘lgan narxni oshiradi, deb faraz qilaylik.

Agarda jami taklif egri chizig‘i Q_1 dan Q_2 ga qarab siljisa, narxlar darajasi R_1 dan R_2 ga qarab o‘sadi, bandlik kamayadi va inflyatsiya kelib chiqadi. Buni biz stagflyatsiya deb ataymiz.



4.3-chizma. Jami taklif o‘zgarishining ta’siri

Boshqa bir vaziyatda, masalan, narxlarga bog‘liq bo‘lmagan omillardan birortasi o‘zgarib, jami taklifning o‘zgarishiga olib kelsin. Ya’ni, yerning bahosi pasaysa, korxonalardan olinadigan soliqlar kamaysa va natijasida mahsulot birligiga ketgan sarf-xarajatlar qisqarsa, unda jami taklif egri chizig‘i E_3 nuqtada kesib o‘tadi. Bunda narxlar muvozanat darajasi R_1 dan R_3 ga qarab siljiydi va ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi Q_1 dan Q_3 ga oshadi, ya’ni, iqtisodiy o‘sish holati mavjud bo‘ladi.

Qisqacha xulosalar

AD-AS modeli umumiy makroiqtisodiy muvozanat modeli bo‘lib milliy bozorni qisqa va uzoq muddatga tahlil qilish imkonini beradi. AD-AS modeli iqtisodiy tebranishlarni tahlil qilish va baholash uchun asos yaratadi.

Yalpi talab – uy xo‘jaliklari, korxonalar, hukumat va chet ellik xaridorlarning baholarning ma’lum darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmiga bo‘lgan talabidir.

Baholar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifoda etuvchi chiziq yalpi talab egri chizig‘i deb ataladi AD egri chizig‘i trayektoriyasini pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi bilan hamda baho omillari bo‘lgan foiz stavkasi samarasi, boylik samarasi va import xaridlari samarasi bilan izohlash mumkin. Bahodan boshqa omillar ta’sirida AD egri chizig‘i o‘ngga yoki chapga siljiydi.

AS egri chizig‘i keyns, oraliq va klassik kesmalarni o‘z ichiga oladi. Uzoq muddatli davrlarda AS egri chizig‘i vertikal, qisqa muddatga esa gorizantal bo‘ladi. Shuning uchun AD dagi o‘zgarishlar ishlab chiqarish hajmi, bandlik hamda baholar darajasiga bu kesmalarda turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Yalpi talab va yalpi taklif hajmlari o‘zaro mos kelgan, ya’ni AD va AS egri chiziqlari kesishgan nuqta makroiqtisodiy muvozanat nuqtasi, unga mos keluvchi baholar darajasi baholarning muvozanatli darajasi deb aytiladi.

AS egri chizig‘i ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslar hajmi ko‘payishi hamda yangi texnologiyalarning kiritilishi hisobiga o‘ngga siljiydi. Bu holat iqtisodiy o‘sish deb ataladi. AS egri chizig‘ining chapga siljishi stagflyatsiyadan dalolat beradi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining yuzaga kelish sababini yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi muvozanat buzilishi bilan izohlash mumkin.

Nazarot va muhokama uchun savollar

1. Qisqa muddatlardagi noelastik va uzoq muddatlardagi elastik narxlarga misol keltiring.
2. Nima uchun AD egri chizig‘i pastga yo‘naltirilgan?
3. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda pul taklifini oshishini tahlil qiling.
4. AD va AS modellaridagi narxga bog‘liq bo‘lmagan omillarni sanab o‘ting.

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Davlat sarflarining kamayishi yalpi talabga qanday ta’sir etadi?

A) talab kamayadi

B) talab oshadi

C) ta’sir qilmaydi

D) barqarorlikka erishadi

2. Sof eksport salohiyatining kengayishi milliy mahsulotga bo‘lgan yalpi talabga qanday tas’ir etadi ?

A) o‘suvchi

B) pasayuvchi

C) barqaror

D) ta’sir etmaydi

3. Eksport hajmining kamayishi va import hajmining oshishi …… ni beradi

A) sof eksport saldosi

B) iqtisodiy barqarorlik

C) sof eksportdagi o‘zgarish

D) boylik samarasi

4. Real kassa qoldig’i atamasini yana nima deb atash mumkin?

A) boylik samarasi

B) sof eksport saldosi

C) iqtisodiy barqarorlik

D) sof eksportdagi o‘zgarish

5. Mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan naflilik o‘z navbatida necha turga bo‘linadi?

A) 4

B) 3

C) 5

D) 2

6. Talab egri chizig’i doimo ……va ……...ga suriladi

A) pastga, o‘ngga

B) pastga, chapga

C) tepaga, o‘ngga

D) tepaga, chapga

7. Yalpi talab etuvchi omillar nechta hajmiga ta’sir?

A) 6

B) 5

C) 4

D) 3

8. AS egri chizig’i Keyns kesimida…..

A) gorizontal yoki ko‘tarilib boruvchi

B) vertikal yoki ko‘tarilib boruvchi

C) gorizontal yoki pasayib boruvchi

D) vertikal yoki pasayib boruvchi

9. AS egri chizig’i Klassik yoki neoklassik maktabi vakillari kesimida…

A) vertikal

B) gorizontal

C) ko‘tarilib boruvchi

D) pasayib boruvchi

10. Iqtisodchi olim V. Kamayev yalpi talabni qaysi ko‘rsatkichlarga bog’lab aniqlaydi?

A) pul massasi, pul miqdori va aylanish tezligi

B) pul massasi, sof ekportdagi o‘zgarish va pul aylanish tezligi

C) pul miqdori, boylik samarasi va pul aylanish tezligi

D) pul miqdori, ijtimoiy naflilik va pul aylanish tezligi

VI bob. ISTE’MOL, JAMG‘ARISH VA INVESTITSIYA FUNKSIYALARI

6.1. Daromad va iste’mol o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik

Hozirgi kunda mamlakatning xalqaro bozorlarda erkin tovar ayirboshlari ham xalqaro baholarda, jahon andozalariga moslashib bormoqda. Bu hol iqtisodiyot ta’minotining makroko‘lamdagi iste’mol funksiyasini o‘rganishni taqozo etadi. Chunki, iste’mol funksiyasi mohiyatini bilish iste’mol bozorini boshqarishda asos bo‘ladi.

Iste’mol bozorida xaridorlar faqat fuqarolardan iborat bo‘lmaydi. Xaridorlar tarkibiga aholiga bepul xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlar ham kiradi. Iste’mol bozorida har xil xizmatlar sotiladi. Iste’mol bozorining hajmi unda sotiladigan tovarlarning yalpi summasi bilan belgilanadi. Iste’mol tovarlari qat’iy davlat narxlari, nazorat qilinadigan narxlar va erkin narxlarda sotiladi.

Jamg‘arma - bu mamlakat yoki firmalar ixtiyoridagi turli majburiy to‘lovlar chegirib tashlangandan qolgan daromadning bir qismi. Jamg‘arma iste’mol maqsadida ishlatilmaydigan daromaddir. Jamg‘arma funksiyasi daromadlar bilan jamg‘arma xarajatlarining uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Uy xo‘jaliklari shaxsiy daromadlar miqdoridan turli xil soliqlarni to‘lagandan so‘ng o‘z ixtiyoridagi daromad qoladi. Buni biz milliy daromadning bir qismi ham deb ataymiz. Bu daromadlar uy xo‘jaliklari tomonidan iste’mol va jamg‘arish uchun ishlatiladi.

$$\mathbf{ID = S + S}$$

Demak, jamg‘arma bu uy xo‘jaligi ixtiyoridagi daromadning iste’mol qilinmagan qismidan iborat.

Agarda milliy iqtisodiyot tashqi dunyo bilan xech qanday aloqaga ega emas (X = O) va davlatning iqtisodiyotiga aralashuvi nolga teng (G=O) deb faraz qilinsa, unda sof milliy mahsulot ko‘rsatkichi (SMM) orqali ifodalangan ishlab chiqarish hajmi ixtiyoridagi daromadga (ID) teng bo‘ladi. Ya’ni:

$$\mathbf{SMM = ID = S + S ;}$$

Bu yerda makroiqtisodiy qonuniyat quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$S + I = S + S \text{ yoki } I = S$$

C + I = Yalpi xarajatlarga teng.

Ushbu jamg‘arish va investitsiyalardan ko‘rinib turibdiki, uy xo‘jaliklarining jamg‘arishga bo‘lgan istaklari tadbirkorlikning qancha miqdorda investitsiyalash xohishlariga mos tushsa, unda ishlab chiqarish hajmi (S+C) va yalpi xarajatlar (S+I) tengligiga yoki ishlab chiqarishning muvozanat darajasiga erishish mumkin.

Agarda deylik, iqtisodiyotda eksport-import aloqalari soliq solish va transfert to‘lovlari ko‘rinishida davlat aralashuvi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bunday holatda jamg‘arish tushunchasi murakkablashib quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$S = S_p + S_d + S_x$$

S_p - xususiy jamg‘armalar

S_d - davlat jamg‘armalari

S_x - boshqa mamlakatlar jamg‘armalari

Bunda xususiy jamg‘armalar teng bo‘ladi: daromadlar (u), transfert to‘lovlari (TQ), davlat zayomlari bo‘yicha foizlar yig‘indisi (N) minus soliqlar (T) va iste’mol (C);

$$S_p = (U + TQ + N - T) - C ;$$

Davlat jamg‘armalari teng - $S_d = (T - TQ - N) - G$;

Agar davlat jamg‘armalari nolga teng bo‘lsa, davlat byudjeti muvozanatlashgan, jamg‘arishning manfiy miqdori byudjet taqchilligini (VT) bildiradi: $VT = - S_g$.

Boshqa mamlakatlarning jamg‘armalari teng: tashqi dunyoning bizning importimiz hisobiga olgan daromadlari minus ularning bizning eksportimizga sarflangan xarajatlariga teng: ya’ni;

$$S_x = M - X \text{ yoki } S_x = -NX$$

Agar mamlakat eksportiga nisbatan ko‘proq import qilsa, unda daromadlarning bir qismi xorijda qoladi va keyinchalik u xorijiy sheriklar tomonidan bizning mamlakatimizda ko‘chmas mulk va moliyaviy aktiv sotib olishda foydalaniladi.

Har qanday holatda ham barcha turdagi jamg‘armalarning umumiy yig‘indisi investitsiyalarga teng bo‘ladi:

$$S_p+S_d+S_x = (U + TQ + N - T) - C + (T - TQ - N)) - G + (- Nx);$$

yoki

$$Sp+Sd+Sx = U - C - G - NX = IS = I.$$

6.2. Iste’mol va jamg‘arish, ularning grafiklari

Uy xo‘jaliklarining iste’mol xarajatlari YAMM tarkibidagi eng katta ulushga ega bo‘lgan qismidir. Shuning uchun iste’mol xarajatlariga ta’sir etuvchi omillarni va uning o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganish muxim ahamiyatga ega.

Uy xo‘jaliklari ixtiyoridagi daromadning iste’mol qilinmasdan qolgan qismi ularning jamg‘armalarini tashkil etadi. Iste’mol va jamg‘armalarning hajmini belgilovchi asosiy omil uy xo‘jaliklarining ixtiyordagi daromadlaridir.

Ixtiyordagi shaxsiy daromad iste’mol va jamg‘arish uchun ishlatiladi. Ya’ni, kancha ko‘p iste’mol qilinsa, shuncha kam jamg‘ariladi va aksincha. Iste’mol va jamg‘arish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik har xil daromadga ega bo‘lgan shaxslarda bir xil emas: kam daromadga ega bo‘lganlar, odatda, ko‘proq iste’mol qilib, kamroq jamg‘aradi, lekin daromadlari oshib borishi bilan bu nisbat jamg‘arish tomonga o‘sadi.

Iste’mol grafigi ikki to‘g‘ri chiziq ko‘rinishida berilgan. Birinchisida u shunday shartli xolatni izohlaydigan, ya’ni, har qanday yilda iste’mol ixtiyoridagi daromadga teng bo‘ladi. Ikkinchisi haqiqatda iste’mol grafigi bo‘lib, haqiqiy iste’mol va daromad teng bo‘lgan nuqtada (390) bissektrisa bilan kesishadi. Bundan quyi nuqtada haqiqiy iste’mol daromaddan oshiq.

6.2.1 -jadval

Daromad, iste’mol va jamg‘arish ko‘rsatkichlari

Yillar	Daromad (U), ming so‘m	Iste’mol (C), ming so‘m	Jamg‘arish (C), ming so‘m
1	370	375	-5
2	390	390	0
3	410	405	5
4	430	420	20
5	450	435	15
6	470	450	20
7	490	465	25



6.2.1 -rasm. Iste’mol grafigi

Bu vaziyat insonlarning qarz hisobiga hayot kechirishini bildiradi. Yuqori nuqtadagi haqiqiy iste’mol daromaddan kam hamda ular o‘rtasidagi farq jamg‘arishni tashkil etadi. Haqiqiy iste’mol to‘g‘ri chizig‘i iste’mol hajmini belgilovchi vertikal o‘qni α nuqtada kesib o‘tadi. Bu hol uy xo‘jaliklari umuman daromad olmaganlarida ham ma’lum miqdorda iste’mol qilishlarini anglatadi. **A** nuqta esa avtonom

iste’mol hajmini anglatadi. Yuqoridagi chizmaga asosan iste’mol funksiyasini yozamiz:

$$S = S_o + MRS \times (U - T)$$

yoki

$$S = a + vID$$

bu yerda **a** – avtonom xarajatlar.

ID – ixtiyordagi daromad. (**ID= U-T)**

T- soliqlar

v =MRS

Iste’mol hajmi avtonom iste’molga, ixtiyordagi daromad hajmiga va iste’mol hajmining ixtiyordagi daromad hajmiga bog‘liq.

Jamg‘arish grafigi daromad bilan jamg‘arish o‘rtasidagi bog‘liqliqni ifodalaydi. Vertikal o‘qdagi har bir nuqta jamg‘arma miqdorini bildiradi va daromad bilan unga muvofiq keladigan iste’mol hajmi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi (S=ID-C).



6.2.2-chizma. Jamg‘arish grafigi

Boshlang‘ich daromad darajasida jamg‘arish nolga (0) teng holda ular daromadi o‘sib borishi bilan oshib boradi. Jamg‘arish grafigi ham iste’mol grafigiga o‘xshab algebraik ifodaga ega:

$$S = -S_o + MRS \times (U - T) \text{ yoki } S = -a + (1-b)\, ID;$$

Bu yerda: **S** – xususiy sektor jamg‘armalari miqdori;

S_o (a) – mustaqil iste’mol;

MRS (1 - b) – jamg‘armaga chegaraviy moyillik;

u – daromad;

T – soliqlar.

Bunda: **a -** daromad darajasi uning boshlang‘ich nuqtasidan past bo‘lganda qarz hajmi;

v- og‘ish burchagi bo‘lib, jamg‘arishning o‘zgarishi (vertikal o‘zgarish) daromadning o‘zgarishiga (gorizantal o‘zgarish) bo‘lgan nisbati sifatida aniqlanadi: 5/ 20 k 0.25

Tenglamaga daromad to‘g‘risida byerilganlarni qo‘yib, unga muvofiq keladigan jamg‘arish miqdorini aniqlash mumkin:

$$S = - 97,5 + 0,25 + 370 = - 5$$

Iste’mol va jamg‘arish hajmiga ixtiyordagi daromad dinamikasidan tashqari qo‘yidagi omillar o‘zgarishlari ta’sir ko‘rsatadi:

1. Uy xo‘jaliklari daromadlari.
2. Uy xujaliklarida to‘plangan boylik hajmi.
3. Baholar darajasi.
4. Iqtisodiy kutish.
5. Iste’molchilar qarzlari hajmi.
6. Soliqqa tortish hajmi.

Bu omillar ta’sirida joriy ixtiyordagi daromad tarkibida iste’mol va jamg‘arish ulushi nisbatlari o‘zgaradi.

6.3. Iste’mol va jamg‘arishga o‘rtacha va chegaraviy moyillik

Makroiqtisodiy tahlil qilish va tartibga solishda iste’mol va jamg‘arma funksiyalarini yanada to‘laroq bilish uchun iste’mol va jamg‘armaga o‘rtacha moyillik va chegaralangan jamg‘arma va iste’molga moyillik tushunchalarini bilishimiz lozim.

O‘rtacha miqdor yoki iste’molga o‘rtacha moyillik deganda o‘z ixtiyoridagi daromaddan iste’mol xarajatlarining ulushi tushuniladi, ya’ni:

ARS =(S/U) x 100 % yoki ARS =Iste'mol (C) / Daromad (U) x 100 %

Ixtiyordagi daromaddan jamg'arish ulushini jamg'arishga o'rtacha moyillik deb ataladi, ya'ni:

ARS = (S/U) x 100% yoki ARS=Jamg'arma(C) / Daromad (U) x 100 %

Misol uchun daromad darajasi 410, 430 va 530 million so'mlarga va iste'mol darajalari 405, 420 va 495 million so'mlarga teng bo'lsa, iste'molga o'rtacha moyillikni hisoblaymiz, Ya'ni;

ARS = (405 / 410) x 100 % = 98, 78 yoki 0,98;

ARS = (420 / 430) x 100 % = 97,67 yoki 0,97;

ARS = (495 / 530) x 100 % = 93,39 yoki 0,93 ga teng ekan.

Demak, bu misollardan ko'rinib turibdiki daromadlar miqdori ko'payib borishi bilan iste'mol kamayib boradi va aksincha jamg'arma ko'payib boradi. Soliqlar to'langandan keyin qolgan daromadning bir qismi iste'mol qilinadi, ikkinchi qismi esa jamg'ariladi, yoki buni matematik holda ifodalasak;

ARS + ARS= 100% yoki 1

Uy xo'jaligi soliqlarni to'lagandan keyin qolgan barcha daromadlarni har doim ham iste'mol qilavermaydi. Daromadlar ma'lum darajada ko'payib va kamayib turadi.

Iste'mol qilinadigan daromadning o'sgan (yoki kamaygan) qismi (salmog'i) chegaralangan iste'molga moyillik deyiladi va qo'yidagicha aniqlanadi:

MRS=Iste'moldagi o'zgarish/Daromaddagi o'zgarish = ΔS /ΔU

Ya'ni **S = 420 - 495 = 15; U = 530 - 430 = 100;**

U = 430 - 410 = 20; S = 495 - 420 = 75;

MRS1 = 15 / 20 = 0,75; MRS2 = 75 / 100 = 0,75;

Bu shuni bildiradiki, daromadni 100 % ga (yoki bir birlikka) o‘zgarishida iste’mol 75 % (yoki 0,75) o‘zgaradi.

Daromadning o‘sgan (yoki kamaygan) qismi (salmog‘i), agarda jamg‘armaga qo‘yilsa, bunday daromad chegaralangan jamg‘armaga moyillik, deyiladi va qo‘yidagicha aniqlanadi:

MRS=Jamg‘armaning o‘zgarishi /Daromadning o‘zgarishi

=ΔS/ΔU

Ya’ni, **MRS1 = 5 / 20 = 0,25 ;** **MRS2 = 25 / 100 = 0,25 ;**

Shunday qilib chegaralangan iste’molga moyillik 0,75 ni tashkil etgan bo‘lsa, chegaralangan jamg‘armaga moyillik esa qolgan 0,25 ni tashkil etadi. Chegaralangan iste’molga moyillik va chegaralangan jamg‘armaga moyillik birgalikda soliqlarni to‘lagandan keyingi daromadga tengdir. Xulosa qilib aytganda, daromadning o‘sgan qismi iste’molga yoki jamg‘armaga ketadi. Agar daromadning o‘sgan qismi iste’mol qilinmasa, u jamg‘armaga qo‘yilgan bo‘ladi.

Qisqa muddatli davrlarda ixtiyordagi daromadlarning o‘sishi ARS ni kamaytirib, AR**S** oshishiga olib keladi. Ya’ni, iste’molchilar daromadlarining oshishi iste’mol xarajatlarini kamaytirib, jamg‘armalar miqdorini oshiradi. Ammo, uzoq muddatli davrlarda esa iste’molga o‘rtacha moyillik mutanosiblashadi. Chunki, iste’mol xarajatlari miqdori nafaqat ixtiyordagi daromadlar miqdoriga, balki umumiy yashash darajasiga hamda kutilayotgan va doimiy daromadlar miqdoriga ham ta’sir qiladi.

Iste’mol va jamg‘arma miqdorini aniqlaydigan omillar:

1. Uy xo‘jaliklari daromadlari;
2. Uy xo‘jaliklarida yig‘ilgan boyliklar;
3. Narxlar darajasi;
4. Iqtisodiy kutishlar;
5. Iste’mol qarzlari miqdori;
6. Soliqlar darajasi va x.

6.4. Investitsiya va unga talab

YAMMni xarajatlar bo‘yicha aniqlashning ikkinchi qismi bo‘lgan investitsiyalarga to‘xtalib o‘tamiz.

Investitsiyalar yoki kapital qo‘yilmalar – bu, hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo‘yilgan kapitaldir. O‘zining moliyaviy shakliga ko‘ra, ular foyda olish maqsadida xo‘jalik faoliyatiga qo‘yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko‘ra, yangi korxonalar qurish, uzoq muddatli xizmat ko‘rsatuvchi mashina va asbob-uskunalarga hamda shu bilan bog‘liq bo‘lgan aylanma kapitalning o‘zgarishiga ketgan xarajatlardir.

Demak, investitsiyalar bu yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga, ya’ni, kapital barpo etishga ketgan xarajatlardir.

Investitsiyalar investitsiyalash obyektiga ko‘ra uch turga bo‘linadi:

1. Ishlab chiqarish investitsiyalari.
2. Tovar moddiy zaxiralariga investitsiyalar.
3. Uy joy qurilishiga investitsiya.

Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi omil real foiz stavkasidir. Real foiz stavkasi ortishi bilan investitsiyalar hajmi kamayadi. Chunki investorlar uchun qarz bahosi ortib, ular oladigan foyda normasini pasaytirib qo‘yadi.

Avtonom investitsiyalar grafigi qo‘yidagicha



6.4.1-rasm. Avtonom investitsiyalar grafigi

Avtonom investitsiyalar funksiyasi qo‘yidagicha:

$$I = e - dR$$

Bu yerda **I** - avtonom investitsiya xarajatlari.

e – foiz stavkasi 0 ga teng bo‘lgandagi xarajatlarning maksimal hajmi. **U** yer, foydali qazilma boyliklari bilan belgilanadi.

R- real foiz stavkasi.

d – investitsiyalarning real foiz stavkasi dinamikasi o‘zgarishiga ta’sirchanligini belgilovchi empirik koeffitsent.

Sof xarajatlarning investitsiyaga bo‘lgan xarajati miqdori ikkita omilga, ya’ni, sof foydaning kutilayotgan me’yori va foiz stavkasi yoki tadbirkor real kapitalni sotib olishga zarur pulga ega bo‘lishi uchun to‘lashi lozim bo‘lgan bahoga teng.

Agarda kutilayotgan foyda me’yori foiz stavkasidan yuqori bo‘lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda miqdoridan yuqori bo‘lsa, investitsiyalash foydali bo‘lmay qoladi.

Misol uchun, zavodga 100000 so‘mlik yangi stanok sotib olindi. Uni ishlatish muddati bir yilga teng deylik. Yangi stanokni qo‘llashdan zavod 110000 so‘mlik kutilayotgan sof daromadni oladi desak, zavod stanok xarajatini (100000 so‘m) qoplagan va 10000 so‘m daromad olgan bo‘ladi. Sof foyda normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Fn = 10000/100000 \times 100\% = 10\%$$

Investitsiya xarajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasining o‘zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyatsiya darajasi ayirmasi ko‘rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16% ga teng bo‘lsa, inflyatsiya darajasi yiliga 12% ni tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4 foizni (16%-12%) tashkil etadi. Shuni ta’kidlash kerakki, investitsiyalash qarorini qabul qilishda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasida, nominal foiz stavkasi joriy baholarda, real foiz stavkasi doimiy yoki inflyatsiya hisobga olingandan

keyin aniqlashtirilgan baholarda hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, real foiz stavkasi - bu, nominal foiz stavkasidan inflyatsiya chegirib tashlab, topilgan foiz stavkasidir.

Real foiz stavkasi = nominal foiz stavkasi - inflyatsiya foizi

Demak, real foiz stavkasi, ya'ni, pul kapitalini qarz olish bahosi qanchalik yuqori bo‘lsa, investitsiyalashni xohlovchilar shuncha kam bo‘ladi va aksincha, real foiz stavkasi qanchalik past bo‘lsa, foyda keltiradigan investitsiya loyihalari shuncha ko‘p bo‘ladi.

Foiz stavkasining miqdori pul-kredit siyosatining muhim vositasi hisoblanadi: davlat uni o‘zgartirish orqali mamlakatdagi pul taklifini tartibga solib turadi.

Foiz stavkasining ko‘tarilishi pul qimmatlashuvi va unga bo‘lgan talabning qisqarayotganligini bildiradi. Demak, investitsiya xarajatlari ham qisqarib boradi. O‘z navbatida investitsiya xarajatlarining qisqarishi, kelajakda milliy ishlab chiqarish hajmining pasayishini bildiradi.

Hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda ishlab chiqarish tarmoqlari muhim o‘rin egallaydi. Respublikamizda keyingi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohatlar natijasida respublika yalpi ichki mahsulotda ishlab chiqarish tarmoqlarining ulushi yildan yilga ko‘payib bormoqda. Ishlab chiqarish tarmoqlarning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy muammolarni echishda, balkim ijtimoiy muammolarni, ya'ni, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish orqali aholi bandligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun respublikamizda iqtisodiyot tarmoqdariga investitsiyalarni jalb qilishga katta e'tibor berib kelinyapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “2019-yilda barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trillion so‘mlik yoki 2018 yilga nisbatan 16 foiz ko‘p investitsiyalarni o‘zlashtirish mo‘ljallanmoqda. Bu borada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdori joriy yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshirilib,

4,2 milliard dollarga yetkaziladi. Natijada 142 ta zamonaviy korxona ishga tushiriladi.” kabi bir qator vazifalar qo‘yildi.

6.4.1- jadval

O‘zbekiston respublikasida 2000- 2022 yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi[22]

Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar					2022 yil 2000 yilga nisbatan farqi
	2000	2005	2010	2015	2022	
Asosiy kapitalga investitsiya hajmi. mlrd. so‘m	744,5	3165,2	15338,2	41670,5	68423,9	+67679,4
YaIM asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya ulushi %	22,9	19,9	24,6	24,3	26,9	+4
Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga investitsiya hajmi ming.sum	30,2	121	543,4	1331	2112,6	+2082,4

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki O‘zbekistonda 2022 yilda iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga barcha manbalardan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 68,4 trln. so‘m yoki 13,4 mlrd. AQSH doll.tashkil qilga, bu esa 2021 yilga 120,4% ko‘paydi. Investitsiya hajmi 2000 yilga nisbatan 6,6 marta yoki 67679,4 mlrd. so‘mga ko‘paydi , 2005 yilga nisbatan 5,1 marta, 2010 yilga nisbatan 2,0 marta va , 2015 yilga nisbatan esa 129,7%.ga ko‘paydi.

Mamlakatning investitsion faolligini baholovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri-asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YAIM dagi ulushidir.Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki ushbu ko‘rsatkich yildan yilga ko‘payib bormoqda va 2022 yilda 2000 yilga

[22] Manba muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy veb -saytida e’lon qilingan ochiq ma’lumotlari asosida tuzilgan.

nisban 4 punktga ko‘paygan bo‘lsa 2021 yilga nisbatan 2,8 punktga ko‘paydi. Ushbu ko‘rsatkichning yildan yilga ko‘payishi ijobiy holatdir va bu mamlakat investitsion faolligi oshib borayotganligidan dalolat byeradi.

Mamlakt investitsion faolligi baholovchi yana bir ko‘rsatkich bu-aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga investitsiya hajmidir. Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga investitsiya yildan yilga ko‘payib bormoqda. Ya’ni, 2022 yilda ushbu ko‘rsatkich 2112,6 ming so‘mni tashkil qilgan va o‘tgan yilga nisban 118,4% ko‘paygan bo‘lsa 2000 yilga nisbatan qariyib 70 martaga ko‘paydi. Ammo, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha rivojlangan mamlakatlarga nisbatan juda quyi o‘rinlarni egalab turibmiz.

Iqtisodiyotga kiritilyotgan investitsiyalarning samaradorligiga ta’sir qiluvchi yana bir omil ularning qaysi sohalarga yo‘naltirilganligidir.

Quyidagi jadval ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning qariyib 40 % sanoatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Shulardan 20,8 % konchilik sanoatiga yo‘naltirilgan bo‘lsa 17,9% qayta ishlash sanoati korxonalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

6.4.2 -jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiya[23]

	Yillar				Farqi +,-.	
	2021		2022			
	mlrd. so‘m	jamiga nis . %	mlrd. so‘m	jamiga nis . %	mlrd. so‘m	jamiga nis . %
Jami	48083,1	100	68423,9	100	+20340,8	
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1646,4	3,4	2379,3	3,5	+732,9	+0,1
Konchilik sanoati	7173,4	14,9	14203,8	20,8	+7030,4	+5,8

[23] Manba muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy veb -saytida e’lon qilingan ochiq ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Qayta ishlash sanoati	8992	18,7	12238,1	17,9	+3246,1	-0,8
Elektr, gaz va bug‘ ta’minot va va xavoni konditsionerlash	2722,6	5,7	5472,2	8,0	+2749,6	+2,3
Suv ta’minoti, kanalizatsiya	717,3	1,5	963,6	1,4	+246,3	-0,1
Qurilish	932	1,9	1427,9	2,1	+495,9	+0,1
Ulgurja savdo,mototsikl va transport vositalarning motori ta’mirlash	2459,2	5,1	2508,9	3,7	49,7	-1,4
Tashish va saqlash	5785	12,0	6369	9,3	584	-2,7
Mexmonxona va ovqatlanish uchun xizmatlar	929,7	1,9	550,8	0,8	+-378,9	-1,1
Axborot va aloqa	1098,5	2,3	1926,1	2,8	+827,6	+0,5
Faoliyatning boshqa turlari	15627	32,5	20384,2	29,8	+4757,2	-2,7

Qisqacha xulosalar

Iste’mol xarajatlarini YaIMning eng yirik komponenti bo‘lib, uning hajmini avvalo uy xo‘jaliklarining tasarrufidagi daromadi belgilaydi. Aholining daromadlari miqdori oshib borishi bilan undagi jamg‘armalar ulushi ham oshib boradi.

Iste’mol va jamg‘arish hajmi, shuningdek iste’molchilar boyliklari darajasiga, narx va soliq o‘zgarishlari, iste’molchilarning qarzi darajasiga va boshqa omillarga bog‘liq.

Iste’mol va jamg‘arishga o‘rtacha moyillik aholi daromadlarining qancha qismi iste’molga va qancha qismi jamg‘armaga sarflanganligini xarakterlovchi ko‘rsatkichlardir.

Iste’molga chegaraviy moyillik (MRC) iste’moldagi o‘zgarishlarni ixtiyordagi daromad darajasidagi o‘zgarishga bo‘lib topiladi. MRS ning

katta yoki kichikligi fiskal siyosat samaradorligini belgilovchi omillardan biridir.

Investitsiya yoki kapital qo‘yilmalar hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo‘yilgan mablag‘ hisoblanadi. Investitsiya xarajatlari dinamikasi, foiz stavkasi, kutilayotgan sof foyda normasi va boshqa bir qancha omillarga bog‘liq.

Investitsiya hajmining YaMM hajmiga bog‘liqligini xarakterlovchi model - akselerator modeli deyiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Daromad, iste’mol va jamg‘armalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushuntirib bering. Qanday holatda iste’mol daromadga teng bo‘ladi va qanday holatda jamg‘arish bo‘ladi?

2. Iste’mol va jamg‘arma grafiklarini izoxlang. Ya’ni, qanday vaziyatda jamg‘arish bo‘ladi va qanday vaziyatda qarz hisobiga xayot kechiriladi?

3. Iste’mol va jamg‘armaga o‘rtacha va chegaraviy moyillik tushunchasini izohlang. Iste’molga jo‘natiladigan yillik daromadning foydalaniladigan qismining foizdagi ko‘rsatkichi nimadan iborat bo‘ladi?

4. Qaysi mablag‘larni biz investitsiya tarkibiga kiritamiz. Investitsiya bilan ularga qilingan xarajatlar o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud. Rejali investitsiya va rejalashtirilmagan investitsiya o‘rtasida qanday farq mavjud?

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Davlat sarflarining kamayishi yalpi talabga qanday ta’sir etadi?

A) talab kamayadi

B) talab oshadi

C) ta’sir qilmaydi

D) barqarorlikka erishadi

2. Sof eksport salohiyatining kengayishi milliy mahsulotga bo‘lgan yalpi talabga qanday tas’ir etadi ?

A) o‘suvchi

B) pasayuvchi

C) barqaror

D) ta’sir etmaydi

3. Eksport hajmining kamayishi va import hajmining oshishi …… ni beradi?

A) sof eksport saldosi

B) iqtisodiy barqarorlik

C) sof eksportdagi o‘zgarish

D) boylik samarasi

4. Real kassa qoldig’i atamasini yana nima deb atash mumkin?

A) boylik samarasi

B) sof eksport saldosi

C) iqtisodiy barqarorlik

D) sof eksportdagi o‘zgarish

5. Mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan naflilik o‘z navbatida necha turga bo‘linadi?

A) 4

B) 3

C) 5

D) 2

6. Talab egri chizig’i doimo ……va ……...ga suriladi?

A) pastga, o‘ngga

B) pastga, chapga

C) tepaga, o‘ngga

D) tepaga, chapga

7. Yalpi talab hajmiga ta’sir etuvchi omillar nechta?

A) 6

B) 5

C) 4

D) 3

8. AS egri chizig’i Keyns kesimida…..

A) gorizontal yoki ko‘tarilib boruvchi

B) vertikal yoki ko‘tarilib boruvchi

C) gorizontal yoki pasayib boruvchi

D) vertikal yoki pasayib boruvchi

9. AS egri chizig'i Klassik yoki neoklassik maktabi vakillari kesimida…

A) vertikal

B) gorizontal

C) ko'tarilib boruvchi

D) pasayib boruvchi

10. Iqtisodchi olim V. Kamayev yalpi talabni qaysi ko'rsatkichlarga bog'lab aniqlaydi?

A) pul massasi, pul miqdori va aylanish tezligi

B) pul massasi, sof ekportdagi o'zgarish va pul aylanish tezligi

C) pul miqdori, boylik samarasi va pul aylanish tezligi

D) pul miqdori, ijtimoiy naflilik va pul aylanish tezligi

VII bob. KEYNSNING TOVARLAR VA XIZMATLAR BOZORIDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT MODELI

7.1. Klassik iqtisodchilarning iqtisodiy muvozanat nazariyasi

«Buyuk depressiya» davrida ko‘pgina yetuk iqtisodchilar, ya’ni, hozirgi kunda klassiklar deb ataladigan iqtisodchilar, bozor iqtisodiyoti iqtisodiyotdagi resurslardan to‘liq foydalanish imkonini beradi, deb hisoblashgan edi. Ammo, ular iqtisodiyotda ayrim vaqtlarda - urush, siyosiy to‘ntarish, tabiiy ofat va shuningdek, boshqa holatlarda o‘zgarishlar bo‘lib turushini tan olishsa ham, bozor tizimining o‘ziga xos xususiyatlari bu iqtisodiy qiyinchiliklarni o‘z-o‘zidan hal qiladi, deb tuShuntirishadi.

Klassiklar nazariyasida ikkita asosiy tushuncha mavjud

1) To‘liq bandlik sharoitida mahsulotlarni sotib olish uchun xarajatlar miqdorining etishmasligi (ya’ni, AD≠AS bo‘lishi) mumkin emas.

2) Umumiy xarajatlar miqdori etishmay qolgan sharoitda ham baho, ish haqi va foiz stavkasi kabi dastaklar ishga tushadi va natijada xarajatlar miqdorining kamayishi ishlab chiqarishning real hajmi, bandlik va real daromadlar miqdorining kamayishiga olib kelmaydi.

Pul bozori investitsiya va jamg‘armalar tengligini hamda to‘liq bandlik sharoitini ta’minlaydi. Faqatgina, ishsizlikning tabiiy darajasida «ixtiyoriy» ishsizlik bo‘lishi mumkin, deb hisoblashadi. Bu shuni bildiradiki, AD va ASning tenglik nuqtasida ishlab chiqarish hajmi (u) uning potensial hajmiga (u*) teng.

Klassiklar nazariyasini tan olmaslik asosan Sey qonunidan boshlangan. Sey qonunining moxiyati mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonining o‘zi ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymatiga teng ravishda daromad yaratadi degan oddiy g‘oyadan iborat. Demak, mahsulotlarni sotib olish uchun har qanday mahsulotlar hajmini ishlab chiqarish o‘z-o‘zidan daromad yaratadi. Ya’ni, taklif o‘zining xususiy talabini paydo qiladi. Sey qonunining moxiyatini mahsulotlar ayirboshlash savdosida

ham ko‘rish mumkin. Poyafzalchi poyafzal ishlab chiqaradi yoki o‘ziga zarur bo‘lgan boshqa mahsulotlarga bo‘lgan talabini qondirish uchun poyabzal taklif qiladi. Poyafzalchi tomonidan poyafzalning taklif qilinishi uning talabidan iborat. Butun iqtisodiyot bo‘yicha mahsulotlar almashishi xuddi shu tarzda amalga oshiriladi.

Ammo, Sey qonuni mahsulotlar ishlab chiqarishi, mos ravishda pul daromadlari summasini olish imkonini bersa ham, iste’molchilar ushbu daromadlarning hammasini to‘liq xarajat qilmasligi umum qabul qilingan tushunchadir. Ya’ni, daromadlarning qandaydir bir qismi jamg‘ariladi va bu qism нuqoridagi baxsda o‘z javobini topmaydi. Jamg‘arish daromadlar tarkibidan ma’lum miqdordagi mablag‘larni o‘zida mujassamlashtiradi. Demak, iste’mol xarajatlari barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdorini sotib olishga etmaydi. Agarda uy xo‘jaliklari o‘z daromadlarining bir qismini jamg‘arishsa, u xolda taklif o‘z talabini paydo qilmaydi. Jamg‘arish iste’molning yetishmasligiga, natijada, sotilmay qolgan mahsulotlar ishlab chiqarishning kamayishiga olib keladi.

Ammo, klassik iqtisodchilar haqiqatda jamg‘arish talabning etishmasligiga olib kelmaydi, chunki har bir jamg‘arilgan so‘m tadbirkorlar tomonidan investitsiyalashadi, deb ta’kidlashadi. Agarda, tadbirkorlar uy xo‘jaliklarining jamg‘armalari miqdorida investitsiya qilishsa, Sey qonuni amal qiladi va ishlab chiqarish hamda bandlik darajasi doimiy bo‘lib qoladi. Iqtisodiyotning to‘liq bandlik sharoitidagi daromadlar va mahsulotlar ishlab chiqarishini ta’minlashi uchun xarajatlar darajasiga yerishishi va uni saqlab qolishi, tadbirkorlar tomonidan uy xo‘jaliklari jamg‘armalari miqdorida investitsiyalashiga bog‘liq.

Yuqorida aytganimizdek, klassik iqtisodchilar ta’kidlashicha, kapitalizmning o‘ziga xos pul bozori mavjud va bu bozor jamg‘arma va investitsiyaning tengligini ta’minlaydi. Shuning uchun ham to‘liq bandlik mavjud, ya’ni, pul bozorida (foiz stavkalari) jamg‘arma tariqasida daromadlar va xarajatlar miqdoridan chiqqan mablag‘lar o‘z-o‘zidan investitsion mahsulotlarga sarf qilingan mablag‘lar miqdorida qaytadan kelishi ustidan nazorat olib boriladi. Foiz stavkalari yordamida

jamg‘arma va investitsiyalarni boshqarishning izohi oddiy va hammaga tushunarlidir.

Klassik iqtisodchilarning ta’kidlashicha, boshqa vaziyatlarda uy xo‘jaliklari jamg‘arish o‘rniga iste’mol qilishni afzal ko‘rishadi. Tovar va xizmatlar iste’moli insoniyat talabini qondiradi, foydalanilmagan mablag‘lar yo‘q. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, iste’molchilar ularning tejamkorligini rag‘batlantirish tariqasida foiz stavkalari to‘lasagina jamg‘arishi mumkin. Foiz stavkalari qanchalik yuqori bo‘lsa, shunchalik ko‘p mablag‘ jamg‘ariladi. Jamg‘armalardan foydalanish uchun kimlar to‘lov ishlarini olib borishadi? Albatta, korxona raxbarlari, investorlar, ya’ni, o‘zining ishlab chiqarishini kengaytirish va yangilash uchun pul kapitalini izlovchilar hisoblanishadi.

Bilamizki, foiz stavkalari ishbilarmonlarning ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Demak, ular o‘z vaqtida foiz stavkalarining pastroq bo‘lishiga intilishadi. Qisqacha aytganda foiz stavkalarining o‘zgarishi Sey qonunini ko‘prok miqdorda jamg‘armalar mavjud bo‘lgan iqtisodiyotda ham faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi. Foiz stavkasi, jamg‘arma va investitsiyani bog‘lab turar ekan, butun iqtisodiyot shunday bo‘lishi kerak, deb ta’kidlashadi.

Klassik iqtisodchilar o‘z g‘oyalarini yana bir tuShuncha bilan isbotlashga harakat qilishadi. Ya’ni, tadbirkorlar tomonidan taklif qilingan mahsulotlar hajmining darajasi nafaqat umumiy xarajatlar miqdoriga, balki mahsulotlar bahosi darajasiga ham bog‘liq. Bu Shuni bildiradiki, agarda foiz stavkalari ayrim sabablarga ko‘ra, jamg‘armalarni investitsiyalar tariqasida ishlab chiqarishga qaytarmasa, kamaygan har qanday xarajatlar miqdori mos ravishda bahoning pasayishi bilan qoplanadi. Boshqacha aytganda 40 so‘mga 10 so‘mdan to‘rtta ko‘ylak sotib olishsa, narxlar 5 so‘mga kamayganda 20 so‘mga shuncha ko‘ylak sotib olish mumkin.

Sotuvchilar o‘rtasidagi raqobat bahoning egiluvchanligiga olib keladi. Bundan tashqari talabning kamayishi ortiqcha mahsulotlardan qutilish uchun narxlarning pasayishiga sabab bo‘ladi. So‘m to‘lov qobiliyatining oshishi jamg‘armasi mavjud bo‘lmagan shaxslar mavjud pul mablag‘lari sharoitida ko‘proq mahsulotlar sotib olishga undaydi.

Shuning uchun jamg‘arma ishlab chiqarish va bandlikning pasayishiga emas, balki narxlarning pasayishiga olib keladi. Narxlarning pasayishi resurslar narxining pasayishiga, xususan, ish haqining pasayishiga ham olib keladi.

Klassik iqtisodchilarning fikricha, ish haqi miqdori kamayadi va kamayishi kerak. Ish haqining kamayishi ishsizlar sonini oshiradi. Ammo, ishbilarmonlar ishsizlarni oldingidek yuqori ish haqi stavkalari bilan emas, balki past stavkalar bilan ishga jalb qilishadi. Mehnatga bo‘lgan talab tezda kamayadi. Yuqori ish haqi stavkalarida ishlaydigan ishchilar past ish haqi stavkalarida ishlashga majbur bo‘lishadi. Raqobatning mavjudligi ishchilarni shunga rozi bo‘lishga majbur qiladi. Bo‘sh ish joylariga bo‘lgan raqobat ish xaqining shu darajagacha pasayishiga olib keladiki, toki ishbilarmonlar barcha ishsizlarni ishga jalb qila olishsin. Shuning uchun klassik iqtisodchilar majburiy ishsizlik mavjud bo‘lmaydi, deb hisoblashadi. Ularning fikricha,davlatning iqtisodiyotga aralashuvi umuman mumkin emas.

7.2. Keynsning iqtisodiy muvozanat nazariyasi

Klassik iqtisodchilarning bandlik nazariyasiga iqtisodiyotda mavjud bo‘ladigan ishsizlik va inflyatsiya to‘g‘ri kelmaydi. Bilamizki, iqtisodiyotda to‘liq bandlik sharoitiga har doim ham erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham iqtisodchilar klassik nazariyaning asosiy jaxatlarini tanqid qila boshladilar.

1936-yili ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns kapitalizm iqtisodiyotiga yangi, ish bilan bandlik nazariyasini kiritadi. U o‘zining «Pul, foiz va ish bilan bandlikning umumiy nazariyasi» asosida uning noto‘g‘ri jihatlarini isbotlashga urindi.

Keyns nazariyasining eng qa’tiy jihati shundaki, u bozor iqtisodiyotida ish bilan to‘la bandlikni ta’minlaydigan hech qanday mexanizm yo‘qligini isbotladi. Makroko‘lamda iqtisodiyot muvozanatga yerishishi mumkin, lekin shunda ham ma’lum miqdorda ishsizlik va inflyatsiya saqlanib qolishini, to‘la ish bilan bandlik qonuniy holat emasligini, balki tasodif ekanligini, kapitalizm o‘z-o‘zidan tartibga tushib, rivojlanib ketavermasligini isbotlab berdi. Shuningdek,

iqtisodiyotdagi tebranishlar faqat urush, tabiiy ofat va shu kabi vaziyatlargagina bog‘liq emasligini, balki u tinchlik yillarida ham ichki omillarning salbiy oqibatlaridan kelib chiqishi mumkinligini asoslagan.

Ishsizlik va inflyatsiyaning kelib chiqishi investitsiya va jamg‘armalarga bevosita bog‘liq.

Narxlarning oshishi va ish xaqining pasayishi boshqa salbiy omillar bilan birga iqtisodiyotning beqarorligiga olib keladi. Keyns nazariyasi Sey qonunini ham ma’lum darajada inkor etadi. Sey qonuni bo‘yicha tadbirkorlar faoliyati va jamg‘arish rejalari foiz stavkasida mutanosiblashadi. Keynschilarning fikricha esa, agar tadbirkorlar jamg‘armalarni ko‘paytirishsa, firmalar investitsiyalarni ko‘paytirishlari mumkin. Qo‘yidagi 7.2.1-chizmadan ko‘rinib turibdiki, jami talab va taklifning tengligi sharoitida (AD=AC), ishlab chiqarish hajmi uning potensial hajmidan kam (U0≠U*).



7.2.1-chizma. Talab va taklifning tengligi

Bunday nomutanosiblikning asosiy sabablaridan biri rejalashtirilgan investitsiyalar va jamg‘armalarning bir-biriga mos kelmasligidir.

Chunki, jamg‘aruvchi subyektlar va investorlar har xil guruhdagi odamlardir. Korxonalar, ayniqsa, korporatsiyalar katta miqdordagi investitsiya qarorlarini qabul qilishadi. Katta xajmdagi ishlab chiqarishga ega bo‘lgan iqtisodiyotda uy xo‘jaliklari ko‘p miqdorda jamg‘arishadi. Shuni aytib o‘tish kerakki, jamg‘arish va investitsiyalarni har xil guruhlardagi odamlar turli maqsadlarda qabul qilishadi.

Keynschilar fikricha, jamg‘arma va investitsiyalar bitta omilga bog‘liq bo‘lmagan xolda turli sabablar asosida amalga oshiriladi. Masalan, ayrimlari qiymati o‘zining ish xaqi miqdoridan ortiq bo‘lgan mahsulotlarni sotib olish uchun, uy xo‘jaliklari esa avtomobil yoki televizor harid qilish uchun jamg‘arishadi. Jamg‘armalar biror shaxs yoki oilaning kelajakdagi iste’molini qondirish maqsadida; ya’ni, uy xo‘jaliklari oila boshlig‘ining nafaqaga chiqqandan keyingi xayotini yoki bolalari kelajagini ta’minlash maqsadida jamg‘arishadi.

Bundan tashqari jamg‘arma tasodifiy vaziyatlarda foydalanish maqsadida jamg‘ariladi. Keynschilar ta’kidlashicha, jamg‘arma va investitsiyalarni aniqlashning eng asosiy omili milliy daromad hisoblanadi.

Nima uchun tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini sotib olishadi? Investitsiyalash uchun pul kapitaliga ega bo‘lishga to‘lanadigan to‘lovlar, ya’ni foiz stavkasi investitsiya rejasini tuzayotganda hisobga olinadi. Ammo, foiz stavkasi yagona omil hisoblanmaydi. Investitsiyalar miqdorini aniqlashda asosiy omillardan biri foyda normasi ham sanaladi.

Klassiklar nazariyasi bo‘yicha jamg‘arma va investitsiyalar miqdorini aniqlaydigan asosiy omil foiz stavkasi hisoblanadi. Agarda, u oshsa, uy xo‘jaliklari kamroq iste’mol qilib, ko‘proq jamg‘arishga harakat qilishadi. Uy xo‘jaliklarida jamg‘armalarning ko‘payishi kredit narxlarining kamayishiga olib keladi. Bu esa o‘z vaqtida investitsiyaning o‘sishini ta’minlaydi.

Keynschilar fikricha esa, pul bozorida boshqa ikkita manba mavjud. Birinchidan, uy xo‘jaliklarining naqd jamg‘armalari va ikkinchidan, pul taklifini ko‘paytiradigan kredit tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi.

Keynschilar nazariyasi bo‘yicha aholi o‘z mablag‘larini nafaqat kunlik xaridlarni amalga oshirish uchun, balki o‘z boyliklarini oshirish uchun ham saqlashadi. Bu pul vositalari bir qismining kamayishi va ularni pul bozorida investorlarga berish, joriy jamg‘armalarga nisbatan solishtirganda vositalarning ortiqchaligiga olib qelishi mumkin. Shunga o‘xshash kredit beradigan muassasalardan ssudalarning berilishi pulning taklifini ko‘paytiradi. Bank yoki boshqa moliyaviy tashkilotlardan kreditlarning berilishi joriy jamg‘armalar ko‘payishiga asos bo‘ladi. Natijada uy xo‘jaliklari qo‘lidagi pul vositalarining kamayishi va banklar tomonidan ssudalarning berilishi investitsiyalar miqdori joriy jamg‘armalar miqdoridan oshishiga olib kelishi mumkin.

Bunda iste’molning oddiy funksiyasi qo‘yidagi ko‘rinishga ega:

$$\mathbf{S = S_0 + MRS\ (U - T);}$$

Bu yerda: **S** - iste’mol xarajatlari;

a - mustaqil iste’mol (joriy daromadlar miqdoriga bog‘liq bo‘lmagan);

v – iste’molga chegaraviy moyillik;

U-daromad;

T-soliqlar;

(U–T)–ixtiyoridagi daromad. Makroiqtisodiy modellarda bu ko‘rsatkich **U** Yoki **ID** ko‘rinishni bildiradi.

Keynschilar yondashuvi shundan iboratki, jamg‘arish va investitsiyalar rejasi bir-biriga mos kelmaydi va shuning uchun ham ishlab chiqarish, daromad, bandlik, narxlar darajasida o‘zgarishlar bo‘lib turadi. Bundan tashqari, keynschilar fikricha, narxlar darajasi va ish xaqi xaqiqatda pasayishga yo‘naltirilgan eguluvchanlikdan iborat emas. Xatto ular Shunday bo‘lgan taqdirda ham shubhalidir. Chunki narxlar va ish haqining pasayishi keng tarqalgan ishsizlikni biroz yumshatishi mumkin, xolos.

7.3. Klassik iqtisodchilar va keynschilar iqtisodiy muvozanat nazariyalarida jami talab va uning o‘zgarishi

Klasssik iqtisodchilar fikricha, jami talab egri chizig‘i vertikal to‘g‘ri chiziqdan iborat va faqat ishlab chiqarishning real hajmini ifodalaydi. Ikkinchidan, pastga egilgan jami talab egri chizig‘i barqaror bo‘lishga intiladi va faqat narxlar darajasini aniqlaydi. Bu ikki umum ko‘rsatkichni qarab chiqamiz.

1. **Vertikal jami taklif**. Vertikal jami taklif egri chizig‘i ishsizlikning tabiiy darajasiga yoki to‘liq bandlik sharoitdagi ishsizlik darajasiga to‘g‘ri keladi. Klassiklar fikricha, iqtisodiyot - Sey qonuni, barqaror foiz stavkasi, egiluvchan narx va ish xaqi kabi omillar ta’sirida to‘liq bandlik sharoitida faoliyat ko‘rsatadi. Narxlar o‘zgarishi bilan bir vaqtda ishlab chiqarish hajmi o‘zgarmaydi.

Oldingi mavzularda ko‘rib o‘tdikki, narxlarning past darajasida ishlab chiqarish foydaliligi kamayadi va ishlab chiqaruvchilarni kamroq mahsulotlar taklif qilishga va shuningdek, kamrok ishchilarni jalb qilishga undaydi. Klassiklar fikricha, ishlab chiqarishga kiritilayotgan omillarga xarajatlar narxlar pasayishi bilan bir vaqtda kamayadi va natijada real foyda va ishlab chiqarish hajmi o‘zgarmay qoladi.

2. **Barqaror jami talab**. Klassiklar hisobicha, jami talab asosida pul yotadi. Ya’ni, ishlab chiqarishning real hajmini sotish birinchidan, uy jixozlari va ishbilarmonlardagi mavjud pul miqdorlariga, ikkinchidan, ushbu pullarning narxlar darajasi bilan aniqlanadigan to‘lov qobiliyatiga va real qiymatiga bog‘liq. Vertikal chiziq bo‘yicha pastga tushsak, narxlar darajasi kamayadi. Bu shuni bildiradiki, har bir so‘mning to‘lov qobiliyati oshadi va shuning uchun ushbu pullarga ko‘proq mahsulotlar sotib olish mumkin.

Klassiklar fikricha, davlat moliya tashkilotlari pul taklifini doimiy ravishda qo‘llab turadi. Ushbu taklif egri chizig‘ida pul miqdorini ko‘paytirish inflyatsiyaga, kamaytirish esa deflyatsiyaga olib keladi. Shuning uchun narxlar barqarorligini saqlab turishda pul taklifi ustidan nazorat olib borish kyerak.

Keynschilar fikricha, mahsulotlar narxi va ish haqi egiluvchan emas, shuning uchun jami taklif egri chizig‘i gorizontal o‘qdan iborat. Bundan tashkari, jami taklif talabdagi narx omillaridan birortasining o‘zgarishiga bog‘liq ravishda davriy o‘zgarib turadi.

1. **Gorizontal jami taklif** egri chizig‘i pasayishiga qarab, narx darajasi va ish haqining noelastikligi jami taklif egri chizig‘ini gorizontal joylashtiradi. Bunday holatda ishlab chiqarish hajmining kamayishi naxlarning pasayishiga, shuningdek, real ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi narxlarning oshishiga olib kelmaydi. Shuning uchun ham Keynsian kesma ishlab chiqarish hajmining nol darajasidan to‘liq bandlikka erishishi yoki ishlab chiqarishning potensial hajmiga erishgungacha bo‘lgan qismidan iborat. Keynschilar fikricha, to‘liq ish bilan bandlikga erishgandan keyin jami taklif egri chizig‘i vertikal yo‘nalish oladi.

2. **Nobarqaror jami talab.** Keynschilar fikricha pul taklifida hech qanday o‘zgarish bo‘lmasa ham jami talab nobarqarordir. Xususan, jami talabdagi investitsiya kabi omillar o‘zgarishga olib keladi. Masalan, jami talabning o‘zgarishi ishlab chiqarish hajmi va bandlikga ta’sir ko‘rsatadi. Narxlar darajasi esa o‘zgarmay qoladi.

Klassiklar fikricha, pul taklifida katta o‘zgarish bo‘lmasa jami talab o‘zgarmaydi, ya’ni barqaror hisoblanadi. Jami talab kamaygan taqdirda ham narxlar va ish xaqining egiluvchanligi ishlab chiqarish real hajmining barqarorligini ta’minlaydi. Shuning uchun ham davlatning makroiqtisodiy siyosati ortiqchadir. Keynschilar fikricha, jami talabning o‘zgaruvchanligi va narxlarning noegiluvchanligi ishsizlik darajasi oshishiga olib keladi.

Iqtisodiyotda katta yo‘qotishlar qilmaslik uchun davlat jami talabni boshqarib turish maqsadida makroiktisodiy siyosat yuritish lozim, deb hisoblaydi. Keynsianchilar fikricha, jami talabni tahlil qilishda narxlarning noegiluvchanligidan tashqari YaMMni hisoblashda to‘rtta komponent, ya’ni, iste’mol, investitsiya, davlat xaridi va sof eksportni ham qarab chiqish kerak.

7.4. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar. “Keyns xochi”. Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi

Ishlab chiqarish kamayishi natijasida mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarning oldini olish uchun yalpi talabni tartibga solib turadigan faol davlat siyosati zarur. Shuning uchun ham Keynsning iqtisodiy nazariyasini ko‘p hollarda yalpi talab nazariyasi deb yuritiladi.

Xaqiqiy investitsiy arejalashtirilgan va rejalashtirilmagan investitsiyalar miqdorini o‘z ichiga oladi. Rejalashtirilmagan investitsiyalarga tovar - material zaxiralarida (TMZ) investitsiyalardagi kutilmagan o‘zgarishlar kiradi. Ushbu rejalashtirilmagan investitsiyalar tenglashtiruvchi mexanizm sifatida jamg‘arma va investitsiyalar miqdorining o‘zaro bir-biriga mos kelishini bildiradi va makroiqtisodiy tenglikni ta’minlaydi.

Rejalashtirilgan xarajatlarga uy xo‘jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyoning mahsulot va xizmatlarni sotib olishga mo‘ljallagan xarajatlari kiradi. Firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdagi kutilmagan o‘zgarishlar tovar materiallar zaxirasida rejalashtirilmagan investitsiyalar qilishga olib kelsa, real xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlardan farq qiladi.

Rejalashtirilgan xarajatlar funksiyasi ($E=S+I+G+X_n$), iste’mol funksiyasi ($S = S_0 + MRS\ (U – T)$ ko‘rinishidagidek, $I+G+X_n$ miqdorda yuqoriga surilgan bo‘ladi.

Ushbu vaziyatda sof eksport miqdori, yalpi daromadlar (U) o‘zgarishiga bog‘liq emas. Shuning uchun sof eksport to‘liq xarajatlar miqdoriga qo‘shiladi ($E= S_0+I+G+Xn$).

Mustaqil xarajatlar miqdori sof eksport funksiyasini hisobga olgan holda quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\mathbf{X_p = g – m' x Y:}$$

Bu yerda: $\mathbf{X_p}$ – sof eksport;

g – mustaqil (avtonom) sof eksport;

$\mathbf{m'}$ - importga chegaraviy moyillik;

Y - daromad.

$$m' = \Delta M / \Delta Y;$$

Bu yerda:Δ**M** - importga xarajatlarning o‘zgarishi;

Δ**Y**- daromadlarning o‘zgarishi.

Yalpi daromadlarning oshishi bilan import ham oshadi. Chunki, iste’molchilar va investorlar milliy va import mahsulotlarga bo‘lgan xarajatlar miqdorini oshiradi.

Bunda mamlakatdagi eksport miqdori yalpi daromadlar (U) miqdoriga bog‘liq bo‘lmaydi, balki mamlakatning yalpi daromadlari o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham mamlakatdagi yalpi daromadlar (U) o‘zgarishi bilan sof eksport (Xp) o‘rtasidagi bog‘liqlik salbiydir va sof eksport funksiyasida minus ishorasi bilan belgilanadi.

Rejalashtirilgan xarajatlar chizig‘i xaqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar bir-biriga teng bo‘lganda (U=E) A nuqtada kesishadi. Keltirilgan ushbu 2-chizma “Keyns xochi” nomini olgan.

U=E chiziqda xaqiqiy investitsiyalar va jamg‘armalar tengligi saqlanadi. A nuqtada esa daromadlar rejalashtirilgan xarajatlarga teng bo‘ladi. Shuningdek, bu yerda rejalashtirilgan hamda haqiqiy investitsiyalar va jamg‘armalarning o‘zaro tengligi paydo bo‘ladi. Ya’ni, makroiqtisodiy tenglik ta’minlanadi.

Agarda, ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi **(U1)** uning tenglik darajasidan **(U_0)** ko‘p bo‘lsa, iste’molchilar mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar taklif qilganga nisbatan kam sotib oladi **(AD<AC).** Sotilmagan mahsulotlar TMZ ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Zaxiralarning o‘sishi firmalarda ishlab chiqarish hamda bandlik darajalari pasayishiga olib keladi. Bu esa YAMM hajmini kamaytiradi. Asta sekin U_1 dan U_0 gacha keladi, ya’ni daromad va rejalashtirilgan harajatlar tenglashadi.

O‘z navbatida yalpi talab va taklifning tenglashishiga **(AD=AC)** erishiladi.



7.4.1-chizma. Investitsiya va jamg‘armalarning o‘zaro mutanosibligi

Aksincha, haqiqiy ishlab chiqarish **(U_2)** uning tenglik darajasidan **(U_0)** kam bo‘lgan vaziyat esa, firmalar iste’molchilar talabiga nisbatan kam ishlab chiqarayotganligini **(AD>AC)** ko‘rsatadi. Talabning oshishi esa firmalar zaxirasining kamayishi hisobiga qondiriladi. Natijada, YAMM doimiy ravishda **U_2 dan U_1** ga qarab o‘sadi va yana **AD=AS** tengligiga erishiladi.

7.5. Keynsning bandlik nazariyasi. Mustaqil xarajatlar multiplikatori

Oldingi o‘rinlarda qayd etilganidek, Keynsning iqtisodiy nazariyasiga binoan bozor iqtisodiyotida ish bilan bandlikni to‘la ta’minlaydigan hech qanday avtomatik mexanizm yo‘q. Demak, ishlab chiqarish va ish bilan bandlikning o‘zaro bog‘liqligi qanday aniqlanishini bilish uchun tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmi, ish bilan bandlik va ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari kabi ko‘rsatkichlarni qarab chiqish kerak bo‘ladi.

Keyns modelida muvozanat darajadagi ishlab chiqarishni aniqlashda bir-biri bilan bog‘liq ikkita usuldan foydalanilgan.

1. Umumiy xarajatlar va ishlab chiqarishni taqqoslash usuli, ya’ni

(S+ I)= SMM;

2. In’yeksiya va tortib olish usuli.

Ushbu usullardan birinchisini, ya’ni, yalpi xarajatlar va ishlab chiqarish hajmi usulini qarab chiqamiz. Bu usul qisqacha qilib «Xarajatlar va ishlab chiqarish hajmi usuli » deb ham aytiladi.

Ishlab chiqarish hajmi deganda, amaliyotda ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan SMM hajmiga aytiladi. Unda SMM ishlab chiqarishning turli miqdordagi potensiali bilan taqqoslanadi. Bu yerda eng asosiy ko‘rsatkich, ishlab chiqarishga sarf qilingan umumiy xarajatlar miqdorida yalpi daromadlarni olish hisoblanadi. Masalan, biror tadbirkor yuz ming so‘mlik mahsulotni taklif etib, yuz ming so‘mlik daromad olsagina u ishlab chiqarishni davom ettirishi mumkin.

Yalpi xarajatlar deganda ishlab chiqarishga sarf qilingan umumiy xarajatlar miqdori tushuniladi. Yoki boshqacha aytganda, YAMM ni hisoblashdagi iste’mol va investitsiya xarajatlaridan iboratdir. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, SMM ni hisoblayotganda, ya’ni, yalpi investitsiyalar miqdori emas, balki sof investitsiyalar miqdori hisobga olinadi, ya’ni SMM= YAMM-A

Bundan tashqari umumiy hisoblarda sof investitsiyalarning joriy miqdori emas, balki reja miqdori e’tiborga olinadi. Chunki, ishlab chiqarish hajmi bilan Yalpi xarajatlar o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi rejadan ortiqcha investitsiyalarga bo‘lgan talabni keltirib chiqaradi.

SMM Keynsning ish bilan bandlik nazariyasi asosini tashkil etadi. Muvozanat hajmidagi SMMning aniqlanishi iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlaydi.

Muvozanatli ishlab chiqarish rejasi- bu, yalpi xarajatlar rejasi xarid qilingan tovar va moddiy resurslar tengligini ta’minlovchi SMM hajmini ishlab chiqarishdir. Muvozanatli xajmdagi SMMni ishlab chiqarish ish

bilan to‘liq bandlikni, ishlab chiqarish xarajatlari va olinayotgan daromadlarning birgalikdagi muvozanatini birlashtiradi.

Inyeksiya va tortib olish usuli to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelmasa ham uning ma’nosi shundan iboratki, ya’ni, muvozanatli darajadan tashqari xolatlarda SMM va yalpi xarajatlar muvozanatining buzilishiga qaratiladi. Bilamizki, har qanday xajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish o‘ziga mos ravishda soliqlar to‘langandan keyingi daromadlar miqdorini beradi.

Yana shu ma’lumki, uy xo‘jaliklari ushbu daromadlarning bir qismini jamg‘arishi mumkin. Jamg‘arish o‘z navbatida tortib olishni bildiradi. Jamg‘arish natijasida iste’mol ishlab chiqarishning umumiy hajmidan yoki SMMdan kam bo‘ladi. Bunday holatda iste’mol, bozorda jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini sotib olishga yetmaydi. Natijada esa ishlab chiqarish hajmi kamayadi. Mahsulotlarning bir qismi ishlab chiqarish vositalari shaklini oladi. Shuning uchun investitsiyani daromadlar va xarajatlar miqdoridagi xarajatlar in’eksiyasi deb qarash mumkin. Boshqacha aytganimizda, investitsiya jamg‘armaga olingan vositalarni qoplash imkoniyatini bildiradi.

Agarda jamg‘armaga olingan vositalar investitsiya inyeksiyasidan ko‘p bo‘lsa, jami xarajatlar SMMdan kam bo‘ladi. Boshqacha aytganda, SMMning har qanday darajasi, ya’ni, jamg‘arish investitsiyadan ko‘p bo‘lgan vaziyatda muvozanat nuqtadan yuqori bo‘ladi. Aksincha, investitsiya inyeksiyasi jamg‘armaga olingan vositalar miqdoridan ko‘p bo‘lsa, jami xarajatlar SMMdan ko‘p bo‘ladi. Investitsiyalar jamg‘armalardan ko‘p bo‘lgan har qanday sharoitda SMM hajmi muvozanat nuqtadan past bo‘ladi. Jamg‘armaga olingan vositalar miqdori investitsiya inyeksiyasi tomonidan to‘liq qoplansa, jami xarajatlar umumiy ishlab chiqarish hajmiga teng bo‘ladi. Inyeksiya bu mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo‘lgan iste’mol xarajatlariga qo‘shimcha hisoblanadi.

Milliy ishlab chiqarishning muvozanat holati (U_0), yalpi xarajatlar tarkibining har qanday o‘zgarishi natijasida (iste’mol, investitsiya, davlat xarajatlari yoki sof eksport) tebranishi mumkin. Ushbu tarkibdagi

birorta omilning o‘sishi rejalashtirilgan xarajatlar egri chizig‘ini yuqoriga suradi va aksincha.

Mustaqil xarajatlar tarkibidagi har qanday o‘sish Yalpi daromadlarning (ΔU) mul’tiplikator samarasi hisobiga ko‘proq oshishiga olib keladi.

$$\Delta A\ (\Delta S_0) = \Delta(a\ (S_0) + I + G + Xn)$$

Mustaqil xarajatlar multiplikatori YAMM muvozanatidagi o‘zgarishning mustaqil xarajatlar tarkibidagi har qanday omillar o‘zgarishiga nisbatini ko‘rsatadi.

$$m = \Delta U / \Delta A(\Delta S_0):$$

Bu yerda:

m- mustaqil (avtonom) xarajatlar mul’tiplikatori;

Δ**U** - YAMM muvozanatidagi o‘zgarish;

Δ**A(**ΔS_0**)** – «**U**» o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmagan holda mustaqil xarajatlar o‘zgarishi.

Multiplikator - yalpi daromadlar mustaqil xarajatlarning dastlabki o‘sishi (kamayishi)dan necha marta ortiq o‘sganligini (kamayganligi) ko‘rsatadi. Mustaqil xarajatlar tarkibidagi omillardan birortasining bir marta o‘zgarishi, YAMMni bir necha marta o‘zgarishiga olib keladi.

Masalan, mustaqil iste’mol ΔSa miqdorda o‘ssa, bu yalpi xarajatlar va daromadlarning (U) o‘sha miqdorda o‘sishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida iste’molning ikkinchi marta (daromadlar oshishi hisobiga) MRS x ΔSa miqdorda o‘sishiga olib keladi. Keyinchalik yalpi xarajatlar va daromadlar MRS x ΔSa miqdorda yana o‘sadi.

Shunday qilib, «daromad-xarajat» ko‘rinishida zanjir paydo bo‘ladi.

ΔSa↑=>AD↑=>U↑=>S↑=>AD↑=>U↑=>S↑=>AD↑=>U↑va xokazo.

Ushbu oddiy vaziyatdan ko‘rinib turibdiki, yalpi daromadlar (U), dastlabki o‘zgarishga ΔSa↑ nisbatan bir necha marta ko‘p o‘zgaradi va mustaqil xarajatlar multiplikatori miqdorida ko‘rinadi.

Bu shuni bildiradiki, S, I, G, Xn miqdorlardagi oddiy o‘zgarishlar ham ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajalarida katta o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, multiplikator iqtisodiy nobarqarorlik omili hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatning byudjet-soliq siyosatidagi asosiy vazifalardan biri iqtisodiyotning bir me’yorda ishlashini ta’minlash tizimini yaratish sanaladi.



7.5.1-chizma. Ishlab chiqarishning haqiqiy va potensial hajmidagi regression uzilishi

Agarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi (U0) potensial (U*) hajmidan kam bo‘lsa, yalpi talab samarasiz hisoblanadi. Ya’ni, AD=AS tenglikka erishilgan bo‘lsada, yalpi xarajatlar miqdori resurslarining to‘liq bandligi darajasini ta’minlamaydi. Yalpi talabning yetishmasligi iqtisodiyotda turg‘unlik darajasiga olib keladi.

Ishlab chiqarishda to‘liq bandlikka erishish va regression uzilishni yo‘qotish uchun yalpi talabni rag‘batlantirish va tenglikni «A» nuqtadan «V» nuqtagacha surish lozim. Bu yerda yalpi muvozanat daromadlarning o‘sishi ΔU qo‘yidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

ΔU=Regression uzilish miqdori x Mustaqil xarajatlar multiplikatori miqdori

Agarda, ishlab chiqarish xaqiqiy hajmi (U0) potensial (U*) hajmidan ko‘p bo‘lsa, yalpi xarajatlar ortiqcha hisoblanadi. Yalpi talabning ortiqchaligi iqtisodiyotda inflyatsiya jarayoniga olib keladi.



7.5.2-chizma. Ishlab chiqarishning haqiqiy va potensial hajmidagi inflyatsion uzilishi

Inflyatsion uzilishni yo‘qotish uchun yalpi talabni bir maromda ushlab turish kerak va tenglikni A nuqtadan V nuqtagacha surish lozim. Bu yerda yalpi talab muvozanatidagi (ΔU) qisqarish quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi: ΔU=-Inflyatsion uzilish miqdori x Mustaqil xarajatlar multiplikatori miqdori.

Qisqacha xulosalar

Klassik iqtisodchilar makroiqtisodiy muvozanat faqat to‘liq bandlik sharoitida ro‘y beradi, qisqa muddatli buzilishlar esa bozor mexanizmlari tomonidan, ya’ni baho, ish haqi kabi dastaklarning ishga tushishi bilan bartaraf etiladi deb hisoblashishadi.

Klassik iqtisodchilar nazariyasidan farqli o‘laroq ingliz iqtisodchisi J. Keyns o‘zining to‘liq bandlik mavjud bo‘lmagan sharoitda ham

makroiqtisodiy muvozanat ro‘y beradi, tartibga solinmagan iqtisodiyotda to‘liq bandlilik faqatgina tasodifiy ro‘y beradi deb hisoblaydi.

Keyns modelida makroiqtisodiy muvozanat ishlab chiqarishni ta’minlovchi ikkita omil yalpi xarajatlar va yalpi daromadlarning kesishuv nuqtasida ro‘y byeradi. Bu modelda tovar zahiralarining o‘zgarishi makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlovchi omil deb qaraladi.

Yalpi daromadlarning avtonom xarajatlar miqdoridagi dastlabki o‘sishdan (kamayishi)dan necha marta ortiq o‘sishi (kamayishi) multiplikator samarasi deyiladi. Multiplikator iqtisodiy tebranishlar darajasini kuchaytiruvchi omil hisoblanadi.

Avtonom xarajatlar multiplikatori miqdori iste’molga chegaralangan moyillik darajasi bilan belgilanadi va u bilan to‘g‘ri bog‘liqlikka ega.

Makroiqtisodiy muvozanat potensial YAIM hajmidan kamroq bo‘lgan haqiqiy YAIM hajmida o‘rnatilsa retsession uzilish, aksincha bo‘lsa inflyatsion uzilish ro‘y beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Klassik iqtisodchilardan kimlarni bilasiz va ularning qanday nazariyalari bilan tanishsiz?
2. Sey qonunining moxiyatini, uning kamchiliklari va yutuqlarini tushuntirib bering.
3. Nima uchun klassiklar nazariyasi tanqidga uchragan. Kimlar bu nazariyalarning kamchiliklarini ochib bergan?
4. Keynsning umumiy xarajatlar va ishlab chiqarishni taqqoslash usulini mohiyati nimada?
5. Inyeksiya va tortib olish usuli deganda nimani tushunasiz?

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Klassiklar nazariyasida nechta asosiy tushuncha mavjud?

A) 2 ta

B) 4 ta

C) 5 ta

D) 3 ta

2. 1936 yili qaysi ingliz iqtisodchisi kapitalizm iqtisodiyotiga yangi, ish bilan bandlik nazariyasini kiritadi?

A) Artur Ouken

B) J.Sey

C) Jon Meynard

D) Keyns

3. Klasssik iqtisodchilar fikricha, jami talab egri chizig‘i nimadan iborat?

A) gorizantal to‘g’ri chiziqdan

B) vertikal to‘g’ri chiziqdan

C) egri chiziqdan

D) to‘g’ri va yoysimon chiziqlardan

4. Keyns modelida muvozanat darajadagi ishlab chiqarishni aniqlashda bir-biri bilan bog‘liq nechta usuldan foydalanilgan?

A) 4 ta

B) 2 ta

C) 3 ta

D) 6 ta

5. Multiplikator -…….?

A) yalpi daromadlar mustaqil xarajatlarning dastlabki o‘sishi (kamayishi)dan necha marta ortiq o‘sganligini (kamayganligi) ko‘rsatadi.

B) tashqari umumiy hisoblarda sof investitsiyalarning joriy miqdori emas, balki reja miqdori e’tiborga olinadi.

C) Umumiy xarajatlar va ishlab chiqarishni taqqoslash usuli

D) Inyeksiya va tortib olish usuli

6. Keynsning iqtisodiy nazariyasiga binoan bozor iqtisodiyotida ish bilan bandlikni to‘la ta’minlaydigan mexanizm…..?

A) yo‘q

B) Bo‘lishi mumkin

C) bor

D) B va C javoblar to‘g’ri

7. Xp= g – m,xY bu yerda ‘g’ nima manononi anglatadi?

A) importga chegaraviy moyillik

B) daromad

C) sof eksport

D) mustaqil (avtonom) sof eksport.

VIII bob. DAVLAT BYUDJETI, SOLIQLAR VA DAVLAT QARZI

8.1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi

Bozor iqtisodiyotidagi har qanday faoliyat mablag‘, pul talab qiladi, moliyani yuzaga keltiradi. Sababi jamiyatning ravnaqi, aholining farovonligi, yurtning tinchligini ta’minlash va boshqa maqsadlarni amalga oshirish –hammasi moliyaga borib taqaladi.

Moliya – iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag‘laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimidir[24].

Moliya - iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag‘laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimi bo‘lib, uning vositasida turli darajada pul mablag‘alari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida ishlatiladi.

Moliyaning obyekti – pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar bo‘lib, uning **subyekti**, ya’ni ishtirokchilari firma, jamoat tashkilotlari, davlat idoralari, har xil muassasalar, turli oilalar va ayrim shaxslar bo‘ladi.

Moliya munosabatlari pul munosabatlaridan shunisi bilan farq qiladiki, uning tarkibiga shaxsiy iste’mol xizmati munosabatlari kirmaydi, hamda pul harakati tovar harakati bilan bir vaqtda yuz byermaydi.

Moliya iqtisodiyot doirasida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta vazifalarni bajaradi:

1. Iqtisodiy jarayonlarni **moliyaviy resurslar bilan ta’minlash** va unga xizmat ko‘satish vazifasini bajaradi;

[24] McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 17th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2008. page 75.

2. Moliyaviy resurslarni korxonalar, **tarmoqlararo taqsimlash** vazifasi;

3. Moliyadan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol ustidan **nazorat qilish** vositasi sifatida foydalaniladi.

4. Moliyaning **rag'batlantiruvchanlik** vazifasi.

5. Ijtimoiy ximoyalash vazifasi.

6. Iqtisodiy axborot byerish vazifasi.

Moliya tizimi - jamiyatning moliyaviy munosabatlari va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar tushuniladi.

8.1.1- chizma

Moliya tizimi bir nechta maxsus moliyaviy muassasalardan tashkil topadi:



8.2. Davlat byudjeti. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari

Davlat byudjeti - bu davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir.

Davlat daromadalari va xarajatlarining asosiy qismi davlat byudjeti orqali o'tadi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqiyosidagi ijtimoiy vositalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

O‘zbekiston davlat byudjetining tarkibi va tuzilishi:

Daromadlar: To‘g‘ri soliqlar, egri soliqlar, resurs uchun to‘lovlar va mol-mulk solig‘i, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga soliqlar, boshqa soliqlar va daromadlar

Xarajatlar: Ijtimoiy sohaga, ijtimoiy himoyaga, iqtisodiyotga, markazlashgan investitsiyalar, davlat boshqaruvi, boshqa xarajatlar.

Davlat byudjetining daromadlar va xarajatlari muvozanatda bo‘lishi taqozo etidi.

Mahalliy (rayon, shaharlar va viloyatlar) byudjet daromadlari qo‘yidagi mablag‘lardan xosil bo‘ladi:

A) mahalliy xokimiyat tasarrufidagi korxonalar foydasidan ajratilgan mablag‘lar;

B) soliqlardan, shu jumladan:

- Jismoniy shaxslarning mulk solig‘i;
- Yer solig‘i;
- Kurort yig‘imi;
- Reklama solig‘i;
- Ishlab chiqarish obyektlarini qurish uchun olinadigan soliq;
- Savdo litsenziyasi yig‘imi;
- Vino-aroq mahsulotlari bilan savdo qilish huquqini beradigan litsensiya yig‘imi;
- Tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olish yig‘imi;
- Mahalliy zayomlarni chiqarishdan tushadigan mablag‘lar.

Davlat byudjeti xarajatlarining daromadlaridan ortib ketishi b**yudjet taqchilligini bildiradi.**

Buning sababi, davlatning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi vazifalarining kengayib borishidir.

O‘rnatilgan halqaro standartlariga ko‘ra, byudjet taqchilligi YAIMning 5% darajasidan oshmasligi lozim. Byudjet taqchilligi asosan,

davlat qimmatli qog‘ozlarni sotish, nobyudjet fondari (sug‘urta, pensiya fondlari)dan qarz olish ko‘rinishidagi davlatning ichki va tashqi qarzlari hisobiga qoplanadi. Moliyaviy resurslarni davlat tomonidan qarzga olishning asosiy shakli – bu davlat qarz majburiyatlari (zayomlari)ni chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar va savdo kompaniyalarining vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb qiladi.

Tashqi qarz - bu davlat byudjet taqchilligini qoplash maqsadida o‘ziga kerakli moliyaviy resursni jalb qilish uchun xalqaro kreditdan foydalanishi.[25]

8.2.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibi, (mlrd.so‘m)[26]

Ko‘rsatkichlar	Yillar						
	2010	2013	2014	2015	2016	2017	2022
Davlat byudjeti xarajatlari (maqsadli jamg‘armalar siz) JAMI	16726,0	25825,9	31425,0	36289,8	40930	49681	62 229,5
To‘g‘ri soliqlar	4 497,0	6 353,7	7 33,1	8 98,5	9853,6	11539.4	12805,4
Egri soliqlar	8 225,0	13398,6	16851,8	19193,8	21131	26133.2	33404,3
Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i	2 626,2	3 888,2	4311,6	4 16,1	5306,2	6867.4	9714,5
Boshqa daromadlar	1 713,1	2 582,5	3 33,1	1 13,1	4739	5140	6 305,30

Demak, davlat byudjet taqchilligini qoplash uchun zarur moliyaviy resurslarni hamda ssuda kapitallarini ham milliy bozordan ham tashqi bozordan qarz oladi.

[26] O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy veb -saytida e’lon qilingan ochiq ma’lumotlari.

Xalqaro kreditning tez o‘sishi kapitalning mamlakatlararo migratsiyasi, mamlakatlar va regionlar iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligi chuqurlashuvining muqarrar natijasi hisoblanadi. Xalqaro kredit ham xususiy sektor ham davlat byudjeti taqchilligini qoplash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga ham kreditor ham debitor mamlakatlar iqtisodiyotining kuchayib borishiga sabab bo‘ladi.

Keltirilgan 8.2.1-jadval malumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2010 yil davlat byudjeti daromadlari 16726 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib 62229,5 mlrd. so‘mga etib, 45503,5 mlrd.so‘mga yoki 3,72 martaga ko‘paydi**.** Bunda to‘g‘ri soliqlar 8308,4 mlrd.so‘mga yoki 2,84 martaga, egri soliqlar 25179,3 mlrd.so‘mga yoki 4 martaga, resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i 7088,3 mlrd.so‘mga yoki 3,7martagaa hamda boshqa daromadlar 7088,3 mlrd.so‘mga yoki 3,7 martaga oshganini ko‘rishimiz mumkin

Shuningdek, 2010 yilda davlat byudjetining 91,6 foiz soliqli tushumlar 8,4 foiz boshqa daromadlardan, 2022 yilda esa 89,9 foizi soliqli tushumlar 10,1 foizi boshqa daromadlardan shakllantirilgan. Bilvosita soliqlar hamda resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘ining ulushi yildan yilga oshib bormoqda.

8.2.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi, (mlrd.so‘m)[27]

Ko‘rsatkichlar	**Yillar**					
	2010	**2014**	**2015**	**2016**	**2017**	**2022**
Davlat byudjeti xarajatlari (maqsadli jamg‘armalarsiz) JAMI	16726,0	31425,0	36289,8	40930	49343.7	62 170
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari	9 704,9	18490,8	20434,8	24107	27223.3	35034
Fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat fondlari	5,0	8,2	10,0	11	12	15

[27] O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy veb -saytida e’lon qilingan ochiq ma’lumotlari.

rivojlantirishga grantlar va mablag‘lar						
Iqtisodiyotga xarajatlar	1 931,6	3 364,9	3 846,7	4336	5280.7	6957,8
Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar	1 096,1	1 616,5	1 843,9	2132	3234.7	3047,6
Davlat boshqaruv organlari, boshqarmalari, sudlari va fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari xarajatlari	629,6	1 414,2	1 594,3	1791	1931.1	2189,8
Boshqa xarajatlar	3 358,7	6 530,5	7 690,3	8554	10851	13545, 4

Davlat byudjeti xarajatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak 2010 yilda 16726 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 62170 mlrd.so‘mga etib, 45444 mlrd.so‘mga yoki 3,7 martaga oshdi. Bunda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari 25329 mlrd.so‘mga yoki 3,6 martaga, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat fondlari rivojlantirishga grantlar va mablag‘lar 10 mlrd.so‘mga yoki 3 martaga, iqtisodiyotga xarajatlar 5026 mlrd.so‘mga yoki 3,6 martaga, markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar 1952 mlrd.so‘mga yoki 2,78 martaga, davlat boshqaruv organlari, boshqarmalari, sudlari va fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari xarajatlari 1560 mlrd.so‘mga yoki 3,5 martaga va boshqa xarajatlar 11567 mlrd.so‘mga yoki qariyib 4,5 martaga oshganini ko‘rishimiz mumkin.

Davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari 2010 yilda 58,0 foizni, 2022 yilda 56,65 foizni tashkil etgan yoki 1,35 foizli punktga pasaygan. Iqtisodiyotga xarajatlar 0,3 foizli punktga pasaygan, davlat boshqaruv organlari, boshqarmalari, sudlari va fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari xarajatlari 0,24 foizli punktga kamaygan va, boshqa xarajatlar 4 foizli punktga o‘sgan.

8.3. Soliq tizimi va uning vazifalari

Soliq – bu davlatning o‘z vazifalarini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan moliyaviy mablag‘larni shakllantirish maqsadida jismoniy va huquqiy shaxslardan byudjetga majburiy to‘lovlarni undirish shakli.

Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakl va usullari birgalikda soliq tizimini tashkil qiladi.

Soliq iqtisodiy tushuncha sifatida, sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli bo‘lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Soliq - bu mahalliy va xokimiyat tarafidan huquqiy va jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini majburiy ravishda byudjetga jalb qilish shaklidir.

Soliq bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil kategoriya sifatida amal qiladi va moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi bo‘lib, uni yig‘ish davlat tomonidan belgilangan tartib qonunlar asosida amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakl va usullari birgalikda soliq tizimini tashkil qiladi.

Milliy iqtisodiyotda soliq qo‘yidagi muxim vazifalarni bajaradi:

- milliy daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash;
- davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);
- ijtimoiy tanglikni yumshatish (ijtimoiy vazifasi);
- iqtisodiyotni tartibga solish;
- iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish va x.

Davlat sarflari va soliq hajmining o‘sib borishi qo‘yidagi omillarni taqozo qiladi:

1. Aholi sonining o‘sishi.
2. Talabning ortishi va urbanizatsiya.
3. Atrof muxitning ifloslanishi.
4. Daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish.

5. Milliy mudofaa, davlat xavfsizligini ta’minlash xarajatlari hajmining o‘sishi.

Hozirgi davrda davlatning soliq siyosatini O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi va uning joylardagi (viloyat, shahar, tuman) muassasalari amalga oshiradi.

Respublika xududida amal qiluvchi soliqlar, to‘lovlar tartibi, obyekti, imtiyozlar, soliq to‘lash bilan bog‘liq ravishda kelib chiqadigan umumiy munozaralarni hal qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘g‘risidagi qonunlari bilan aniqlanadi.

Soliq stavkasini belgilash bir qator tamoyillarga asoslanadi:

1. Naflilik tamoyili
2. To‘lovga layoqatlilik tamoyili.
3. Adolatlilik tamoyili.

Soliq stavkasi (t) - bu olinadigan soliq summasining (T) soliq olinadigan daromad summasiga (D) nisbatining foizdagi ifodasiga aytiladi.

$$t = (T/D) \times 100\%$$

Soliq stavkasi va daromadlar o‘rtasidagi nisbatga asoslanib, soliqlar qo‘yidagilarga bo‘linadi:

1. Progressiv (o‘sib boruvchi).
2. Proporsional (mutanosib).
3. Regressiv (kamayib boruvchi).

Progressiv soliq	- soliqning o‘rtacha stavkasi daromadlar ortishi bilan o‘sib borishi tushuniladi.
Regressiv soliq	- daromadlar o‘sishi bilan soliqning o‘rtacha stavkasi pasayib borishiga aytiladi.
Proporsional soliq	- soliq stavkasi daromad hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xolda o‘zgarishsiz qoladi

Soliqlarni pasaytirish iqtisodiy yuksalish va davlat daromadlarining o‘sishiga olib kelishini birinchi bo‘lib amyerikalik iqtisodchi A.Laffyer aniqladi.

Davlat byudjetining daromadlari va soliq stavkasi o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlikning grafikda tasvirlanishi «Laffyer egri chizig‘i» nomini olgan.



8.3.1-chizma. Laffyer egri chizig‘i

Grafikning tik o‘qida soliq stavkasi (R), yotiq o‘qida davlat byudjetiga tushumlar (B) aks etgan. Soliq stavkasining optimal miqdori R_1 davlat byudjetiga eng yuqori tushum V1ni ta’minlaydi. Soliqlar yanada oshirilganda tadbirkorlikka qiziqish sussuyadi. Laffyer samarasi faqat erkin bozor mexanizimida namoyon bo‘ladi.

Qisqacha xulosalar

Davlat byudjeti- mamlakat hukumatiga davlatning iqtisodiy funksiyalarini bajarish imkonini beruvchi assoiy moliyaviy manba bo‘lib uning xarajatlari tarkibini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy soha va ijtimoiy himoyaga sarflanadigan mablag‘larning mutlaq miqdori va jami xarajatlardagi ulushi oshib bormoqda.

Soliqlar majburiy to‘lov bo‘lib fiskal, qayta taqsimlash, rag‘batlantirish va nazorat funksiyalarini bajaradi.

Barcha soliqlar uch guruhga-to‘g‘ridan-to‘g‘ri, egri soliqlar hamda resurs to‘lovlari va mulk solig‘iga bo‘linadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq siyosati iqtisodiyotni modyernizatsiya qilish va texnik qayta qurollntirish, makroiqtisodiy

barqarorlik va iqtisodiy o‘sishda soliqlarning rolini oshirishga qaratilgan.

Soliq islohotlari iqtisodiyotga soliq yukini pasaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq stavkalarini pasaytirish, ayniqsa to‘g‘ridan – to‘g‘ri soliqlarning stavkalarini pasaytirish, soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasini kuchaytirish yo‘nalishlarida amalga oshirilmoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat byudjetiga ta’rif bering va uning xarajatlari tarkibini sanab o‘ting.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarida qanday o‘zgarishlar ro‘y bermoqda?
3. Soliqlarning funksiyalariga izoh bering.
4. O‘zbekiston Respublikasi byudjetiga soliq tushumlaring tarkibi va miqdoridagi tendensiyalarni izohlab bering.
5. Mamlakatimizda soliq siyosati qaysi maqsadlarga qaratilgan?

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Moliyaning obyekti to‘g’ri keltirilgan qatorni belgilang ?

A) pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar

B) investitsiyalar

C) natural pullar

D) kapital qo‘yilmalar

2. Moliya iqtisodiyot doirasida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan nechta vazifalarni bajaradi ?

A) 3

B) 4

C) 5

D) 6

3. Davlat byudjeti - nima?

A) jamiyatning moliyaviy munosabatlari va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar tushuniladi

B) mahalliy va xokimiyat tarafidan xuduqiy va jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini majburiy ravishda byudjetga jalb qilish shaklidir

C) davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir

D)barcha javoblar to‘g’ri

4. Davlat byudjeti necha qismdan iborat ?

A) 2

B) 3

C) 5

D) 4

5. Qaytarilmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari ?

A) soliq imtiyozi

B) subsidiya

C) subvensiya

D) dotasiya

6. Xalqaro standartlarga ko'ra byudjet taqchilligi necha foizdan oshmasligi kerak?

A) 2

B) 5

C) 3

D) 4

7. Proporsional soliq nima?

A) soliqning o‘rtacha stavkasi daromadlar ortishi bilan o‘sib borishi tushuniladi

B) daromadlar o‘sishi bilan soliqning o‘rtacha stavkasi pasayib borishiga aytiladi

C) soliq stavkasi daromad hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xolda o‘zgarishsiz qoladi

D) olinadigan soliq summasining (T) soliq olinadigan daromad summasiga (D) nisbatining foizdagi ifodasiga aytiladi.

8. Profressiv soliq nima?

A) soliqning o‘rtacha stavkasi daromadlar ortishi bilan o‘sib borishi tushuniladi

B) daromadlar o‘sishi bilan soliqning o‘rtacha stavkasi pasayib borishiga aytiladi

C) soliq stavkasi daromad hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xolda o‘zgarishsiz qoladi

D) sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli bo‘lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi

9. Regressiv soliq nima?

A) pul mablag‘laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimidir

B) soliq stavkasi daromad hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xolda o‘zgarishsiz qoladi

C) soliqning o‘rtacha stavkasi daromadlar ortishi bilan o‘sib borishi tushuniladi

D) daromadlar o‘sishi bilan soliqning o‘rtacha stavkasi pasayib borishiga aytiladi

10. Davlat byudjetining necha xil funksiyalari mavjud?

A) 3

B) 4

C) 5

D) 2

IX bob. BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI

9.1. Byudjet-soliq siyosatning mohiyati, usullari va davlat xarajatlari multiplikatori

Davlatning eng asosiy vazifasi iqtisodiyotni barqarorlashtirish hisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga asosan fiskal yoki byudjet-soliq siyosat orqali yerishiladi. Davlat tomonidan olib boriladigan fiksal siyosat deb asosan byudjet-soliq siyosatiga aytiladi. Byudjet-soliq siyosatiga, davlat xarajatlari va soliqlarini o‘zgartirish orqali iqtisodiyotda to‘liq bandlik, to‘lov balansining tengligi va inflyasiyani kamaytirish evaziga iqtisodiy muvozanatga erishish jarayonlarini keltirib o‘tishimiz mumkin.

Iqtisodiy turg‘unlik yoki inqiroz vaziyatlarda davlat tomonidan rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat olib boriladi. Ya’ni, davlat qisqa muddatlarda iqtisodiyotning pasayishini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish yoxud ikkalasini bir vaqtning o‘zida olib borish evaziga kamaytiradi. Uzoq muddatli iqtisodiy pasayish davrlarida soliqlarni kamaytirish ishlab chiqarish omillarining o‘sishiga va natijada, iqtisodiy o‘sishga olib kelishi mumkin. Ammo, bunga Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatidan samarali foydalanish va davlat xarajatlari tarkibini maqbul xolatga olib kelish orqaligina erishish mumkin.

Iqtisodiyotda to‘liq bandlik va talab inflyatsiyasi kelib chiqishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarda bosiq fiskal siyosat olib boriladi. Uning asosiy maqsadi davlat xarajatlarini kamayishi va soliqlarning o‘sishini mo‘ljallab yoki ikkalasini bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o‘sishini chegaralashdan iborat.

Qisqa muddatli davrlarda ushbu tadbirlar talab inflyatsiyasini kamaytiradi. Uzoq muddatli davrlarda esa yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin. Bu esa mamlakat iqtisodiy imkoniyatlarini izdan chiqaradi. Bunga davlat xarajatlaridan samarasiz foydalanish turtki bo‘lishi mumkin. Qisqa muddatli davrlarda byudjet-soliq siyosatlari davlat xarajatlari samarasi multiplikatori, soliq

multiplikatori va balanslashgan byudjet multiplikatorlari bilan birga olib boriladi.

Davlat xarajatlarining o‘sishi rejalashtirgan xarajatlarining (**ΔE**) ushbu miqdorda o‘sishiga va umumiy xarajatlarning egri chiziq bo‘yicha tepaga surilishiga olib keladi. Bu vaziyatda milliy ishlab chiqarish hajmi (Δu) miqdorida o‘sadi.

ΔG↑→ΔE↑(ΔE=ΔC)→↑ΔU(ΔU→ΔSx mg)

ΔG↑→↑ΔC→↑ΔU



9.1.1-chizma. Davlat xarajatlari o‘zgarishining multiplikativ samarasi

9.2. Soliq va balanslashgan byudjet multiplikatorlari

Daromadlar darajasiga va soliqlar o‘zgarishiga multiplikator ta’sirini qiyoslaymiz. Iqtisodiy rivojlanish davrlarda soliqlar miqdorini ΔT ga kamaytirsak, daromadlar darajasi ΔU ga oshadi. Bu esa daromadlar darajasi tengligining oshishiga olib keladi. Agarda iste’mol xarajatlari (ΔT- b) (bu yerda b -iste’molga chegaraviy moyillik) oshsa, u rejalashtirilgan xarajatlarni egri chiziq bo‘yicha yuqoriga siljitadi, milliy ishlab chikarish hajmini esa ΔU ga oshiradi:

Bu yerda ochiq iqtisodiyotda xarajatlar multiplikatori

Mg = 1/(1-b(1- t)+m) ga teng

- m’ – importga chegaraviy moyillik bo‘lib, m’ = ΔM / ΔU (ΔM – importdagi o‘zgarish) orqali aniqlanadi.

$$E_2 = E_1+\Delta E(\Delta G)$$



9.2.1-chizma.Davlat xarajatlari o‘zgarishining multiplikativ samarasi

Soliqlar stavkasini aniqlashda chegaraviy soliq stavkasi formulasidan foydalanadi:

$$t = \Delta U / \Delta T;$$

Bu yerda: t – chegaraviy soliq stavkasi;

ΔT- soliqlarning o‘sishi;

ΔU - daromadlarning o‘sishi.

Bundan chiqadiki, soliq tizimining progressiv usuli multiplikator samarasini yumshatadi.

$$MT = \Delta U/\Delta T = -1/(1-b)$$ **-soliq multiplikatori;**

MT = - b / (1 – b) x (1 – t)) - yopiq iqtisodiyot uchun soliq multiplikatori.

To‘liq soliq funksiyasi**T = Ta+tU** – ko‘rinishga ega.

Bu yerda, Ta - mustaqil soliqlar (mulkka, yerga soliqlar).

To‘liq soliq funksiyasini e’tiborga olsak, iste’mol funksiyasi qo‘yidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$S = a + b\,(U - (Ta + tU));$$

Ochiq iqtisodiyot sharoitida sof eksport funksiyasini e’tiborga olsak, soliq multiplikatori qo‘yidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$MT = -b\,/(1-b)x(1-t)+m'$$

Birinchi vaziyatdagi milliy ishlab chiqarish hajmi tenglini kengaytirilgan modelga olib kelinsa, ikkinchi ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bunda asosan daromadlarning o‘zgarishiga ΔU, bir vaqtning o‘zida davlat xarajatlari ΔG va mustaqil soliqlar Ta orqali erishiladi.

$$\Delta U = \Delta G \times \frac{1}{(1-b)(1-t)+m'} - \Delta T \times \frac{b}{(1-b)(1-t)+m'}$$

Ushbu formula balanslashgan byudjet multiplikatori formulasini bildiradi.

9.3. Fiskal siyosat turlari

Davlatning fiskal harakatlari iqtisodiyotni muvofiqlashtirishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun real milliy ishlab chiqarish hajmi va bandlikni o‘zgartirish, inflyatsiya va iqtisodiy o‘sishni nazorat qilish maqsadida davlat tomonidan xarajatlar va soliqlar orqali boshqariladigan diskretsion fiskal siyosatni ko‘rib chiqamiz.

Masalan, davlat SMM miqdori qanday bo‘lishidan qat’iy nazar 20 mlrd. so‘mlik tovar va xizmatlarni sotib olishga qaror qildi, deylik. Xususiy xarajatlarning oshishi kabi, davlat xarajatlarining oshishi ham jami xarajatlar grafigini bissektirisaga nisbatan siljishiga va SMM muvozanat miqdorining o‘sishiga olib keladi. Shuni ham ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, davlat xarajatlari multiplikator samarasi bilan

tasdiqlangan. Davlat xarajatining 20 mlrd. so‘mga oshishi SMMni 80 mlrd. so‘mga oshishiga olib keladi. Ya’ni, multiplikator 4 ga teng.

Bundan tashqari davlat xarajatlarining 20 mlrd. so‘mga oshishi soliq tushumlari hisobidan moliyalashtirilmaydi. Chunki, soliqlarning oshishi SMM miqdorining kamayishiga olib keladi. Boshqacha aytganimizda, davlat xarajatlari byudjet kamomadi bilan qoplanishi kerak.

Agarda davlat xarajatlar miqdorini kamaytirsa, jami xarajatlar grafigi pastga qarab siljiydi. Ya’ni, har qanday sharoitda SMM miqdorini kamaytiradi. Masalan, davlat xarajatlari 20 mlrd. so‘mdan 10 mlrd. so‘mga qisqarsa, SMM miqdori 40 mlrd. so‘mga kamayadi. Multiplikator samarasi 4 ga teng bo‘ladi.

Davlat 20 mlrd. so‘m miqdorida soliq joriy qilsin. Ya’ni, davlat SMMning har kanday miqdorida 20 mlrd. so‘mlik soliq tushimiga ega bo‘lsin. Bu, o‘z navbatida, soliqlarni to‘lagandan keyingi daromadlar miqdoriga ta’sir qiladi. Chunki, bu ta’sir iste’mol va jamg‘arish miqdorining kamayishiga olib keladi. Xususiy iste’mol va xususiy jamg‘armalar multiplikatori, soliqlarni to‘lagandan keyingi daromadlar miqdori kamayishining qancha qismi iste’molga va qancha qismi jamg‘armaga to‘g‘ri kelishini aniqlab beradi. Ya’ni, MRS va MRS lar bo‘yicha hisoblaganimizda har qanday miqdordagi SMMdan 20 mlrd. so‘mlik soliqlarning olinishi iste’mol xarajatlarini 15 mlrd. so‘mga, jamg‘armani esa 5 mlrd. so‘mga kamaytiradi. Bu kamayishlar SMM miqdori 60 mlrd. so‘mga kamayishiga olib keladi.

Demak, soliqlarning olinishi SMM miqdoriga nisbatan soliqlarni to‘lagandan keyingi daromadlar miqdori kamayishiga olib keladi. Bu kamayish, o‘z navbatida, SMMning har qanday miqdorida iste’mol va jamg‘armalar miqdorini kamaytiradi. Jamg‘arma va iste’mollar kamayishi miqdorlari MRS va MRS lar bilan aniqlanadi.

Davlat xarajatlari va soliqlar miqdorining bir xil miqdorda o‘sishi SMM miqdorining o‘sishiga olib keladi. Misolimizda $\Delta\mathbf{G}$ va ΔT larning 20 mlrd. so‘mga oshishi SMM miqdorining 20 mlrd. so‘mga oshishiga olib kelgan. Bu balanslashgan byudjet multiplikatorini tushunish imkonini byeradi.

Davlat xarajatlarining o‘zgarishi soliq miqdorining o‘zgarishiga nisbatan jami xarajatlar miqdoriga ko‘prok ta’sir ko‘rsatadi. Davlat xarajatlari jami xarajatlar miqdoriga bevosita, soliqlar miqdori esa bilvosita ta’sir ko‘rsatadi:

Jami xarajatlar = S + I+ ΔG + Xp;

Ko‘rinib turibdiki, balanslashgan byudjet multiplikatori birga teng. Soliqlar miqdorining 20 mlrd. so‘mga oshishi soliqlar to‘lagandan keyingi daromadlar miqdorini 20 mlrd. so‘mga qisqartiradi va iste’mol xarajatlari 15 mlrd. so‘m kamayishiga olib keladi. O‘z navbatida, iste’mol xarajatlarining 15 mlrd. so‘mga kamayishi SMM ni 60 mlrd. so‘mga kamayishiga olib keladi. Ammo, davlat xarajatlarining 20 mlrd. so‘mga oshishi SMM ni 80 mlrd. so‘mga oshiradi. Demak, mos ravishda davlat xarajatlari va soliqlar 20 mlrd. so‘mga oshishi SMM ni 20 mlrd. so‘mga (80-60 = 20) oshiradi.

Fiskal siyosatning fundamental maqsadi ishsizlik yoki inflyatsiyani tugatishdir. Iqtisodiyotning pasayish davrida rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat to‘g‘risida gap ketadi. U birinchidan, davlat xarajatlarini oshiradi, ikkinchidan, soliqlarni kamaytiradi, uchinchidan, birinchi va ikkinchi yo‘nalishlarni birga qo‘shib olib boradi. Boshqacha aytganimizda, balanslashgan byudjet bo‘lsa, iqtisodiyot inqirozga uchragan paytda fiskal siyosat davlat byudjeti kamomadi yo‘nalishiga harakat qiladi.

Teskarisi, iqtisodiyotda keragidan ortiqcha talab inflyatsiyasiga joy bo‘lsa, bunday sharoitga bosiq fiskal siyosat to‘g‘ri keladi. Ya’ni, birinchidan, davlat xarajatlarini kamaytirish, ikkinchidan, soliqlarni oshirish va uchinchidan, ikkalasini bir-biriga qo‘shib olib borish. Agarda iqtisodiyot oldida inflyatsiya ustidan nazorat o‘rnatish muammosi turgan bo‘lsa, fiskal siyosat davlat byudjetining ijobiy qoldig‘iga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Lekin, shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, SMM qiymati nafaqat davlat xarajatlari va soliqlar o‘rtasidagi farqqa, balki byudjetning mutlaq miqdoriga ham bog‘liq.

Davlat byudjetida kamomad bo‘lgan sharoitda uning iqtisodiyotni rag‘batlantirishi kamomadni rag‘batlantirishiga bog‘liq. Mamlakat byudjet kamomadini ikki xil yo‘l bilan - aholidan qarz olish hisobiga (foizli qog‘ozlarni sotish hisobiga) yoki kreditorlar tomonidan yangi pullar chiqarish orqali moliyalashtirish mumkin.

Davlat pul bozoriga o‘zining qarzlari bilan chiqqan sharoitda moliyaviy vositalar uchun xususiy tadbirkorlar bilan raqobatga kirishishga to‘g‘ri keladi. Moliyaviy vositalarga bo‘lgan bu qo‘shimcha talab foiz stavkalari muvozanat nuqtasini oshiradi. Chunki, oldingi mavzulardan ma’lumki, investitsiya xarajatlari foiz stavkalari bilan teskari mutanosiblikka ega.

Demak, davlat tomonidan qarzlar olish foiz stavkalari darajasining oshishiga olib keladi. Davlat byudjeti kamomadi yangi pullarni chiqarish orqali moliyalashtirilsa, xususiy investitsiyalar ta’siridan kutilishi, davlat xarajatlari investitsiya va iste’molga kuchli ta’sir qilmagan xolda o‘sishi mumkin. Demak, davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirishda yangi pullarni chiqarish davlat qarzlarini kengaytirishga nisbatan yaxshiroq usul hisoblanadi.

Davlat xarajatlari va soliqlar miqdorining o‘zgarishi ayrim xolatlarda avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Chunki, avvalgi o‘rinlarda kayd etilganidek, SMMning har qanday darajasida bir miqdordagi soliqlar olinadi.

Barcha turdagi soliqlar ham SMM o‘sishiga mos ravishda sof soliqlar tushumini ko‘paytiradi (sof soliq umumiy soliqlar tushumidan davlat transfert to‘lovlari ayirmasiga teng). SMM miqdorining o‘sib borishi bilan individual daromad soliqlari, korxonalar daromad va foyda soliqlari, QQS, aksizlar mikdori oshib boradi. Va, aksincha SMM miqdori kamaysa, soliq tushumlari kamayadi. Bu yerda transfert to‘lovlari qarama-qarshi xususiyatga ega. Chunki, iqtisodiy o‘sish sharoitida ishsizlarga to‘lanadigan nafaqalar, fermerlarga beriladigan subsidiyalar kamayadi va teskarisi.

Davlatning fiskal siyosatida to‘lanadigan soliqlar miqdori katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ishlab chiqarish korxonalari to‘laydigan soliqlar tarkibini qarab chiqamiz.

Korxonalar uchun soliqlarni qanday manbalardan to‘lashni bilish lozim. Soliqlar to‘lanadigan manbalarga ko‘ra, qo‘yidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) Xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritiladigan soliqlar: yer solig‘i, avtomobil yo‘llardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliq, trasport solig‘i, transport vositalari egalaridan olinadigan soliq;

2) Xarajatlari mahsulotlarni sotishdan tushadigan tushumlar tarkibiga kiritiladigan soliqlar; QQS, aksizlar, eksport ta’riflari;

3) Xarajatlari moliyaviy natijalarga qo‘shiladagan soliqlar: foyda solig‘i, mol-mulk, reklama, atrof-muxitni toza saqlash, uy-joy fondi va ijtimoiy soxa obyektlarini saqlab turish soliqlari va boshqalar;

4) Xarajatlari korxona ixtiyorida qoladigan foydadan qoplanadigan soliqlar: hisoblash texnikasi va avtomobillarni sotish uchun to‘lanadigan soliqlar, savdo qilish uchun beriladigan litsenziyalar yig‘imi, birja amalga oshirgan ishlar uchun yig‘imlar, dam olish va kurort zonalarida ishlab chiqarish obyektlarini qurish uchun to‘lanadigan soliqlar va boshqalar.

9.4. Byudjet ortiqchaligini kamaytirish va byudjet kamomadini moliyalashtirish usullari. Ochiq iqtisodiyotda fiskal siyosat

Davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish usullari:

Pul-kredit emissiyasi;

Davlat zayomlarini chiqarish;

Davlat byudjetiga soliq tushumlarini ko‘paytirish.

Monetar siyosat yuritishda davlat byudjeti kamomadi pul chiqarish orqali qoplanadi.

Inflyatsiya darajasi oshganda Olivyer-Tanzi samarasi paydo bo‘ladi. Ya’ni, soliq to‘lovchilar tomonidan davlatga to‘laydigan soliqlar to‘lovini atayin kechiktirish xollari yuzaga keladi. Bu esa davlat byudjeti kamomadi oshishiga olib keladi. Bundan davlat byudjeti kamomadini pul chiqarish yo‘li bilan qoplash, beriladigan kreditlarga foiz stavkalarini imtiyozli qilib belgilash yoki to‘lovlarni kechiktirish shakllari ham qo‘llanishi mumkin. Bu esa inflyatsiyaning oshishiga olib keladi.

Byudjet ortiqchaligini kamaytirish usullari:

1. Muomaladagi pul mablag‘larini olib qo‘yish;

2. Davlat qarzlarini kamaytirish.

Hozirgi sharoitgacha bizning mulohazalarimiz yopiq iqtisodiyot sharoitida olib boriladigan fiskal siyosat to‘g‘risida cheklangan edi. Agarda, mamlakat jahon iqtisodiyotining bir qismini tashkil qilsa, ya’ni, ochiq iqtisodiyot sharoitida faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, qo‘shimcha qiyinchiliklar kelib chiqadi.

Chet mamlakatlarda ro‘y berayotgan xodisalar va ular tomonidan qabul qilinayotgan siyosiy tadbirlar mamlakat eksportiga va iqtisodiyotiga ta’sir qiladi. Yalpi talabning halqaro zarbasiga duchor bo‘lishi bizning SMMni qisqartirishi va fiskal siyosatimiz tadbirlarini qadrsizlantirishi mumkin.

Masalan, biz respublikamizda ishlab chiqarish pasayishini kutayapmiz va yalpi talabning o‘sishini ta’minlashga yetarli darajada davlat xarajatlari va soliqlari miqdorini shu darajagacha qisqartirdik. Shuningdek, asosiy savdo hamkorimiz bo‘lgan davlatlar iqtisodiyoti kutilmaganda va tezlik bilan o‘sa boshlasin. Ta’minlanganlik darajasining oshishi va daromadlarining o‘sishi bu mamlakatlarda respublikamizdan tovarlarni sotib olishning o‘sishiga olib keladi. Bizning sof eksportimiz o‘sadi. Yalpi talab nixoyatda tez o‘sadi va biz talab inflyatsiyasi muammosi oldida turgan bo‘lamiz. Agarda sof eksportimizning shunchalik o‘sishini oldindan bilganimizda rag‘batlantiradigan qulay fiskal siyosat yuritgan bo‘lar edik.

Sof eksport samarasi, fiskal siyosat samaradorligini xalqaro savdo orqali barbod qilishga harakat qiladi. Biz o‘rin almashish samarasini qarashni tugatdik va rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat orqali foiz stavkalarini oshishi mumkinligi haqida xulosaga keldik, ya’ni investitsiyani qisqarishiga olib keladi. Shunday ekan fiskal siyosatni bekorga chiqaradi. Endi biz ishonishimiz kerakki, foiz stavkalarini o‘sishi bizni sof eksportga qanday ta’sir qiladi. Keyin faraz qilaylik, biz rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat olib borayapmiz, ya’ni iqtisodiyotga yuqori stavkali foiz olib keladi. Bunday foiz stavkalari chetdan moliyaviy kapitallarni jalb qiladi. Chetdan kelgan moliyaviy investorlar chetdan qimmatbaho qog‘ozlarni sotib olishdan oldin, o‘zining hisobida

o‘sha mamlakatning valyutasiga (mos, respublikamizning so‘mi) ega bo‘lishi kerak.

Biz bilamizki, tovarga talabni oshishi xozirgi sharoitda so‘m bahosining oshishiga olib keladi. Shunday qilib, so‘mni narxi boshqa valyutaga tenglashtirilgan narxda oshadi, boshqacha aytganda so‘m qimmatlashayapti.

Keyingi jadvalda fiskal siyosatga sof eksportning ta’siri ikki yo‘nalish bo‘yicha berilgan. Ushbu jadvalda sof eksportga ta’sir ikki yo‘nalishda ham ro‘y beradi. Ya’ni, ichki foiz stavkasini kamaytirish, bosiq fiskal siyosat, sof eksport miqdorini o‘sishiga imkoniyat yaratadi.

9.4.1-jadval

Fiskal siyosat va uni sof eksportga ta’siri

1) Rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat.	**2) Bosiq fiskal siyosat.**
Muammo: inqiroz, sekin o‘sish. Rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat. Eng katta ichki foiz stavkasi. So‘mga tashqi talabni oshishi. So‘mni qimmatlaShuvi. Sof eksportni kamayishi, (rag‘bat-lantiruvchi fiskal siyosatni qisman qarama-qarshiligidan yalpi talab kamayadi).	Muammo: inflyatsiya. Bosiq fiskal siyosat. Eng kichik ichki foiz stavkasi. So‘mga tashqi talabni kamayishi. So‘mni arzonlashuvi. Sof eksportni ko‘payishi (bosiq fiskal siyosatni qarama-qarshi-ligidan qisman yalpi talab o‘sadi).

Qisqacha xulosalar

Fiskal siyosat (byudjet-soliq siyosati) maqsadi iqtisodiy o‘sish, baholarning barqaror darajasi, to‘liq bandlik va to‘lov balansi barqarorligini ta’minlashdan iborat. Bu maqsadlarga erishish uchun davlat xarajatlari va soliqlar bilan manipulyasiya qilinadi.

Fiskal siyosatl cheklovchi yoki rag‘batlantiruvchi turlarga bo‘linadi. Rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat iqtisodiyotning pasayish davrida olib borilsa, cheklovchi fiskal siyosat iqtisodiyotda haddan ziyod talab tufayli inflyatsiya paydo bo‘lgan sharoitda olib boriladi.

Fiskal siyosat tadbirlari qisqa va uzoq muddatda multiplikator samarasi ta’siri ostida bo‘ladi.

Davlat xarajatlari multiplikatori iste’molga chegaralangan moyillik darajasi bilan to‘g‘ri bog‘liqlikka, chegaraviy soliq stavkasi hamda iste’molga chegaralangan moyillik darajasi bilan teskari bog‘liqlikka ega.

Davlat xarajatlari va soliqlar miqdorini bir xil miqdorga oshirilishi daraomadlar hajmini ham Shuncha miqdorga oshirilishiga olib keladi. Bu holat balanslashgan byudjet multiplikatori bilan izohlanadi.

Iqtisodiy pasayish paytida byudjetning davriy taqchilligi, diskret fiskal siyosat natijasida esa tarkibiy taqchilligi yuzaga keladi. Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning maqbul yo‘li davlat qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va ularni sotish hisobiga qarz olishdir.

Respublikamizda o‘tkazilayotgan byudjet-soliq siyosati iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirish, soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirish, barqaror iqtisodiy o‘sishga shart-sharoit yaratish, yalpi talabni oshirish kabi maqsadlarga qaratilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Fiskal siyosatning moxiyati va uning vositalari. Davlat xarajatlari, soliq multiplikatori. Balanslashgan byudjet multiplikatori.
2. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi, ularni tugatish usullari qanday olib boriladi?
3. Fiskal siyosatning jami taklifga ta’sir qilish usullarini aniqlang.
4. Ochiq iqtisodiyot bilan yopiq iqtisodiyotdagi fiskal siyosatlarning farqini tuShuntiring.
5. Davlat xarajatlari multiplikatori, soliq multiplikatori, byudjet ekspansiyasi siyosati, byudjet kamomadi va to‘liq bandlik sharoitidagi byudjet tushunchalarini izohlab bering.

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Fiskal siyosatining fundamental maqsadi nima?

A) Ishsizlik

B) Inflyatsiyani tugatish

C) Bozor narxlarini muvozanatga keltirish

D) A va B javoblari to‘g’ri

2. Xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritiladigan soliqlarga qaysilari kirmaydi?

A) Yer solig’i

B) avtomobil yo‘llardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliq

C) trasport solig‘i, transport vositalari egalaridan olinadigan soliq

D) atrof-muxitni toza saqlash solig‘i.

3. Davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish usullari qaysilar?

A) Pul kredit emissiyasi

B) Davlat zayomlarini chiqarish

C) Davlat byudjetiga soliq tushumlarini ko‘paytirish

D) Hamma javoblar to‘g’ri

4. Soliqlarni kechiktirish nimaga sabab bo‘ladi?

A) Davlat kamomadi

B) Byudjet profitsiti

C) Inflyatsiya

D) To‘g’ri javob yo‘q

5. Fiscal siyosati nechi turga bo‘linadi?

A) 2

B) 3

C) 4

D) 5

6. Bosiq fiscal siyosati muammosi nima?

A) Inflyatsiya

B) Sekin o‘sish

C) Ishsizlik

D) Sof eksport kamayishi

7. Rag’batlantiruvchi fiscal siyosati muammosi?

A) Inqiroz sekin o‘sish

B) Ishsizlik

C) Inflyatsiya

D) Eksport ko‘payishi

X bob. PUL BOZORIDA MUVOZANAT

10.1. Pul taklifi modeli

Pul taklifining asosiy qismi qog‘oz pullar va chek qo‘yilmalari hisoblanadi.

Qog‘oz pullar – respublika markaziy banki tomonidan muomalaga qo‘yilgan naqd pullardan iborat.

Chek qo‘yilmalari esa tijorat yoki xalq banklarining qarz majburiyatlaridan iborat. **Pul bozori – bu mamlakatdagi pul miqdori hamda foiz stavkasining turli darajalarida pul mablag‘lariga bo‘lgan talab va pul taklifining o‘zaro nisbatini ifodalovchi mexanizm.**

Pul taklifi – bu bozorda pul sifatida muomalada bo‘lgan turli-tuman moliyaviy mablag‘lar, ya’ni pul agregatlari yig‘indisi hisoblanadi.[28]

taklifi multiplikatori yoki bank multiplikatori deyiladi.

Pul taklifi multiplikatori – bu bankdagi pul depozitlari qo‘shimcha ravishda o‘sgan hajmining majburiy zaxiralar qo‘shimcha hajmiga nisbati bo‘lib, pul mablag‘larining bir birlikka ko‘payishi iqtisodiyotdagi pul taklifining qanchaga o‘sishini ko‘rsatadi:

$$m = \frac{M_s}{R} \quad ёки \quad m = \frac{1}{r},$$

bu yerda:

m – pul taklifi multiplikatori koeffitsienti;

M_S – bankdagi pul depozitlarining qo‘shimcha ravishda o‘sgan hajmi;

R – majburiy zaxiralar qo‘shimcha hajmi;

r – majburiy zaxiraning foizdagi me’yori.

Pulga bo‘lgan umumiy talab bitimlar

[28] McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 17th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2008. pages 229

Pul taklifi modeli **(M_c)** o‘z ichiga bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar **(C)** va zarur bo‘lganda iqtisodiy agentlar ishlatishi mumkin bo‘lgan depozitlarni **(D)** oladi:

$$(M_c) = S+D$$

Bundan tashqari qog‘oz pullar va chek qo‘yilmalari haqiqiy qiymatga ega emas. O‘n so‘mlik kupyura -bu, bir bo‘lak qog‘oz yoki chek qo‘yilmalari hisobxona kitobidagi oddiy yozuvdan iborat. Tanga pullarning esa, bilamizki, haqiqiy qiymati nominal qiymatdan kam. Davlat qo‘lingizdagi qog‘oz pullarni qiymati yuqoriroq bo‘lgan bo‘lsa ham, oltinga almashtirmaydi.

Ikkinchidan, pul qiymati. Agarda qog‘oz pullar va chek qo‘yilmalari qiymat beradigan ichki xususiyatga ega bo‘lmasa va oltin yoki boshqa metall qiymatliklarga almashinmasa nima uchun ular pul hisoblanadi? O‘n so‘mlik kupyuraga yoki yuz so‘mlik cheklarga qiymat qanday beriladi? Bu savollarga javob olish uchun qo‘yidagi uchta jixatni qarab chiqamiz:

1. Yaroqliligi. Naqd va chek qo‘yilmalarini oddiy sababga ko‘ra, insonlar pul sifatida qabul qiladi, amaliyotda ular asosan pul vazifasining asosiy qismini bajarishadi va muomala vositasi sifatida qabul qilingan. Masalan, siz do‘konda qog‘oz pullarni kiyim - kechakka almashtirasiz. Nima uchun? Sotuvchi bu qog‘oz bo‘lagini qabul qilib oladi. Javob oddiy - sotuvchi biladi, uni boshqa birovlar ham tovarga almashtiradi.

2. Qonuniy to‘lov vositasi. Qog‘oz pullarga ishonchimiz qonunlarga asoslangan. Davlat naqd pullarni qonuniy to‘lov vositasi sifatida e’lon qilgan.

3. Nisbiy kamligi. Pul qiymati uning foydaliligiga nisbatan kamligi bilan aniqlanadi. Pulning foydaligi uning xozir va kelajakda tovar va xizmatlarga erkin almashtirish qobiliyatidan kelib chiqadi. Iqtisodiyotda pulga bo‘lgan talab bajarilgan ishlarning so‘mdagi qiymati plus korxona va individlarning keyinchalik biror ishni amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan pullar miqdori orqali aniqlanadi.

Pulning real qiymati yoki to‘lov qobiliyati pul birligiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori orqali aniqlanadi. Tovar va xizmatlarni sotib oladigan pulning qiymati baho darajasi bilan teskari

aloqaga ega. Narxlar qancha yuqori bo‘lsa, pulning to‘lov qobiliyati shunchalik past bo‘ladi va aksincha. Umumiy pul taklifi nafaqat joriy hisoblardagi mablag‘lardan (D), balki aholi qo‘lidagi naqd pullardan (C) ham tashkil topadi. Shuning uchun pul taklifining umumiy modeli pullarni bank depozitlaridan naqd pulga mumkin bo‘lgan oqib o‘tishini hisobga olib tuziladi.

$$\mathbf{M = (1/r) x D}$$

Bunda: **M**- pul taklifi hajmi;

r – majburiy zaxiralash normasi;

D - dastlabki omonat.

Keltirilgan formuladan ko‘rinib turibdiki, pul taklifi majburiy zaxiralash normasiga bog‘lik bo‘lib, uni bank multiplikatori Yoki pul ekspansiyasi multiplikatori, deb ataladi. U ushbu bank zaxiralar normasida ortiqcha zaxiralarning bir pul birligi bilan yaratilishi mumkin bo‘lgan yangi kredit pullarining eng ko‘p miqdorini bildiradi.

Mamlakatdagi pul bazasini aniqlashda qo‘yidagi formuladan foydanaliladi:

$$\mathbf{MV = S + R}$$

Bu yerda: **MV** – pul bazasi; **S** – naqd pullar hajmi; **R** – bank rezervlari.

10.2. Pul bozorida muvozanatga yerishish va pul multiplikatori

Pulga bo‘lgan talab va taklifni birlashtirib pul bozorini va foiz stavkasining tengligini aniqlashga harakat qilamiz. To‘g‘ri chiziq shaklidagi pul taklifi umumiy holda berilgan. Ya’ni, pul-kredit va moliya tashkilotlari iqtisodiyotni ma’lum bir miqdordagi pul hajmi bilan ta’minlab turadi. Resurslar va mahsulotlar bozoridagiga o‘xshab pulga talab va taklif to‘g‘ri chiziqlarining kesishishi muvozanat nuqtani bildiradi. Bunday holatda baho tengligi bo‘lib foiz stavkasining tengligi hisoblanadi yoki u puldan foydalanganlik uchun to‘langan bahodan iboratdir (10.2.1-chizma).

Uni sodda ko‘rinishda qo‘yidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$\mathbf{MV = PY;}$$

Bunda**: M** - muomalaga chiqarilgan pul;

V - pulning aylanish tezligi;

P - YaMM deflyatori;

U - real YaMM.

Ushbu ayniyatni pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi deb aytiladi. Uning chap qismi **(MB)**-bu, real pul zaxirasining taklifini, o‘ng qismi **(PU)** nominal YaMMni ifodalaydi.



10.2.1-chizma. Pul bozorida tenglikga erishish

Masalan, iqtisodiyotda 1000 birlik pul muomalada bo‘lsa, unda har bir pul birligi yil davomida uch marta qo‘ldan-qo‘lga o‘tsa yoki bir yilda 3 ta bitimga (oldi-sotdi) xizmat qilsa **(B),** unda pul zaxirasi taklifi real hisobda 3000 ga teng **(MB). U** mamlakatdagi bitimlarninig umumiy soniga, ya’ni nominal YaMM hajmiga **(RU)** muvofiq kelishi mumkin.

Pul bozorida qanday qilib tenglikga erishish mumkin?

Bu savollarga yuqoridagi chizmadan foydalangan xolda javob berishga harakat qilamiz. Ushbu chizmada ko‘ringanidek, pul taklifi 200 mlrd. so‘mdan 150 mlrd. so‘mga kamaygan bo‘lsin. Talab qilinayotgan pullar miqdori taklif qilingan pullar miqdoridan oldingi muvozanatga nisbatan 50 mlrd. so‘mga ko‘p. Bunday holatda odamlar o‘zlarida mavjud bo‘lgan moliyaviy aktivlarni sotish orqali

moslashtirishga harakat qilishadi. Obligatsiyalarni sotish orqali pulga ega bo‘lish boshqa birovlar uchun pulni yo‘qotish hisoblanadi.

Umuman, 150 mlrd. so‘m naqd pul mavjud. Obligatsiyalarni sotish orqali jamoa bo‘lib, ko‘p naqd pulga ega bo‘lish bozorga obligatsiyalar talabiga nisbatan taklifni ko‘paytiradi va ularning narxini tushiradi. Obligatsiyalar narxining pasayishi foiz stavkalarini oshiradi. Masalan, ming so‘mlik nominal qiymatdagi obligatsiyani sotish natijasida 50 so‘mlik doimiy foizlar to‘lansa, yillik o‘rtacha foiz stavkasi 5 foizga teng bo‘ladi.

$$50 / 1000 = 5\%$$

Obligatsiyalar taklifining ko‘payishi natijasida ularning narxi 667 so‘mga tushib qoldi, deylik. Bunday holda obligatsiyalarni sotib oluvchilar uchun obligatsiyaning 50 so‘mlik doimiy foiz stavkasi 7,5 foizga teng bo‘ladi.

$$50 \text{ so‘m} / 667 \text{ ko‘m} = 7,5\%$$

Chizmadan ko‘rinib turibdiki, 200 mlrd. so‘mlik pul taklifi davridagi 5 % li foiz stavkasi, 150 mlrd. so‘mlik pul taklifi sharoitida 7,5 % oshgan. Foiz stavkalarining oshishi pulni saqlashdagi xarajatlarni oshiradi va pul miqdorini kamaytiradi. Boshqacha aytganda, talab qilinayotgan pullar 200 mlrd. so‘mdan 150 mlrd. so‘mga tushadi. Shunga e’tibor berishimiz kerakki, 7,5 % li foiz stavkasi sharoitida pulning talabi va taklifi 150 mlrd. so‘mga tenglashadi. Aksincha, pul taklifini 200 mlrd. so‘mdan 250 mlrd. so‘mga ko‘paytirish 50 mlrd so‘mlik pulning ortiqchaligiga olib keladi. Odamlar obligatsiyani ko‘proq sotib olish hisobiga puldan qutilishga harakat qilishadi. Ayrimlar tomonidan pulning xarajat qilinishi boshqa birovlarning pulga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Shuning uchun jamoa tariqasida obligatsiyalarni ko‘p miqdorda sotib olish ularga bo‘lgan talabni oshiradi va narxning oshishiga olib keladi. Obligatsiyalar narxining oshishi foiz stavkalarini pasaytiradi. Masalan, yillik normasi 50 so‘mlik foiz stavkasiga ega bo‘lgan obligatsiyalar endi 2000 so‘m bo‘lsin.

$$50 \text{ so‘m} /2000 \text{ co‘m} = 2,5\%$$

Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelamizki, birinchidan, obligatsiyalar narxi va foiz stavkalari teskari

bog‘liqlikka ega, ikkinchidan, pul bozoridagi nomuvozanat xolat obligatsiyalar narxining o‘zgarishiga va u orqali foiz stavkasining o‘zgarishiga, uchinchidan, foiz stavkalarining o‘zgarishi insonlarning pulni saqlashga tayyorlanishiga ta’sir qiladi, to‘rtinchidan, insonlarning pulni saqlashga tayyorgarligi o‘zgarishi pul bozoridagi muvozanatni tiklaydi va beshinchidan, muvozanatli foiz stavkasi taklif qilinayotgan va talab qilinayotgan pullar miqdorini tenglashtiradi.

Yuqori darajali foiz stavkasi investitsiya va iste’mol xarajatlarini kamaytiradi va aksincha, foiz stavkalarining past darajasi investitsiya va iste’mol xarajatlarini oshiradi. Ushbu vaziyatlarning ikkalasi ham ishlab chiqarish, bandlik va baho darajalariga ta’sir etadi.

Pul bozorida muvozanatni o‘rnatish va saqlab turish mexanizmi qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida muvafaqqiyatli amal qiladi. Pul bozoridagi muvozanat tovarlar va xizmatlar bozoridagi muvozanat singari makroiqtisodiy muvozanatning muhim tarkibiy qismidir.

10.3. Pul-kredit tizimi

Aksariyat mamlakatlarda davlat pul chiqarishga monopol xuquqiga ega. Shuning uchun u butun pul massasi miqdorini tartibga solib turadi. Uni amalga oshirish huquqi nisbatan mustaqil muassasa Markaziy bank ixtiyorida, pul taklifini ko‘paytirishga yoki pul yaratish qobiliyatiga tijorat banklari ham ega. Ular kreditlar byerish, to‘lov vositalari emissiyasini yoki kredit multiplikatsiyasini amalga oshiradi. Masalan, A bankning depoziti qo‘shimcha 2000 ga o‘sgan bo‘lsa, rezerv normasi 20%ga teng bo‘lganda (rezerv normasi - bu rezervlarning depozitlarga nisbati) u 400 so‘mni o‘zida qoldirib qolgan 1600 so‘mni qarzga beradi. Shunday qilib A bank pul taklifini 1600 ga ko‘paytiradi va u endi 2000 + 1600 =3600 ni tashkil etadi. Ya’ni, omonatchilarning depozitlardagi 2000 dan tashqari yana 1600 qarz oluvchilarning qo‘llarida qoladi. Agar 1600 so‘m yana bankga tushsa (masalan B bankga) unda 20%ni teng bo‘lgan rezerv normasida u 320 ni rezervda qoldirib, 1280 ni kreditga beradi. Hamda shu miqdorda pul taklifini oshiradi. Kredit berishning bu

jarayoni so‘ngi pul birligidan foydalanishga qadar davom etadi va pirovard natijada jami pul taklifi quyidagicha aniqlanadi:

Dastlabki omonat = 2000

A bankning ssudasi = (1-0,2) x 2000 = 1600

B bankning ssudasi=(1-0,2) x (1-0,2)=2000=(1-0,2)*x2000=1280 va x.k.

Jami pul taklifi teng bo‘ladi

(2000+(1-0,2)x2000+(1-0,2)*x2000+...)=X1+(1-0,2)+(1-0,2)* +...) x2000= 1/1-(1-0,2)x2000 = 1/0,2x2000. (*-kvadratni bildiradi).

Bu ifodani quyidagi formula ko‘rinishida yozish mumkin:

$$M = (1 / r) x D;$$

Bunda - M- hajmi pul taklifi.

r - bank rezyervlar normasi.

D - dastlabki omonat.

Keltirilgan formuladan ko‘rinib turibdiki, pul taklifi 1/r koeffitsentiga bog‘liq bo‘lib, uni bank multiplikatori yoki pul *ekspansiyasi multiplikatori* deb ataladi. U ushbu bank rezyervlar normasida ortiqcha rezyervlarning bir pul birligi bilan yaratilishi mumkin bo‘lgan yangi kredit pullarining eng ko‘p miqdorini bildiradi.

Kredit - qaytarib berish sharti bilan ma’lum muddatga qarz berish ma’nosini beradi. Qarzga mablag‘ beruvchi tomon kreditor, ya’ni, kredit beruvchi, ssuda oluvchi tomon esa qarzdor, ya’ni kredit oluvchi debitor hisoblanadi.

Bank kreditlarining asosiy qoidalari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

- muddatlilik;
- aniq maqsadga yo‘naltirilganlik;
- foizlilik;
- qaytarib berishlilik;
- moddiy ta’minlanganlik va boshqalar;

Kredit uzoq va qisqa muddatli bo‘ladi. Qisqa muddatli kredit korxona va tashkilotlarning aylanma fondlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli kredit esa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga kapital mablag‘lar ajratish manbai bo‘lib hisoblanadi.

Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirishda ma’lum dastaklardan foydalanadi va shular orqali pul taklifini o‘zgartirib pul kredit muomalasini tartibga solib turadi:

1. Hisob stavkasini aniqlash;
2. Majburiy rezervlar normasini belgilash;
3. Ochiq bozordagi operatsiyalarni amalga oshirish;

Hisob stavkasi deb markaziy bank tomonidan banklarga beriladigan ssudaning foiz stavkasi tushuniladi. Bu ssudalarni tijorat banklari ayrim ko‘zda tutilmagan zarurat tug‘ilganda va moliyaviy ahvoli mustahkam bo‘lgan hollardagina oladilar. Hisob stavkasining pasayishi bilan tijorat banklarida markaziy bankdan qo‘shimcha rezervlarni olish imkoniyatlari kengayadi. O‘z navbatida bu tijorat banklarini rezervlardan yangi kreditlar berish bilan pul taklifini ko‘paytiradi. Yana shunday hollar mavjudki, markaziy bank hisob stavkasini ko‘tara borib, tijorat banklari tomonidan qo‘shimcha rezervlarni olish yo‘lidagi to‘siqlarni biroz ko‘targanday bo‘ladi va kreditlar berish bo‘yicha ularning faoliyatini pasaytiradi. Ya’ni, shu yo‘l bilan pul taklifini cheklaydi.

Majburiy rezervlar - bu kredit maqsadlari uchun ishlatilmaydigan bank omonatlarining bir qismidir. Ular mijozlar tomonidan o‘z omonatlarini talab qilib olganda zarur bo‘ladi. Markaziy bank tijorat banklarini ushlab turishga majbur bo‘lgan rezervlarning eng quyi normasini o‘rnatadi va shu vosita yordamida ular kreditlash qobiliyatiga, imkoniyatiga ta’sir etadi. Bu me’yor qanchalik yuqori bo‘lsa, ortiqcha rezervlar shunchalik kam va tijorat banklarining kredit berish qobiliyati past bo‘ladi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar - markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatbaho qog‘ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotish. Markaziy bank tijorat banklaridan yoki aholidan bu qimmat baho qog‘ozlarni sotib olar ekan shu bilan tijorat banklari rezervlarini sotib olingan obligatsiyalar miqdori hajmida ko‘paytiradi. Bu rezervlardan kredit berib tijorat banklari pul taklifini kengaytiradi. Obligatsiyalarni sotish teskari natijaga olib keladi, ya’ni markaziy bank tijorat banklari va aholiga obligitsiyalarni sotish bilan

rezervlarni hamda tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini pasaytiradi. Bu holda pul taklifi qisqaradi.

Qisqacha xulosalar

Pul emissiyasi faqat Markaziy bank vakolatiga kirsada, tijorat banklari ham kredit berib pul taklifini ko‘paytirish qobiliyatiga ega.

Tijorat banklarining pul taklifini keltirib chiqarish imkoniyati majburiy zaxira normasini belgilash orqali tartibga solib turiladi.

Umumiy pul taklifi nafaqat joriy hisoblardagi mablag‘lardan, balki aholi qo‘lidagi naqd pullardan ham tashkil topadi. Pul taklifi miqdori majburiy zaxira normasi, deponentlash koefitsienti va pul bazasi miqdoriga bog‘liq.

Mahsulotlar bozoridagi kabi pul bozorida ham pulga bo‘lgan umumiy talab va taklif muvozanat nuqtada kesishadi. Mahsulotlar bozorida muvozanat nuqtani narxlar tengligi asoslasa, pul bozorida esa bunday tenglikni foiz stavkasi belgilaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Respublikada pul muomilasi qanday tartibda olib boriladi?

2. Pul taklifi asosida nimalar yotadi? Pullar va chek qo‘yilmalari deganda nimani tushunisiz? Bank multiplikatori va pul multiplikatori qanday aniqlanadi hamda ularning bir-biridan farqi nimada?

3. Pul bozoridagi muvozanat nuqtani nima bildiradi? Pul bozorida tenglikga erishilmasi nima bo‘lishi mumkin? Pul bozorida qanday qilib tenglikga erishiladi?

4. Pul-kredit siyosatini kim olib boradi va uning qanday vositalari mavjud? Qanday qilib bir so‘mni o‘n so‘m qilish mumkin? Pul taklifining multiplikatori qanday aniqlanadi?

5. Kredit nima va uni berishning qanday shartlarini bilasiz? Kreditni kimlar bera olishi mumkin va kredit tizimini nechta guruhga bo‘lishimiz mumkin?

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Pul taklifining asosiy qismi nimalar hisoblanadi?

A) qog’oz pullar va chek qo‘yilmalari

b) naqd pullar

c) elektron pullar

d) natural pullar

2. Pul bozori - bu?

A) bozorda pul sifatida muomalada bo‘lgan turli-tuman moliyaviy mablag‘lar, ya’ni pul agregatlari yig‘indisi hisoblanadi

B) bankdagi pul depozitlari qo‘shimcha ravishda o‘sgan hajmining majburiy zaxiralar qo‘shimcha hajmiga nisbati bo‘lib, pul mablag‘larining bir birlikka ko‘payishi iqtisodiyotdagi pul taklifining qanchaga o‘sishini ko‘rsatadi

C) unumiy ekvivalentlilik yuqori likvidlik xususiyati orqali baholanadi

D) mamlakatdagi pul miqdori hamda foiz stavkasining turli darajalarida pul mablag‘lariga bo‘lgan talab va pul taklifining o‘zaro nisbatini ifodalovchi mexanizm

3. Pul taklifining umumiy modeli?

A) MV = S + R

B) M = (1/r) x D

C) MV = PY

D) M = k x PY

4. Mamlakatdagi pul bazasini aniqlashda qanday formuladan foydanaliladi?

A) M = k x PY

B) M = (1/r) x D

C) MV = S + R

D) MV = PY

5. “Bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va tijorat banklar”i bu qanday pul agregati?

A) M0

B) M1

C) M2

D) M3

6. Pul bozori munosabatlarining harakati qanday baholanadi ?

A) mulkiy va nomulkiy

B) iqtisodiy va siyosiy

C) oddiy va murakkab

D) intensiv va ekstensiv

7. Fisher tenglamasi?

A) M=k*P*Y

B) M*V=P*Y

C) M=(1-rr)*D

D) m=1/r

8.Kembridj tenglamasi?

A) M=k*P*Y

B) M*V=P*Y

C) M=(1-rr)*D

D) m=1/r

9. M = (1 / r) x D formuladan ko‘rinib turibdiki, pul taklifi 1/r koeffitsentiga bog‘liq bo‘lib, uni nima deb atashadi?

A) bank multiplikatori

B) ekspansiyasi multiplikatori

C) pul taklifi multiplikatori

D) A va B javoblar to‘g’ri

10.Kredit nima?

A) qaytarib bermaslik sharti bilan ma’lum muddatga qarz berish

B) qaytarib berish sharti bilan ma’lum muddatga qarz berish

C) qaytarib berish sharti bilan noma’lum muddatga qarz berish

D) qaytarib bermaslik sharti bilan noma’lum muddatga qarz berish

XI bob. PUL - KREDIT SIYOSATI

11.1. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari

Moliya bozoridagi operatsiyalar moliya muassasalari vositasida amalga oshiriladi. Bunday mussasalarga turli xil banklar, birjalar, depozitariylar, sug‘urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, agentliklar kiradi.

«Bank» tushunchasi qadimiy fransuzcha «bang» va «banka» so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, «sarrof kursisi, do‘koni» degan ma’noni anglatadi. Bunday tushuncha tarixchilarning taxminan 2000 yil muqaddam faoliyat ko‘rsatgan bankirlar haqidagi ma’lumotlarida ham mavjud.

Pul munosabatlarining rivojlanishi banklarni yuzaga keltirgan. Bank iqtisodiyot ishtirokchilarining pul yuzasidan bo‘lgan aloqalariga xizmat qiluvchi institut (muassasa)dir. Pul bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatuvchi tashkilotlar ko‘p, ammo ularning markazida banklar turadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunida, bank nima, degan savolga qo‘yidagicha javob topish mumkin:

Bank-tijorat tashkiloti bo‘lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

O‘zbekistondagi bank tizimi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, aksiyadorlik-tijorat banklari va xususiy banklardan iboratdir.

Banklar pul olamini harakatga keltiruvchi motor - yurak, pul bilan bo‘ladigan hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Hamma pul to‘lovlari (transfertlar) banklar orqali o‘tadi. Banklar qo‘yidagi ishlarni amalga oshiradi:

- pul va qimmatli buyumlarni omonatga olib, saqlab beradi;
- pul bilan bo‘ladigan hisob-kitob opyeratsiyalarini, xususan, pul to‘lash ishlarini bajaradi;
- chet el valyutasini sotadi va sotib oladi;

- o‘z qo‘lidagi pulni qaytarish, foizlilik va muddatlilik sharti bilan muxtojlarga qarz (ssuda)ga beradi, ya’ni, kredit bilan shug‘ullanadi;
- o‘z puliga aksiya sotib olib, uni boshqa sohaga joylashtiradi;
- biznes yuzasidan maslahat beradi va hokazo.

Bank ishi pul olamida bo‘ladigan biznesdir. Bank biznesi foyda topish maqsadida yuritiladi.

Markaziy bankning monopollik mavqei uning mamlakatdagi pul va pirovard natijada iqtisodiy barqarorlik uchun alohida javobgar ekanligi bilan chambarchas bog‘liq. Bundan tashqari, Markaziy bank ayni paytda boshqa, jumladan, banklarning banki, davlat banki, milliy oltin-valyuta zaxiralarini boshqaruvchilik vazifalarini ham bajaradi.

Markaziy bank o‘zining butun faoliyatini zimmasida turgan vazifalarni sifatli va samarali ado etadigan darajada uyushtiradi. Umumiy pul xo‘jalik aylanmasida Markaziy bankning monopollik mavqei unga pul muomalasini nazoratida saqlab turishga imkon byeradi, pul miqdori nazoratsiz ko‘paymasa, uning xarid qobiliyati ham pasayib ketmaydi.

Bundan tashqari, tijorat banklari Markaziy bankda o‘z qisqa muddatli va o‘rta muddatli majburiyatlaridan muayyan foiz hajmida eng kam zaxira deb yuritiladigan foizsiz omonatlarni saqlashga majbur.

Markaziy bank naqdsiz to‘lov aylanmasini texnik tarzda bajarish uchun sof bank xizmatlarini taqdim etadi. Banklar bu xizmatlardan iqtisodiyotning turli subyektlari o‘rtasida to‘lov aylanmasini yo‘lga qo‘yish uchun foydalanadi.

Markaziy bank banklar faoliyatini nazorat qilishda o‘zining mintaqaviy bo‘linmalari orqali kredit muasasalaridan majburiy ravishda axborot, oylik hisobot va yillik yakuniy balans ma’lumotlarini taqdim etish asosida qatnashadi.

Kredit muassasalarining bo‘ysinishiga qarab bank qonunchiligi hamda kredit tizimining pastdan yuqoriga tomon tarkibiy tuzilishiga muvofiq tarzda bank tizimini ikki asosiy: bir bosqichli va ikki bosqichli turga ajratish mumkin.

Bir bosqichli bank tizimi doirasida barcha kredit muassasalari, jumladan, Markaziy bank ham, yagona bosqichda turadi hamda mijozlarga kredit-hisob xizmati ko‘rsatishda bir xil vazifalarni bajaradi.

Ikki boskichli tizimda banklar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bo‘yiga (vertikal) va eniga (gorizontal) yo‘nalishlarida tuzilishiga asoslanadi. Vertikal–raxbarlik qiluvchi, boshqaruvchi markaz hisoblangan Markaziy bank bilan quyi bo‘g‘inlar – tijorat va ixtisoslashgan banklar o‘rtasidagi bo‘ysinish munosabatlari, gorizontal-turli quyi bo‘g‘inlar o‘rtasidagi teng huquqli sheriklik munosabatlari tushuniladi.

Markaziy bank faqat mijozlarning ikki toifasi-tijorat va ixtisoslashgan banklar hamda davlat tuzilmalari uchun tom ma’noda Markaziy bank bo‘lib qoladi.

11.2. Pul-kredit siyosati va uni amalga oshirish vositalari

Pul-kredit siyosati deganda, to‘liq bandlik sharoitida jami mahsulotni ishlab chiqarishga inflyatsiyaning ta’sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o‘zgartirish tushuniladi. Uning yordamida har qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vazifasini xayotga taqdim etadi.

Xalq xo‘jaligining har qanday tarmog‘i kabi kredit tizimi ham tarkibiy qismlarni, bosqichma-bosqich pastdan yuqoriga tomon tuzilishni tashkil etishga, ya’ni markaziy boshqaruv bo‘g‘ini va quyi (ish bajaruvchi) tashkilotlarni ajratishga ehtiyoj sezdi.

Quyi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida boshqaruv tashkiloti kredit muassasalarining faoliyat ko‘rsatishini nazoratga olishi, ular ishini tahlil qilishi hamda kredit tizimi to‘xtovsiz va pishiq-puxta ishlashi uchun mavjud ta’sir etish dastaklari orqali tizim faoliyatini kerakli izga solishi, xalq oborotiga kredit hisobi samaradorligini ta’minlashi, kredit opyeratsiyalarining hajmi asossiz ravishda kengayib yoki kamayib ketishiga yo‘l qo‘ymasligi kyerak.

Kredit deganda o‘z egalari qo‘lida vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini boshqalar tomonidan ma’lum (hudud) muddatga haq

to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatlarni tushunish kerak.

Kredit subyektlari har xil bo‘ladi. Bularga korxona, firma, tashkilot, muassasa, davlat va turli toifadagi aholini kiritish mumkin. Kredit obyekti – har qanday pul emas, balki vaqtincha bo‘sh turgan, egasi tomonidan ishlatilmay va qarzga berilishi mumkin bo‘lgan puldir.

Qarzga mablag‘ beruvchi tomon kreditor, ya’ni, kredit beruvchi, ssuda oluvchi tomon esa qarzdor, ya’ni, kredit oluvchi debitor hisoblanadi.

Bank kreditlarining asosiy qoidalari qo‘yidagilar hisoblanadi:

- muddatlilik;
- aniq maqsadga yo‘naltirilganlik;
- foizlilik;
- to‘lashlilik;
- moddiy ta’minlanganlik va boshqalar.

Kredit uzoq va qisqa muddatli bo‘ladi. Qisqa muddatli kredit korxona va tashkilotlarning aylanma fondlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli kredit esa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga kapital mablag‘lar ajratish manbai hisoblanadi.

Kredit pul tizimining asosini banklar tashkil etadi. Pul-kredit siyosatining uchta asosiy vositasi ajratib ko‘rsatiladi. Markaziy bank ular yordamida pul taklifini o‘zgartiradi va shular orqali pul-kredit muomalasini tartibga solib turadi:

1. Hisob stavkasi;
2. Majburiy zaxiralar normasi;
3. Ochiq bozordagi opyeratsiyalar.

Hisob stavkasi deb Markaziy bank tomonidan banklarga beriladigan ssudaning foiz stavkasi tushuniladi. Bu ssudalarni tijorat banklari ayrim ko‘zda tutilmagan zarurat tug‘ilganda va moliyaviy axvoli mustaxkam bo‘lgan hollardagina oladilar. Hisob stavkasining pasayishi bilan tijorat banklarida Markaziy bankdan qo‘shimcha zaxiralarni olish imkoniyatlari kengayadi. O‘z navbatida, bu tijorat banklarining zaxiralardan yangi kreditlar byerish bilan pul taklifini

ko‘paytiradi. Yana shunday hollar mavjudki, Markaziy bank hisob stavkasini ko‘tara borib, tijorat banklari tomonidan qo‘shimcha zaxiralarni olish yo‘lidagi to‘siqlarni biroz ko‘targanday bo‘ladi va kreditlar berish bo‘yicha ularning faoliyatini pasaytiradi, shu yo‘l bilan pul taklifini cheklaydi.

Majburiy zahiralar–bu, kredit maqsadlari uchun ishlatilmaydigan bank omonatlarining bir qismidir. Ular mijozlar tomonidan o‘z omonatlarini talab qilib olganda zarur bo‘ladi. Markaziy bank tijorat banklarini ushlab turishga majbur bo‘lgan zaxiralarning eng quyi normasini o‘rnatadi va shu vosita yordamida ular kreditlash qobiliyatiga, imkoniyatiga ta’sir etadi. Bu me’yor qanchalik yuqori bo‘lsa, ortiqcha zaxiralar shunchalik kam va tijorat banklarining kredit berish yo‘li bilan «pullarni barpo etish» qobiliyati past bo‘ladi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar–Markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatliqog‘ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotishdir. Markaziy bank tijorat banklaridan yoki aholidan bu qimmatli qog‘ozlarni sotib olar ekan, shu bilan tijorat banklari zaxiralarini sotib olingan obligatsiyalar miqdori hajmida ko‘paytiradi. Bu zaxiralardan kredit berib, tijorat banklari pul taklifini kengaytiradi. Obligatsiyalarni sotish salbiy natijaga olib keladi, ya’ni Markaziy bank tijorat banklari va aholiga obligitsiyalarni sotish bilan zaxiralarni hamda tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini pasaytiradi. Bu xolda pul taklifi qisqaradi.

Hozirda hamma mamlakatlarda pul miqdorini tartibga solishda ochiq bozorda operatsiyalarni, ya’ni davlat qimmatli qog‘ozlarini taklif qilish usulidan keng foydalanilmoqda. Ushbu opyeratsiyalarni Markaziy bank asosan nufuzi katta banklar guruhi bilan birgalikda amalga oshiradi. Bozorda Markaziy bank xazina qimmatli qog‘ozlarini sotish yoki xarid qilish yo‘li bilan pul taklifiga ta’sir etib, pul bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta’minlaydi.

Pul bozorida muomalada pul miqdori ortiqchaligi mavjud deb faraz qilamiz. Tabiiyki, Markaziy bank ortiqcha pul massasini kamaytirish yoki yo‘q qilishga harakat qiladi. Buning uchun, u ochiq bozorda o‘zining qimmatli qog‘ozlarini aholi va banklarga taklif etadi, ular esa

uni xarid qila boshlaydilar. Davlat qimmatbaho qog‘ozlarining (sotish yoki harid qilish yo‘li bilan) taklifi oshib borgan sari, unga bo‘lgan baho pasayadi, o‘z navbatida, unga bo‘lgan foiz (ya’ni, qimmatli qog‘ozlarni sotib olganlarga foiz shaklida haq to‘lanadi) oshadi, bu esa unga bo‘lgan talabni oshiradi. Banklar va aholi qimmatli qog‘ozlarni ko‘proq xarid qila boshlaydi, pirovard natijada banklarning zaxiralari qisqaradi, o‘z navbatida, bu hol pul taklifining bank multiplikatoriga teng nisbatda qisqarishiga olib keladi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning yana bir vositasi– bu hisob-kitob stavkasi siyosatidir. Hisob-kitob stavkasini Markaziy bank belgilaydi. Agar ushbu stavka past bo‘lsa, unda tijorat banklari ko‘proq kredit olishga harakat qiladilar. Natijada banklarning ortiqcha zaxiralari ortib boradi va muomaladagi pul massasi miqdorining oshib borishiga olib keladi. Agarda hisob stavkasi miqdori yuqori bo‘lsa, unda banklar kamroq kredit olishga, olganlarini esa qaytarib berishga harakat qiladilar, pirovard natijada ortiqcha bank zaxiralari qisqaradi, muomaladagi pul miqdori kamayadi.

Amaliyotda, davlatlar hisob stavkasi siyosatini ochiq bozordagi opyeratsiyalar siyosati bilan muvofiqlashtirilgan xolda olib borishga harakat qiladilar.

Pul-kredit siyosatining vositalaridan yana biri–bu, majburiy bank zaxira me’yorini o‘zgartirish siyosatidir. Majburiy bank zaxira me’yorini Markaziy bank belgilaydi va uni o‘zgartirib turadi. Agar Markaziy bank majburiy bank zaxirasini kamaytirsa, ortiqcha bank zaxiralari ortadi, bu esa pul taklifining multiplikatsion ortishiga olib keladi.

Masalan, ushbu me’yor 25% bo‘lsa, unda bankka qo‘yilgan 800 so‘mdan 200 so‘m majburiy bank me’yorini tashkil etadi. Bunda bank faqat 600 so‘mni qarzga berishi mumkin bo‘ladi. Endi faraz qilaylik, me’yor 10% ga tushiriladi, unda bank 720 so‘mni qarzga berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Majburiy bank zaxirasi me’yorini ko‘tarish yordamida davlat pul taklifini kamaytiradi. Zero, bu banklarning ortiqcha bank zaxiralari qisqarishiga olib keladi. Pul-kredit siyosatini o‘tkazishda bu vosita butun

bank tizimining asoslariga ta’sir etadi. Shuning uchun u ko‘pchilik mamlakatlarda o‘ta zarur bo‘lgandagina qo‘llaniladi.

Xo‘sh, pul-kredit siyosatining oqibatlari qanday?

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati YaMM, bandlik va baholar darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Faraz qilamizki, iqtisodiyotda ishlab chiqarish qisqarmoqda va ishsizlar soni ortib bormoqda. Bunday sharoitda davlat Markaziy bank orqali pul taklifini biz yuqorida ko‘rib chiqqan vositalar yordamida oshirishga harakat qiladi. Natijada pul taklifi o‘sadi, foiz stavkasi esa kamayadi. Bu esa investitsiyalarga bo‘lgan talabni oshiradi va o‘z navbatida, YaMM miqdorining ko‘payishiga olib keladi. Bu bilan davlat ma’lum davrda o‘z maqsadiga yerishadi, ishlab chiqarishning orqaga ketishi to‘xtaydi, ishsizlar soni kamayadi, jamiyatning daromadlari esa oshadi.

Pul-kredit siyosatining oqibati to‘g‘risida gapirganda, bu siyosatning qisqa muddatli va uzoq muddatli oqibatlarini farqlash kerak. Agarda qisqa muddatli davrda davlat pul taklifini oshirgan va buning natijasida YaMM miqdori o‘sishini rag‘batlantirgan hamda bu bilan ma’lum darajada samaradorlikka erishgan bo‘lsa, uzoq muddatli davrda esa bu choralarning samaradorligi pasayadi.

Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, pul-kredit siyosati asosida yaxlit iqtisodiyotga pul-kredit siyosatining ta’sir jarayonlarini o‘rganuvchi pul nazariyasi yotadi. Ushbu nazariyaga ikki xil yondashuvchi iqtisodchilar o‘rtasida ko‘p yillardan beri tortishuvlar bo‘lib kelmoqda. Bularga takomillashtirilgan keynschilar nazariyasi va zamonaviy pul miqdori nazariyasini kiritamiz. Ushbu ikki nazariya tarafdorlari ham pul taklifining nominal YaMMga ta’sirini inkor etmaydilar, ammo bu ta’sirning ahamiyatiga har xil baho beradilar. Keynschilar fikricha, monetar siyosat asosiga foiz stavkasi darajasi asos, monetaristlar fikricha esa, pul taklifining darajasi asos qilib olinishi zarur. Keynschilar bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat aralashuvi shart deb hisoblashadi, monetaristlar esa uni ortiqcha deb hisoblaydilar.

Keynschilar pul taklifining YaMMga ta’sirini qo‘yidagi ketma-ketlikda amalga oshadi deb hisoblashadi: pul taklifining o‘zgarishi foiz

stavkasining o‘zgarishi, u esa o‘z navbatida, investitsiyalarga bo‘lgan talabning o‘zgarishi orqali YaMMga ta’sir etadi. Monetaristlar esa bu borada shunday deydilar - pul miqdorining o‘zgarishi bilan YaMM o‘zgarishi o‘rtasida yaqinroq aloqa mavjud: ya’ni, pul miqdorining o‘zgarishi bevosita YaMM o‘zgarishiga olib keladi.

Keynschilarning asosiy tenglamasi qo‘yidagicha:

$$\mathbf{YaMM = S + I + G + X_n;}$$

Bu yerda**:**

C - aholi iste’mol xarajatlari;

I - investitsiyalar;

G - davlatning tovar va xizmatlarni sotib olish xarajatlari;

X_n - sof eksport.

Monetaristlar esa qo‘yidagi tenglamaga asoslanadilar:

$$\mathbf{M \times V = Q \times P}$$

Agar **Q x P** = YaMM bo‘lsa, unda tenglamani quyidagicha yozish mumkin bo‘ladi:

$$\mathbf{M = YAMM / V;}$$

Bu yerda: **M**-pul massasi;

V-pulning aylanish tezligi Yoki aylanishlar soni;

P-tovar va xizmatlarning o‘rtacha Bahosi;

Q-sotilgan tovarlar soni.

Bunda monetaristlar pulning aylanish tezligini barqaror deb hisoblaydilar, keynschilar esa, aksincha, nobarqaror deydilar.

Hozirda mavjud bo‘lgan monetaristik siyosatning modellari bu ikki yondashuvning sintez qilingan, ya’ni, bu yondashuvlarning ijobiy jixatlarini qo‘shib, o‘zida aks ettirgan monetaristik siyosatning variantidir. Uzoq muddatli davrda monetaristik yondashuv ko‘proq

ishlatiladi. Shu bilan birga qisqa muddatli davrlarda esa davlat foiz stavkasiga ta’sir etishdan voz kechmaydi.

O‘zbekistonda pul-kredit siyosatining qo‘idagi yo‘nalishlari mavjud:

- davlat tomonidan pul massasini oldindan bilish, uni doimiy nazorat qilish;
- Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining operatsiyalarini pul bilan ta’minlash, bunda Markaziy bankning tijorat banklariga foiz hisobida kredit byerishi nazarda tutiladi, bu esa o‘z navbatida Markaziy bank tomonidan, umuman, pul muomalasi soxasini nazorat qilishga imkon beradi;
- Kredit va budjet tizimlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlar vositasini takomillashtirish, kredit berish, byudjet kamomadi pul chiqarish hisobiga emas, balki davlatning qimmatli qog‘ozlarini sotish hisobiga qoplanishi zarur.

11.3. Davlat pul-kredit siyosatining asoslari

Davlatning pulga bo‘lgan talab va taklifi o‘zgarishi borasidagi siyosatini monetar siyosat deb yuritiladi. Bu siyosat monetarizm nazariyasiga asoslanadi. Uning bosh g‘oyasi iqtisodiy o‘sishni bozor mexanizmi ta’minlaydi, bu mexanizmning asosiy vositasi pul, degan xulosadan iborat. Pulga bo‘lgan talab va taklif qo‘yidagi bog‘lanish yordamida o‘zgartirib turilishi tavsiya etiladi**.**

$$\mathbf{M \times V = Q \times P}$$

Bu tenglik bozor iqtisodiyotidagi eng muxim muvozanat bo‘lib, unga asoslanib, qo‘yidagi bog‘lanishlarni aniqlash mumkin:

Bozordagi baho pul massasi bilan bozorga chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymatiga bog‘liq

$$\mathbf{M_s = M \times V = Q \times P}$$

ya’ni, pul taklifi bozorga chiqarilgan tovar va xizmatlarning bozordagi bahosi bilan belgilanadi. Agar;

1. $\mathbf{M_s}$> 1 bo‘lsa, pulning taklifi talabga nisbatan ko‘p bo‘ladi;

2. $\mathbf{M_s}$< 1 bo‘lsa, pul talabga nisbatan kam bo‘ladi;

3. $\mathbf{M_s}$ =1 bo‘lsa, pul massasi bilan tovar va xizmatlar massasi tenglashadi, Ya’ni, bozor muvozanatlashadi.

Birinchi holda narx oshgan bo‘ladi va pul qadri pasayadi, ikkinchi xolda esa aksincha, pul massasi kamaygan bo‘ladi va to‘lov inqirozi yuzaga keladi.

Muomalada bo‘lishi zarur bo‘lgan pul massasi tovar va xizmatlar massasi bilan pul harakati-pul aylanish tizimiga bog‘liq;

$$\mathbf{M = R \times Q / V;}$$

Muomala uchun zarur bo‘lgan pul massasini davlat o‘zi belgilangan kurs bo‘yicha oltinga muvofiqlashtirgan xolda muomalaga chiqaradi va davlat doirasida harakat qiladi. Muomalada tovarlar bilan ta’minlanmagan pulning paydo bo‘lishi inflyasiyani bildiradi. Pul qadrsizlanganda muomaladagi pul ko‘payib, unga nisbatan tovar va xizmatlar kamayib ketadi. Pul birligining xarid kuchi unga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdoridan kamayadi, natijada ularning bahosi o‘sadi. Bu esa o‘z navbatida pulning valyuta kursini pasaytiradi, chunki, unga nisbatan boshka valyutaga ko‘proq tovar sotib olish mumkin bo‘ladi.

Davlat o‘z xarajatlarini qoplash uchun pul emissiyasini joriy qilib, uni ko‘paytirib, muomalaga tashlashi mumkin. Lekin uni tovar va xizmatlar massasi bilan ta’minlay olmaydi. Buning natijasida pul inflyatsiyasi kuchayib boradi. Demak, qog‘oz pullar oltinga, chet el valyutasiga nisbatan qadrsizlanadi. Binobarin, pul miqdori asosan ishlab chiqarish holatiga, narxga, pul aylanishi tizimiga bog‘liq bo‘lib, unga nisbatan davlat jiddiy yondashadi.

Iqtisodiyotni tartiblash uchun davlat muomaladagi pul miqdorini o‘zgartirib, uni normal xolga keltirib turadi. Bu ishni Markaziy bank

amalga oshiradi. Monetaristlar iqtisodiyotga amaliy jixatdan yondoshib, pul massasini 3 - 5 foiz oshirishni tavsiya etishadi.

Pul-kredit siyosati fiskal va tashki siyosatlar bilan o‘zaro bog‘liq. Agarda hukumat iqtisodiyotni davlat xarajatlarini oshirish orqali qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirmoqchi bo‘lsa, uning muvaffaqiyatli amalga oshishi ko‘proq pul-kredit siyosatiga bog‘liq. Chunki, bu mo‘ljallanayotgan xarajatlar qimmatli qog‘ozlar (ya’ni, obligatsiyalar)ni chiqarish evaziga amalga oshsa, pulga bo‘lgan talab oshadi va natijada esa foiz stavkalari ko‘tariladi. Bu esa investitsiya xarajatlarining kamayishiga olib keladi.

Yoki Markaziy bank hukumatning yuqoridagi siyosatini qo‘llab-quvvatlash uchun pul taklifini ma’lum miqdorda ko‘paytirsa, pul qadrsizlanishi mumkin.

Umuman, barkaror pul-kredit siyosati hukumat tomonidan olib boriladigan fiskal siyosatga hamma vaqt ham mos kelavermaydi.

Qisqacha xulosalar

Bank tizimi Markaziy bank va tijorat banklarini o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimi shakllangan.

Markaziy banning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashdan iborat.

Pul kredit siyosatini amalga oshirishning pirovard maqsadlari iqtisodiy o‘sish, to‘liq bandlikni, baholarning hamda to‘lov balansining barqarorligini ta’minlashdan iborat.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishda foiz stavkasi, majburiy zaxiralash normasi va ochiq bozordagi operatsiyalar kabi vositalardan foydalaniladi.

Ochiq bozordagi opyeratsiyalar pul-kredit siyosatining eng progressiv usuli bo‘lib, uni qo‘llash ko‘lami ortib boradi.

O‘zbekiston Respublikasida majburiy zahiralash normasi va qayta moliyalash stavkalari kamaytirib borilayotganligi, pul-kredit siyosatining nisbatan yumshatilayotganligidan dalolat beradi. Bu inflyasiya sur’atlarining jilovlanganligi tufayli mumkin bo‘ldi va investitsiyalar, Yalpi talab hajmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatining asosiy maqsadlari va vazifalari nimalardan iborat?

2. Pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari va ulardan foydalanish mexanizmini izohlang.

3. Arzon pul va qimmat pullar siyosatlari nimalardan iborat?

4. Real ishlab chiqarish hajmi va turli iqtisodiy davrlardagi narxlar dinamikasiga pul-kredit siyosati qanday ta’sir ko‘rsatadi?

5. Bank tomonidan byeriladigan (qaytarilgan) ssudalar sharoitida pul massasining ko‘payish (kamayish) mexanizmini izoxlang.

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. O‘zbekistonda necha pog’onali bank tizimi bor?

A) 2
B) 3
C) 4
D) 5

2. Bank so‘zining manosi nima?

A) Sarrof kursisi, do‘koni
B) Yig’im
C) Omonat
D) To‘g’ri javob yo‘q

3. Banklarning yuzaga kelish sababi nima?

A) Pul munosabati
B) Omonat
C) Qarz olish
D) Inflyatsiya

4. O‘zbekiston Bank tizimiga qaysilar kiradi?

A) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki
B) Aksiyadorlik tijorat banklari
C) Xususiy banklar
D) Hamma javob to‘g’ri

5. O‘z qo‘lidagi ma’lum miqdordagi pullarni ma’lum miqdor evaziga berish nima?

A) Kredit

B) Soliq

C) Qarz

D) Barcha javoblar to‘g’ri

6. Kreditning asosiy qoidalari qaysilar?

A) Muddatlilik

B) Foizlilik

C) To‘lashlilik

D) Hamma javoblar to‘g’ri

7. Kredit muddatiga qarab necha xil bo‘ladi?

A) 2

B) 3

C) 4

D) 5

8. Majburiy zaxira nima uchun kerak?

A) Mijoz tomonidan o‘z omonatlarini talab qilishi mumkin bo‘lgani uchun

B) Inflyatsiyani oldini olish uchun

C) Majburiy zahira kerak emas

D) Kredit berish uchun

XII bob. IS-LM MODELI

12.1. IS - egri chizig‘i va uning o‘zgaruvchilari

Iqtisodiyotdagi muvozanat yoki tovar-pul muvozanatiga erishishda, investitsiya va jamg‘armalarning YaMM bilan bog‘liqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, banklar foiz stavkalarini pasaytirib borishi bilan YaMM hajmi ham ko‘payib boradi. Ya’ni, milliy iqtisodiyot moliyaviy «kislorodni» ko‘proq olishi natijasida YaMM ishlab chiqarishi ham ko‘payib boradi. Ushbu nazariyani atoqli iqtisodchi Xiks tadqiq qilganligi uchun uning nomi bilan yuritiladi. IS -egri chizig‘i esa Xiks egri chizig‘i deyiladi.

Umuman, IS egri chizig‘i tovar va xizmatlar bozorida vujudga keladigan daromadlar darajasi va foiz stavkasi o‘rtasidagi munosabatlarni bildiradi. Buni tushunish uchun tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni, ya’ni, «Keynsian xochi»ni qarab chiqamiz. Bunda avvalombor rejalashtirilayotgan xarajatlar miqdorini, ya’ni, «Keynsian xochi»ni olish uchun rejalashtirilayotgan xarajatlar miqdorini tashkil qiluvchi omillarni ko‘rib chiqamiz.

Rejalashtirilayotgan xarajatlar uy xo‘jaliklari, firmalar va davlatning tovar va xizmatlarini sotib olishga mo‘ljallagan xarajatlar miqdoridan iborat. Haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlardan, ya’ni, biror firma rejalashtirilmagan investitsiyalar miqdorini oshirishga yoki kamaytirishga qaror qilgan vaziyatlardagina farqqiladi.

Faraz qilaylik, iqtisodiyot yopiq iqtisodiyotdan iborat, sof eksport nolga teng. Biz rejalashtirilayotgan xarajatlar miqdorini (E) iste’mol (C), rejalashtirilgan investitsiyalar (I) va davlat xarajatlari (G)ning yig‘indisi orkali topishimiz mumkin:

$$\mathbf{E=S+I+G}$$

Demak, keynsian xochi daromadning (U) rejalashtirilayotgan xarajatlarga bog‘liqligini aks ettirar ekan. Bu tenglamaga biz iste’mol funksiyasini qo‘shsak:

$$\mathbf{S = S_0 + MRS(U-T)}$$

Iste’mol funksiyasi ko‘rsatayaptiki, iste’mol ixtiyoridagi daromadlar miqdoriga bog‘liq (U-T). Bundan tashkari rejalashtirilgan investitsiyalar miqdori (I=I) shaklida qayd qilingan bo‘lsin va byudjet siyosati davlat xarajatlari va soliqlari miqdori o‘zgarmagan xolda qolsin:

$$G=G;\ T=T$$

Bu tenglamalarni birlashtirsak, qo‘yidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$E= S_0 + MRS\ (U-T)+I+G$$

Quyidagi 12.1.1-chizmada rejalashtirilayotgan xarajatlar grafikda daromad funksiyasi shaklida berilgan. Bu to‘g‘ri chiziq ijobiy siljishga ega. Chunki, yuqori daromadlar darajasi yuqoriroq iste’mol darajalariga, ya’ni, rejalashtirilayotgan xarajatlarning yuqoriroq darajasiga olib keladi. Chiziqning egilishi iste’molga chegaraviy moyillikni bildiradi - MRS ya’ni, u daromadlarni 1 so‘mga oshirganda rejalashtirilayotgan xarajatlarning qanchaga oshishini ko‘rsatadi.



12.1.1-chizma. Daromad funksiyasi sifatida rejalashtirilayotgan xarajatlar

Muvozanatdagi iqtisodiyot. Bilamizki, iqtisodiyot xaqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlarga teng bo‘lgan sharoitda

muvozanatga erishadi. Ma’lumki, YaMM ko‘rsatkichi ikki yoqlama ma’noga ega: ya’ni, iqtisodiyot agentlari daromadi va ishlab chiqarish mahsulotlarini sotib olishga ketgan xarajatlardan iborat. Shuning uchun u nafaqat jami daromadlar, balki tovar va xizmatlarga qilingan xarajatlar miqdoriga tenglashadi. Biz muvozanat sharoitini qo‘yidagicha yozamiz: xaqiqiy xarajatlar teng rejalashtirilgan xarajatlarga Y=E;



A Investitsiya funksiyasi S. IS egri chizig‘i.

12.2. LM - egri chizig‘i va uning o‘zgaruvchilari

Keyingi chizmadagi 45 gradusli burchak xosil qilgan chiziq ushbu sharoit bajarilishini ko‘rsatadigan nuqtani bildiradi. Agarda biz rejalashtirilgan xarajatlar funksiyasini qo‘shsak, diagramma «Keynsian xochi» shakliga keladi.

LM egri chizig‘i o‘zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunish uchun foiz stavkasining oddiy

nazariyasini qarab chiqamiz. Bu nazariya tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasidir.

Tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi – bu, keynschilar foiz stavkasi nazariyasini oddiy sharxlab berishdan iborat. IS egri chizig‘ini tashkil qilishda «Keynsian xochi» asos bo‘lganidek, tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi ham **LM** egri chizig‘ini tashkil qilib, pul vositalari real zaxiralariga talab va taklif foiz stavkasini aniqlashni tushuntirib beradi. Buni biz real pul vositalariga taklifdan boshlaymiz.

Agarda **M**-pul taklifini, **R**-narxlar darajasini bildirsa, **M/R** esa pul vositalarining real zaxirasi miqdorini ko‘rsatadi.

Real pul zaxiralariga talabni qo‘yidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$(M/R) = f(R, Y)$$

Bu yerda: **f (R, Y) -funksiyasi pulga talab miqdorini bildiradi.**

Bu tenglama ko‘rsatayaptiki, pulga bo‘lgan talab miqdori foiz stavkasi funksiyasini anglatadi.

Keyingi grafikda foiz stavkasi va real pul zaxiralari miqdoriga talab teskari bog‘liqlikka ega. Chunki, yuqori foiz stavkasi pulga talab miqdorining kamayishini ko‘rsatadi.



12.2.1-chizma. Real pul zaxiralariga talab

Insonlar pulni saqlashadi, chunki pul tez almashtirish xususiyatiga ega. Tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi ko‘rsatadiki pulga bo‘lgan talab miqdori foiz stavkasiga bog‘liq. Shuning uchun foiz stavkasi oshganda, insonlar boyliklarini pul shaklida kamroq ushlab turishga harakat qiladi.

Foiz stavkasi tengligiga ega bo‘lish uchun pulga talab va taklif egri chiziqlarini birlashtiramiz.

Tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasiga mos ravishda foiz stavkasining o‘zgarishi pul bozorida muvozanatga olib keladi. Foiz stavkasining muvozanat nuqtasida pul vositalari zaxirasiga talab miqdori taklif miqdoriga teng. Tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi, Ya’ni pul taklifining kamayishi foiz stavkasini oshiradi, pul taklifining ko‘payishi esa foiz stavkasini kamaytirishdan kelib chiqqan.

Endi tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasini **LM** egri chizig‘ini tashkil qilishda foydalanamiz. Muvozanat foiz stavkasi - pul talabi va taklifini tenglashtiradigan foiz stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni **LM** egri chizig‘i ifodalaydi.



12.2.2-chizma.Tez (pulga) aylanishi afzalligi nazariyasi

Shungacha faqat foiz stavkasi real pul zaxiralariga bo‘lgan talab miqdoriga ta’sir ko‘rsatadi, deb hisobladik. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, pul talabi miqdoriga daromadlar darajasi ham ta’sir ko‘rsatadi.

Daromadlar yuqori bo‘lsa, xarajatlar ham ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun odamlar ko‘proq ishlarni amalga oshirishga harakat qilishadi. Bu esa o‘z navbatida ko‘proq pulni talab kiladi. Shunday qilib, daromadlar darajasining yuqoriroq bo‘lishi pul talabini oshiradi. Boshqacha aytganimizda, daromad va pulga talab o‘rtasida to‘g‘ri aloqa mavjud.



Real pul zaxirasi **Daromad**

12.2.3-chizma. A. Real pul bozori B. LM egri chizig‘i

Pul bozori holatini belgilovchi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bunday o‘zaro munosabatlar yig‘indisining grafigi (5-chizma) quyidagicha bo‘ladi.

A qismidan ko‘rinib turibdiki, pulga bo‘lgan talab, foiz stavkasi shuningdek, daromadlar ko‘payishi natijasida ham oshadi. Bu xolda Md_1 yuqori surilib, Md_2 holatini egallaydi va unda muvozanatli foiz stavkasi ham o‘sib, R_1 holatidan R_2 holatigacha ko‘tariladi.

Shunday qilib, yuqoriroq daromad yuqoriroq foiz stavkasiga olib keladi va buni **LM** egri chizig‘i aks ettiradi. U pul bozorida foiz stavkasi va daromad o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rgazmali tarzda ifodalaydi. Daromad darajasi qancha baland bo‘lsa, pulga bo‘lgan talab shuncha yuqori va shunga muvofiq muvozanatli foiz stavkasi ham shuncha yuqori bo‘ladi.

Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, IS chizig‘i ham o‘zida ikki o‘zgaruvchi, Ya’ni, foiz stavkasi va daromadning mumkin bo‘lgan turli xil o‘zaro bog‘liqliklarini aks ettiradi.

12.3. IS - LM modeli va undagi makroiqtisodiy muvozanat

Endi bizda **IS - LM** modelining barcha o‘zgaruvchi omillari mavjud. Modelning ikkita tenglamasi:

(IC) U = S(U-T)+I(R)+G; (LM) M/P= L(R,U);

Byudjet-soliq siyosati G va T pul kredit siyosati M va narxlar darajasi R modelda o‘zgaruvchi omillar sifatida byerilgan. Bu ikki IS va LM egri chiziqlarini birlashishida xosil bo‘ladigan grafikni biz, IS-LM modeli deb atashimiz mumkin.

IS - egri chiziq - bu tovarlar bozoridagi muvozanat egri chizig‘idir. U o‘zida tovarlar bozoridagi muvozanatni ta’minlovchi foiz stavkasi R ning va daromad U ning barcha o‘zaro birliklarini ko‘rsatadi, LM egri chizig‘i esa pul bozoridagi muvozanat shartlarini qondiruvchi R va U ning o‘zaro birlashuvlarini beradi.



12.3.1-chizma.IS-LM modelidagi iqtisodiy muvozanat

IS-LM egri chiziqlari kesishadigan nuqta IS-LM modelidagi iqtisodiy muvozanatlik holatidir. Bu nuqta o‘zida Shunday foiz stavkasi

R ni va daromad darajasi U ni aniqlaydiki qachonki ular real pul mablag‘lariga bo‘lgan talab ularning taklifiga teng kelgan vaziyatni ifodalaydi. Ya’ni, mahsulotlar pul bozorida ham muvozanat shartlariga rioya qilinsa, pulga bo‘lgan umumiy talab foiz stavkasi miqdoriga yoki pulning ishlatilish bahosiga nisbatan teskari bog‘liqlikda bo‘ladi.

Shunday qilib IS-LM modeli iqtisodiy siyosatning oqibatlarini qisqa muddatli davrga makroiqtisodiy tahlil qilishda juda keng qo‘llaniladi.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy o‘sish to‘liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish potensial YaIM hajmining uzoq muddatli ko‘payishi tendensiyasini anglatadi. U o‘sish ishlab chiqarish natijalari va omillarida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarini harakterlaydi.

Iqtisodiy o‘sish real YaIM ning, yoki aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real YaIM ni o‘sish sur’ati bilan o‘lchanadi.

Iqtisodiy o‘sish taklif, talab va taqsimot omillari bilan belgilanadi.

Iqtisodiy o‘sishni belgilovchi talab omillariga tabiiy resurslar soni va sifati, mehnat resurslari soni va sifati, kapital, texnologiya va boshqalar kiradi.

Bulardan foydalanish usuliga ko‘ra iqtisodiy o‘sish ekstensiv va intensiv turlarga bo‘linadi. Ishlab chiqarish resurslar miqdorini o‘zgartirmagan holda o‘ssa, intensiv omillar hisobiga amalga oshgan hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘sish modellari deganda iqtisodiy o‘sishni tahlil qilishda foydalaniladigan, ularning manbalarini aniqlash va qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi modellar tushuniladi.

Keynschilar (Harrod, Domar) modellarida iqtisodiy o‘sishning asosiy omil investitsiyalar deb qaraladi. Jamg‘arish normasini ko‘tarish orqali investitsiyalarni ko‘paytirish va ularning samaradorligini oshirish iqtisodiy o‘sish shartlari deb qaraladi.

Klassik modellarda iqtisodiy o‘sish ishlab chiqarishning barcha omillariga bog‘liq, mehnat va kapital o‘zaro almashiniladi deb qaraladi. Shunga ko‘ra kapitalning ma’lum darajasida mehnatning kapital bilan

qurollanganlik darajasi, o‘z navbatida ishlab chiqarish hajmi ham turlicha bo‘ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Milliy darajadagi yoki makroiqtisodiy muvozanat nimani bildiradi?
2. IS egri chizig‘ining asosiy o‘zgaruvchilari qanday? Yopiq iqtisodiyot va ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy muvozanatga qanday yerishiladi?
3. LM egri chizig‘ining asosiy o‘zgaruvchilari nimalardan iborat?
4. LM egri chizig‘ida Keynsian xochi nimani ko‘rsatadi?
5. Tez (pulga) aylana olish afzallagi nazariyasini qanday tuShunasiz?
6. IS-LM modeli qanday vaziyatni ifodalaydi?

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Banklar foiz stavkalarini pasaytirib borishi bilan YaMM hajmiga ta’siri qanday?

A) Kamayadi
B) Ko‘payadi
C) O‘zgarmaydi
D) Muvozanat bo‘ladi

2. IS egri chizig‘i tovar va xizmatlar bozorida vujudga keladigan …… ……o‘rtasidagi munosabatlarni bildiradi?

A) Daromadlar darajasi va foiz stavkasi
B) Xarajatlar va foiz stavkasi
C) Daromadlar va xarajatlar
D) Iste’mol va jamg’arma

3. Rejalashtirilgan xarajatlar miqdorini topish formulasi?

A) E = X + I + C
B) E = I + X + S
C) E = C + X + I
D) E = S + I + G

4. Iqtisodiyot qanday holatda muvozanatga erishadi?

A) Xaqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan daromadlarga teng bo‘lganda

B) Xaqiqiy xarajatlar daromadlardan ko‘p bo‘lganda

C) Xaqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlarga teng bo‘lganda

D) Daromalar rejalashtirilgan xarajatlarga teng bo‘lganda

5. Daromad va pulga talab o‘rtasida qanday aloqa mavjud ?

A) To‘g’ri aloqa

B) Qarama-qarshi

C) O‘zgaruvchan aloqa

D) Aloqa mavud emas

6. Keynschilar (Harrod, Domar) modellarida iqtisodiy o‘sishning asosiy omili nima?

A) Daromadlar

B) Xarajatlar

C) Investitsiyalar

D) Jamg’armalar

7. Daromad darajasi qancha baland bo‘lsa, pulga bo‘lgan talab qanday o‘zgaradi?

A) Ko‘payadi

B) Kamayadi

C) Muvozanatda bo‘ladi

D) O‘zgarmaydi

8. Tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi ko‘ra pulga bo‘lgan talab miqdori nimaga bog‘liq?

A) Pul Aylanish tezligiga

B) Taklifni bozordagi miqdoriga

C) Foiz stavkasiga

D) Xarajatlarni jami summasiga

9. Agarda M-pul taklifini, R-narxlar darajasini bildirsa, M/R esa .....ni ko‘rsatadi.?

A) Pul taklif miqdorini

B) Pulga bo‘lgan talab miqdorini

C) Narxlar darajasini

D)Pul vositalarining real zaxirasi miqdori

10. LM egri chizig‘i o‘zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikdan iboratdir. Bu qaysi nazariya ?

A) Mutloq tenglik nazariyasi

B) Keynschilik nazariyasi

C) Tez (pulga) aylanish nazariyasi

D) Muvozanatlik nazariyasi

XII bob. IQTISODIY O‘SISHNING UMUMIY TAVSIFI VA NEOKEYNSCHA MODELLARI

13.1. Iqtisodiy o‘sish tushunchasi

Iqtisodiy o‘sish bevosita YaIM hajmining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari har bir birligi hisobiga o‘sishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi[29].

Iqtisodiy o‘sishni YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda biron bir mamlakat iqtisodiy o‘sishini YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali o‘lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo‘llaniladi.

Mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur’atini tavsiflaydigan mazkur ko‘rsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o‘sishi) miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to‘liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o‘sishini to‘liq tavsiflab berolmaydi; ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o‘sishi bo‘sh vaqtning sezilarli ko‘payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko‘rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o‘sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va inson hayotiga salbiy ta’sirini hisobga olmaydi. Shunga ko‘ra, iqtisodiy o‘sishning barcha tavsifi yillik o‘sish sur’atlarining foizdagi o‘lchovida to‘liq o‘z ifodasini topadi:

$$O`S = \frac{YaIM_{joriydavr} - YaIM_{bazisdavr}}{YaIM_{bazisdavr}} \times 100\%,$$

bu yerda:

O‘S – iqtisodiy o‘sish sur’ati, foizda;

YaIM$_{bazis\ davr}$ – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaIM hajmi;

[29] McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 411

$\mathbf{YaIM_{joriy\ davr}}$ – joriy davr (yil)dagi real YaIM hajmi.

Ekstensiv iqtisodiy o‘sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko‘payishi tufayli erishiladi.

Iqtisodiy o‘sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg‘or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo‘llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo‘li bilan erishiladi.

Iqtisodiy o‘sish ikki xil usul bilan aniqlanadi va o‘lchanadi.

Birinchi usul, YaMMni (YaIM, SMM) o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari harakatini aniqlash uchun ishlatiladi.

Ikkinchi usul, real YaMMni (YaMM, SMM) o‘tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o‘zgarishi sifatida aniqlanadi.

Umumiy iqtisodiy o‘sish darajasi aslida YaIM miqdori bilan belgilanadi. Shuningdek bu ko‘rsatkichlar miqdori va hal qilayotgan vazifasiga qarab YaMM yoki MD ham bo‘lishi mumkin. Bu ko‘rsatkichlarning bari bir-biriga juda ham yaqin. YaMM ham YaIM kabi ushbu mamlakat aholisi olayotgan daromadlar miqdorini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham uni aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar dinamikasi va darajasini aniqlayotganda foydalanish mumkin. Iqtisodiy o‘sish nazariyasi va modellarida umumiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning farqi unchalik katta ahamiyatga ega emas. Chunki, ularning farqi iqtisodiy o‘sish chegarasi va omillari o‘sish darajasini tahlil qilishda hal qiluvchi jarayon bo‘lib hisoblanmaydi.

Iqtisodiy o‘sish nazariyasida daromadlar iste’mol va investitsiyalarga bo‘linadi.

$$\mathbf{Y = C + I}$$

Davlat xarajatlari va sof eksport ko‘rsatkichlari ham iste’mol va investitsiyalar tarkibiga kiritib yuboriladi. Absolyut miqdordagi

ko‘rsatkichlar dinamikasi Y_t (t-vaqt indeksi) va jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlar birgalikda o‘sish jarayonini bildiradi. Iste’mol hajmi C_t iqtisodiyotning pirovard maqsadini va yashash darajasini oshishini bildirsa, investitsiya esa I_t resurs imkoniyatlarining o‘sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini bildiradi. Iste’mol va investitsiya o‘rtasida etarlicha qarama-qarshilik mavjud, chunki joriy iste’mol miqdorining oshishi iqtisodiy o‘sish potensiali imkoniyatlarini qisqartiradi.

13.2. Iqtisodiy o‘sish o‘lchovi: potensial va xaqiqiy daromad dinamikasi

O‘sishning barcha imkoniyatlari real miqdorda, ya’ni doimiy narxlarda qaraladi. Aksincha, nominal ko‘rsatkichda ularning dinamikasi nafaqat o‘sish darajasini, balki inflyatsiyani ko‘rsatgan bo‘lar edi.

Iqtisodiy o‘sish sur’atlari quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

a) bazis o‘sish sur’ati = Y_t / Y_o x 100%;

b) zanjirli o‘sish sur’ati = Y_t / (Y_t-1);

Qo‘shimcha o‘sish sur’atlari esa:

a) bazisli qo‘shimcha o‘sish sur’ati = (Y_t - Y_o) / Y_o;

b) zanjirli qo‘shimcha o‘sish sur’ati = (Y_t - Y_{t-1}) / Y_{t-1}:

Har bir mamlakat iqtisodiy o‘sishga intiladi, chunki iqtisodiy o‘sish, birinchidan milliy mahsulot hajmini va daromadni ko‘payishini, ikkinchidan resurslardan samarali foydalanishni, uchinchidan yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga, to‘rtinchidan xalqaro bozorlarda mamlakat obro‘sining oshishiga olib keladi.

Iqtisodiy o‘sish usullaridan to‘g‘ri va o‘z joyida foydalanish katta ahamiyatga egadir. Masalan, mamlakat harbiy salohiyatini aniqlash va rivojlantirish muammosi qaralayotganda iqtisodiy o‘sishning birinchi usulidan, mamlakat aholisining turmush faoliyati taqqoslanayotganda ikkinchi usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, Hindistonda etishtirilgan YaMM Shveysariyada yetishtirilgan YaMM dan 70% ga ko‘p, ammo aholisi yashash darajasi bo‘yicha Hindiston aholisi Shvetsariya aholisi yashash darajasidan 60 martagacha kam.

13.3. Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar

Iqtisodiy o‘sish avvalom bor foydalanilayotgan resurslarning soni va sifatiga, shuningdek foydalanilayotgan texnologiyaga bog‘liq. Agarda qaralayotgan omillar va iqtisodiy o‘sish tarkibiy qismlari yaxlitlashtirilgan bo‘lsa iqtisodiy o‘sishni ekstensiv va intensiv o‘sishga bo‘lish mumkin. Agarda foydalanayotgan resurslar miqdori o‘zgarmay qolgan xolda ishlab chiqarish o‘ssa to‘liq intensiv omillar hisobiga amalga oshgan hisoblanadi.

Umuman olganimizda iqtisodiy o‘sish bir nechta omillar ta’sirida amalga oshiriladi. Ya’ni:

1. Tabiiy resurslar soni va sifati;
2. Mexnat resurslari soni va sifati;
3. Asosiy kapital hajmi;
4. Texnologiya va boshqalar.

Ushbu omillarning barchasi ishlab chiqrishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa iqtisodiy o‘sish istiqbollarini belgilashda ishlab chiqarish funksiyalaridan keng foydalanish imkonini beradi. Ya’ni, iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish omillari miqdorining qo‘shimcha o‘sish sur’atlari ($\Delta K / K$ va $\Delta L / L$) va texnika taraqqiyoti natijasida ularning umumiy unumdorligini qo‘shimcha o‘sish sur’atlariga ($\Delta A / A$) bog‘liq holda mahsulot ishlab chiqarishning qo‘shimcha o‘sish sur’atini ($\Delta Y / Y$) hisoblash imkonini beradi:

$$\Delta Y/Y = \alpha (\Delta K/K) + (1- \alpha) (\Delta L/L) + \Delta A/A$$

Bu yerda, **α koeffitsienti - ishlab chiqargan mahsulotda kapital xissasi;**

1- α koeffitsienti - ishlab chiqargan mahsulotda mexnat xissasi.

Faraz qilaylik, milliy mahsulotda kapital xissasi 0,3 ni, mexnat xissasi esa 1-0,3= 0,7 ni tashkil etsa, unda kapitalni (ΔK/K) va mexnatni (ΔL/L) 10%ga qo‘shimcha o‘sishi ishlab chiqarish hajmini ham 10% ga qo‘shimcha o‘sishiga olib keladi. (0,3 x 10 % + 0,7 x 10 % = 3 % + 7 % = 10%) ya’ni, ekstensiv omillar hisobiga ro‘y beradi.

Ammo, iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi intensiv omillar hamma vaqt ham qadrlangan va iloji boricha ulardan foydalanishga harakat qilinadi. Shuning uchun ham davlat iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida, fan-texnikaning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, soliq mexanizmi va tizimini iloji boricha ixchamlashtirish kabi ishlarni olib bormoqda.

Iqtisodiy o‘sishga mamlakatning soliq tizimi ham sezilarli ta’sir qiladi. Soliqqa tortish stavkalarini kamaytirish va amortizatsiyaga ajratmalarning o‘sish tomon o‘zgarishi investitsiyalar hajmini ko‘paytiradi va shu orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Keyingi yillarda ijtimoiy va ekologik muammolarni kuchayishi deyarli barcha mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish eng avvalo aholi farovonligini ta’minlashning sharti sifatida qaralmoqda. Chunki, iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash zarurligi sababli rivojlangan mamlakatlarda amal qilgan iqtisodiy o‘sishning miqdoriy nazariyasi o‘z o‘rnini iqtisodiy o‘sishning sifat nazariyasiga bo‘shatib berdi.

Ya’ni, davlat siyosati iqtisodiy o‘sishning quyidagi muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan:

- iste’mol darajasi yuqori bo‘lgan iqtisodiyotning barqaror holatini ta’minlashga qaratilgan omonat jamg‘arish me’yorlarini tanlash;
- aholi o‘sishini tartibga solish;
- fan-texnika taraqqiyotining ekologik jixatdan xavfsiz yutuqlarini joriy etish va mexnat unumdorligini oshirish.

Iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy yo‘naltirilganligi kuchayib borishi bilan amaliyotda xalq farovonligi tushunchasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim mezonlari sifatida yanada aniqlanmoqda va

kengaytirilmoqda. Agarda ilgarilari uni moddiy ta’minlanganlikning miqdoriy ko‘rsatkichlari aks ettirgan bo‘lsa, hozirda birinchi o‘ringa o‘rtacha umr ko‘rish, o‘lim darajasi, shu jumladan bolalar o‘limi, ishsizlik darajasi, daromadlar tengsizligi, ta’lim darajasi, atrof-muxitning ifloslanishi va boshqa shu kabi ko‘rsatkichlar qo‘yilmoqda. Ya’ni, iqtisodiy o‘sish shaxsning rivojlanib borishi uchun sharoit yaratib berishi lozim.

Iqtisodiy o‘sishning salbiy oqibatlaridan biri bo‘lib aholini ijtimoiy, mulkiy tabaqalanishi kuchayishi hisoblanadi. Shuning uchun ham davlat aholi turli qatlamlarini himoya qilish maqsadida ijtimoiy siyosatlarni olib boradi.

Davlat ushbu ijtimoiy siyosatlarni olib borishdan oldin aholi daromadlari miqdorini aniqlaydi. Aholi daromadi ish haqi, dividentlar va foizlardan, shuningdek transfyert to‘lovlaridan tashkil topadi. Daromadlarning kengroq ma’nosi pulsiz yoki imtiyozli narxlarda aholi oladigan tovarlar va ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy kommunal xo‘jaligi, transport va boshqa xizmatlar ko‘rinishidagi to‘lovlarni ham o‘z ichiga oladi.

Davlat daromadlarning qayta taqsimlanishini asosan ikki xil tayanch omillar yordamida amalga oshiradi:

1. Soliq tizimi;
2. Transfert dasturlari.

Davlat transfert dasturlaridan tashqari yana bir qator nodavlat va jamoat dasturlari ham mavjud. Davlat va nodavlat tashkilotlari transfert dasturlarini barcha turlari yagona bir maqsadga, ya’ni aholi daromadlarini tenglashtirishga yo‘naltirilgan.

Daromadlar taqsimlanishining tengsizligini ifodalash uchun ko‘p xollarda Lorens egri chizig‘i diagrammasidan foydalaniladi.

Bu chizma to‘rtburchak ko‘rinishida bo‘lib, uning gorizantal tomonida- aholi xisssasi (foizi), vertikal tomonida-daromad hissasi (foizi) ko‘rsatilgan. Agar jamiyatda daromad mutloq baravar taqsimlangan deb faraz qilsak, Ya’ni 20 % aholi jami daromadning 20 % ga, 40 % - 40 % ga ega bo‘lsa, unda mutloq tenglikning bu vaziyatini ifodalovchi chiziq bissektrisa ko‘rinishiga ega bo‘lar edi.

Ammo, hayotda aholi o‘rtasida daromadlarni taqsimlanishi bir xil emas. Masalan, agar aholining 20% A nuqta bilan belgilangan daromadlarning ozgina qismini olsa, aholining 40% B nuqta bilan belgilangan qismini oladi va hokazo.



13.3.1-chizma. Lorens egri chizig‘i

Bunday holatda daromadni haqiqatda taqsimlanishini bildiruvchi chiziq Lorens egri chizig‘i deb ataladi. Bissektrisa va Lorens egri chizig‘i o‘rtasidagi uzilish yoki maydon qancha katta bo‘lsa, daromad taqsimlanishining tengsizlik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi. Bu uzilish kattaligi tengsizlik darajasini ifodalaydi.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy o‘sish - bu obyektiv qonuniyat bo‘lib, aholining o‘sishi, FTT jarayonlari, ishlab chiqarish hajmining ma’lum bir vaqt davomida o‘sishi kabi jarayonlar bilan bog‘langan

Iqtisodiy o‘sish ikki xil usul bilan aniqlanadi va o‘lchanadi. Birinchi usul, YaMMni (YaIM, SMM) o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari harakatini aniqlash uchun ishlatiladi.

Ikkinchi usul, real YaMMni (YaMM, SMM) o‘tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o‘zgarishi sifatida aniqlanadi.
olganimizda iqtisodiy o‘sish bir nechta omillar ta’sirida amalga oshiriladi. Ya’ni:

1.Tabiiy resurslar soni va sifati;

2. Mexnat resurslari soni va sifati;

3. Asosiy kapital hajmi;

4. Texnologiya va boshqalar.

Nazorat va mulohaza savollari

1. Iqtisodiy o‘sish tuShunchasi va uni o‘lchash usullarini izohlab byering.

2. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari qanday aniqlanadi ?

3. Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillarni formulalar yordamida tuShuntirib byering.

4. Iqtisodiy o‘sish qanday salbiy oqibatlarga olib keladi?

5. Iqtisodiy o‘sishda Lorens egri chizig‘ining qanday aloqasi mavjud?

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali o‘lchash uning nimasini baholashda yordam beradi?

A) ishlab chiqarish kuchini

B) iqtisodiy salohiyatini

C) Ijtimoiy salohiyatini

D) Soliq yukini

2. Aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash mamlakatda qanday holatda qo‘llaniladi?

A) Iqtisodiy subyektlar tashkil qilishda

B) Moliyaviy qaramlikni aniqlashda

C) Moliyaviy aktivlar sotishda

D) turmush darajasini taqqoslashda

3. Iqtisodiy o‘sishning barcha tavsifi yillik o‘sish sur’atlarining qaysi o‘lchovida to‘liq o‘z ifodasini topadi?

A) Foiz koʻrinishida

B) Iqtisodiy mablagʻ koʻrinishida

C) YaIM koʻrinishida

D) MD koʻrinishida

4. Ekstensiv iqtisodiy oʻsishga qanday erishiladi?

A) Xarajatlarni kamaytirish va daromadni koʻpaytirish orqali

B) ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining koʻpayishi orqali

C) ishlab chiqarishning yangi texnikaviy asosini tashkil etgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining koʻpayishi orqali

D) Ishlab chiqarish bazasini yangilash orqali

5. Iqtisodiy oʻsishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga qanday erishiladi?

A) ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish orqali

B) ishlab chiqarish xodimlarini kamaytirish orqali

C) ishlab chiqarish texnikasini qayta baholash orqali

D) Xodimlarni ishga koʻproq qabul qilish orqali

6. Iqtisodiy oʻsish necha xil usul bilan aniqlanadi va oʻlchanadi?

A) 5

B) 4

C) 3

D) 2

7. Davlat xarajatlari va sof eksport koʻrsatkichlari qaysi tarkibga kiritib yuboriladi?

A) isteʼmol va daromadlar

B) daromad va investitsiyalar

C) isteʼmol va investitsiyalar

D) isteʼmol va daromadlar

8. Joriy isteʼmol miqdorining oshishi iqtisodiy oʻsish potensialiga qanday taʼsir koʻrsatadi?

A) potensiali imkoniyatlarini qisqartiradi.

B) potensiali imkoniyatlarini oshiradi.

C) potensiali imkoniyatlariga taʼsir qilmaydi

D) toʻgʻri javob yoʻq

9. Soliqqa tortish stavkalarini kamaytirishni foydali tomoni bu - ….

A) daromad solig‘ini hajmini ko‘paytiradi

B) investitsiyalar hajmini ko‘paytiradi

C) foydali tomoni yo‘q

D) Davlat korxonalari kamayadi

10. Iqtisodiy o‘sishning salbiy oqibatlaridan biri ….

A) Davlat aholiga nisbatan kam imkoniyat yaratishi

B) Aholining daromadlarining ko‘p qismi davlat xisobida bo‘lishi

C) Aholini mulkiy tabaqalanishi kuchayishi

D) Davlat sherikchilikdagi korxonalar kamayishi.

XIV bob. IQTISODIY O‘SISHNING NEOKLASSIK MODELLARI

14.1.Iqtisodiy o‘sish modellari

Iqtisodiy o‘sish modellari uzluksiz yoki nodiskret variantlarda yozilishi mumkin. Birinchi holatdagi U_t, I_t ,C_t, K_t, L_t, W_t o‘zgaruvchi modellari vaqtning uzluksiz funksiyasi hisoblanadi. Ikkinchi holatda bu miqdorlar vaqtning ketma-ketligi sifatida qaraladi. Agarda model real statistik ma’lumotlardan tashkil topsa va amaliy hisob-kitoblarda foydalanilsa, u xolda uni nodiskret yoki nouzluksiz qilish oson, chunki statistik ma’lumotlar har doim uzluksiz emas, balki nodiskretdir, ularda vakti-vakti bilan uzulishlar bo‘ladi.

Iqtisodiy o‘sish modellarining umumlashtirilgan “karkasi”ni quyidagicha yozish mumkin. Ushbu karkasdagi har bir aniq modelni tuzayotganda ayrim qo‘shimcha o‘zgaruvchilar, cheklashlar, iqtisodiy sharoitlar va imkoniyatlardan foydalanish mumkin.

$$Y_t = f(K_t, L_t, t); \quad (1)$$

$$Y_t = C_t + I_t; \quad (2)$$

$$K_t = K_{t-1} + I_t - W_t; \quad (3)$$

$$I_t = \alpha\, tY_t; \quad (4)$$

$$W_t = \beta K_t. \quad (5)$$

Ushbu modellar nisbatining ma’nosi qisqacha quyidagilardan iborat:

(1) ishlab chiqarish funksiyasi formulasi: bu yerda t ga bog‘liq holda modelda texnik taraqqiyotni tasvirlashni kiritish mumkin;

(2) daromadlarni iste’mol va investitsiyaga taqsimlashni ko‘rsatuvchi asosiy makroiqtisodiy ayniyat;

(3) vaqtinchalik investitsiya bo‘lmagan vaziyatda investitsiya va uni chiqib ketishini hisobga olgan holda kapital hajmi dinamikasini hisoblash formulasi;

(4) jamg‘arish normasi (αt) orqali daromadlar va investitsiyalarni bog‘lab turuvchi ayniyat;

(5) chiqib ketishning doimiy normasi (β) sharoitida kapitalni chiqib ketishini hisoblash formulasi.

14.2. Robyert Solou modeli

Ushbu tizimdagi eng asosiy formula bo‘lib ishlab chiqarish funksiyasi (1) hisoblanadi.

$$Y_t = f(K_t, L_t, t); \qquad (1)$$

(1)-(5) modeli birinchi marta 1956 yili **R. Solou** tomonidan taklif qilingan edi. Uning turlicha ko‘rinishlari va usullaridan xozirgi kunda ham keng foydalanilib kelinmoqda. Solou modelida ishlab chiqarish funksiyasi (1) ishlab chiqarish omillarining eng so‘ngi natijasini bildiradi va unda kapitalni jamg‘arishda investitsiyalarga qilingan qo‘shimcha xarajatlar kapitaldan foydalanishdagi qo‘shimcha samaralarni qoplamay qolgan vaziyatda to‘xtatiladi.

Solou modeli paydo bo‘lguncha iqtisodiy o‘sishni ko‘rsatadigan model bo‘lib **Harrod-Domar modeli** (1939,1946) hisoblangan. Ularning modelida o‘sishni ta’minlaydigan asosiy omil bo‘lib doimiy kapital qaytimi o‘sishi hisoblangan. Solou modeli Harrod-Domar modeliga nisbatan iqtisodiy o‘sishni izohlashda qo‘shimcha ko‘rsatkichlarga ega.

Demak, Harrod-Domar modelida o‘sishini ta’minlaydigan asosiy omil bo‘lib kapital jamg‘arish hisoblanar ekan. U 1920-1950 yillardagi iqtisodiy o‘sishlarni kuzatishlarda qo‘l kelgan, ammo keyingi yillardagi kuzatishlarga to‘g‘ri kelmay qolgan. Uning asosiy mohiyati: kapital unumdorligining doimiyligi, kapital chiqib ketishi mumkin emasligi, investitsion uzulish ham nolga teng va ishlab chiqarish mexnat xarajatlariga bog‘liq emasligidan iborat.

Hozirgi davrda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda texnik taraqqiyot, mexnat va kapitalning sifati, bir-birini almashtirishi va birgalikda faoliyat ko‘rsatishlari asosiy resurs va omil bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu omillarni hisobga olmaydigan o‘sish nazariyasida, ya’ni, o‘sishning asosiy manbai bo‘lib, kapitalni fizik jamg‘arish,

o‘sishni doimiy ravishda tartibga solib turuvchi omil bo‘lib hisoblanadi. Jamg‘arish normasi esa asta-sekinlik bilan ikkinchi planga tushib qoladi.

Harrod-Domar modeliga nisbatan Solou modeli makroiqtisodiy jarayonlarning ayrim tomonlarini to‘liqroq ochib beradi. Ya’ni, birinchidan bu modelda ishlab chiqarish funksiyasi to‘g‘ri chiziqdan iborat emas va unumdorlikning kamayib borishi kabi xususiyatlarga ega. Ikkinchidan, model asosiy kapitalning chiqib ketishini hisobga oladi. Uchinchidan, Solou modeli mexnat resurslari va texnik taraqqiyot dinamikasi va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini hisobga oladi. To‘rtinchidan, bu yerda ko‘pgina xollarda iste’mol darajasini maksimallashtirish vazifasi qo‘yiladi va hal qilinadi.

Biz Solou modelini to‘liq izohlab bermoqchi emasmiz, balki uning asosiy yo‘nalishilari, xususiyatlari va xulosalarini keltirib o‘tmoqchimiz.

Solou modelining ko‘rinishi va xususiyatlari:

1. Ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$U=f(K,L);$$

bu yerda **U - ishlab chiqarish yoki daromad; K - kapital; L - mexnat.**

Daromadlar U iste’mol va investitsiyaga bo‘linadi:

$$U=S+I;$$

Ish bilan bandlar soni L esa n darajada doimiy o‘sadi. Mehnatni tejaydigan texnik taraqqiyot g darajaga ega, Ya’ni bir ishchiga g daraja bilan birga o‘sadi.

Demak, mamlakat iqtisodiy o‘sishi ikki xil usuldan foydalangan xolda aniklanadi. Birinchisi, mamlakatda etishtirilayotgan mahsulotlarni o‘tgan davrga nisbatan solishtirish va ikkinchisi, mamlakatda etishtirilgan mahsulotlarni o‘tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga solishtirish orqali aniqlanadi.

Iqtisodiy o‘sishni aniqlash va asoslab berish jarayonlarida quyidagilarga e’tibor beriladi: iqtisodiy o‘sishni aniqlash, iqtisodiy o‘sish omillari va boshqalar. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari bazisli o‘sish

sur’atlari, zanjirli o‘sish sur’atlari, qo‘shimcha bazisli va zanjirli o‘sish sur’atlari yordamida aniqlanadi.

Keynsianchilar iqtisodiy o‘sishni birinchi navbatda talab omillariga bog‘lashadi va ularning ta’kidlashicha, davlat fiskal va pul-kredit siyosati orqali uni boshqarib turishi mumkin. Iqtisodiy nazariya tarafdorlari iqtisodiy o‘sishni avvalo taklif omillariga bog‘lashadi, ya’ni, oldindan o‘ylangan soliq tizimi orqali rag‘batlantirilib boriladi, deb hisoblashadi. Ko‘pgina iqtisodchilarning fikricha, iqtisodiy o‘sish davlatning industrial siyosatni tashkil qilishda qatnashishiga olib keladi.

Iqtisodiy o‘sish foydalanilayotgan resurslarning soni va sifatiga hamda texnologiyaga bog‘liq. Agarda bularni yaxlitlashtirilsa, ular ekstensiv va intensiv o‘sishga bo‘linadi. Ishlab chiqarish resurslar mikdorini o‘zgartirmagan holda o‘ssa, intensiv omillar hisobiga amalga oshgan hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatadigan omillarga tabiiy resurslar soni va sifati, mehnat resurslari soni va sifati, kapital, texnologiya va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy o‘sish modellari deganda iqtisodiy o‘sishni aniqlashda foydalaniladigan modellar tushiniladi. Bu modellar bir nechta iqtisodiy formulalar yordamida izohlanadi. Xuddi shunday modellarga R.Solou, Harrod-Domar, Leontev va boshqalarning modellarini kiritishimiz mumkin.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy o‘sishning dastlabki neoklassik modellari 1950-1960 yillarda, ya’ni dinamik muvozanat muammosiga e’tibor susaygan va birinchi planga nafaqat foydalanilmagan quvvatlar hisobiga, balki shu bilan birga yangi texnikani joriy qilish, unumdorlikni oshirish va ishlab chiqarishni tashkil qilishni yaxshilash hisobiga potensial mumkin bo‘lgan o‘sish sur’atlariga erishish muammosi chiqqan davrda paydo bo‘ldi

Birinchi neoklassik model R. Solou tomonidan 1956 yilda “Iqtisodiy o‘sish nazariyasiga hissa” asarida tasvirlab berildi va so‘ngra 1957 yilda “Texnik taraqqiyot va agregativ ishlab chiqarish funksiyasi” nomli asarida rivojlantirildi

Jamg‘arish normasining o‘sishi investitsiyalar hajmining oshishini keltirib chiqaradi. Bu esa asosiy kapital miqdorining ortishiga, o‘z navbatida kapital bilan qurollanganlik darajasining (k) ko‘tarilishiorqali , pirovard natijaga, ya’ni esa ishlab chiqarish hajmining (Y) ko‘payishiga olib keladi.

R.Soluning fikriga ko‘ra , barqaror muvozanat sharoitida kapital, mehnat va milliy daromad darajasi bir xil, aholi soni o‘sishiga teng sur’atda o‘sib boradi. Aholi sonining tez o‘sishi iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari jadallashishiga ta’sir etadi, ammo barqaror muvozanat holatida aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish kamayadi. O‘z navbatida, jamg‘arish normasining oshirilishi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad miqdorini oshiradi va kapital bilan qurollanganlik koeffitsentini ko‘tarilishiga olib keladi, lekin barqaror holatdagi o‘sish sur’atiga ta’sir ko‘rsatmaydi

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy o‘sish tushunchasi va uni o‘lchash usullarini izohlab bering.
2. Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillarni formulalar yordamida tushuntirib bering.
3. Iqtisodiy o‘sish qanday salbiy oqibatlarga olib keladi?
4. Iqtisodiy o‘sish modellarining umumlashtirilgan karkasini qanday yozish mumkin?
5. R.Solou va Harrod-Domar modellarini tushuntirib bering.

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Qaysi iqtisodiy modelda ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish omillarining eng so‘ngi natijasini bildiradi va unda kapitalni jamg‘arishda investitsiyalarga qilingan qo‘shimcha xarajatlar kapitaldan foydalanishdagi qo‘shimcha samaralarni qoplamay qolgan vaziyatda to‘xtatiladi?

A) Talab va taklif modeli
B) Harrod-Domar modeli
C) Robert Solou modeli

D) Jamg’arish- iste’mol modeli

2. Harrod-Domar modelida o‘sishini ta’minlaydigan asosiy omil …. hisoblanadi ?.

A) Kapital jamg‘arish

B) Jamg‘arish normasi

C) Chiqib ketishning doimiy normasi

D) Real statistik ma’lumotlar

3. Quyidagilardan ishlab chiqarish funksiyasini aniqlang.

A) Eksport narxlar indeksi/Import narxlar indeksi x 100% = E_i / I_i x 100%.

B) U=f (K,L);

C) Yer= (Ya – Va) / Ya.

D) KE= E(X) + KZ

4. Qachon birinchi neoklassik model R. Solou tomonidan “Iqtisodiy o‘sish nazariyasiga hissa” asarida tasvirlab berildi?

A) 1987-yil

B) 1449-yil

C) 1879-yil

D) 1956-yil

5. Qaysi ko‘rsatkichning o‘zgarishi asosiy kapital miqdorining ortishiga, o‘z navbatida kapital bilan qurollanganlik darajasining (k) ko‘tarilishi orqali, pirovard natijaga, ya’ni ishlab chiqarish hajmining (Y) ko‘payishiga olib keladi?

A) Jamg‘arish normasining o‘sishi

B) Talabning taklifga nisbatan kamayishi

C) Mehnat resurslari soni ko‘payishi

D) YaIM hajmining keskin oshishi

6. Asosiy mohiyati: kapital unumdorligining doimiyligi, kapital chiqib ketishi mumkin emasligi, investitsion uzulish ham nolga teng va ishlab chiqarish mexnat xarajatlariga bog‘liq emasligidan iborat bo‘lgan model qaysi?

A) Robert Solou modeli

B) Harrod-Domar modeli

C) Bozor muvozanati modeli

D) Iqtisodiy o‘sish modeli

7. “Barqaror muvozanat sharoitida kapital, mehnat va milliy daromad darajasi bir xil, aholi soni o‘sishiga teng sur’atda o‘sib boradi. Aholi sonining tez o‘sishi iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari jadallashishiga ta’sir etadi, ammo barqaror muvozanat holatida aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish kamayadi. O‘z navbatida, jamg‘arish normasining oshirilishi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad miqdorini oshiradi va kapital bilan qurollanganlik koeffitsentini ko‘tarilishiga olib keladi, lekin barqaror holatdagi o‘sish sur’atiga ta’sir ko‘rsatmaydi” Bu fikr kimga tegishli?

A) F. Kene

B) Adam Smit

C) V. Kamayev

D) Robert Solou

8. Iqtisodiy o‘sish modellarining umumlashtirilgan “karkasi”ning qaysi formulasida xatolik sodir bo‘lgan:

$Y_t = f(K_t, L_t, t);$ (1)

$Y_t = C_t + L_t;$ (2)

$K_t = K_{t-1} + I_t - W_t;$ (3)

$I_t = a\ tY_t;$ (4)

$W_t = bS_t.$ (5)

A) 2,5 -formulada

B) 3,4- formulada

C) 1,5- formulada

D) 4,5-formulada

9. $K_t = K_{t-1} + I_t - W_t;$ ushbu formulaga izoh bering?

A) Ishlab chiqarish funksiyasi formulasi: bu yerda t ga bog‘liq holda modelda texnik taraqqiyotni tasvirlashni kiritish mumkin;

B) Chiqib ketishning doimiy normasi sharoitida kapitalni chiqib ketishini hisoblash formulasi.

C) Vaqtinchalik investitsiya bo‘lmagan vaziyatda investitsiya va uni chiqib ketishini hisobga olgan xolda kapital hajmi dinamikasini hisoblash formulasi;

D) Daromadlarni iste’mol va investitsiyaga taqsimlashni ko‘rsatuvchi asosiy makroiqtisodiy ayniyat;

10. Daromadlarni iste’mol va investitsiyaga taqsimlashni ko‘rsatuvchi asosiy makroiqtisodiy ayniyat qaysi javobda to‘g’ri berilgan?

A) $K_t = K_{t-1} + I_t - W_t$;

B) $Y_t = C_t + I_t$;

C) $Y_t = C_t + I_t$;

D) $W_t = bK_t$.

XV bob. XALQARO SAVDO NAZARIYASI

15.1. Xalqaro savdo nazariyasiga turli yondashuvlar

O‘n yettinchi asr oxirlarida angliyalik klassik iqtisodchilar A. Smit va D. Rikardolar tomonidan «Erkin savdo» nazariyasi g‘oyasi oldinga surildi. A. Smitning asosiy g‘oyasi bo‘yicha millat va xalqlarning boyishiga asosan mexnat taqsimoti sabab bo‘ladi. Ya’ni, xalqaro mexnat taqsimotida faol ishtirok etadigan davlatlar ko‘prok daromadlarga ega bo‘lishadi va ular u yoki bu mamlakatning mutlaq imkoniyatlariga e’tiborni qaratishi lozim. Har bir mamlakatda o‘zi ixtisoslashgan mahsulotlargina ishlab chiqarilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Masalan, O‘zbekiston asosan paxta mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashganligi uchun boshqa mahsulotlarga nisbatan ko‘prok shunga e’tiborni qaratish lozim. Chunki, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, ob-havosi va qolaversa, butun respublika sharoiti paxta yetishtirishga moslashgan va unga kam miqdorda mexnat va moliyaviy resurslarni sarf qilib, yuqori hosil olish texnologiyasiga ega.

Shuningdek, boshqa mamlakatlar ham o‘zi ixtisoslashgan sohaga ko‘proq e’tiborni qaratishsagina dunyo bo‘yicha ko‘proq mahsulot ishlab chiqariladi va xalqaro savdoda ham katta muvafaqqiyatlarga erishish mumkin. Demak, shu yo‘l bilan dunyo aholisining talablarini maksimum qondirish imkoniyatiga erishiladi.

Umuman, xalqaro ixtisoslashuv erkin raqobat sharoitida rivojlansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

A. Smit «xalqaro savdo» har bir mamlakatga katta imkoniyatlar olib kelishini isbotlab bergan. Uning g‘oyasi klassik nazariyalarning asosini tashkil qiladi va barcha erkin savdo siyosatlariga asos bo‘ladi. Ammo, mulohazalarni yanada chuqur muhokama qiladigan bo‘lsak, ya’ni, biror-bir mamlakat, o‘ziga kerakli bo‘lgan mahsulotlarni chetdan arzon baholarda va hech qanday to‘siqlarsiz olib kelish imkoniyatiga ega bo‘lsa, bunday sharoitda mamlakatning barcha talabini chetdan qondirish imkoni bo‘ladi. Ushbu mamlakat esa biror mahsulotni sotish uchungina ishlab chiqaradi, xolos. Bu yerda ularning talablarini hech

narsa va hech kim qondirishni kafolatlay olmaydi. Mutlaq ustunlik nazariyasi esa boshi berk ko‘chaga kirib qoladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti nazariyasining keyingi rivojlanishi D. Rikardo bilan bog‘lik. D. Rikardo A. Smitning **«Mutlaq ustunlik nazariyasi»**ni yanada muloxaza qilish natijasida ushbu nazariya umumiy qoidaning bir qismi ekanligini isbotlab berdi.

D. Rikardo «Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqlar» ishida klassik nazariyani boshi berk ko‘chadan olib chiqadi. Uning fikricha, mahsulotlar ishlab chiqarishda yuqori xarajatlarga ega bo‘lgan mamlakatlar ham savdoda yutuqlarga erishadi. Bunday vaziyatlarda ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo ko‘proq imkoniyatlar olib keladi. Har bir mamlakat o‘zi ixtisoslashgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi va shu orqali yutuqlarga erishadi. Uning mulohazalari **“Taqqoslash ustunligi nazariyasi”**da o‘z yechimiga ega bo‘lgan.

“Taqqoslash ustunligi nazariyasi” bo‘yicha mahsulotlar ishlab chiqarishga kam xarajat sarf qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan mamlakatlarda mahsulot ishlab chiqarilsagina katta miqdorda mahsulotga ega bo‘lish mumkin.

Masalan, Portugaliyada ishlab chiqarilgan movut va Angliyada ishlab chiqarilgan vino individual xarajatlarga ega bo‘lsin. Shuni hisobga olgan xolda D. Rikardoning “Taqqoslash ustunligi nazariyasi”ni qo‘llaymiz:

15.1.1- jadval

Ishlab chiqarish uchun zarur bo‘ladigan mexnat miqdori (ish kuni hisobida)

	Movut (dona)	**Vino (bir barrel)**
Portugaliya	**9**	**8**
Angliya	**10**	**12**

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki Portugaliya barcha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda mutlaq imkoniyatga ega. Ammo, D. Rikardo Portugaliyada movut ishlab chiqarishga nisbatan vino ishlab chiqarish savdosini yo‘lga qo‘yish ko‘proq imkoniyat olib kelishini

ta’kidlaydi. Chunki, bir dona movutga nisbatan bir barrel vino ishlab chiqarish arzonga tushmoqda. Bunda taqqoslash ustunligidagi farq har bir millat uchun halqaro savdoda yutuqqa olib keladi.

Ya’ni, Portugaliya bir barrel vinoni (8 ish kunda) 12 birlikda Angliyaga sotsa va o‘z navbatida, Angliyadan (10 birlikda) ushbu birlikda 1,2 dona movut sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘zida ishlab chiqarilgan mahsulotga solishtirganimizda esa **8/9** donaga ega bo‘lar edi. Boshqacha aytganimizda, Portugaliyada vino ishlab chiqarish va movutni sotib olish evaziga olinadigan foyda quyidagicha bo‘ladi.

12 / 10 – 8 / 9 = 1,2 - 0,(8) = 0,31 dona movut.

Umuman, xalqaro savdodan Angliya ham yutadi. Ya’ni, movut ishlab chiqarib, uni Portugaliyaga sotish hisobiga **11/8** barrel vino (o‘zidagiga nisbatan **5/6** barrel) sotib olishi mumkin. Ushbu vaziyatda Angliyaning yutug‘i;

9 / 8 - 5 / 6 = 7 / 24 = 0,29 barrel vino.

Bu misolda Portugaliya uchun har bir barrel vinoga **9/8** dona movut sotib olgandagina xalqaro savdo foydali hisoblansa, Angliya uchun esa har bir barrel vinoga **5/6** dona movut almashganda savdo foydali hisoblanadi.

Shunday qilib, yerkin savdo xalqaro ixtisoslashuvni rag‘batlantirib, qo‘yidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- har bir mamlakat biror turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashishguncha o‘tgan davrgiga nisbatan kamroq moddiy va mehnat xarajatlari sarflaydigan bo‘ladi.

Ammo, Rikardoning misolida inflyatsiya va ishsizlik, mexnat unumdorligidagi o‘zgarishlar va eksportli tarmoqlarga davlat tomonidan kiritiladigan cheklashlar hisobga olinmagan. Shuningdek xalqaro savdolar mamlakatlarning pul birliklari ishtirokida amalga oshishi hisobga olinmagan. Chunki, mamlakatlar o‘zaro hisob-kitoblarni amalga

oshirish uchun valyutalarini almashtirishadi. D. Rikardo ushbu vaziyatni ham tushuntirib bera olmagan. U izohlaganidek yuqorida keltirilgan imkoniyat valyutalarni almashtirish sharoitida ham saqlanib qoladi. Bu vaziyatda eksport-import to‘lovlari o‘zaro balansga ega emas. Bunday nobalans vaziyatlar valyuta kurslaridagi o‘zgarishlar hisobiga yoki biror bir mamlakatdagi barcha baholarni o‘zgartirish hisobiga bartaraf etiladi.

Angliya va Portugaliya misolida keltirilgan vaziyatlarda xalqaro savdo narxlarining keng amal qilayotgan shaklini qo‘llash mumkin. Chunonchi, bir barrel Portugaliya vinosini Angliyada tannarxidan kam narxda (8) va sotib olingan bahodan (12) yuqori narxda sotmaslik kerak. Shuningdek, angliyaliklar movutidan Portugaliyada (9 dan 10 gacha) shunday tartibda sotilishi kerak.

Mahsulotlar bahosi o‘rtasidagi o‘zaro nisbat aniqlab olingandan keyin «savdo sharoiti indeksi» tushunchasi kiritilgan. Indeks qo‘yidagi formula orqali aniqlanadi:

Savdo sharoiti indeksi = Eksport narxlar indeksi/Import narxlar indeksi x100% = E_i / I_i x 100%

Indeksning o‘sishi (masalan, 100 dan 105 gacha) savdo sharoitlarining yaxshilanayotganligini ko‘rsatadi. Ya’ni, ushbu miqdordagi importga hisob-kitob qilish uchun undan kam miqdorda eksport talab etiladi.

Amaliyotda savdo sharoiti, birinchidan, tovarlar bahosi o‘zgarishi hisobiga, unga bo‘lgan talabning oshishi yoki kamayishiga bog‘liq. Ayrim mahsulot ishlab chiqaruvchilar (masalan, neft va neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar) narxlarda bo‘layotgan o‘zgarishlarga qaramay, katta yutuqlarga erishadilar.

Ikkinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilarning bozorga moslashishiga (egiluvchanligiga) bog‘liq bo‘ladi.

Uchinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqarish sharoitlari yoki mahsulotlar iste’molidagi o‘zgarishlarga qarab o‘zgaradi.

Savdo sharoiti indeksi mamlakatning xalqaro savdodagi holati to‘g‘risida ma’lumotlar bersada, ko‘pgina kamchiliklardan xoli emas.

Ularning eng asosiylaridan biri mamlakatda umumiy sharoitni yaxshilasada, sotilgan mahsulotlar miqdorini hisobga olmaydi. Boshqacha aytganda, savdo sharoiti yaxshilanishi eksport hajmi qisqarishi va import hajmi oshishiga olib keladi. Bu esa to‘lov balansini yomonlashtiradi.

A. Smit va D. Rikardo nazariyasida ishlab chiqarishga ta’sir qiladigan eng asosiy omil mehnat hisoblangan. Mahsulotlar narxi esa ishlab chiqarish xarajatlariga bog‘liq.

Keyingi tadqiqotlar ishlab chiqarishda asosiy omillar sifatida yer, kapital kabi omillardan foyda olish imkoniyatini bergan. Agarda, mexnatning bozor bahosi ish haqi sifatida gavdalansa, kapitalning bahosi foiz stavkalari ko‘rinishida, yerning bahosi renta miqdorida aniqlangan.

Xalqaro savdodagi zamonaviy qarash tarafdorlari sifatida shved iqtisodchi-olimlari **Eli Xekshyer va Byertil Olinlar**ni (30-yillar) ko‘rsatish mumkin.

E. Xekshyer va B. Olinlar **«Ishlab chiqarish omillariga bog‘lab narxlarni tenglashtirish»**qoidasini oldinga surgan. Buning ma’nosi shundan iboratki, milliy ishlab chiqarishdagi farqlar ishlab chiqarishning mexnat, yer, kapital va shuningdek, u yoki bu mahsulotga ichki iste’moldagi o‘zgarishlar kabi omillarga bog‘liq.

Ularning qoidalaridagi asosiy vaziyatlar qo‘yidagicha keltirilgan. Mamlakatlarda mahsulotlarni eksport qilishda ortiqcha ishlab chiqarish omillaridan foydalaniladi va aksincha, yetishmayotgan ishlab chiqarish omillarini qoplash uchun mahsulotlar importida o‘zgarishlar kuzatiladi.

Xekshyer-Olin konsepsiyasiga asosan tashqi savdo qo‘yidagi ko‘rinishlarga ega:

Faraz qilaylik, bir vaqtda ikki mamlakat, ya’ni, «sanoatlashgan» va «agrar» mamlakat faoliyat ko‘rsatmoqda. Sanoatlashgan mamlakatda ortiqcha kapital va ma’lum miqdorda ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo‘ladi. Agrar mamlakatda esa ortiqcha yer mavjud, ammo kapital yetishmaydi.

Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda kapital asosiy omil hisoblanadi. Masalan, neftni qayta ishlash, elektron mashinasozlik va mashina ishlab chiqarish sohalari kam ishchi kuchidan foydalangan holda kapital–intensiv ishlab chiqarish hisoblanadi. Kapital ortiqchaligiga ega bo‘lgan mamlakatlar aynan ushbu yo‘nalishlarga ixtisoslashadilar. Shu bilan birga, don etishtirish va chorvachilik bilan shug‘ullanadigan mamlakatlarda ko‘proq yer resurslari kerak bo‘ladi va ular Shu yo‘nalishga ixtisoslashgan bo‘ladi.

1948-yil amyerikalik iqtisodchilar **Pol Samuelson va V.Stolpyerlar** Xekshyer-Olin konsepsiyasini takomillashtirishdi.

D. Rikardo modelida ishlab chiqilgan va E. Xekshyer, B. Olin, P. Samuelson hamda V.Stolpyerlar tomonidan to‘ldirilgan savdo konsepsiyasiga nafaqat mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro foydali savdolarni, balki mamlakatlar rivojlanishi o‘rtasidagi farqlarni kamaytirish vositasi sifatida ham qaraladi.

15.2. Xalqaro savdo rivojlanishining ahamiyati va uning asosiy ko‘rinishlari

Jahon savdosi tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir. Uning kengayishi va chuqurlashuvi natijasida kapitalni chetga chiqarish imkoniyatlari yuzaga keldi va unga bog‘liq ravishda halqaro moliya-valyuta kredit munosabatlari rivojlanadi.

Tashqi savdoning vujudga kelishi ikki muhim obyektiv sabablar bilan izohlanadi. Birinchidan, bu tabiiy va xom ashyo resurslarining mamlakatlar o‘rtasida tekis taqsimlanmaganligidir.

Xalqaro savdo rivojlanishining zarurligini aniqlovchi ikkinchi muxim sabab-bu turli mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarning bir xil rivojlanmaganligidir.

Bu ikki obyektiv sabab har qanday milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarishi jarayonida xalqaro savdoning ahamiyatini aniqlaydi. 90-yillarning boshlarida xalqaro savdo hajmi AQSHda yalpi milliy mahsulotning 16-18 foizini, Germaniyada 30-39 foizini tashkil etdi. Shu davrda O‘zbekiston yalpi milliy mahsulotida tashqi savdoning ulushi 10-12 foiz atrofida bo‘ldi.

Tashqi savdo xalqaro ayirboshlashning an’anaviy shakli sifatida quyidagi ko‘rinishlarni o‘z ichiga oladi:

- mahsulotlarni ayirboshlash: yoqilg‘i-xom ashyo mahsulotlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, sanoat mahsulotlari;

- xizmatlarni ayirboshlash: muxandislik-maslaxat xizmatlari, transport xizmatlari, turizm va boshqa xizmatlar. Hozirgi vaqtda xizmatlarning jahon eksportidagi xissasi 50 foizdan oshib ketdi;

- yangi ilmiy-texnik ma’lumotlarni ayirboshlash: litsenziyalar va “nou-xau”lar. Ular xissasiga xalqaro savdo aylanmasining 10 foiziga yaqini to‘g‘ri keladi.

Xalqaro savdo mahsulotlar, xizmatlar va fan-texnika ma’lumotlarini ayirboshlashning barcha ko‘rinishlari tashqi savdo operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi. Ular o‘z navbatida eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalariga bo‘linadi.

Eksport operatsiyasi-mahsulotlarni chet mamlakatlarga chiqarish.

Import operatsiyasi-mahsulotni xorijiy sherikdan sotib olish va uni mamlakatga olib kelish.

Reeksport operatsiyasi - avval import qilingan va qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elga olib chiqib sotish.

Reimport operatsiyasi - avval eksport qilingan va u yerda qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elda sotib olish va mamlakatga olib kelish.

15.3.Tashki savdo kontraktlarini tuzish va ularning turlari

Tashqi savdo operatsiyalari turli mamlakatlardagi sheriklarining ma’lum izchillikda amalga oshiriladigan harakatlarni ifodalaydi. Bu harakatlar bozorini o‘rganish, uning reklamasi, sotish tarmoqlarini yaratish, tijorat takliflarini o‘rganish, muzokaralar o‘tkazish, kontraktlar tuzish va uni bajarishni o‘z ichiga oladi. Kontrakt bitim qatnashchilari ya’ni, sheriklar o‘rtasidagi tijorat munosabatlari rasmiylashtiriladigan asosiy xujjat hisoblanadi. Savdo sohasidagi bitimning boshqa bir qatnashchisi sherik - kontragent deb ataladi.

Har qanday savdo opyeratsiyasi bozorni o‘rganishdan boshlanadi. Talab va uni kengaytirish yo‘llari, narx darajasi va o‘rganish

tendensiyasi, raqobatning keskinligi, ishlab chiqarishning texnik darajasi va rivojlanish imkoniyatlari va hokazolar o‘rganiladi. Kontraktlarni tuzish bo‘yicha tayyorlov ishlarini muhim bosqichi chet ellik sherikni aniqlash, uning faoliyati xususiyati va hajmini, huquqiy va moliyaviy axvolini va ishonchliligini o‘rganish hisoblanadi.

Tashqi savdo bitim qatnashchilaridan biri o‘z sherigini aniqlagandan so‘ng unga taklif kiritadi. Bu taklif **“oferta”** deb yuritilib, qat’iy va erkin bo‘lishi mumkin.

Qat’iy taklif - bu faqat bir xaridorga mahsulotni sotish uchun qilingan taklif bo‘lib, taklif qilgan tomon bu xaridordan javob olmaguncha yoki taklifda ko‘rsatilgan muddat tugamaguncha boshqa sherikga murojaat qilish huquqiga ega emas. Agar xaridor qilingan taklifga roziligini bildirsa, u holda bitim tuzilgan hisoblanadi.

Erkin taklif - bu sotuvchini bog‘liq qilib qo‘ymaydigan hamda javob uchun muddat belgilanmagan taklifdir. Bunda sotuvchi bir necha xaridorga bir vaqtda taklif qilishi mumkin. Agar ulardan biri sotuvchiga o‘z roziligini bildirsa, u holda bitim tuzilgan hisoblanadi.

Kontraktda aniqlanadigan shartlarga ko‘ra ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- **uzoq muddatli** (3-5 va undan ortiq yilga) kontraktlar - bu obyektlar qurish, qo‘shma ishlab chiqarish, mollarni muntazam yetkazib berish va shu kabilar;

- **bir martalik kontraktlar** - bu sheriklar o‘rtasida bevosita aloqalarni tez ayirboshlash maqsadida tuziladi;

- **muddatli kontraktlar** - mahsulotni qat’iy belgilangan vaqtda yetkazib berishni ko‘zda tutadi. Bu shart buzilganda xaridor kontraktdan voz kechish huquqiga ega;

- **maxsus kontraktlar** - bu loyiha va montaj ishlariga, texnik xizmat ko‘rsatishga, extiyot qismlarni yetkazib berish va shu kabilar yuzasidan tuziladi;

- **chegaraviy kontraktlar -** bitimning asosiy shartlariga ega bo‘lib, ular ishlarni bajarish mobaynida aniqlanadi;

- **niyatlar xaqida shartnomalar** - bunda faqat sotuvchining ma’lum mahsulotlarni sotish niyati va xaridorni ularni qat’iy majburiyatlarsiz sotib olish niyati belgilanadi.

Jahon amaliyotida bitimlarni tayyorlashni engillashtirish maqsadida bir necha bo‘limlar yoki qismlarni o‘z ichiga oluvchi bir shakldagi kontraktlar qo‘llaniladi:

1. Tomonlarni aniqlash, ya’ni sotuvchi va xaridor sifatida qatnashuvchi korxona va tashkilotlarning nomi.

2. Kontraktning predmeti yoki shartnoma turini va oldi-sotdiga mo‘ljallangan mahsulotni ta’riflash.

3. Mol yetkazib berishning bazis shartlari, sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi mahsulotlarni tashish uning haqini to‘lash, hujjatlarni rasmiylashtirish bo‘yicha majburiyatlarni taqsimlaydi, shuningdek mahsulotga egalik huquqini sotuvchidan xaridorga o‘tish holatini aniqlaydi.

4. Yetkazib berish muddati - unda mahsulotni muddatdan avvalroq yetkazishga ruxsat olish huquqi va tartibi kelishib olinadi.

5. Mahsulot miqdori - u asosan fizik birliklarda ko‘rsatiladi.

6. Narx va kontraktning umumiy bahosi.

7. To‘lov shartlari.

8. Mahsulotlarni o‘rash va markirovkalash.

9. Sotuvchilarning kafolatlari, ya’ni, ularni haridorga ma’lum sifatdagi mahsulotni yetkazib berish majburiyatlari.

10. Sug‘urta qilish yuklarini tashishda yuz beradigan yo‘qotishlarni qoplashni ko‘zda tutadi.

11. Yengib bo‘lmas kuchlar holati yoki “fors-major” holati.

12. Sanksiyalar yoki kontrakt shartlari buzilganda qo‘llaniladigan ta’sir etish tadbirlari.

13. Nizolarni arbitraj va sud tomonidan ko‘rib chiqilishi tomonlar o‘rtasida jiddiy kelishmovchiliklar yuzaga kelgan hollarda ko‘zda tutiladi.

14. Kontraktning boshqa shartlari jumlasiga kontraktlarni tuzish, o‘zgartirish va to‘xtatish tartibi, davolarni bildirish va ularni ko‘rib

chiqish tartibi va muddati, yuklash bo‘yicha qoidalar va mahsulotni yetkazib berish haqidagi xabar va boshqalar kiradi.

Xalqaro savdoda oldi-sotdi kontraktlaridan tashqari shuningdek pudrat kontraktlari, ijara kontraktlari va muqobil savdodagi kontraktlar tuziladi.

Qisqacha xulosalar

1. Xalqaro savdo nazariyasi X1X asr boshlarida David Rikardo tomonidan aniqlangan taqqoslash imkoniyatlari konsepsiyasiga asoslangan. Bu konsepsiyaga asosan biror bir mamlakat boshqa mamlakatga nisbatan birorta tovar ishlab chiqarishlarda imkoniyatlarga ega bo‘ladi va ushbu tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi.

2. Umuman tashqi savdo munosabatlari ikki muxim obyektiv sabablarga, ya’ni tabiiy va xom ashyo resurslarining mamlakatlar o‘rtasida bir tekis taqsimlanmaganligi hamda mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlarining bir xil rivojlanmaganligiga ko‘ra paydo bo‘lgan.

3. Tashqi savdo aloqalariga mahsulotlarni ayirboshlash, xizmatlarni ayirboshlash va yangi ilmiy-texnik ma’lumotlarni ayirboshlash kiritiladi. Bu ayirboshlashlarning barcha ko‘rinishi tashqi savdo operatsiyalari, ya’ni eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Xalqaro savdoni rivojlantirishning obyektiv va subyektiv sabablari nimada?
2. Xalqaro savdoning qanday shakllarini bilasiz?
3. Xalqaro savdoda savdo kontraktlari qanday tuziladi?
4. Kontrakt bitim qatnashchilari kimlar bo‘ladi?
5. Savdoda o‘z sherigini aniqlagandan keyin qanday taklif kiritiladi?
6. Kontraktlar aniqlanadigan shartlariga ko‘ra qanday guruhlarga bo‘linadi?
7. Savdo bitimlarini yengillashtirish maqsadida qanday kontraktlar tuziladi?

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. «Mutlaq ustunlik nazariyasi” kimga tegishli?

A) A. Smit

B) D.Rikardo

C) V.Kamaev

D) F. Kene

2. Ma’nosi “Milliy ishlab chiqarishdagi farqlar ishlab chiqarishning mexnat, yer, kapital va shuningdek, u yoki bu mahsulotga ichki iste’moldagi o‘zgarishlar kabi omillarga bog‘liq.” bo‘lgan qoida iqtisodiyotda nima deb ataladi?

A) “Taqqoslash ustunligi nazariyasi”

B) «Savdo sharoiti indeksi»

C) Xekshyer-Olin konsepsiyasi

D) A. Smitning tamoyili

3. Tashqi savdoning vujudga kelishi nechta obyektiv sabablar bilan izohlanadi?

A)5 ta

B) 8 ta

C) 2 ta

D) 4 ta

4. Avval eksport qilingan va u yerda qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elda sotib olish va mamlakatga olib kelish nima deb yuritiladi?

A) Import operatsiyasi

B) Reimport operatsiyasi

C) Eksport operatsiyasi

D) Reeksport operatsiyasi

5. **“***Oferta*” nechta xil bo‘lishi mumkin?

A) 2 xil

B) 3xil

C) 4 xil

D)5 xil

6. Sotuvchini bog‘liq qilib qo‘ymaydigan hamda javob uchun muddat belgilanmagan taklif nima?

A) Xalqaro savdo

B) Qat’iy taklif

C) Erkin taklif

D) Kontragent

7. Bitimning asosiy shartlariga ega bo‘lib, ular ishlarni bajarish mobaynida aniqlanadigan kontrakt turi to‘g’ri berilgan javobni aniqlang.?

A) Niyatlar xaqida shartnoma

B) Uzoq muddatli kontrakt

C) Maxsus kontrakt

D) Chegaraviy kontrakt

8. Bir martalik kontraktlar nima?

A) Bu obyektlar qurish, qo‘shma ishlab chiqarish, mollarni muntazam yetkazib berish va shu kabilar uchun tuziladi;

B) Bu sheriklar o‘rtasida bevosita aloqalarni tez ayirboshlash maqsadida tuziladi;

C) Bu loyiha va montaj ishlariga, texnik xizmat ko‘rsatishga, extiyot qismlarni yetkazib berish va shu kabilar yuzasidan tuziladi;

D) Mahsulotni qat’iy belgilangan vaqtda yetkazib berishni ko‘zda tutadi. Bu shart buzilganda xaridor kontraktdan voz kechish huquqiga ega;

9. Kontraktlar uzoq muddatli deyilishi uchun qancha muddatda tuzilishi lozim?

A) 9 oyga

B) 1 -2 yilgacha

C) 1 -3 yilgacha

D) 3-5 va undan ortiq yilga

10. Tashqi savdo operatsiyalari nechi guruhga bo‘linadi?

A) 3 ta

B) 4 ta

C) 5 ta

D) 6 ta

XVI bob. TASHQI SAVDO SIYOSATI

16.1.Savdo siyosatining mohiyati. Bojxona tariflari nazariyasi

Biror mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatga bevosita aralashuvi jarayoni eksport va importni cheklash hisoblanadi. Davlat tomonidan olib boriladigan bunday tadbirlar savdo siyosati deb yuritiladi.

Savdo siyosati - davlat tomonidan xalqaro savdoga soliq, subsidiya, valyuta nazorati va import yoki eksportni to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklash siyosatlari olib borish orqali ta’sir ko‘rsatish hisoblanadi.

Mamlakat tashqi savdosini cheklash borasida olib borilayotgan har qanday chora-tadbirlar aholi turmush sharoitining pasayishiga olib keladi. Shu nuqtai-nazardan olib qarasak erkin tashqi savdo siyosati foydaliroq bo‘lib hisoblanadi. Ammo, amaliyotda tashqi savdoni cheklashning 50 dan oshiqroq turi mavjud. Ularning ayrimlari davlat g‘aznasini to‘ldirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, boshqa birlari esa umuman importni cheklashga va yana boshqa bir tadbirlar esa eksportni cheklashga yoki rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan.

Bundan tashqari, ko‘pgina mamlakatlardagi katta-katta iqtisodchi va siyosatchi guruhlar proteksionizmni kuchaytirishni qo‘llab-quvvatlashadi. Savol tug‘iladi, agarda tashqi savdoni cheklash natijasida aholi turmush faoliyati yomonlashsa proteksionizmni keng qo‘llash nima bilan bog‘liq?

Ya’ni, ko‘pgina argumentlar proteksionizmga yon bossa ham, u xato hisoblanadi. Chunki uni iqtisodiy tahlillar yordamida asoslab berish mumkin. Erkin savdo jahon iqtisodiyoti nuqtai-nazaridan foydali bo‘lish mumkin, ammo alohida olingan mamlakat iqtisodiyoti nuqtai-nazaridan esa erkin savdo hamma vaqt ham foydali hisoblanavermaydi. Ayrim holatlarda savdo cheklashlarini tashqi savdo yutuqlarini qayta taqsimlashda, ya’ni, bir mamlakat aholisi turmush faoliyatini yomonlashtirish evaziga oshirishda foydalanish mumkin. Ulardan shuningdek guruhlar o‘rtasida oladigan daromadlarini qayta taqsimlashda foydalanish mumkin. Shuning uchun ham tashqi savdo siyosatini ishlab chiqishda olib boriladigan tashqi savdo siyosatining iqtisodiy tahlili katta ahamiyatga egadir.

Mamlakatlarda ta’rifli mexanizm orqali tashqi savdo siyosatini yuritish, birinchi navbatda ushbu mamlakatning asosiy tarmoqlari va yangi ishlab chiqarish sohalarining himoyalanganligiga ta’sir qiladi. O‘zbekistonda avtomobilsozlik yangi va istiqbolli soha (tarmoq) hisoblanadi va tabiiyki, tarifli ximoyaga muxtoj.

Masalan, O‘zbekistonda yangi mashinalar uchun import boji 40 foizni tashkil qilsin. Ushbu mashinani ishlab chiqarish uchun zarur bo‘ladigan extiyot qismlar asosan chetdan keltirilsin va unga import boji 30 foiz miqdorida o‘rnatilsin. Demak, ushbu misolda avtomobilsozlikning haqiqatda ximoyalanganlik darajasi 40 foizga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi. Ya’ni, bitta mashinaning narxi 10000 dollar (AQSH) bo‘lsa, bu yerda 7000 dollar extiyot qismlarga sarflar va 3000 dollar qo‘shilgan qiymat bo‘lsin. Extiyot qismlar yoki yarim tayyor mahsulotlarga (7000 dollarga) 30 foiz miqdorida, tayyor mahsulotlarga esa 40 foiz miqdorida boj o‘rnatilgan sharoitda, sohaning haqiqiy ximoyalanganlik darajasini ko‘rib chiqamiz.

Bunda, soha**(tarmoq)ning samarali himoyasi formulasidan foydalanamiz**.

$$\mathbf{Yer = (Ya – Va) \ / Ya}$$

Bu yerda: **Yer-sohaning tarif bilan haqiqiy ximoyalanganlik darajasi;**

Ya -bojxona tarifi kiritilgandan keyingi qo‘shilgan qiymat;

Va -bojxona tarifi kiritilishidan oldingi qo‘shilgan qiymat.

YER = ((3000 + 2250) – 3000) / 3000 = 2250 / 3000 = 0,75 yoki 75%

Bu shuni bildiradiki, tayyor avtomobillarga 40% tarif va extiyot qismlarga 30% tarifni joriy qilib, davlat milliy avtomobilsozlikni xaqiqatda 75% tarifli ximoyalanganligini ta’minlaydi.

Proteksianizm siyosatining muxim tamoyili ham shundaki, davlat tayyor mahsulotlarga bojni ko‘tarish va yarim tayyor mahsulotlarga esa uning miqdorini pasaytirish orqali tarmoqning xaqiqiy ximoyalanganligini yanada oshiradi.

Demak, tashqi iqtisodiy savdoni tartibga solishning eng asosiy usullaridan biri bojxona bojlari va tariflari hisoblanadi.

Tarif, ya'ni importga bojxona boji savdo siyosatining eng qadimiy usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi va doimiy ravishda davlat g‘aznasini to‘ldirish uchun foydalaniladi. Ammo, tarif nafaqat davlat g‘aznasini to‘ldirishda foydalaniladi, balki milliy ishlab chiqaruvchilarni import raqobatidan ximoya qilishda ham foydalaniladi. Tariflarni o‘zgartirish orqali davlat eksport va importni rag‘batlantirishi va shu yo‘l bilan ishlab chiqarish va iste'mol munosabatlariga ta'sir etishi mumkin. Tarifni qo‘llashda import mahsulotlarining ichki bahosi jaxon bozoridagi bahodan yuqori bo‘ladi. Ya'ni:

Import mahsulotlari ichki bahosi = Jahon bahosi + (Jahon bahosi x Tarif stavkasi)

Umuman olganda, import mahsulotlarga qo‘yiladigan tarif milliy ishlab chiqaruvchilarni import mahsulotlardan ximoya qiladi.

Bojxona boji - bu mamlakatga olib kelinayotgan yoki mamlakatdan olib chiqilayotgan mahsulotlarga solinadigan majburiy soliqdir. Xalqaro amaliyotda bojxona bojlarining turli xillari qo‘llaniladi va ularni hisoblash yo‘llari, ifodalanishi hamda harakat sohasiga ko‘ra turlicha guruhlash mumkin.

Import bojlari davlat byudjetini to‘ldirish maqsadida va ichki bozorlarga tushadigan chet el tovarlari oqimini tartibga solish uchun belgilanadi. O‘z navbatida ular eng kam va eng ko‘p miqdordagi import bojlariga bo‘linadi. Eng kam miqdordagi import bojlari o‘zaro qulay sharoitlarni yaratib berishni ko‘zda tutuvchi savdo shartnomalari va bitimlari bo‘lgan mamlakatlar mahsulotlariga o‘rnatiladi. Eng ko‘p miqdordagi import bojlari esa bunday shartnoma bitimlar tuzilmagan mamlakatlar mahsulotiga nisbatan o‘rnatiladi.

Eksport bojlari mamlakat ichida talab ko‘p bo‘lgan mahsulotlar taqchilligini oldini olish maqsadida belgilanadi.

Bojxona bojlari stavkasi ya'ni, ularning tartibga solingan ro‘yxati bojxona tariflari deb ataladi. Bojxona tariflari bir yoki bir necha boj

miqdorlari ustuniga ega bo‘lishi mumkin, ya’ni ular oddiy va murakkab bo‘ladi. Oddiy bojxona tariflari ustuni mahsulotlar kelib chiqqan mamlakatlardan qat’iy nazar mahsulotlarga yagona stavkalarni ko‘zda tutadi. Murakkab bojxona tariflari ustunida esa, mahsulot bir necha boj stavkalariga ega bo‘ladi va u yoki bu mamlakatga unda vujudga kelgan iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarga qarab tanlov asosida qo‘llaniladi.

16.2. Bojxona tariflarining ishlab chiqaruvchilarga, iste’molchilarga va mamlakat aholisi turmush darajasiga ta’siri

Bojxona tariflari avvalombor import bilan raqobatlashadigan milliy ishlab chiqarishni ximoya qilishdan iborat. Agarda tariflarni joriy qilish orqali import cheklansa, milliy ishlab chiqarishda sotilayotgan mahsulotlar hajmini oshirish va tarifni joriy qilish orqali narxlarning oshishi hisobiga sotadi. Milliy ishlab chiqarishning tarifi joriy qilish orqali sotishni biz grafikda ham ko‘rishimiz mumkin. (16.2.1-chizma)



16.2.1-chizma.Tarifning ishlab chiqaruvchilar manfaatiga ta’siri

Import tariflari joriy qilingunga qadar ichki ishlab chiqarish hajmi S_1, ichki talab hajmi esa D_1ga teng bo‘lgan. Talab va taklif o‘rtasidagi farq (D_1-S_1) import hisobiga qoplangan. Mamlakat iqtisodiyoti yopiq bo‘lganida edi baholar darajasi Re ga teng bo‘lgan bo‘lar edi. Hamda talab va taklif muvozanati E nuqtada o‘rnatilgan bo‘lar edi. Mamlakat

iqtisodiyoti ochiq bo‘lgani va importga cheklovlar yo‘qligi tufayli milliy bozordagi narxlar jahon bozori narxlari Rw bilan bir xil. Importga tarif joriy qilinishi natijasida ichki baholar Rw dan Rd ga qadar ko‘tariladi.

Oqibatda iste’molchilar ma’lum bir yo‘qotishlarga duch keladi. Bu yo‘qotishlar grafikda A, V, S, D sohalar bilan ko‘rsatilgan.

Baholarning ko‘tarilishi ilgari raqobatbardosh bo‘lmagan ayrim ichki ishlab chiqaruvchilar uchun ham foyda ko‘rib ishlashga imkon beradi. Umuman Shu sohada band milliy ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish hajmini S_1dan S_2ga qadar oshiradi va S_2-S_1 hajmdagi mahsulot Rd bahoda sotiladi. Shu hajmdagi mahsulotni iste’molchilar oshirilgan narxda sotib oladilar va V sohaga teng yo‘qotishga duch keladilar. Ammo, bu yo‘qotish ichki ishlab chiqaruvchilarning o‘sgan foydasiga aylanadi.

Baholarning o‘sishi oqibatida ko‘rilayotgan tovar iste’moli hajmi D_1 dan D_2 qadar qisqaradi. Bu yo‘qotish grafikda D soha bilan ko‘rsatilgan va u hech kimning foydasi bilan qoplanmaydi. Buning natijasida iste’molchilar turmush darajasidagi yo‘qotish ro‘y beradi. . Chunki, iste’molchilar ishlab chiqaruvchilar va davlat yutuqlariga nisbatan ko‘proq yo‘qotishadi.

Importga tarif joriy qilinmagan sharoitda erkin xalqaro narxlarda ayirboshlashlar amalga oshiriladi.

16.3. Proteksionizm siyosatining vazifalari va mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati

Bojxona tariflar asosan milliy darajada qo‘llaniladi va bunda qator vazifalarni bajaradi.

- mamlakat mudofaa sanoatini himoya qiladi;
- mamlakatda bandlikni ta’minlaydi va yalpi talabni rag‘batlantiradi;
- milliy iqtisodiyotdagi yangi tarmoqlarni himoya qiladi;
- fiskal vazifa, ya’ni davlat byudjeti daromadlarini to‘ldirish manbai bo‘lib xizmat qiladi;
- proteksionistik, ya’ni milliy ishlab chiqaruvchilarni chet el

raqobatidan himoya qiladi;

- boshqaruv, ya’ni iqtisodiyot tuzilishini qayta qurishni boshqarish vositasi hisoblanadi va ular yordamida mamlakat iqtisodiyotidagi ilg‘or siljishlar rag‘balantiriladi.

Milliy iqtisodiyotni tiklanishi sharoitida ko‘pgina davlatlar o‘z ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida proteksionizm siyosatini qo‘llaydilar. Aks xolda mahalliy korxonalar “sinishi” jamiyatda ishsizlik xavfini tug‘diradi.

Shu bilan birga proteksionizm siyosatini qo‘llash salbiy oqibatlarni olib kelishi mumkin. Ular asosan iqtisodiyotning himoya qilinayotgan sohalarida resurslarni samarasiz sarflanishiga olib keladi.

Agar mamlakatlar bojxona ittifoqiga birlashsalar unda bojxona tarifi barcha ishtirokchi mamlakatlar uchun ularning savdo munosabatlarida yagona bo‘lib qoladi (masalan, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati). Bojxona tariflari miqdori alohida mamlakatlar iqtisodiyotida va jahon xo‘jaligida yuz berayotgan jarayonlar ta’sirida yuz beradi. Umumjaxon bojlarining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda va u ikki tomonlama hamda ko‘p tomonlama muzokaralar asosida mamlakatlar tomonidan rag‘batlantiriladi va nazorat qilinadi.

Bojxona tariflari bojlaridan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita egiluvchan usullari sifatida turli soliq turlari keng qo‘llaniladi. Bunda faqat tashqi soliq tizimidagi emas, balki ichki soliq tizimidagi soliq turlaridan ham foydalaniladi.

Faqat tashqi iqtisodiy bitimlarni tartibga solishda qo‘llaniladigan soliqlarga import va eksportga soliqlar kiradi. Ular olib kelinayotgan yoki olib chiqilayotgan mahsulotlarga ularning oqimlarini tartibga solish, ya’ni rag‘batlantirish yoki to‘xtatish maqsadida belgilanadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda import tuShumlariga soliqlar keng qo‘llanilsa eksport mahsulotini sotishdan tuShumlarga soliqlar esa imtiyozlarga egadir. Bu eksportni rag‘batlantirishga ichki va tashqi bozorlardagi narxlar farqi ko‘p bo‘lganda o‘z mahsulotlari kabi import mahsulotlariga ham mamlakat ichida sotish uchun bir xil sharoitlar yaratish imkonini byeradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek ichki soliqlar tizimi yordamida ham tartibga solinadi. Davlat sotishdan olingan foydaga pul kapitalidan daromadlarga kapitalning qo‘shimcha o‘sishiga qimmatbaho qog‘ozlarga, ortiqcha foydaga va boshqalarga soliqlarni belgilab o‘zining hamda xorijiy ishlab chiqaruvchilarning faoliyati uchun qulay va qulay bo‘lmagan sharoitlarni yaratish mumkin.

16.4. Import kvotalari va litsenziyalarini taqsimlash uslublari

Jahon amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usllaridan kengroq foydalaniladi. Bevosita usullar o‘zining mazmuniga ko‘ra iqtisodiy, ma’muriy, me’yoriy - huquqiy ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin.

Litsenziyalash va kvotalash iqtisodiy harakterdagi bevosita usullar ichida keng tarqalgan hisoblanadi.

Litsenziyalash - bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma’lum tartibidir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga mahsulotlar va xizmatlar eksporti hamda, moliya operatsiyalarini o‘tkazish, xorijga ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi.

O‘zbekistonda litsenziyalar faqat davlat ro‘yxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi. Boshqa yuridik shaxslarga berish taqiqlangan.

Mahsulotlar eksporti va importini litsenziyalash davlatga ular oqimini qattiq tartibga solishga, ba’zi hollarda ularni vaqtincha chegaralashga va shu asosda tashqi iqtisodiy taqchillik o‘sishining to‘xtashiga hamda savdo balansining tenglashtirishga imkon beradi.

Mahsulotlar va xizmatlar eksporti va imortiga litsenziyalar berish huquqiga O‘zbekiston Respublikasining quyidagi boshqaruv tashkilotlari ega: Vazirlar Maxkamasi, Moliya, Adliya, Ichki ishlar, Sog‘liqni saqlash, Xalq ta’limi vazirliklari, shuningdek Markaziy bank.

Belgilangan chegaralar doirasida amalga oshiriladigan bitimlarga litsenziyalar har bir alohida bitim uchun mol yetkazib berish hajmi yoki qiymatiga tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tomonidan beriladi.

Moliya opyeratsiyalarini o‘tkazishga litsenziyalar asosan Respublika Moliya vaziriligi va Markaziy bank tomonidan o‘z va xorijiy banklarga, Moliya muassasalariga beriladi. Ular moliya-kredit muassasalariga mamlakat ichida va uning tashqarisida chet el valyutasi bilan operatsiyalarini amalga oshirish, xorijiy moliya kredit muassasalariga esa ichki bozorda yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish huquqini beradi.

Litsenziyalash bilan bir qatorda jahon amaliyotida mahsulotlar shuningdek, ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maqsadida **kvotalash** keng qo‘llanalidi.

Bu usulning moxiyati shundan iboratki unda vakolatli davlat yoki xalqaro tashkilot alohida mahsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruhi bo‘yicha ma’lum davrga eksport va importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarini belgilaydi.

O‘zbekistonda kvotalash xalq iste’moli mollarini va strategik xom ashyoning muxim turlarini olib chiqishni chegaralash usuli sifatida qo‘llanilmoqda.

Kvotalash faqat mahsulot oqimlarini emas, balki ishchi kuchi oqimlarini tartibga solishda qo‘llaniladi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar ichki mexnat bozorini ximoyalash maqsadida xorijdan ishchi kuchi importiga kvotalar o‘rnatadi.

Xozirgi vaqtda kvotalash bojlarga nisbatan ko‘proq qo‘llanilishiga ikkita sabab bor:

1. Tarif stavkalari xalqaro savdo kelishuvlariga asosan belgilanadi. Ayrim hollardan tashqari vaziyatlarda, mamlakatlar tariflar stavkasini oshira olmaydilar va shuning uchun iqtisodiyotni raqobatdan himoya qilish maqsadida kvotalarga e’tiborni qaratishga majbur bo‘ladi.

2. Himoyaga muhtoj tarmoqlar ham importga kvotalar joriy qilishni qo‘llaydi. Chunki, tarifni joriy qilishga nisbatan imtiyozli litsenziyalar olish osonroqdir.

Ba’zi hollarda mamlakatlar tomonidan maxsus bojxona bojlari qo‘llaniladi (ya’ni dempingga qarshi qaratilgan bojlar). Masalan, mahsulotlar olib kelish hajmi va sharti mahalliy ishlab chiqaruvchilarga zarar keltirsa yoki mamlakat manfaatlariga zid bo‘lganda qo‘llaniladi.

Maxsus bojxona bojlarining miqdori har bir aniq holat uchun alohida o‘rnatiladi.

Dempingga qarshi qaratilgan bojlar jaxon amaliyotida keng qo‘llanilib o‘zida qo‘shimcha import bojlarini aks ettiradi. Ular odatda jahon narxlaridan yoki import qilayotgan mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo‘yicha eksport qilinayotgan mahsulotlarga o‘rnatiladi. Bu bojlarni belgilash xaqidagi qarorni halqaro sud mahalliy ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar murojaatidan so‘ng chiqaradi hamda uning miqdorini va to‘lash tartibini belgilaydi.

Qisqacha xulosalar

1. Ichki ishlab chiqaruvchilarni xalqaro raqobatlardan himoya qilish uchun mamlakat erkin savdo siyosatiga turli xil baryerlar qo‘yishi mumkin. Savdo hajmini cheklaydigan bunday siyosat proteksionizm deb ataladi. Savdo cheklashlari import tariflari va notarif baryerlarga bo‘linadi. Savdo baryerlarini qo‘llashni oqlaydigan proteksionizm siyosati tarafdorlari asosan milliy himoyani ta’minlashning zarurligi, ish joylarini saqlash, ishlab chiqarish tarmoqlarini xorijiy raqobatchilardan himoya qilish kabi sabablarni ko‘rsatishadi.

2. Bojxona ta’riflarini ishlab chiqishda qo‘llaniladigan klassifikatorlar mahsulotlarni ta’riflash va shartli belgilashning uyg‘unlashtirilgan tizimi bo‘lib, unda olti xonali shartli raqam belgiga ega bo‘lgan mahsulot haqidagi asosiy ma’lumotlar hamda uning mahsulotlar nomenklaturasida o‘rni ko‘rsatiladi.

3. Ta’riflarni joriy qilish orqali import tovarlari narxlarining oshishi birinchi o‘rinda iste’molchilarga ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, tariflar milliy tovarlarning narxini oshiradi va shuningdek ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar narxini oshirish natijasida hajmining kamayishiga ham olib keladi.

4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bevosita usullari keng tarqalgan. Litsenziyalash bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olish hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Nima uchun halqaro savdo qatnashuvchi tomonlarning barchasi uchun foydali ekanligini izohlang.

2. Savdo baryerlarining asosiy shakllarini va import bojlari va notarif chegaralashlarni kiritishdan keladigan iqtisodiy oqibatlarni tushuntiring.

3. Nima uchun proteksionizm siyosatini xalqaro savdo qatnashchilarining hammasi ham yoqlayvermaydi?

4. Tashqi savdoni tartibga solishning qanday usullarini bilasiz?

5. Bojxona tariflari ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va aholi turmush darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

6. Tariflarni qo'llovchi hamda ularga qarshi fikrlar to'g'risida misollar keltiring.

7. Demping nima? Dempingga qarshi qanday tadbirlarni bilasiz?

Mavzular bo'yicha test savollari

1. Demping narx nima?

A) import qilayotgan mamlakat ichki narhlaridan past narhidagi eksport tovar narxi

B) import qilayotgan mamlakat ichki narhlaridan yuqori narxidagi eksport tovar narxi

C) sun'iy qimmatlashtirilgan narx

D) Tarkibida egri soliqlarni saqlamagan narx

2. ….. davlat budjetini toldirish maqsadida va ichki bozorlarga tushadigan chet el tovarlari oqimini tartiblash maqsadida belgilanadi.?

A) import bojlar

B) eksport bojlar

C) Bojxona bojlari

D) Soliqlar

3. …. Mamlakat ichida talab ko'p bo'lgan tovarlar taqchilligini oldini olish uchun qo'yiladi?

A) eksport boj

B) Import boj

C) Bojxona boji

D Soliq

4. Proteksionizm siyosatining asosiy maqsadi nima?

A) O‘z ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilish

B) mamlakatda bandlikni taminlash va yalpi talabni rag’banlantirish

C)Budjetni to‘ldirish

D) Yangi tarmoqlarni himoya qilish

5. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarni bajarish uchun davlat tashkilotlaridan ruxsat olish - …?

A) litsenziyalash

B) Patentlash

C) Imtiyozlash

D) sertifikatlash

6. Alohida maxsulotlarga ma’lum mamlakatlar guruhi bo‘yicha ma’lum davrga eksport hajmi yo miqdoriga kiritilgan chegara.

A) Kvotalash

B) Dempinglash

C) Aksiya

D) Baykot

7. Faqat tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishda qo‘llaniladigan soliqlar - … ?

A) Import va eksport soliqlari

B) QQS

C) Aksiz

D) Barcha soliq turlari

8. Import tariflarini kiritishni yoqlovchi argument…?

A) mamlakatdagi yangi ,,yosh’’ tarmoqlarni himoya qilish

B) importni kopaytirish

C) mamlakat ishlab chiqaruvchilarni dempingdan saqlash

D) to‘lov balansining holatini yaxshilash.

XVII bob. VALYUTA KURSI

17.1. Valyuta kursi tushunchasi va valyuta ayirboshlash zaruriyati

Mamlakatning ma’lum vaqtdagi barcha halqaro iqtisodiy faoliyati Shu jumladan tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi to‘lov balansida o‘z aksini topadi. Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyuta ayirboshlash va valyuta operatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Demak mamlakatning jahon bozoridagi faoliyatining natijalari pirovardida xorijiy valyuta tushumlari va xarajatlarida ifodalanadi.

Shuning uchun ham **to‘lov balansi** - bu bir tomonida chetdan keladigan barcha tushumlar, ikkinchi tomonda esa, chetga chiqaradigan barcha to‘lovlari ko‘rsatilgan hujjatdir.

Tushum (kredit) faqat eksport yordamida ta’minlanishi mumkin. Aksincha xorijiy tovarlarni sotib olish import to‘lovlar va xorijiy valyuta xarajatlari (debet) bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunda tovar deganda ayirboshlanadigan har qanday narsa tushuniladi, ya’ni u moddiy ne’mat, xizmat, ishchi kuchi, kapital va valyuta bo‘lishi mumkin.

Xalqaro valyuta munosabatlari pulning halqaro to‘lov oborotida amal qilish jarayonida vujudga keladi. U tashqi savdo bilan birga paydo bo‘ldi va rivojlanishning uzoq yo‘lini bosib o‘tdi. Tarix davomida jahon puli shakllari va xalqaro hisob kitob shakllari o‘zgardi. Bir vaqtda valyuta munosabatlari ahamiyati o‘sdi va ularning nisbatan mustaqil darajasi oshdi. Tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi harakati mamlakatdan mamlakatga ko‘chadigan pul massasalari oqimi yordamida amalga oshadi. Bu harakatni tartibga solish zarurligi xalqaro valyuta tizimi va jahon valyuta tizimlarining shakllanishiga olib keldi.

Valyuta - bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so‘m, dollar, marka, funt-sterling va xokazo.) Juda qisqa ma’noda - bu chet el davlatlarining pul belgilari. Har bir milliy bozor xususiy milliy valyuta tizimiga ega bo‘ladi.

Milliy valyuta tizimi bazasida jahon bozori rivojlanishi tarkib topadigan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo‘lgan jahon valyuta tizimi amal qiladi.

Mamlakatlar o‘rtasida tovar va xizmatlar oqimi ko‘paygan sari pul vositalarini ayirboshlashi ham tobora oshib boradi, uzaro hisob kitoblardagi nomutanosiblik muammolari yuzaga keladi. Bularning barchasi jahon valyuta tizimining barpo etilishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratadi. Uning maqsadi - mamlakatlar o‘rtasidagi barcha turdagi bitimlarni amalga oshirishni tartibga solishdan va shuningdek bu ishlarni tezlashtirishdan iborat.

Shunday qilib, **jahon valyuta tizimi** bu xalqaro ayirboshlashning barcha shakllariga xizmat qilishga va ularning samarali rivojlanashini ta’minlashga qaratilgan mamlakatlar o‘rtasidagi valyuta munosabatlarining yig‘indisidir.

Hozirgi zamonda halqaro hisob-kitoblarda va kreditlashda uch ko‘rinishdagi pul vositalari ishlatiladi:

- oltin, xozirda o‘zining asosiy to‘lov va hisob-kitob vositasi xususiyatini yo‘qotgan bo‘lsada, ammo ko‘pchilik valyuta zaxiralarining sezilarli qismini tashkil etadi va muxim tashqi savdo operatsiyalariga xizmat qilish va kreditlashni kafolatlash uchun ishlatiladi;
- jahonda asosiy o‘rin egallovchi rivojlangan mamlakatlarning milliy valyutalari (AQSH dollari, Ingliz funt-sterlingi, Shveysariya franki, Yaponiya yenasi va boshqalar);
- xalqaro pul birliklari (yevro, ekyu). Bunday pul birliklari jahon valyutalari deb hisoblanadi. Ular ko‘pchilik mamlakatlar tomonidan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi. Xorijda kreditlash va investitsiyalashda, chet ellik ishchi kuchi mehnatiga, shuningdek mamlakat valyuta zaxiralarini yaratishda qo‘llaniladi.

Xalqaro valyuta yoki xalqaro to‘lov-hisob va kreditlash vositalariga javob berishga kerak bo‘lgan talab ularning konvertirlashuvi hisoblanadi.

Valyuta konvertirlaShuvi deganda uni boshqa xorijiy valyutalarga almashish qobiliyatiga tushuniladi. Hozirgi paytda ular erkin konvertirlanadigan, qisman konvertirlanadigan va konvertirlanmaydigan valyutalarga ajratiladi.

Erkin konvertirlanadigan valyuta bu amaldagi kurs bo‘yicha har qanday boshqa xorijiy valyutaga erkin va cheklanmagan miqdorda

ayirboshlanadigan valyutadir. Bunga misol qilib AQSH, Yevropa hamjamiyatiga a'zo mamlakatlar, Yaponiyalarning valyutalarini kiritish mumkin.

Qisman konvertirlanadigan valyuta, bu faqat ba'zi bir xorijiy valyutalarga almashtiriladigan va xalqaro to'lov oborotini qisman qamrab oladigan milliy valyutadir.

Konvertirlanmaydigan valyuta bu faqatgina ichki to'lovlarga xizmat qiladigan va xorijiy valyutaga ayirboshlanmaydigan milliy valyutadir.

Konvertirlashni ichki va tashqi konvertirlashga ham ajratish mumkin.

Ichki konvertirlash rezidentlarining (ya'ni, shu mamlakatda yashash joyi bo'lgan shaxslarning) mamlakat ichkarisida xorijiy valyutani sotib olish, uni ushlab turish va u bilan ayrim operatsiyalarni olib borishni aks ettiradi.

Tashqi konvertirlashda xorijda to'lovlarni amalga oshirishga va moliyaviy aktivlarni ushlab turishga ruxsat etiladi. Valyutalarni konvertirlash ko'pgina mamlakatlar olib borayotgan iqtisodiy siyosatlarinig muhim maqsadi bo'lib hisoblanadi.

17.2. Valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari

Bozordagi talab va taklif ta'siri natijasida vaqti-vaqti bilan valyuta kurslari o'zgarib turadi. Davlat valyuta kurslarini barqororlashtirish uchun valyuta bozorini amal qilishiga bevosita yoki bilvosita aralashishi zarur. Buning bir qator usullari mavjud:

1. **Ehtiyot (zaxira)lardan foydalanish.** Valyuta kursini mustahkamlashning ko'proq qo'llaniladigan usuli - rasmiy rezervlar yordami bilan bozorni manipulyasiya qilish hisoblanadi. O'z-o'zidan aniqki, valyuta zaxiralari alohida mamlakatlar ega bo'lgan chet mamlakatlar valyutalarining oddiy zaxirasi hisoblanadi.

"Jahon puli" sifatida yoki boshqacha aytganda, zaxiralar sifatida, odatda oltindan foydalaniladi. Masalan, AQSH hukumati Buyuk Britaniyaga o'zi ega bo'lgan oltinning bir qismini sotib, uning funtlarini olishi mumkin. Shu yo'l bilan sotib olingan funtlar Amerika savdosi va

moliyaviy operatsiyalari tufayli jamg‘arilgan zaxiralarni o‘stirish uchun foydalanish mumkin. Bu yerda zaxiralar miqdori funt taklifini zarur miqdorda ko‘paytirishga erishishi uchun yetarli bo‘lishi juda muhimdir.

2. Savdo siyosati. Valyuta bozoriga ta’sir ko‘rsatishning boshqa tadbirlariga savdo va moliyaviy oqimlar ustidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazorat qilishni kiritish mumkin. Masalan, AQSH funt sterlingning yetishmasligi sharoitida valyuta kursini tegishli darajada (2dollar=1 f.st.) importni ushlab turish (Shu orqali funt taklifini oshirish) hisobiga ushlab turishga borishi mumkin.

Xususan import boj yoki import kvotalarini kiritish bilan qisqarishi mumkin. Xuddi shunday amerikaliklar chet el kapital quyilmalaridan oladigan foiz va dividentlardan maxsus soliqlar undirishi mumkin. Boshqa tomondan Amerika hukumati subsidiya berib, shu orqali funt sterling taklifini ko‘paytirish mumkin. Bu tadbirlardan foydalanishda vujudga keladigan asosiy muammo shundan iboratki, u jahon savdosi hajmini qisqartiradi, uning tarkibini va savdo aloqalarini o‘zgartirib yuboradi, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikning buzilishiga o‘zining xissasini qo‘shadi. Buning oqibatlarini hisobga olmaslik mumkin emas.

3. Valyutali nazorat. Boshqa muqobil variant valyutali nazorat hisoblanadi. Valyutali nazorat sharoitida hukumat milliy eksportyorlar olgan barcha tegishli chet el valyutalarini davlatga sotish talabi bilan ularning yetishmasligi muammosini hal qilishi mumkin. Keyin hukumat o‘z navbatida chet el valyutasining bu katta bo‘lmagan zaxirasini turli milliy importyorlar o‘rtasida taqsimlaydi. Shu yo‘l bilan hukumat milliy importni, milliy eksport hisobidan olingan chet el valyutasi miqdoriga cheklaydi.

Valyutali nazorat tizimi bir qator kamchiliklarga ega. Birinchidan, savdo cheklashlari (boj, kvota, eksportli subsidiya) kabi valyutali nazorat qiyosiy ustunlik tamoyiliga asoslangan halqaro savdoning tarkib topgan aloqalarini buzadi. Ikkinchidan, yetarli bo‘lmagan valyuta resurslarini valyutali nazorat jarayoni so‘zsiz alohida importyorlarni kamsitish bilan bog‘liq. Uchinchidan, nazorat tadbirlari iste’molchining tanlash erkinligiga tajovuz qilish hisoblanadi.

4. Ichki makroiqtisodiy tartibga solish. Valyuta kursi barqarorligini ushlab turishning oxirgi vositasi ichki soliq yoki pul siyosatidan shunday foydalanish hisoblanadiki, bunda tegishli chet el valyutasining etishmasligi bartaraf qilinadi. Masalan, cheklovchi soliq va pul tadbirlari AQSH milliy daromadini Buyuk Britaniya milliy daromadiga nisbatan pasaytiradi. Chunki import miqyosi milliy daromad darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib bu Britaniya buyumlariga va demak funt sterlingga talabning cheklanishiga olib keladi.

Qayd qilingan valyuta kursi tizimi tarafdorlari tasdiqlaydiki, undan foydalanish xalqaro savdo va moliya bilan bog‘liq bo‘lgan taxlika va noaniqligini kamaytiradi. Qayd qilingan valyuta kurslarini qo‘llash o‘zaro foydali savdo va moliyaviy operatsiyalar hajmini kengaytirishga olib keladi. Ammo qayd qilingan valyuta kurslari tizimining hayotga layoqatligi ikkita o‘zaro aloqalar sharoitiga bog‘liq:

1) zaxiralarning mavjudligi;

2) o‘z hajmi bo‘yicha sezilarsiz kamyoblik yoki to‘lov balansi aktivlarining tasodifiy vujudga kelishi.

Katta va doimiy kamyobliklar mamlakat zaxiralarini yo‘qqa chiqarishi mumkin. Xulosa qilib aytganda valyuta kurslarining talab va taklif ta’siri ostida shakllanish darajasi, o‘z-o‘zicha kursli nisbatlarga ta’sir etuvchi real jarayonlarni aniqlab bera olmaydi. Chet valyutalariga talab va taklifga, demak valyuta kurslariga mamlakatdagi ham ichki va ham tashqi iqtisodiy munosabatlar majmui bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Valyuta kurslari dinamikasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlari darajasi;

- pulning real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflyasiya darajasi;

- valyutalarga talab va taklifga ta’sir ko‘rsatuvchi to‘lov balansi holati;

- mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;

- valyutaga jahon bozoridagi ishonch va x.k.

Nazariy jihatdan valyuta kurslarining tebranishini tuShuntirish, xarid qilish layoqatinig paritet nazariyasi yordamida beriladi (G.Kassel tomonidan isbotlab berilgan). Bu nazariyaga ko‘ra kursli nisbatlarni aniqlab berish uchun ikki mamlakat iste’molchilik tovarlari shartli “savati” baholarni taqqoslash talab qilinadi. Masalan, agar O‘zbekistonda bunday savat, aytaylik 5000 so‘m, AQSH da esa 10 dollar tursa, 5000 so‘mni 10 ga bo‘lib 1 dollarning bahosini xosil qilamiz, bu 500 so‘mga teng ekan. Agarda O‘zbekistonda muomaladagi pul massasining ko‘payishi natijasida, tovarlar bahosi ikki marta oshsa, AQSHda hammasi o‘zgarishsiz qoladi va hamma sharoitlar teng bo‘lganda dollarning so‘mga nisbatan ayirboshlash kursi ikki martaga oshadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosan giperinflyasiya ro‘y byerganda xarid layoqatining paritet nazariyasi kurs nisbatlarini oldindan aytish imkonini beradi. Valyuta kurslarining o‘zgarishi eksport mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar imkoniyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, agarda AQSH bir dollari 2,5 nemis markasiga ayirboshlansa Germaniya uchun maishiy elektronika ishlab chiqaruvchi Amerika eksportyorlarining tushumi, 100 marka 40 dollarga tenglashadi. Valyuta kurslarining 1:1,682 nisbatga o‘zgarishi sotishning o‘zgarmas hajmida tushumning 59 dollarga ko‘payishiga olib keldi.

Valyuta kurslari milliy iqtisodiyotga, ishlab chiqarish va undagi bandlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Milliy valyutalar kursining pasayishi mamlakatlar eksport imkoniyatini oshiradi. Ammo mamlakat eksporti xom ashyo tovarlari importiga asoslansa, bunda valyutalar kursining pasayishi eksport qilinadigan tovarlar bahosining o‘sishiga olib keladi va bu ularning raqobatga layoqatliligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Valyuta kurslarining oshishi mamlakatlar eksport imkoniyatlarini yomonlashtiradi. Valyuta kurslarining beqarorligi tashqi iqtisodiy aloqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uning tebranishi xalqaro bitimlarda noaniqlik va taxlika darajasini ko‘paytiradi. Shu sababli valyuta kursi ham mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda tartibga solishning muhim obyekti hisoblanadi. Davlat bevosita tartibga solish

vositasi sifatida valyutali intervensiya va diskont siyosatidan foydalanish mumkin.

Diskont - banklar tomonidan olinadigan foiz. Bank foiz hisob stavkasini oshirib yoki tushurib chet el kapitallari kirishi yoki chiqib ketishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tartibga solishning ko'proq universal usuli valyutali intervensiya hisoblanadi. Bunda markaziy banklar taklifi yetarli bo'lmagan, kurs esa yuqori bo'lgan chet el valyutalarini sotadi, taklif ortiqcha va kurs past bo'lganda sotib oladi. Bu bilan talab va taklifni tenglashtirib, milliy valyuta kursi tebranish chegarasini cheklaydi. Valyutali intervensiyani qo'llash zaxira valyuta fondining miqdori bilan cheklanadi, shu sababli valyutalarni sotish albatta uni sotib olish bilan almashtirib turilishi lozim.

Bundan tashqari inflyatsiyaning yuqori sur'atida valyutalar kursi valyuta xarid qilish kuchlari nisbatining o'zgarishi tufayli pasayadi. Bu holda valyutali intervensiya mazkur mamlakat **valyuta devalvatsiyasi** (kursning rasmiy o'sishi) bilan birga borishi zarur.

17.3. Valyuta kursini aniqlovchi omillar

Valyuta kursi bir mamlakat valyuta bahosining boshqa mamlakat valyutasida ifodalanishini ko'rsatadi. Valyuta kurslarining ikkita bir-biriga qarama-qarshi variantlari mavjud bo'ladi:

1) milliy valyutalarning bir-biriga ayirboshlash kursi, talab va taklif bilan aniqlanadigan egiluvchan yoki suzib yuruvchi valyuta kurslari tizimi;

2) qattiq qayd qilingan valyuta kurslari tizimi. Bunda valyuta kurslari talab va taklif tebranish natijasida o'zgarishga chet el valyutalari bozorining amal qilishga davlatning aralashuvi yoki boshqa mexanizmlar qarshilik ko'rsatadi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari talab va taklif ta'siri ostida aniqlanadi. Amerika dollari Britaniya funt sterlingiga ayirboshlanishi mumkin bo'lgan kurs yoki bahoni qarab chiqamiz. Funtga amerikaliklarning tushib boruvchi talabi shuni bildiradiki, ular uchun funt va demak Britaniya tovarlarining barcha turlari arzon bo'ladi. Amerikaliklar uchun funtning taklifi o'ssa, dollardagi funtning ancha yuqori bahosida britaniyaliklar ko'proq miqdordagi Amerika tovarlarini

sotib olishni xohlaydi. Amerika tovarlarini sotib olish uchun britaniyaliklar funtni valyuta bozoriga tashlaydi, chunki ular avvolo funtni dollarga ayirboshlashi zarur bo‘ladi. Erkin bozor kuchlari ta’sirida o‘rnatiladigan valyuta kurslari o‘zgarib turadi. Funtning dollardagi bahosi oshganda dollarning qiymati pasayadi yoki dollar funtga nisbatan qadrsizlanadi. Aksincha funtning dollardagi bahosi pasayganda dollarning qiymati oshadi yoki dollar funtga nisbatan qimmatlashadi.

Valyuta kurslarining o‘zgarishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ularni qisqacha qarab chiqamiz.

1. **Iste’molchi dididagi o‘zgarishlar**. Iste’molchilarning boshqa mamlakat buyumlariga dididagi o‘zgarishlar, bu mamlakat valyutasiga talab yoki taklifni hamda uning valyuta kursini o‘zgartiradi.

2. **Daromadlardagi nisbiy o‘zgarishlar.** Agar bir mamlakatda milliy daromadning o‘sishi, boshqa mamlakatdagi bu ko‘rsatkichning o‘sishidan ustun bo‘lsa, bunda uning valyuta kursi pasayadi. Mamlakatning importi uning daromadi darajasiga to‘g‘ri bog‘liqlikda joylashadi.

3. **Bahodagi nisbiy o‘zgarishlar.** Agar bir mamlakat, masalan, AQSH ichki baho darajasi tez o‘ssa, boshqa mamlakat, masalan Buyuk Britaniyada bu daraja o‘zgarishsiz qolsa, bunda amerikalik iste’molchi nisbatan arzon Britaniya tovarini izlaydi va shu bilan funtga talabni oshiradi. Aksincha britaniyaliklar Amerika tovarlarini sotib olishga kam moyil bo‘ladi va bu funt taklifini pasaytiradi. Funtga talab o‘sishi va taklif pasayishining bu uyg‘unlashuvi dollarlarning qadarsizlanishini keltirib chiqaradi.

4. **Nisbiy real foiz stavkalari**. Faraz qilamiz, AQSH inflyatsiyani quvib o‘tish maqsadida “ qimmat pul” siyosatini amalga oshira boshlaydi. Natijada, real foiz stavkalari (inflyatsiya sur’atini hisobga olib korrektirovka qilingan foiz stavkalari) AQSHda boshqa mamlakatlar, masalan Buyuk Britaniyaga qaraganda ko‘tariladi. Britaniyalik jismoniy shaxs va firmalar ishonch hosil qiladiki, AQSH moliyaviy vositalarni qo‘yish uchun juda jozibador va qulay joyga aylanadi. Amerika moliyaviy aktivlariga talabning bu ko‘payishi Angliya funti taklifning kengayganligi va shu sababli dollar qiymati o‘sganligini bildiradi.

5. **Olib-sotarlik**. Faraz qilamiz, AQSH iqtisodiyotida quyidagilar kutiladi

a) Britaniyanikiga qaraganda tez o‘sa boshlaydi;

b) Britaniyanikiga qaraganda ancha kuchli inflyatsiyaga duch keladi;

c) Britaniyaga qaraganda ancha past real foiz stavkalariga ega bo‘ladi.

Bu prognozlar kelajakda dollar kursi pasayishi, funt kursi esa, aksincha ko‘tarilishidan darak beradi. Demak, dollarni ushlab turuvchilar ularni funtga aylantirishga harakat qiladi va Shu bilan funtga bo‘lgan talabni oshiradi. Bu almashish, dollar kursining pasayishini va funt kursining oshishini keltirib chiqaradi.

17.4. Valyuta kursini aniqlash

Barcha xalqaro bitimlar valyutalarni ayirboshlash bilan olib boriladi va har qanday ayirboshlashda bo‘lgani kabi valyuta bahosining yoki valyuta kursini aniqlash zaruriyati paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, **valyuta kursi** - bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligida ifodalangan bahosidir. Valyuta kursini o‘rganish **kotirovkalash** deb ataladi. U to‘g‘ri va teskari kotirovkalashga ajratiladi. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko‘rsatilsa, bunga **to‘g‘ri kotirovkalash** deb ataladi. Masalan 1 AQSH dollari 23 so‘mga, 1000 Rossiya rubli 72 so‘mga teng va hokazo.

Teskari kotirovkalashda milliy valyutaning bir birligiga to‘g‘ri keladigan xorijiy valyutaning miqdori o‘rnatiladi. Masalan, 1 o‘zbek so‘mi 0,004348 AQSH dollariga to‘g‘ri keladi. Dunyoning ko‘p mamlakatlarida shu jumladan O‘zbekistonda ham to‘g‘ri kotirovkalash qabul qilingan.

Valyuta bozoridagi talab va taklifni solishtirish natijasida valyutaning bahosi yoki kursi aniqlanadi. O‘zbek so‘mining kursi O‘zbekiston valyuta birjasida o‘rnatiladi, uning ishtirokchilari bo‘lib valyuta operatsiyalarini olib borish huquqiga ega bo‘lgan banklar hisoblanadi.

Shu bilan birga, turli pul birliklari uchun valyuta kurslarini o‘rnatish jarayonida bozor kuchlarini ta’sir etish darajasi bir xil emas. Bu ta’sir kuchiga bog‘liq hamda kurslari erkin suzib yuruvchi, cheklangan suzib yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslariga ajratiladi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi shu valyutaga bo‘lgan bozor talabi va taklifi ostida yerkin o‘zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSH dollari, yapon yeni, ingliz funt sterlingi kurslari. Shu bois, bu valyutalar jahon valyuta ayirboshlashida ko‘proq ishlatiladi.

Cheklangan suzib yuruvchi valyuta kursi uning o‘zgarishi ayrim xorijiy valyutalar yoki valyutalar to‘plami kurslari o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lishini ko‘zda tutadi.

Qayd etilgan valyuta kursi, bu xorijiy valyutada ifodalangan davlat tomonidan rasmiy o‘rnatilgan milliy pul birligining bahosi bo‘lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o‘zgarishi ta’sir qilmaydi.

Valyuta kursining eksport va importga ta’siri. Valyuta kursining tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchlarning mamlakatlararo harakatini o‘ziga xos boshqarib turuvchisi hisoblanib uni o‘zgarib turishi mamlakatning tashqi iqtisodiy oborotiga hamda butun makroiqtisodiy vaziyatga kuchli ta’sir qiladi. Bu ta’sirni shunday vaziyat misolida ko‘rib chiqish mumkin.

Masalan, o‘zbek so‘mining kursi 1000 Rossiya rubliga nisbatan 7,2 so‘mdan 10 so‘mgacha pasaygan bo‘lsin, ya’ni so‘m Rossiya rubliga nisbatan arzonlashgan va aksincha, rubl so‘mga nisbatan qimmatlashgan bo‘lsin. Bunday holatda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan 720 so‘mlik qiymatga ega bo‘lgan tovar Rossiya bozorida arzonlashib boradi va endi bu tovar 100 ming Rossiya rubliga (720\7,2*1000) emas, balki 72 ming rubl turadi (720\10*1000). Natijada tovarning raqobatga chidamliligi orta boradi va unga bo‘lgan talab oshadi, eksport rag‘batlantiriladi. Biroq milliy valyutani Rossiyaga chiqarish O‘zbekiston uchun foydali bo‘lmay qoladi. Rossiyada ishlab chiqarilgan 2000 rubllik mahsulot endi o‘zbek so‘mi kursining pasayishini va Rossiya rubli kursining qimmatlaShuvi natijasida o‘zbek bozorida 14,4 so‘m (2000 x 7,2\1000) emas, balki 20 so‘m (2000x 10\1000) turadi.

Ko‘rinib turibdiki, mahsulot narxi qimmatlashadi va shu sababli uni olib kelish qisqarib boradi, va aksincha, o‘zbek so‘mining kursi oshib borishi bilan Rossiyadan tovar olib kelish va kapitalni chetga chiqarish foydali bo‘ladi.

17.5. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valyuta kursiga ta’siri

Importga tarif yoki kvotalar joriy qilish siyosati sof eksportning oshishiga olib keladi.

Demak, mamlakat ichki bozorini chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida olib borilayotgan savdo siyosati joriy operatsiyalar hisobi va kapital harakati hisobiga ta’sir qilmaydi. Ammo, u real valyuta kursi tengligini oshiradi va tashki savdo miqdorini kamaytiradi.

Nominal va real valyuta kurslari o‘rtasidagi nisbat quyidagicha aniqlanadi:

$$Yer = En \times (Pd/Pt)$$

Bu yerda, **Yer – real valyuta kursi, En – nominal valyuta kursi, Pd – milliy valyutada ko‘rsatilgan ichki narxlar darajasi (indeksi), Pt- xorijiy valyutada ko‘rsatilgan chet eldagi Baholar darajasi (indeksi).**

Ushbu tenglama ko‘rsatyaptiki, real valyuta kursining ko‘tarilishi (pasayishi) bu mamlakat tovarlari raqobatbardoshligining pasayganligi (oshganligi) to‘g‘risida guvohlik beradi.

Iqtisodiy nazariyaning asosiy farazlaridan biri, bir xil darajadagi narx qonuni olinadi. Ya’ni, bir xil tovar turli joylarda har xil narxlarda sotilishi mumkin emas. Agarda Farg‘onada bir kilogramm go‘sht Toshkentdagiga nisbatan arzon sotilsa, uni Farg‘onadan sotib olib kelib, Toshkentga sotish natijasida foyda olish mumkin. Bunday vaziyatlardan olib sotuvchilar hamma vaqt foydalanishga tayyor turishadi. Bu esa, Farg‘onada go‘shtning narxi oshishiga, Toshkentda esa tushishiga olib keladi va ikkala bozorda ham narxlar tengligiga erishiladi.

Bir xil narxlar qonunini xalqaro bozorlarda qo‘llash sotib olish qobilyatidagi tenglik (paritet) nomini olgan. Ya’ni, agarda xalqaro bozorlarda olib sotarlar faoliyat ko‘rsatsa, dollar barcha mamlakatlarda

bir xil sotib olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Buni quydagicha tushuntirish mumkin: Agarda, dollarga mamlakat ichida chet mamlakatlarga nisbatan ko‘proq mahsulot sotib olish mumkin bo‘lsa, u xolda mamlakat ichkarisida sotib olingan mahsulotni chetga sotish orqali foyda olish mumkin. Foyda ketidan quvgan olib sotarlar ichki narxlarni tashqi narxlarga tenglashtiradi. Shunday qilib, halqaro olib sotarlar faoliyati turli mamlakatlarda narxlarning tenglanishiga olib keladi.

Biz sotib olish qobiliyati tengligi (paritet) konsepsiyasini real almashtirish kursi modelida ifodalashimiz mumkin. Xalqaro olib sotarlarning tez harakatlari shuni ko‘rsatyaptiki, sof eksport har qanday o‘zgarishlar natijasida tez o‘zgaradi. Milliy tovarlar narxining chet tovarlarga nisbatan kamayishi yoki boshqacha aytganda real almashtirish kurslarining pasayishi, olib sotarlarni o‘z mamlakatidan tovarlarni sotib olib, chetga sotishga undaydi, yoki, aksincha.

Shunday qilib, sof eksport egri chizig‘i real almashtirish kursiga nisbatan yanada qiyalashadi. Ya’ni, turli mamlakatlar valyutalarining sotib olish qobiliyatini tenglashtiradi, real almashtirish kurslaridagi har kanday o‘zgarishlar esa sof eksport miqdorida o‘zgarishlarga olib keladi.

Xarid qobiliyati pariteti konsepsiyasiga ko‘ra valyuta kursi doimo turli mamlakatlarda baholar darajasining o‘zgarishi natijasida kelib chiqadigan farqni qoplash uchun zarur bo‘lgan darajada o‘zgaradi, ya’ni:

$$\mathbf{r = Pd/Pt}$$

Bu yerda, **r – xorijiy valyutaning milliy valyutadagi bahosi.**

Sotib olish qobiliyati tengligi (paritet) konsepsiyasidan ikkita asosiy xulosa kelib chiqadi

Birinchidan, sof eksport egri chizig‘i qiyalikdan iborat. Jamg‘arma va investitsiyalar miqdorining o‘zgarishi nominal yoki real almashtirish kurslariga yetarlicha ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, real, qayd qilingan, nominal almashtirish kursidagi barcha o‘zgarishlar narxlar darajasi natijasidagi o‘zgarishlardan kelib chiqadi.

Mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar kuchaygan sari pul vositalari ayirboshlashi ham tobora oshib boradi, o‘zaro hisob-kitoblarda nomutanosiblik muammolari paydo bo‘ladi. Bularning barchasi jahon valyuta tizimining barpo etilishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratadi. Buning asosiy maqsadi esa mamlakatlar o‘rtasidagi barcha turdagi bitimlarni amalga oshirishni tartibga solishdan va shuningdek, bu ishlarni tezlashtirishdan iborat.

Umuman olganda, milliy valyuta tizimi bazasida jahon bozori rivojlanishi tarkib topadigan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish sharti bo‘lgan jahon valyuta tizimi tashkil topadi.

Qisqacha xulosalar

1. Mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar kuchaygan sari pul vositalari ayirboshlashi ham tobora oshib boradi, o‘zaro hisob-kitoblarda nomutanosiblik muammolari paydo bo‘ladi. Bularning barchasi jahon valyuta tizimining barpo etilishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratadi. Buning asosiy maqsadi esa mamlakatlar o‘rtasidagi barcha turdagi bitimlarni amalga oshirishni tartibga solishdan va shuningdek bu ishlarni tezlashtirishdan iborat. Umuman olganda milliy valyuta tizimi bazasida jahon bozori rivojlanishi tarkib topadigan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish sharti bo‘lgan jahon valyuta tizimi tashkil topar ekan.

2. Xalqaro valyuta yoki xalqaro to‘lov-hisob va kreditlash vositalariga javob berishi kerak bo‘lgan talab ularning konvertirlashuvi deb hisoblanadi. Valyuta konvertirlashuvi deganda uni boshqa xorijiy valyutalarga almashish qobiliyati tushuniladi. Hozirgi kunda erkin konvertirlanadigan, qisman konvertirlanadigan va konvertirlanmaydigan valyutalar mavjud.

3. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun ehtiyot (zaxira)lardan foydalanish, savdo siyosati, valyutali nazorat va ichki makroiqtisodiy tartibga solish usullaridan keng foydalaniladi.

4. Valyuta kurslarining tebranib turishlarini “Xarid qilish layoqatining paritet” nazariyasi yordamida tushuntirib beriladi. Bu

nazariyaga ko‘ra kursli nisbatlarni aniqlab berish uchun ikki mamlakat iste’mol tovarlari shartli “xaltasi” baholarni taqqoslashni talab qiladi.

5. Valyuta kursi bir mamlakat valyuta bahosining boshqa mamlakat valyutasida ifodalanishini bildiradi. Valyuta kurslarining ikkita bir-biriga qarama-qarshi variantlari mavjud, ya’ni milliy valyutalarning bir-biriga ayirboshlash kursi, talab va taklif bilan aniqlanadigan egiluvchan yoki suzib yuruvchi valyuta kurslari tizimi va qayd qilingan valyuta kurslari tizimlaridan iborat.



Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Valyuta kursi nima va qanday qilib har xil milliy valyutalar bir-biriga almashinadi? Turli xil valyuta kurslari tizimini tahlil qiling va izohlab bering.

2. Valyuta munosabatlarini tartibga solib turuvchi va jaxon valyuta tizimining barqaror faoliyatini ta’minlovchi xalqaro tashkilotlar tizimini bilasizmi?

3. Valyuta bozori tushunchasini izohlang. Milliy valyutalar qanday tartib bilan kotirovkalanadi?

4. Erkin suzib yuruvchi va qayd qilingan valyutalarni izohlang. Paritit nazariyasini tushuntiring.

5. Valyuta kurslarining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni sanab o‘ting. Valyuta kursi qanday aniqlanadi?

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Xalqaro ayirboshlashning barcha shakllariga xizmat qilishga va ularning samarali rivojlanashini ta’minlashga qaratilgan mamlakatlar o‘rtasidagi valyuta munosabatlar yig’indisi bu ……..

A) Milliy valyuta tizimi

B)Jahon puli

C)Jahon valyuta tizimi

D)Valyuta zaxira tizimi

2.Konvertirlashuv bu….?

A) Mamlakatlar o‘rtasida pul va tovar-xizmatlarning ayirboshlanishi

B) Xorijiy rezidentlar o‘rtasida pul ayirboshlar o‘rtasidagi munosabat

C) Mamlakat ichkarisida Milliy valyutani xalqaro valyutaga ayirboshlash yoki aksincha xalqaro valyutani milliy valyutaga ayirboshlash jarayoni

D) Xalqaro valyuta yoki xalqaro to‘lov-hisob va kreditlash vositalariga javob berishga kerak bo‘lgan talab

3. Amaldagi kurs bo‘yicha har qanday boshqa xorijiy valyutaga erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valyuta bu.....?

A) Erkin konvertirlanadigan valyuta

B) To‘liq konvertirlanadigan valyuta

C) Qisman kovertirlanadigan valyuta

D) To‘liq konvertirlanmaydigan valyuta

4. Paritet nazariyasini isbotlagan olim?

A) A.Smith

B) G.Kassel

C) G.Keyt

D) D.Rikardo

5. Diskont nima?

A) Banklar tomonidan beriladigan kredit miqdori ustiqa qo‘yilgan foiz

B) Korxonaning aksiadorlariga to‘lanadigan dividend foizi

C) Banklar tomonidan olinadigan foiz

D) Investitsiyalardan olinadigin foiz

6. Katorivka bu…?

A) valyuta kursini hisoblash

B) milliy valyuta xalqaro valyutaga nisbatini aniqlash

C) valyuta kursini o‘rganish

D) valyuta likvidlikini mustahkamlash

7. Real valyuta kursining ko‘tarilishi mamlakat tovarlari raqobatbardoshligiga qanday tasir ko‘rsatadi?

A) O‘zgarmaydi

B) pasayadi

C) oshadi

D) hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi

8. Valyutani sotish va sotib olish o‘rtasidagi farq nima deyiladi?

A) Spred

B) paritet

C) Divergensiya

D) Ayirboshlash bo‘shlig’i

9. Valyuta devalvatsiyasi to‘gri berilgan qatorni belgilang?

A) Valyuta qiymatining oshishi

B) Mamlakatda iqtisodiy o‘sish sur’atlarining oshishi

C) Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasining o'zgarishi

D) Valyuta qiymatining pasayishi

10. Valyuta intervensiyasi nima?

A) Valyuta kurslarining xalqaro miqyosda o‘zgarishi jarayoni

B) mamlakat markaziy bankining valyuta bozoriga va valyuta kursita chet el valyutasining katta summasini sotib olish yo‘li bilan aralashuvi.

C) Oltinni zaxira valyuta sifatida ishlatish

D) Iqtisodiyotda tovar va xizmatlar narxlarini barqarorlashtirish jarayoni.

XVIII bob. OCHIQ IQTISODIYOTDA MAKROIQTISODIY SIYOSAT

Mendell – Fleming modeli

18.1. Yopiq va ochiq iqtisodiyot tushunchasi

Har bir mamlakat xalqaro iqtisodiy aloqalarga kirishadi. Bu jarayonda boshqa davlatlar bilan tovarlar, xizmatlar, axborotlar, kapital va ishchi kuchlarini o‘zaro ayirboshlaydi. Mamlakat iqtisodiyotining ochiqlik darajasi bunday aloqalarning rivojlanish ko‘lamiga qarab aniqlanadi.

Ochiq iqtisodiyot bu shunday iqtisodiyotki, unda mamlakatning barcha fuqarolari halqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan xolda amalga oshirishlari mumkin. Biroq, shunday mamlakatlar ham borki, ular o‘z qobig‘iga o‘ralib qolgan. Masalan, sobiq SSSR ikkinchi jahon urushiga qadar shunday holatda edi.

Ammo, makroiqtisodiy tahlil va istiqbolni belgilashda foydalaniladigan modellarda shartli tarzda bunday mavhumliklarga yo‘l qo‘yiladi.

Yopiq iqtisodiyot modelida tovarlar, xizmatlar va kapital oqimlari milliy chegaralardan tashqariga chiqmaydi hamda unda asosiy makroiqtisodiy ayniyat quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$U=S+I+G$$

Bunda: **U-milliy mahsulot, daromad;**

S - uy xo‘jaliklarining o‘z mamlakatidagi mahsulotlarni xarid qilishga sarflangan iste’mol xarajatlari;

I– Shu mamlakat ishlab chiqaruvchilarining o‘z mamlakati investitsiya tovarlariga xarajatlari;

G -davlat tomonidan o‘z mamlakati tovar va xizmatlarini xarid qilish.

Ochiq iqtisodiyotda mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalar mavjud va u milliy iqtisodiyotda tovarlar va daromad harakatida namoyon

bo‘ladi. Asosiy iqtisodiy tenglikka qo‘shimcha ko‘rsatkich kiritilsa, u quyidagi ko‘rinishni oladi.

$$U = S + I + G + X_n$$

Bunda:

X_n -xorijliklarning shu mamlakat ichkarisida ishlab chiqargan tovar va xizmatlarga qilgan xarajatlari bilan xorijda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga ichki xarajatlar o‘rtasidagi, lo‘ndaroq aytganda eksport va import o‘rtasidagi farq. Iqtisodiy adabiyotlarda bu ko‘rsatkich **sof eksport** deb yuritiladi.

18.2. Davlatning iqtisodiy funksiyalari va bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvining zarurligi

Davlatning iqtisodiy vazifalari ko‘p va xilma-xildir. Shuning uchun tahlilimizga asos sifatida davlatning quyidagi iqtisodiy faoliyatlarini qarab chiqamiz.

Birinchidan, davlatning ayrim iqtisodiy vazifalari bozor tizimi rivojlanishini engillashtirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadiga ega. Bu sohaga davlatning quyidagi ikki faoliyatini kiritishimiz mumkin:

1. Bozor tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydigan huquqiy baza va ijtimoiy muhitni ta’minlash;
2. Raqobatni himoya qilish;

Ikkinchi guruh vazifalarini bajarishda davlat bozor tizimi faoliyatini kuchaytiradi va turlaydi. Bu yerda davlatning quyidagi uchta vazifasi asosiy ahamiyatga ega:

1. Daromad va boyliklarni qayta taqsimlash;
2. Milliy mahsulot tarkibini o‘zgartirish maqsadida resurslar taqsimotini tartibga solish;
3. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya’ni, iqtisodiy konyukturaning egiluvchanligi natijasida paydo bo‘ladigan ishsizlik va inflyatsiya darajalarini nazorat qilish hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish.

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun asos bo‘ladigan ayrim xizmatlarni va huquqiy bazani ta’minlash

vazifalarini zimmasiga oladi. Huquqiy bazalarni ta’minlash asosan xususiy korxonalarga haq-huquqlar byerish, xususiy mulkchilikni aniqlash va shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish va shuningdek, boshqa sohalarda namoyon bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotida raqobat asosiy tartibga soluvchi mexanizm hisoblanadi. Bu ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilarni o‘ziga bo‘ysundiradigan yagona kuchdir. Bozor tizimiga bo‘ysunadigan ishlab chiqaruvchilar raqobat natijasida foyda olishni rejalashtiradi. Kimki bu qonunni buzsa, zarar ko‘radi va oqibatda batomom tugatilishi mumkin. Raqobat sharoitida iste’molchi – bu, xo‘jayin, bozor - ularning ta’minotchisi (agenti), korxona esa, ularning xizmatkori hisoblanadi.

Monopoliyaning o‘sishi bu vaziyatni tezda o‘zgartiradi. Monopoliya raqobat bilan almashinar ekan, sotuvchilar bozorga ta’sir qilishi mumkin yoki o‘zlarining manfaatlaridan kelib chiqqan holda narxlarni oshirish orqali mamlakatga zarar olib keladi.

Bozor tizimi rivojlanishi bilan mamlakat aholisi oladigan daromadlar va qiladigan xarajatlar o‘rtasida nomutanosibliklar paydo bo‘ladi. Bu kabi muammolarni hal qilishda davlat asosiy ahamiyatga ega. Ya’ni, davlat jamiyatdagi daromadlar nomutanosibligini kamaytirish vazifasini bajaradi. Bu vazifalar bir nechta siyosiy tadbirlar va dasturlarda o‘z yechimini topgan.

Birinchidan, transfert to‘lovlari orqali yordamga muhtoj, boqimanda, nogiron va ishsizlarni nafaqalar bilan ta’minlaydi.

Ikkinchidan, davlat bozorga aralashuvi orqali daromadlar taqsimlanishini o‘zgartiradi. Fermerlarga kafolatlanadigan baho va minimal ish haqi to‘g‘risidagi qonunchilik davlat aholining ayrim guruhlari daromadlarini tenglashtirish maqsadida bahoni tartibga solib turishiga misol bo‘la oladi. Bundan tashqari aholidan olinadigan daromad soliqlarining foizlar bo‘yicha tabaqalanishi ham kam ta’minlangan aholini qo‘llab-quvvatlash maqsadida olib borilayotgan dasturlardan biridir.

O‘zbekiston hukumatining bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvidan asosiy maqsadi, iqtisodiyotga yangi demokratik usullar

bilan raxbarlik qilish, barcha xorijiy mamlakatlar bilan samarali iqtisodiy integratsiyaga o‘tish, ITT yutuqlaridan samarali foydalanish asosida resurslardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish va aholining turmush darajasini yuksaltirishdir.

18.3. Davlat tomonidan yuritiladigan makroiqtisodiy siyosatlarning ko‘rinishlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat mamlakat iqtisodiyotiga bevosita aralashadi. Davlatning mamlakat iqtisodiyotiga aralashuvi makroiqtisodiy siyosat orqali amalga oshiriladi. Bu siyosatlarga biz asosan quyidagilarni kiritamiz:

1. Byudjet;
2. Pul-kredit;
3. Dotatsiya; subvensiya; subsidiya;
4. Xalq xo‘jaligi balansi;
5. Soliq mexanizmi;
6. Chegaralangan baholar va boshqalar.

Davlat byudjet xarajatlarini (davlat xarajatlari va transfert to‘lovlari) ko‘paytirish yoki qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga aralashadi. Davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari yoki byudjet siyosati tovar va xizmatlarning davlat haridi, YaMMni taqsimlash va qayta taqsimlash, ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar qismidagi mutanosiblikni ta’minlash, ishlab chiqaruvchilarga moliyaviy yordam shakllarini ko‘rsatish, narxlar ustidan nazorat o‘rnatish, eksport va import qilinadigan tovarlarga kvotalar o‘rnatish va shuningdek, mamlakat aholisini himoya qilish maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar majmuasidan iborat.

Pul-kredit siyosati, avvalombor mamlakatda pul massasini tartibga solishga qaratilgan va uning asosiy vazifasi narxlar va real milliy ishlab chiqarish hajmining o‘sishiga mos keladigan pul emmisiyasidan iborat. Bu siyosatning asosiy vositasi Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan hisob stavkasini tartibga solish, tijorat banklarining majburiy ravishda Markaziy bankda saqlaydigan zaxira normasini

o‘zgartirish, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha ochiq bozordagi opyeratsiyalarni yo‘lga qo‘yish va shuningdek, boshqa tadbirlardir.

Davlat tomonidan xo‘jaliklarga ko‘rsatiladigan moliyaviy yordamlar dotatsiya, subvensiya va subsidiya shakllarida olib boriladi.

Dotatsiya - byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan qaytarib olmaslik sharti bilan xo‘jaliklarning zararlarini qoplash, shuningdek, mahalliy byudjetlar mutanosibligini ta’minlash uchun ajratilgan pul mablag‘laridir.

Subvensiya - qat’iy maqsadlar uchun beriladigan dotatsiya turi bo‘lib, undan foydalanish sharti buzilganda ularni qaytarib olish mumkin.

Subsidiyalar - bu, pul yoki natura ko‘rinishidagi yordam turi bo‘lib, byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ko‘rsatiladi. Subsidiyalar bevosita va bilvosita bo‘lishi mumkin. Bevosita subsidiyalarga kapital qo‘yilmalar, ilmiy tadqiqotlar, kadrlarni qayta tayyorlashga ajratilgan mablag‘lar kirsa, bilvosita subsidiyalarga soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlarda kreditlar berish, pasaytirilgan bojxona bojlari va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari davlat aholini davlat transfertlari ko‘rinishida ximoya qiladi.

Balans - bu, ikki qismdan iborat bo‘lgan iqtisodiy hisob-kitobdir. Birinchi bo‘limda, resurslarni tashkil etish manbalari, ikkinchisida ulardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatiladi. Ikki bo‘limning bir - biriga tengligi resurslar va ular iste’moli mutanosibligini bildiradi. Balanslar - moddiy balanslar, mexnat balanslari, moliyaviy balanslarga, shuningdek, hisobot va reja balanslariga bo‘linadi.

Balanslar yordamida xalq xo‘jaligi tarmoqlari, turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatlari hamda moddiy va moliyaviy bo‘limlar harakati o‘rtasidagi bog‘liqlik ta’minlanadi.

Balanslarning eng asosiylaridan biri xalq xo‘jaligi balansi hisoblanadi. Bu balans jadvallar tizimi bo‘lib, unda milliy iqtisodni rivojlanish ko‘rsatkichlari, ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning hajmi va o‘sish sur’atlari, jamg‘arish va iste’mol fondlari, ishlab chiqarish vositalarini va iste’mol buyumlarini ishlab chiqarish, aholining

pul daromadlari va ularni mahsulotlar bilan ta’minlash va boshqalar o‘rtasidagi asosiy nisbatlar o‘rin oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ko‘p qirrali soliqlar tizimidan foydalaniladi. Aholi davlat byudjetiga har oyda olgan daromadlariga qarab daromad solig‘i to‘laydi, korxonalar esa olgan foydasiga qarab foydadan soliq to‘laydilar. Shu kabi juda ko‘p mavjud soliq turlaridan oqilona va ilmiy asosda foydalanish orqali davlat soliq tizimi siyosatini, soliq stavkalari miqdorlarini va imtiyozlari turlarini aniqlaydi va shu bilan butun makroiqtisodiy vaziyatga ta’sir ko‘rsatadi.

Ya’ni, soliqlarni o‘zgartirish orqali investitsiyalar va jamg‘armalar rag‘batlantiriladi.

Davlat bozor tizimining faoliyat ko‘rsatishida baho mexanizmidan, xususan, chegaralangan baholardan keng foydalanadi. Jumladan, chegaralangan baholar aholini himoya qilish maqsadida ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga belgilangan. Chegaralangan baho uning xaqiqiy qiymatlaridan bir necha barovariga kam bo‘lishi mumkin. Davlat chegaralangan bahoni bozor bahosidan yuqori va kam belgilashi mumkin.

Qayd etilgan narxlar davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari tizimida alohida o‘rin tutadi. Bozor tizimida narxlar talab va taklifni tartibga soluvchi asosiy vosita hisoblansada, biroq dunyoning barcha mamlakatlarida davlat narxlarni shakllantirish jarayoniga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

18.4. Resurslar va daromadlarni ijtimoiy manfaatlarni e’tiborga olgan holda qayta taqsimlash

Tovar va xizmatlarning individual iste’moldagi xususiyatlarini qarab chiqadigan bo‘lsak, avvalo, bu tovarlar ma’lum bir miqdorda bo‘ladi. Ya’ni, ular individual sotib oluvchilar uchun qulaydir. Bundan tashqari bu tovarlarni sotib oluvchilar tovar qiymatiga mos ravishda narxlarni to‘lasagina unga ega bo‘lishi mumkin, aks holda ushbu tovardan olish mumkin bo‘lgan imkoniyatga ega bo‘lmaydi.

Ayrim turdagi tovar va xizmatlarni, xususan, davlat yoki ijtimoiy manfaat deb ataladigan tovarlarni bozor tizimi umuman ishlab

chiqarishni mo‘ljallamagan, chunki, ularning xususiyatlari individual iste’molchilarga mo‘ljallangan tovarlarning xususiyatlariga teskaridir. Bundan tashqari, ijtimoiy manfaatlar bo‘linmaydi va ularni individual iste’molchilarga sotish mumkin emas. Masalan, bunday tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga davlat ximoyasi, suv toshqinlarini tartibga solish, xasharotlarga qarshi kurash va boshqalar. Jamiyat ushbu xizmatlardan manfaaat olish uchun ularni davlat ishlab chiqarishi kerak.

Shunday xizmat turlari ham mavjudki, ularga qandaydir miqdorda narx belgilash mumkin. Masalan, ko‘cha va avtomagistrallar, militsiya va yong‘inga qarshi kurash, kutubxona va muzey, profilaktik tibbiy xizmatlar va boshqalar.

Demak, bozor tizimidagi baho ijtimoiy manfaatlarni ko‘zlab ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga bo‘lgan resurslarni ajratmas ekan, u holda ularni ishlab chiqarish mexanizmi qanday olib boriladi?

Ushbu tovar va xizmatlarning ishlab chiqarishga zarur bo‘ladigan resurslar taqsimoti asosan davlat orqali guruh yoki jamoa qarorlarida qabul qilinadi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, demokratik davlatlarda siyosiy usul, ya’ni, ovoz berish orqali aniqlanadi. Ijtimoiy manfaatlar iste’molining hajmi davlat siyosatini bildiradi. Siyosiy jabhalarda qabul qilingan bu guruh qarorlari uy xo‘jaliklari va korxonalarining beshta funtamental savollarga bergan javoblariga qo‘shimcha bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy manfaatlarining ishlab chiqarish uchun shaxsan individual iste’moldagi qanday resurslar qayta taqsimlanadi? To‘liq bandlik sharoitida faoliyat ko‘rsatayotgan iqtisodiyotda davlat oldida ijtimoiy manfaatdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun individual iste’moldagi tovarlarning ishlab chiqarishdan resurslarni ajratish muammosi turadi. Bunda xususiy tarmoqdan tovarlarni ajratib olish uchun xususiy talab qisqartiriladi. Bunga asosan uy xo‘jaliklari va korxonalardan soliqlarni olish orqali erishiladi. Uy xo‘jaliklari va korxonalar kam daromad olish natijasida o‘zlarining investitsion va iste’mol xarajatlarini kamaytirishadi. qisqacha aytganda, soliqlar xususiy iste’moldagi tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni qisqartiradi, bu o‘z navbatida, resurslarga xususiy talab qisqarishiga olib keladi.

Davlat bu soliqlarni taqsimlashda ijtimoiy manfaatdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni e’tiborga oladi.

18.5. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining monetar yo‘nalishlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi yanada oshadi. Xususan, davlat iqtisodiyotga kredit tizimi orqali faol ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Bunda ssudaga beriladigan pul miqdorini o‘zgartirish uchun foiz vositasidan foydalanadi. Ma’lumki, kredit munosabatlarida Markaziy bank markaziy zaxira tizimi vazifasini o‘taydi va ular davlat ta’sirida bo‘ladi. Davlat kreditga bo‘lgan talab va taklifni markaziy zaxira tizimi orqali o‘zgartiradi. Ushbu jarayonni uch xil yo‘l bilan amalga oshiradi.

Birinchidan, davlat markaziy zaxira tizimi orqali banklar mablag‘ining qarzga beriladigan va zaxirada turadigan qismlari ulushini o‘zgartiradi. Zaxira oshirilsa, kreditga beriladigan mablag‘ qisqaradi va aksincha, zaxira kamaytirilsa, mazkur mablag‘ ko‘payadi. Natijada qarzga beriladigan pul miqdori o‘zgaradi, ya’ni pul ko‘paysa uning taklifi oshadi, binobarin foiz kamayadi, aksincha, u qisqarganda, taklif kamayadi, demak, foiz oshadi. Foizning kamayishi kreditni arzonlashtiradi, unga intilishni kuchaytiradi, olingan qarz esa investitsiya qilinib, iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Foizning oshishi kreditni qimmatlashtirib, unga bo‘lgan qiziqishni kamaytiradi, binobarin, investitsiya qisqaradi va natijada iqtisodiy o‘sish kamayadi.

Ikkinchidan, markaziy zaxira tizimi o‘zi boshqa banklardan oladigan foizlarni o‘zgartiradi. U boshqa banklarga past foiz hisobidan qarz berib, ularga moliyaviy yordam ko‘rsatadi. Imtiyozli qarz olish banklarga quvvat berganidan ular kreditlash ishida faol qatnashib, iqtisodiy o‘sishga ta’sir eta oladilar.

Uchinchidan, davlat markaziy zaxira tizimi orqali xazina veksellarini (majburiyatlarini) tarqatadi, o‘z zayomlarini sotadi yoki qimmatli qog‘ozlarni sotib oladi. Davlat veksellarni banklarga yoki boshqa moliya tashkilotlariga sotish orqali ularning mablag‘ini o‘z ixtiyoriga olib, qarzga beriladigan pul miqdorini qisqartiradi.

Veksellarni xarid etish orqali esa davlat ularning qarz puli miqdorini oshiradi. Natijada qarzga taklif etilgan pul miqdori o‘zgarib, foizga ta’sir etadi, binobarin, qarzga olinib, ishlab chiqarishda foydalanilayotgan pul miqdori ko‘payib yoki kamayib turishi iqtisodiyotga ta’sir etmasdan qolmaydi.

Davlatning pulga bo‘lgan talab va taklifni o‘zgartirish borasidagi siyosati monetar siyosat deb yuritiladi. Ushbu siyosatni o‘tkazish orqali davlat iqtisodiyotni tartibga solib turadi. Bundan tashqari davlat antiinflyatsion tadbirlar bilan ham iqtisodiyotga aralashadi. Ya’ni, inflyatsiyani yumshatish uchun ish haqi va narxlarni tutib turish, «muzlatish» yo‘lidan foydalanadi.

Iqtisodiyotni tartiblash vositalaridan yana biri davlat tomonidan iqtisodiyot kelajagini oldindan taxminlash (prognozlash) va uni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish hamda xayotga tatbiq etish hisoblanadi. Davlat buyurtmasiga asosan uzoq va qisqa muddatlarga mo‘ljallangan prognozlar tuziladi. Prognozlarda resurslar, texnologiya, ichki bozor hajmi va tarkibi, eksport va import, davlat xarajatlari, ishlab chiqarish tarkibidagi o‘zgarishlar, matematik modellar asosida hisob-kitob qilinadi va iqtisodiyotning qaysi yo‘nalishda rivojlanishi aniqlanadi.

Qisqacha xulosalar

Ochiq iqtisodiyot bu shunday iqtisodiyotki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan xolda amalga oshirishlari mumkin.

Ochiq iqtisodiyot bu shunday iqtisodiyotki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan holda amalga oshirishlari mumkin.

Davlatning iqtisodiy vazifalari ko‘p va xilma-xildir ularning asosiylari quyidagilardir.

Birinchidan, davlatning ayrim iqtisodiy vazifalari bozor tizimi rivojlanishini yengillashtirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadiga ega. Bu sohaga davlatning quyidagi ikki faoliyatini kiritishimiz mumkin:

1. Bozor tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydigan huquqiy baza va ijtimoiy muhitni ta’minlash;

2. Raqobatni himoya qilish;

Ikkinchi guruh vazifalarini bajarishda davlat bozor tizimi faoliyatini kuchaytiradi va turlaydi. Bu yerda davlatning quyidagi uchta vazifasi asosiy ahamiyatga ega:

1. Daromad va boyliklarni qayta taqsimlash;

2. Milliy mahsulot tarkibini o‘zgartirish maqsadida resurslar taqsimotini tartibga solish;

3. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya’ni, iqtisodiy konyukturaning egiluvchanligi natijasida paydo bo‘ladigan ishsizlik va inflyatsiya darajalarini nazorat qilish hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish.

Davlatning mamlakat iqtisodiyotiga aralashuvi makroiqtisodiy siyosat orqali amalga oshiriladi. Bu siyosatlarga biz asosan quyidagilarni kiritamiz:

1. Byudjet;
2. Pul-kredit;
3. Dotatsiya; subvensiya; subsidiya;
4. Xalq xo‘jaligi balansi;
5. Soliq mexanizmi;
6. Chegaralangan baholar va boshqalar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ochiq iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. Ochiq iqtisodiyotda mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalar mavjudmi.
3. Davlatning iqtisodiy vazifalarini izohlang
4. Davlat tomonidan yuritiladigan makroiqtisodiy siyosatlarning ko‘rinishlari?
5. Davlat tomonidan xo‘jaliklarga ko‘rsatiladigan moliyaviy yordamlar qaysilar?
6. Balans deganda nimani tushunasiz?
7. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining monetar yo‘nalishlari izohlang.

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Yopiq iqtisodiyotning makroiqtisodiy ayniyati berilgan qatorni belgilang?

A) U=S+I+G

B) $Y=C+I+G+X_n$

C) $YAIM=C+I+G+X_p$

D) SMD=YAIM+I

2. Eksport va import o‘rtasidagi farq bu……?

A) Sof import

B) Sof eksport

C) Sof Yalpi ichki mahsulot

D) Sof import saldosi

3. Bozor tizimi faoliyatini kuchaytirish va kengaytirishda nechta asosiy vazifadan foydalaniladi?

A) 3 ta

B) 2 ta

C) 4 ta

D) 5 ta

4. Bozor iqtisodiyotini tartibga soluvchi asosiy mexanizm bu….?

A) Narx siyosati

B) Qonun ustovorligi

C) Qonun ijrosi

D) Raqobat

5. Pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi tashkilot bu…..?

A) Moliya vazirligi

B) Oliy Majlis

C) Markaziy Bank

D) Parlament

6. Qat’iy maqsadlar uchun beriladigan dotatsiya turi bo‘lib, undan foydalanish sharti buzilganda ularni qaytarib olish mumkin bo‘lgan moliyaviy yordam bu….?

A) Subvensiya

B) Subsidiya

C) Kredit

D) Dotatsiya

7. Subsidiyalar nechi xil bo‘ladi?

A) 3 xil

B) 4 xil

C) 2 xil

D) 5 xil

8. Evaziga hech qanday tovar yoki xizmatlar olinmaydigan davlat xarajatlari (pensiya, stipendiyalar, ishsizlik nafaqasi va boshqalar) bu….?

A) Subsidiya

B) Transfert to‘lovlar

C) Dotatsiya

D) Subsidiya

9. Davlatning pulga bo‘lgan talab va taklifni o‘zgartirish borasidagi siyosati nomi berilgan qatorni toping?

A) Pul-kredit siyosati

B) Moliyaviy siyosat

C) Fiskal siyosat

D) Monetar siyosat

10. ikki qismdan iborat bo‘lgan iqtisodiy hisob-kitob bu…?

A) Moliyaviy natija

B) Xususiy kapital va Majburiyat

C) Balans

D) Foyda va zarar.

XIX bob. RAQAMLIN IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY JARAYONDAGI AMALIY MOHIYATI

19.1. Raqamli iqtisodiyotning mazmun mohiyati

Avvalombor iqtisodiyot fanining ta’rifini eslaylik. Ma’lumki iqtisodiyot ijtimoiy fan bo‘lib, u insonlarning tanqis resurslar (kapital, mehnat, yer, xom ashyo va boshq) dan jamiyat a’zolarining o‘sib borayotgan moddiy noz-ne’matlar, xizmatlar va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish bilan shug‘ullanuvchi fandir.

Barcha mavjud resurslar cheklangan va tanqis deb qaraladi, chunki jamiyat miqyosida (xuddi shuningdek bir individ yoki oila miqyosida) har bir konkret davrda insonlarning ehtiyojlari miqdori doimo iqtisodiyotning imkoniyatlaridan yuqori bo‘ladi.Boshqacha qilib aytganda hohish va imkoniyatlar orasida farq bo‘lib, ehtiyojlar imkoniyatlardan ortiqcha bo‘ladi.Ammo bu farq nisbiy ma’noga ega, ya’ni resurslar tanqisligi ularning miqdori o‘zgarmasligidan dalolat bermaydi, bu resurslarni oshirish uchun qo‘shimcha vaqt kerak bo‘ladi, ammo bu davrga kelib ehtiyojlar imkoniyatlarga nisbatan yanada ustuvor o‘sgan bo‘ladi. Agar jamiyat resurslari cheklanmaganda edi, unda iqtisodiyot fani kerak bo‘lmas edi., chunki resurslar tanqisligi ularni samarali taqsimlash, samarali qo‘llashni, tejashni taqozo etadi.Tarixiy rivojlanish natijasida iqtisodiyot fanining maqsad va va vazifalari o‘zgarib bordi: dastlab insonlarning hayotiy zarur bo‘lgan oziq – ovqat, kiyim –kechak, uy joy va buyumlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish ustuvor ahamiyatga, keyinchalik aholining xizmatlarga bo‘lgan talabi ustuvor va nihoyat o‘tgan asrning 80 nchi yillaridan boshlab insoniyatning ilm,ma’rifat va axborotga bo‘lgan talabini qondirishning ahamiyati birinchi o‘ringa qo‘yilaboshladi.Rivojlangan mamlakatlar post industrial jamiyat bosqichiga o‘taboshladi va raqamli iqtisodiyot shakllanib rivojlanishni davom ettirmoqda. Raqamli iqtisodiyotning ta’rifi turlicha, ammo keng tan olingani quyidagicha:

Raqamli iqtisodiyot ko‘p qirrali faoliyat bo‘lib, unda ilm, ma’rifat, raqamli axborot ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida qo‘llaniladi,zaruriy faoliyat maydoni tariqasida zamonaviy axborot

tarmog‘i iqtisodiyot strukturasini optimallashtirish va unumdorlikni oshirishning yetakchi omili tariqasida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalaniladi.

Raqamli iqtisodiyotning xarakterli belgilari shundan iboratki, bu iqtisodiyotda asosiy resurs bo‘lib an’anaviy resurslar(kapital, mehnat,yer va boshq) emas balki ilm, ma’rifat bilan sug‘orilgan, ilm sig‘imi yuqori bo‘lgan axborot oqimlari va ularning innovatsiyalardagi ko‘rinishi barqaror iqtisodiy o‘sish omiliga aylanadi.Boshqacha qilib aytganda iqtisodiy o‘sishda moddiy resurslar emas, balki nomoddiy resurlar (axborot, ilm va ixtirolar,innovatsiyalar) ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi.Moddiy noz-nematlar ishlab chiqarishdan ko‘ra ilm sig‘im yuqori bo‘lgan tavar va xizmatlarni ishlab chiqarishning ahamiyati ortadi. Bu tezis savol to‘g‘dirishi mumkin, insonlar bu iqtisodiyotda moddiy tovarlarni iste’mol qilmaydilarmi, ilm sig‘imi yuqori bo‘lgan tovarlarni iste’mol qilib bo‘lmasligi aniq. Bunga javob shuki albatta insonlarning farovonligini oshirish, barcha moddiy tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ladi.Bu ehtiyojlarni qondirish uchun ketadigan ishlab chiqarish xarajatlari yangi raqamli texnologiyalar va AKT larni qo‘llash hisobiga pasayadi, raqamli iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlari yaratiladi, milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi o‘zgaradi,. xom ashyo va qayta ishlanmagan mahsulotlar eksporti kamayadi, respublikamiz global jahan bozoriga chiqish imkoniyatlari ortadi.

Raqamli texnologiyaga asoslangan iqtisodiyot to‘rtta omil – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, innovatsiyalarni rivojlantirish, ishchi kuchini sifatli o‘zgartish, iqtisodiy yuksalish va aholi farovonligini oshirishga tayanadi. Raqamli iqtisodiyotda axborot tovarga aylanadi va u alohida kapitaldir. Raqamli axborot ijtimoiy tovar hisoblanadi

19.2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida raqamli iqtisodiyotning o‘rni

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va uning faoliyat ko‘rsatishi O‘zbekiston Respublikasi XXI asr da’vatlariga munosib javob qaytarishi

uchun hal etishi lozim bo‘lgan asosiy muammo hisoblanadi. Bu vazifani hal etish nafaqat tabiiy resurslar zaxirasiga boy, balki ulardan samarali foydalanish bo‘yicha rivojlangan mamlakatga aylanish imkonini beradi.

Bu esa milliy iqtisodiyotimizga samarali menejment tizimini joriy etish, turmush sifatini oshirish, jahon xomashyo, texnologik va oziq-ovqat bozorlari kon’yukturasiga bog‘liqlikdan xalos bo‘lishga, baьzan yuz beradigan jahon moliyaviy krizisi taьsiridan xoli bo‘lishga imkon yaratadi

- raqamlini yaratish, ulardan foydalanish qobiliyati jahon maydonida raqobatbardoshlikni belgilaydigan asosiy omilga aylanmoqda;
- innovasion strategiyalar mamlakatlarning globallashuv sharoitida raqobatlashish va rivojlanish qobiliyatini ta’minlashda muhim o‘rin tutmoqda;
- raqamlini yaratish, ulardan foydalanishni ta’minlash va joriy etishning yangi modellari paydo bo‘lmoqda (masalan, resurslardan ochiq foydalanish, raqamli hamjamiyatlari);
- raqamlini jadal qo‘llaydigan tarmoqlarga o‘tish yaxshi rivojlangan qobiliyat va iste’dod muhimligini qayd etadi;
- texnologiyalar imkoniyatlari davlat, biznes va fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlik uslublarini almashtirmoqda. Raqamliga asoslangan iqtisodiyot raqamlidan raqobatbardosh rivojlanishning asosiy “lokomotivi” sifatida foydalanmoqda. Bunday iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashish maqsadida raqamli egallanmoqda, yaratilmoqda, joriy etilmoqda va samarali qo‘llanilmoqda;
- an’anaviy iqtisodiyotdan raqamliga asoslangan iqtisodiyotga o‘tish ta’lim, innovatsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) uzoq muddatli investisiyalar sarflashni, shuningdek, resurslarni samarali yo‘naltirish va joylashtirishni ta’minlaydigan tegishli iqtisodiy hamda institusional sharoitlarni talab etadi.

Ishlab chiqarish har doim turli shakldagi raqamlilikga asoslangan.

Kodifikatsiya qilingan ilmiy raqamlar kelsak, ma’lumki, yangi davr ilm-fani boshidan o‘zining amaliy ahamiyati mafkurasida shakllangan. Insonning “bilim – bu kuch” g‘oyasida o‘z aksini topgan ishlab chiqarish

faoliyatini o‘zgartiradigan dunyoda ilm-fanning yangi roli XVII asrdayoq Frensis Bekon asarlarida qayd etilgan. Raqamli iqtisodiyot uchta muhim xususiyatga ega. Birinchisi, ilmning mahsulot sifatida diskretligi. Aniq ilm shakllangan axborot shaklida yaratiladi. Bilimning yarimta yoki uchdan bir qismi bo‘lishi mumkin emas. Ikkinchi xususiyat, raqamli axborotdan insonlar boshqa ijtimoiy boyliklar singari, istisnosiz foydalanishi mumkin. Uchinchi xususiyat, bu axborot mahsulotidir, axborot esa undan foydalanib bo‘lgach, oddiy moddiy mahsulot kabi yo‘qolmaydi. Chunki:

- raqamli axborotni yaratish, ulardan foydalanish qobiliyati jahon maydonida raqobatbardoshlikni belgilaydigan asosiy omilga aylanmoqda;
- innovasion strategiyalar mamlakatlarning globallashuv sharoitida raqobatlashish va rivojlanish qobiliyatini ta’minlashda muhim o‘rin tutmoqda;
- raqamli axborotni yaratish, ulardan foydalanishni ta’minlash va joriy etishning yangi modellari paydo bo‘lmoqda (masalan, resurslardan ochiq foydalanish, raqamli hamjamiyatlari);
- raqamli axborotni jadal qo‘llaydigan tarmoqlarga o‘tish yaxshi rivojlangan qobiliyat va iste’dod muhimligini qayd etadi;
- texnologiyalar imkoniyatlari davlat, biznes va fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlik uslublarini almashtiradi. Bunday iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashish maqsadida raqamli egallanmoqda, yaratilmoqda, joriy etilmoqda va samarali qo‘llanilmoqda;
- an’anaviy iqtisodiyotdan raqamliga iqtisodiyotga o‘tish ta’lim, innovatsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) uzoq muddatli investisiyalar sarflashni, shuningdek, resurslarni samarali yo‘naltirish va joylashtirishni ta’minlaydigan tegishli iqtisodiy hamda institusional sharoitlarni talab etmoqda.

Globallashgan iqtisodiyot sharoitida axborotning qadri va qimmati oshishi, raqobat muhitining tkeskinlashuvi, tadbirkorlik va biznesni yuritish noaniqlik va risklarning ortishi, tizimli samaradorlikni ta’minlashning murakkabligi, inson va komp’yuter qo‘llashning

muammosi, hayotda va jamiyatda vaqt va talant, yaratuvchanlik rolining ortishi raqamli iqtisodiyotga o‘tishni zarurat qilib qo‘yadi.

Raqamli iqtisodiyotda yashash uchun ikki ko‘nikmani o‘rganishimiz kerak. Birinchisi, foydali axborotni saralashni o‘rganish. Sodda qilib aytganda, ba’zida oddiy narsalarga e’tibor bermasdan, ularga boshqacha ko‘z bilan qarash, lozim bo‘lganda ko‘ngilchan bo‘lish. Bu holatda yangiliklar va jurnallar tahlilchilari hamda sharhlovchilariga ishonish kerak. Ikkinchisi, biz boshqalar uchun saralovchi rolida bo‘lishni o‘rganishimiz lozim. Ilm-fan va ta’lim xodimlari uchun asosiysi, bu biznes yoki kundalik hayotiy voqea bo‘lishidan qat’i nazar, axborotni to‘plash va saralash hamda uni bilim kabi boshqalarga berishni bilish. Ko‘pincha, bir-biri bilan bog‘lanmagan axborotni shunchaki saralash umumqabul qilingan sxemaga uni intellektual mahsulot deyish uchun qo‘shimcha qiymat qo‘shadi. Boshqa hollarda axborotdan boshqalar ilmiy tadqiqot yoki loyiha sifatida foydalanishi uchun unga ishlov beramiz. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) tez sur’atlar bilan rivojlanishi mamlakatimizdagi korxonalar,kichik biznes sub’yektlariga ta’sir o‘tkazibgina qolmay, balki ularning biznes va ish yuritish faoliyatini tubdan o‘zgartirib yuboruvchi va chetlab o‘tib bo‘lmaydigan muhim omillardan biriga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribalari shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlarning erkin ta’minoti bozor iqtisodiga tez sur’atlar bilan o‘tish va jamiyatning ijtimoiy hayotini yaxshilashga ijobiy ta’sir etadi. Internet tarmog‘i va AKT turmush tarzimizga tez sur’atlar bilan kirib kelishiga asoslangan holda shuni ta’kidlash mumkinki, bu kabi yangiliklar va innovatsiyalarni, yangi raqamli majmuasini vaqtida o‘zlashtira olmagan biznes sub’yektlari, hatto mamlakatlar ertangi kunda bozordagi o‘z ulushlarini sezilarli darajada yo‘qotishlari va globallashuv natijasida yuzaga kelayotgan raqobat tufayli inqirozga yuz tutishlari tabiiy.

19.3. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish holati va istiqbollari

O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish Konsepsiyasi va Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasining Konsepsiyasi umumxalq muhokamasiga taqdim etildi. Unda ko‘zlangan maqsad sifatli va qimmat bo‘lmagan internet va mobil aloqasini joriy etish,shahar va qishloq o‘rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish,elektron yozuvlar ustuvorligi va korrupsiyaga qarshi kurashishni kuchaytirishdan. Hozirgi xolat. Internetga ulanish 16,2 million kishi. Davlat xarajatlarida sohaga sarf qilinayotgan mablag‘ 1,5 foizni, rivojlangan mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Shvesiya va boshq) 12 foizni tashkil etadi. AKT larda band bo‘lgan mutaxassislar aholi bandligida atigi 0,5% ni tashkil etadi.Rivojlangan mamlakatlarda u 7 baravar ko‘p.

Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Konsepsiyasi umumxalq muhokamasiga taqdim etildi va batafsil muhokama qilindi.Unda ko‘zlangan maqsad sifatli va qimmat bo‘lmagan internet va mobil aloqasini joriy etish,shahar va qishloq o‘rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish,elektron yozuvlar ustuvorligi va korrupsiyaga qarshi kurashishni kuchaytirishdan iborat. Strategiya mamlakatning raqamli iqtisodiyotini tezkor rivojlantirish va uni shakllantirish, innovasion mahsulotlarga qulay muhitni yaratish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, aholi va tadbirkorlarga qulay davlat xizmatlarini amalga oshirish uchun ishlab chiqiladi va joriy etiladi.

Prezidentimiz murojaatida ta’kidlanganidek aholining moddiy farovonligini oshirish va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish maqsadida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” davlat dasturi tuziladi va unda quyidagilar ustuvor vazifalar sifatida belgilanadi:

1.Raqamli iqtisodiyot infrastrukturasini yaratish, AKT rivojlantirish, “Aqlli shaharlar”, “Xavfsiz shaharlar” loyihalarini amalga oshirish.

2.Inson kapitalini rivojlantirish va raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish. Murojaatnomada aytilgandek yaqin 3 – 4 yil ichida

mamlakatimizda 1000 000 komp'yuter dasturini yaratadigan programmistlar va raqamli iqtisodiyot sohasida ana shuncha ish joylari yaratiladi.

3.Raqamli innovatsiyalar ekotizimini yaratish. Murojaatnomada ta'kidlanganidek " Innovasion taraqqiyot biz uchun havodek zarur"

4. Samarali axborot xavfsizlik tizimini yaratish

Jamiyatning qancha ko'p a'zosi yangi raqamli, yuqori texnologik mahsulotlarni egallasa, ularning xaridorgirligi va qimmati shuncha ortadi, ya'ni iste'mol ko'lamining sinergetik samarasi namoyon bo'ladi. Natijada iqtisodiy rivojlanish salohiyati yanada oshadi.

Ammo internet tarmog'imning tezligi, mobil aloqa va mobil tarmog'i narxi, mobil aloqa mavjudligi bo'yicha jahonda va mustaqil davlatlar hamdustligida orqada bormoqda.Provayderlar va operatorlarning asosiy qismi Toshkentda jamlangan bo'lishiga qaramay, respublika hududlarida, ayniqsa, Samarqand va Buxoro viloyatlarida ularning soni muttasil oshib borishi kuzatilmoqda.Bu esa bozorning ushbu segmentida raqobatning kuchayib borayotgani dalolat bermoqda. Kanallarning o'tkazuvchanlik layoqati ko'payishi va operatorlar hamda provayderlar soni ortishi barobarida, Internet tarmog'iga kommunikatsiyalangan va keng taromqli foydalanish tizimi abonentlari jadal sur'atlar bilan oshib bormoqda.

Mamlakatda Internet tarmog'idan jamoaviy foydalanish shahobchalari soni ortib bormoqda (JFSH). Bunga ushbu shahobchalar faoliyatini lisenziyalash jarayonining soddalashtirilishi yordam bermoqda. Internet tarmog'ida ulanish uchun Wi-Fi texnologiyasidan foydalanish ham kengaymoqda.Tajriba tariqasida foydalanish natijalariga ko'ra, Davlat radiochastotalar komissiyasi tomonidan respublikada WiMAX texnologiyasi bo'yicha keng tarmoqli simsiz foydalanish tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida har bir opretorga chastotalar tarmoqli ajratib berilgan edi. Bu katta hududlarni qamrab olish bilan birga simsiz tarmoqlarni yaratish imkonini beradi (50 kilometrgacha). Bunda ma'lumotlarni uzatish tezligi 32 dan 135 Mbit/s gachani tashkil etadi. Shu bilan birga Wi-Fi texnologiyasi bo'yicha simsiz foydalanish tarmoqlarini rivojlantirish uchun chastotalar ajratib

berilgan. Ular simsiz lokal (ofis ichidagi) tarmoqlarni yaratishga va Internet tarmog‘iga ma’lumotlarni uzatish tezligi 54 Mbit/s bo‘lgan yuqori tezlikka ega simsiz ulanishlarni vujudga keltirishga mo‘ljallangan.

Wi-Fi texnologiyasidan foydalanilgan holda Internet tarmog‘iga ulanish hududi kengaytirilmoqda. Natijada Wi-Fi foydalanish nuqtalari soni ortadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Murojaatnomada ta’kidlaganidek raqamli iqtisodiyotni joriy etishning bizdagi ustuvor yo‘nalishlari - bu qurilish,energetika,qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, geologiya, kadastr, sog‘liqni saqlash, ta’lim va arxiv ishi.

Respublikamiz tabiiy resurslari, foydali qazilma zaxiralari, gaz, oltin va paxtaga boyligi haqida so‘z yuritish kerakmi? Biroq, uning haqiqiy boyligi – bu, odamlar, ularning aql-zakovati, bilim va tajribasidir. Respublikamizdan tashqaridagilar boyligimizning bitmas-tuganmas manbai nimada ekanligini allaqachon anglab yetgan. Avvalambor, rivojlangan barcha mamlakatlardagi kabi bizda ham intellektual raqamli iqtisodiyotni to‘g‘ri baholashni o‘rganish darkor. Raqamli iqtisodiyotda eng asosiysi, yangi bilim yaratish emas, undan unumli foydalanishdir.

Xulosa tariqasida aytish joizki buyuk avlod va ajdodlar vorisi bo‘lgan, ilm, ahloq, mehnat va haqiqatni yuksak qadrlaydigan kamtarin xalqimiz Prezidentimiz murojaatida ta’kidlangan olamshumul strategik ahamiyatga molik ko‘rsatma va chora - tadbirlarni to‘laligicha amalga oshiradi, yangi O‘zbekistonni yaqin yillar ichida rivojlangan mamlakatlar safiga olib chiqadi.

Qisqacha xulosalar

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish vositalari ma’muriy va iqtisodiylarga bo‘linadi. Mamuriy vositalar davlat hokimiyati kuchiga asoslangan hamda taqiq, ruxsat va majbur qilish choralarini qamrab oladi.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning iqtisodiy vositalari pul-kredit va byudjet siyosati vositalariga bo‘lishadi.

Davlat boshqaruvida soliqlar ikkilanma rol o‘ynaydi.Bir tomondan bu davlat xarajatlarini mablag‘ bilan taminlashning asosiy yo‘li, byudjet siyosatining moddiy asosi, ikkinchi tomondan, bu boshqaruv instrumentidir.

Iqtisodiy vositalarga o‘z navbatida fiskal, monitar va tashqi alorqalar siyosatidan iborat. Keng foydalanadigan siyostalardan biri bo‘lib byudjetni tartibga solish hisoblanadi – soliq tizimini o‘zgartirish, soliq imtiyozlari, asosiy kapitalni jadallashgan amortizatsiyasini, ko‘rinmas zaxiralarini balansdan chiqarishdagi imtiyozlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Raqamli iqtisodiyot nima?
2. Raqamli iqtisodiyot nima uchun kerak?
3. Davlat sektorini vazifasi
4. Tashqi aloqalarini tartibga solish usullari

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Ma’muriy – buyruqbozlik tizimining salbiy tomonlari eng oxiri bosqichga kelib qolgani qanday nomoyon bo‘lgan?

A) resurslardan unumli foydalanishning mavjudligi

B) mas’uliyatsizlik va boqimandalikning ildiz otib ketganligi

C) tadbirkorlikni rag‘batlantiruvchi kuchlarning borligi

D) samarali mehnat, innovatsion faoliyatning mavjud bo‘lishi

2. Davlat tartibga solishning iqtisodiy vositalari qaysilar?

A) pul - kredit va byudjet siyosati

B) mustaqil kompleksli vositasi

C) xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tartibga soluvchi vositalar

D) soliqlar orqali tartibga solish

3. …….- vazifasi u yoki bu mablag‘ tushishi manbalarini shunchaki soliqqa tortishdan iborat emas, balki yuridik va jismoniy shaxslarning ho‘jalik yuritish ishiga ta’sir o‘tkazuvchi nozik sozlanuvchi mexanizmni yaratishdir.

A) Davlat iqtisodiyotining

B) Mamlakatning moliyaviy institutlaring

C) Iqtisodiyotdagi davlat sektoring

D) Davlat byudjet organlarining

4. Asosiy kapitalning ashyoviy eltuvchilari ko‘rinishlari (dastgoxlar, uskuna - jihozlar, transport vositalari, binolar, tozalash inshaotlari) bo‘yicha amortizatsion ro‘yxatdani o‘chirish meyorlari turlar bo‘yicha mufaassal bo‘lingan holda qaysi organ tomonidan muntazam chop etib turiladi?

A) soliq organlari

B) oliy majlis

C) prezident farmoni orqali

D) moliya vazirligi

5. Konyuktura qanchalik yomon bo‘lsa qanday oqibatlarga olib keladi?

A) o‘z – o‘zini moliyaviy ta’minlash uchun imkoniyatlar kamayadi

B) davlat byudjetiga foyda solig‘idan tushuvchi mablag‘larni qisqarishga

C) davlat tomonidan beriladigan amortizatsiya imtiyozlari esa xususiy investitsiya beruvchilarni o‘ziga ko‘proq tortadi

D) Davlat boshqaruvining vositasi sifatida byudjetning xo‘jalik maqsadlaridagi harajatlari kamayadi

6. Hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida amortizatsion ro‘yxatdan o‘chirishning quyidagi qaysi turidan foydalaniladi?

A) Bir chiziqli usulda

B) Ishlab chiqarish hajmidan foydalanib

C) To‘g‘ri yoki mutanosib

D) Belgilab berilgan standard bo‘yicha

7. Qaysi jamiyatining ongida, davlatning kelgusida rivojlanish istiqbollari bozor iqtisodiyoti tizimiga o‘tish bilan o‘zviy bog‘liq degan tushunchaga keng va alohida o‘rin egallaydi?

A) Germaniya

B) Rossiya

C) Italiya

D) Fransiya

8. Iqtisodiy islohatlar kamida nechta masalani yechish uchun xizmat qilishlari shart?

A) 3ta

B) 4ta

C) 5ta

D) 2ta

9. Qaysi yilning boshida mamlakatda iqtisodiy islohatlar o‘tkazilayotgan davrda hech qanday zamonaviy jahon talablariga javob bermaydigan, Rossiya iqtisodiga to‘g‘ri kelmaydigan ikkinchi yo‘nalish ustun keldi.

A) 1993-yil

B) 1994-yil

C) 1992-yil

D) 1991-yil

10.Bozor iqtisodiyotiga asoslangan rivojlangan mamlakatlarda ma’muriy boshqaruv vositalaridan qanday miqyosda foydalaniladi.

A) Keng qamrovda

B) Foydalanilmaydi

C) Malum miqdorda ishlatiladi

D) To‘liq ishlatiladi.

XX bob. O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI

20.1. Iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari va omillari

Jahon iqtisodiy hamjamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichi jahon xo‘jaligi aloqalarining globallashuvi va baynalmilallaShuvi bilan tavsiflanadi, bunday sharoitda halqaro raqobat va milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshlik muammolari dolzarb ahamiyat kasb etadi,

Har qanday mamlakatda ichki bozorda raqobatning mavjudligi bozor xo‘jaligi muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi, jahonning ko‘plab mamlakatlarida, shu jumladan, o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarda raqobat to‘g‘risida qonunlarning qabul qilinganligi va mazkur masalalar bilan Shug‘ullanuvchi milliy tashkilotlarning tashkil etilganligi ushbu holatni tasdiqlab turibdi. Xususan O‘zbekistonda Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (Monopoliyaga qarshi qo‘mita) tashkil etilgan bo‘lib, uning faoliyati respublika iqtisodiyotida raqobat muhitini yaratish, mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar va firmalar, shu jumladan, mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar va firmalar xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun teng raqobat imkoniyatlarini barpo etishga yo‘naltirilgan.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi - bu iqtisodiyotning muxim ko‘rsatkichlari holatini tashqi parametrlarga nisbatan yalpi baholashni o‘zida mujassam etgan qiyosiy tavsif hisoblanadi, shu sababli milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi halqaro raqobatda namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi namoyon bo‘lishning ko‘p darajali shakllariga ega:

- tovarning raqobatbardoshligi;
- xodimning raqobatbardoshligi;
- tovar ishlab chiqaruvchisining raqobatbardoshligi;
- tarmoqning raqobatbardoshligi;

- mamlakatning raqobatbardoshligi (yoki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi).

Bunda raqobatbardoshlikning barcha darajalari o‘rtasida jips ichki va tashqi o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Mamlakat va tarmoqning raqobatbardoshligi pirovardida muayyan tovar ishlab chiqaruvchining raqobatbardosh tovar ishlab chiqarish qobiliyatiga bog‘liq.

Raqobatbardoshlikni barpo etish va rivojlantirishning M.Portyer konsepsiyasiga asoslangan zamonaviy modeli mamlakatning umumiy xususiyatga ega bo‘lgan va unda ishlab chiqaruvchilar raqobatlashadigan raqobat muxitini shakllantiruvchi to‘rtta xususiyatidan iborat. Ushbu muhit raqobat ustunliklarini shakllantirishga ko‘maklashishi ham yoki unga to‘sqinlik qilishi ham mumkin.

Mamlakat raqobat ustunliklariga erishishi uchun barcha ushbu determinantlar o‘zaro hamkorlik qilishi lozim (M.Portyerning ta’riflashicha - milliy romb). Faqatgina o‘zaro hamkorlik qiluvchi va bir-birini kuchaytiruvchi detyerminantlarning butun tizimi bo‘yicha ustunlik milliy iqtisodiyotda milliy ishlab chiqaruvchilarning muvaffaqiyati uchun zamin hisoblangan va undan xorijiy raqobatchilar nusxa ko‘chirishi yoki uni yo‘q qilishi qiyin bo‘lgan (yoxud hatto mumkin bo‘lmagan) muhitni shakllantiradi.

1. Agar "Omillar uchun shart-sharoitlar" detyerminantini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash lozimki, ishlab chiqarish omillari nazariyasi bo‘yicha tovar aylanishining oqimi ishlab chiqarishning mehnat, yer, tabiiy resurslar, sarmoya, infratuzilma kabi omillarini belgilab byeradi. Xususan, mamlakat jahon bozoriga ularni ishlab chiqarishning ortiqcha omillariga asoslangan tovarlarni yetkazib byeradi.

Mamlakat faqat ishlab chiqarish omillarini shakllantirish uchun foydali bo‘lgan ishlab chiqarish tarmoqlarida muvaffaqiyatga yerishishi mumkin. Biroq ishlab chiqarishning ortiqcha hajmli omilining mavjud bo‘lishi innovatsiya uchun qo‘lga kiritilgan raqobat jihatdan ustunlikni shakllantirish uchun asos bo‘lishi mumkin, chunki resurslarning etishmasligi ular qiymatining yuqori bo‘lishiga olib keladi. Aynan ushbu holat ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish

maqsadida texnika yangiliklari va innovatsiyalarni joriy etish uchun asos bo‘lishi mumkin, bu-ning natijasida kompaniyalar, tarmoqlar va umuman milliy iqtisodiyotning yuqori darajadagi raqobatbardoshligiga yerishiladi.

2. Milliy iqtisodiyotning “Barqaror strategiya, tuzilma va raqobatchilik” sifatida belgilangan raqobat jihatdan ustunligani shakllantirishning eng muhim omilini ko‘rib chiqamiz. Demak, mamlakatda kompaniyani tashkil etish va boshqarish tendensiyalariga ta’sir ko‘rsatuvchi ma’lum sharoitlarning mavjudligi ham ichki raqobatning xususiyatini belgilab byeradi.

Juda kuchli ichki raqobat mamlakat kompaniyalarini jahon bozoriga chiqish va uni o‘zlashtirishga undaydi, modomiki, mahalliy raqobat kompaniyani o‘z e’tiborini tashqi bozorga qaratish hamda o‘z faoliyatining samaradorligini va ishlab chiqarish rentabelligini oshirishga majbur etadi. Aynan qat’iy ichki raqobat mamlakat kompaniyalarining kuchli va chet el bozorlarida muvaffaqiyatga yerishishga qodir bo‘lishiga olib keladi.

3. Milliy iqtisodiyotning raqobat jihatdan ustunliklarining navbatdagi muhim detyerminanti bo‘lib mamlakatda jahon iqtisodiyoti darajasida raqobatbardosh bo‘lgan turdosh va qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlarning mavjud bo‘lishi hisoblanadi. Asosiy ishlab chiqarish uchun material va mahsulot yetkazib beruvchi kompaniyalar halqaro miqyosda raqobatbardosh bo‘lishi kerak, shunda ular, birinchidan, xarajatlar nuqtai nazaridan yanada samarali ishlab chiqarish omillarini ta’minlagan holda ustunliklarni hosil qiladi. Ikkinchidan, turdosh va qo‘llab-quvvatlovchi tarmoq-lar innovatsiya va ishlab chiqarishni modyernizatsiyalashni ta’minlaydi, chunki mazkur ustunlik kompaniyalar o‘rtasida axborotning tez va doimiy oqimini ta’minlash, g‘oyalar va innovatsiyalar bilan almashish, texnik takomillaShuv yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlariga asoslanadi.

4. “Talab holati” detyerminantiga kelsak, shuni ta’kidlash joizki, raqobatni globallashtirish jarayoni milliy iqtisodiyot ichki talabining muhimligi roli va darajasini oshirdi. Biroq ushbu holatda ularning ichki talabi kompaniyalarga haridorlar ehtiyojlarining yuzaga kelishi haqidagi

aniq yoki ilgarigi axborotni ta’minlovchi tarmoqlarda raqobat jihatdan ustunlikka ega bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, iste’molchilar kompaniyani innovatsiyani joriy etishga va raqobat jihatdan ustunliklarni xorijiy raqobatchilarga qaraganda tezroq qo‘lga kiritishga majbur qiladi. Bunda asosiysi ichki talabning hajmi emas, balki uning xususiyati muxim hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, ichki talabning holati tarmoqning muayyan segmenti ichki bozorda tashqi bozorlardagiga qaraganda ko‘zga ko‘rinarli bo‘lgan sharoitda raqobat jixatdan ustunliklarni yaratishning asosi bo‘lishi mumkin, modomiki, ichki bozorning yirik segmenti kompaniya uchun ancha ustuvorli. Bundan tashqari, ichki bozor iste’molchilarining mohiyati ham muhim hisoblanadi, chunki rivojlangan va talabchan haridorlar kompaniyalarni yuqori standartni ushlab turish, takomillashish va yangiliklarni joriy etishga majbur etgan holda ular uchun buyurtmachilar ehtiyojlarini oldindan ko‘ra olishni ta’minlaydi. Shunday qilib, ishlab chiqarish omillari uchun shart-sharoitlar kabi talabning holati ham raqobat jihatdan ustunliklarni ta’minlaydi, chunki u kompaniyalarga ishlab chiqarishni yaxshilash, xarajatlarni pasaytirish va mahsulot sifatini oshirish uchun turtki byeradi.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi turli bosqichlarda iqtisodiyot raqobatbardoshligining turli omillarini dastlabki o‘ringa chiqaradi. Iqtisodiyotning u yoki bu tarixiy davrda raqobatbardoshligini belgilab byeruvchi u yoki bu omillarning ta’siriga ko‘ra quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin:

- omillar bosqichi;
- investitsiyalar bosqichi;
- innovatsiyalar bosqichi.

Omillar bosqichida mamlakatning barcha raqobat-bardosh tarmoqlari ishlab chiqarishning asosiy omillari: tabiiy resurslar, arzon ishchi kuchi va mamlakatning mavqei va hududi bilan belgilanadigan foydalar hisobidan o‘z mavqelariga yerishadi.

Raqobatbardoshlikning yanada yuqori bosqichi - bu investitsiyalar asosidagi raqobatbardoshlik. Ushbu bosqichda mamlakatlarning raqobat jihatdan ustunliklari faol investitsiya siyosatiga asoslanadi. Bunda ham

texnologik rivojlanish chetdan keltirilgan texnologiyalarga asoslanadi, biroq bu o‘zlashtirish birinchi bosqichdagi kabi passiv hisoblanmaydi. Firmalar eng yaxshi texnologiyalar, litsenziya, nou-xauga investitsiya qilishadi, bunda texnologiyalar mamlakat ichida doimiy ravishda takomillashib boradi. Iqtisodiyot ichida sarmoyaning kuchli safarbar qilinishi sodir bo‘ladi, kapital qo‘yilmalarning o‘sishi omil-larning takomillaShuviga (infratuzilmaning rivoj-lanishiga, mehnat resurslari sifatining oshishiga) olib keladi, shu bilan birga, u ularning qimmatlashuvini ham keltirib chiqaradi. Rivojlanishning eksportga yo‘naltirilgan strategiyasi ishlab chiqiladi, chunki ichki bozor hali unchalik katta va talabchan emas va shuning uchun mahsulot sifatini takomillashtirish-ga undamaydi.

Innovatsiyalar bosqichi iqtisodiyot raqobatbardosh-ligining ichki salohiyati to‘liq ishga tushishi bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda firmalar nafaqat xorijiy texnologiyalarni qo‘llashadi va takomillashtiradi, balki o‘z texnologiyalarini barpo etishadi. Daromadlarning yuqori bo‘lishi, ta’lim darajasining oshishi va jadal ichki raqobat tufayli ichki bozor sig‘imli va talabchan bo‘ladi. Ushbu bosqichda firmalar global strategiyalarni ishlab chiqishadi va chet elda keng ko‘lamli investitsiyalarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, milliy iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida biz respublikamiz eksport salohiyatining asosini tashkil etuvchi qiyosiy ustunliklarga egamiz.

Shu o‘rinda O‘zbekiston ega bo‘lgan quyidagi qiyosiy ustunliklarni ajratish mumkin:

I. Kam xarajatlar evaziga qimmatbaho qishloq xo‘jaligi ekinlarini etishtirishni rivojlantirish imkonini byeruvchi qulay tabiiy-iqlimiy sharoitlar. O‘zbekistonda har yili taxminan 4,5 tonna paxta xom ashyosi tayyorlanadi, undan 1,3 tonna paxta tolasi ishlab chiqiladi. 30 ming tonnaga yaqin ipak qurti pillasi, 1,5 mln. tonna yuqori sifatli qorako‘l tyerisi va 18 ming tonnadan ortiq qo‘pol qo‘y yungi tayyorlanadi. Har yili 2,7-3 mln. tonna turli xildagi sabzavot ekin-lari etishtiriladi.

Biroq, O‘zbekiston nafaqat paxta bilan, balki o‘zining sabzavoti, mevalari, uzumi, poliz ekinlari bilan ham mashhur, ularning ko‘plab

turlari va navlari o‘zining ta’m sifati bilan ajralib turadi. O‘zbekiston jahonda yirik tomat pastasi, magiz, ajoyib ta’mga ega bo‘lgan quruq mevalar ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. Tomat pastasi bo‘yicha O‘zbekiston jahon ishlab chiqaruvchilarining dastlabki beshligiga, quruq mevalar ishlab chiqarish bo‘yicha esa dastlabki o‘nlikka kiradi. O‘zbekistondan ketchuplar va tomat pastasi asosida ziravorlar muvaffaqiyatli eksport qilinadi.

O‘zbekiston qudratli resursli qishloq xo‘jaligi salohiyatiga va bir yilda 10 mln. tonna meva-sabzavot mahsuloti ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Hozirgi vaqtda har yili 1 mln. 700 ming tonna bog‘dorchilik va uzumchilik mahsulotlari, 5 mln. tonna umumiy poliz ekinlari va kartoshka etishtirilmoqda. So‘nggi 25 yil ichida O‘zbekistonda sabzavotchilik, polizchilik va uzumchilik jadal rivojlanmoqda. Shu yillar mobaynida bog‘lar va uzumzorlar maydoni qariyb ikki marta kengaytirildi, mevalar va uzumni yalpi yig‘ish hajmi esa 4 martadan ko‘pga oshdi.

II. O‘zbekistonning tabiiy resurslari, xususan:

a) boy ma’danli xom ashyo bazasi. O‘zbekistonda hozirgi vaqtgacha 2,7 mingdan ortiq foydali qazilmalar va minyerallar koni aniqlangan bo‘lib, ular Mendeleevning butun jadvalini tashkil qiladi. Foydali qazilmalar konlarining umumiy xom ashyo salohiyati 3,3 trillion AQSH dollari qiymatida baholanmoqda. Har yili mamlakat konlaridan taxminan 5,5 mlrd. AQSH dollari qiymatidagi foydaliqazilmalar qazib olinadi;

b) O‘zbekistonning enyergetika tarmog‘ini rivojlantirishning asosini tashkil etuvchi suv-energetika resurslari, xususan, eng yirik enyergetika inshootlari Chirchiq-Bo‘zsuv o‘zanida qurilgan bo‘lib, u stansiyalar soni bo‘yicha (19 ta) jahonda dastlabki o‘rinlardan birini egallaydi.

O‘zbekiston gidroelektr stansiyalarida elektr enyergiyasining quvvatini ishlab chiqish mamlakatda boshqa elektr stansiyalarida ishlab chiqiladigan elektr enyergiyasi butun quvvatining 14,5 foizini tashkil qiladi;

b) rekreatsiya resurslari. O‘zbekiston tabiati, ayniqsa, tog‘ massivlarining davolovchi havosi to‘laqonli dam olish imkoniyatini

byeradi. O‘zbekiston hududidan tashqarida Chimyon, Shohimardon, Nanay, G‘ovasoy, Chortoq, Sitorai-Mozi Xosa kabi salomatlik va damolish maskanlarimiz mavjud bo‘lib, ular landshaft yoki “yashil” turizmni rivojlantirish imkonini byeradi;

III. Boy madaniy-tarixiy myeros. Xiva, Buxoro, Tyermiz va Samarqand shaharlarida 4 mingdan ortiq tarixiy, madaniy va diniy yodgorliklar madaniy va diniy turizmni rivojlantirishning asosi hisoblanadi.

IV .O‘zbekistonning qulay geografik holati. Respublika Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan bo‘lib, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Afg‘oniston bilan chegaradosh. Osiyo qit’asining markazidagi bunday qulay geografik holat mavjud resurs salohiyatini samarali amalga oshirish imkonini byerish bilan birga yuklar va enyergiya tashuvchilarning halqaro tranzitida faol ishtirok etish uchun keng imkoniyatlarni ochadi.

V. O‘zbekiston aholining tug‘ma mehnatsevarlik va tadbirkorlik qobiliyatlari, mutaxassislar ta’lim darajasi va malakasining yuqoriligi, shuningdek, yoshlar va mehnatga yaroqli insonlar ko‘pchilikni tashkil etgan va qariyalar salmog‘i kam bo‘lgan aholining yosh tarkibini o‘z ichiga oluvchi katta mehnat resurslariga ega. O‘zbekiston aholisining soni 32386,7 ming kishini tashkil qiladi.

Bir mamlakatda qiyosiy va raqobat jihatdan ustunliklarning integratsiyalashuvi uning global iqtisodiy kenglikdagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1) davlat byudjetidan ITTKI (ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari) uchun katta xarajatlar;
2) insonni rivojlantirishga (ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ehtiyojlarga) katta qo‘yilmalar;
3) mamlakat siyosiy va huquqiy tizimining barqa-rorligi;
4) aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM ulushi;
5) aholi hayot kechirishining uzoqligi;
6) resurslardan foydalanishning yuqori samaradorligi;

7) optimal eksport;
8) past inflyasiya;
9) raqobatbardosh firmalarning katta ulushi;
10) mehnat resurslarining raqobatbardoshligi;
11) moliyaviy tizimning qayishqoqligi;
12) ichki bozorning o‘zgaruvchanligi;
13) me’yordan ortiq davlat qarzlarining mavjud emasligi;
14) mamlakat aholisi ta’lim daragkasining yuqoriligi;
15) faoliyatning barcha sohalarida bilimlar asosidagi kuchli raqobat;
16) mamlakatning ochiqligi, halqaro integratsiya va koopyeratsiyalashning yuqori darajasi;
17) bozorlar va mintaqalar infratuzilmasining yuqori sifati;
18) past soliq va bojxona stavkalari;
19) mamlakatda biznesning yuqori madaniyati.

Agar O‘zbekistonning raqobat jihatdan ustunliklarini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagilarni alohida ajratish mumkin:

1) mamlakat siyosiy va huquqiy tizimining barqarorligi;
2) insonni rivojlantirishga (ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ehtiyojlarga) katta quyilmalar;
3) aholi hayot kechirishining uzoqligi;
4) mehnat resurslarining raqobatbardoshligi;
5) mamlakat aholisi ta’lim darajasining yuqoriligi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, qiyosiy ustunliklarga ega bo‘lish bilan birga respublika milliy iqtisodiyotining raqobat jihatdan (qo‘lga kiritilgan) ustunliklarini ham rivojlantirish zarur. Mazkur holatda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida quyidagi omillarga asosiy e’tiborni qaratish lozim, xususan: mamlakat siyosiy va huquqiy tizimining barqarorligi, mehnat resurslarining raqobatbardoshligi va mamlakat aholisi ta’lim darajasining yuqoriligi.

Shunday qilib, mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklarini ishlab chiqarishning asosiy omilari: tabiiy resurslar, arzon ishchi kuchi va mamlakat mavqei va hududi bilan belgilanadigan qulayliklar hiso-bidan

shakllantirish mumkin, ana shunda ushbu ustunliklar biz O‘zbekistonda ularning mavjudligini kuzatgan omillarning qiymati bilan belgilanadi.

Bundan tashqari respublikaning raqobat jihatdan ustunliklari unda sarmoya eng yaxshi texnologiyalar, litsenziya va nou-xauga investitsiya qilinadigan faol investitsiya siyosatiga asoslanishi mumkin, shu bilan birga, mazkur texnologiyalar mamlakat ichida doimiy ravishda takomillashib boradi. Sarmoyaning iqtisodiyot ichida safarbar qilinishi, kapital qo‘yilmalar hajmining o‘sishi omillarning takomillaShuviga (in-fratuzilmaning rivojlanishiga, mehnat resurslari sifatining yaxshilanishiga) olib keladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobat jihatdan ustunliklari innovatsiyaga tayanishi mumkin, bu yaqin o‘n yilliklarda respublika milliy xo‘jaligini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi va u milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining ichki salohiyatini o‘z ichiga oladi. Ushbu holatda mamlakat texnologiyalarining rivojlanishi va joriy etilishi yuz byeradi hamda, eng asosiysi, korxonalar (firmalar) global strategiyalarni ishlab chiqishni boshlab, chet elda keng ko‘lamli investitsiyalarni amalga oshiradi.

20.2. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining davlat tomonidan tartibga solinishi

Davlatning asosiy vazifasi - resurslardan foydalanish samaradorligiga, shuningdek, davlat boshqaruvining samaradorligiga yerishishdan iborat. Shuning uchun iqtisodiyot fani doirasida ushbu muhim va ko‘p qirrali muammoga bag‘ishlangan tadqiqotlar doimiy ravishda olib boriladi.

Sog‘lom raqobat muxitini shakllantirishning davlat tomonidan tartibga solinishi respublika bozorlarida raqobatni rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish, bozorlarning monopollashtirishga urinishlarga yo‘l qo‘ymaslik, bozor iqtisodiyoti talablariga javob byeruvchi monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizm-larini takomillashtirish, shuningdek, iste’molchilar huquqlarini himoyalash chora-tadbirlarini o‘z ichiga oladi. Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish mas’uliyati O‘zbekiston Respublikasi

Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo‘mitasining zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- respublikada sog‘lom raqobat muhitini yaratish uchun zarur tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy shartsharoitlarni, mustahkam huquqiy bazani shakllantiruvchi va muvofiqlashtiruvchi markaz funksiyalarini amalga oshirish;
- insofsiz raqobatchilar tomonidan tovar va moliya bozorlarini, birinchi navbatda, iste’mol tovarlari bozorlarini monopollashtirish yuzasidan har qanday urinishlarning oldini olish, ularni cheklash va ularga barham byerish;
- monopoliyaga qarshi qonunchilik hujjatlarigarioya qilinishi, shuningdek, o‘z vakolati doirasida tabiiy monopoliyalar sub’ektlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;
- iste’mol tovarlari narxlari monitoringini o‘tkazish, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari bilan birgalikda narxlarning asossiz ravishda o‘sib ketishiga, ichki bozorda sifatsiz iste’mol tovarlari sotilishi va xizmatlar ko‘rsatilishiga olib keluvchi insofsiz raqobatning oldini olish chora-tadbirlarini ko‘rish.

Davlat tomonidan tartibga solish tizimini shakllantirishning asosiy tamoyilini o‘zgartirish - bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi. O‘tish bosqichida mazkur tizim ikkita hal qiluvchi tendensiya bilan tavsiflanadi. Bir tomondan, iqtisodiy jarayonlarning davlat tomonidan tartibga solinishi bu yerda keng qamrovli xususiyatni yo‘qotadi. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi darajasi pasayadi. Ikkinchi tomondan, davlat tomonidan tartibga solish shakllari va usullarining o‘zgarishi yuz byeradi.

Bozorga o‘tish bosqichida davlat tomonidan tartibga solishning roli shakllangan bozor xo‘jaligidagiga qaraganda katta ahamiyatga ega. Bunga ikkita asosiy sabab bor. Birinchidan, o‘tish bosqichida bozor shakllanish bosqichida bo‘ladi va uning tartibga soluvchi imkoniyatlari unchalik yuqori emas, bu davlatning iqtisodiy jarayonlarga jadal aralashuvi zaruratini belgilab byeradi. Ikkinchidan, rejali xo‘jalikdan

bozorga o‘tish avtomatik tarzda va stixiyali kechadi. Davlat o‘tish jarayonini tartibga solishga, bozor infratuzilmasining barpo etilishini rag‘batlantirishga, uning normal faoliyat ko‘rsatishi uchun sharoitlar yaratishga da’vat etilgan.

Davlatning iqtisodiyotdagi roli uning funksiyalarida muayyanlashadi. Davlatvdng o‘tish iqtisodiyotidagi barcha funksiyalari bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liq. Ushbu bog‘liqlikning xususiyatiga qarab davlatning tartibga soluvchi funksiyalarining ikkita guruhini ajratish mumkin. Birinchidan, bu bozorning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun shart- sharoitlar yaratish funksiyasi. Ikkinchidan, bu bozorning o‘z tartibga soluvchilarini ta’sirini to‘ldirish va unga tuzatishlar kiritish.

Birinchi guruhga bozor xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatishining huquqiy bazasini ta’minlash funksiyasi hamda bozor muhitida asosiy harakatlantiruvchi kuch sifa-tida raqobatni rag‘batlantirish va himoyalash funksiyasi kiradi.

Ikkinchi guruhga esa daromadlarni qayta taqsimlash, resurslarni taqsimlashga tuzatishlar kiritish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish funksiyalari kiradi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish vazifalarini hal etish uchun uzoq muddatli rejada, jahon tajribasi ko‘rsatib turganidek, kadrlarni tayyorlash va ular malakasini oshirishga, bilimlarni baham ko‘rish va ITTKIni qo‘llab-quvvatlashga hamda infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalar davlat tomonidan tartibga solishning eng samarali choralari hisoblanadi

O‘zbekiston biz unda qatnashishimiz lozim bo‘lgan jahon bozorining bir qismi hisoblanadi. O‘z navbatida, muhitning adekvatligi, ya’ni biznes faoliyat ko‘rsatishi sharoitlarining raqobatbardoshligi muammosi o‘ta muxim:

- raqobatni rivojlantirish darajasi;
- biznesning turli xillari uchun soliq tartibi;
- sarmoyani qayta taqsimlash mexanizmlari;
- valyuta kursi va ichki bozorni himoyalashning tarif vositalari.

Shu bilan birga, tabiiyki, bizning iqtisodiyot barcha segmentlarda raqobatlasha olmaydi. Shuning uchun davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishlarni tanlab olish juda muhim. XX asrning 50-60-yillaridan farqli o‘laroq davlat hozirgi sharoitda rivojlanishning uzoq muddatli ustuvor yo‘nalishlarini o‘zi belgilay olmaydi - tashqi muhitning ta’siri juda katta. Ustuvor yo‘nalishlarni bozor shakllantiradi, davlatning vazifasi esa rivojlanishning bunday ustuvor yo‘nalishlarini tezroq aniqlashga ko‘maklashishdan iborat. Buni faqat biznes va o‘z mintaqalarining rivojlanishi-dan manfaatdor bo‘lgan mahalliy hokimiyatlar timsolida iqtisodiy agentlar bilan o‘zaro hamkorlikda hal etish mumkin.

20.3. Iqtisodiy rivojlanishning raqobatbardosh strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida chet el tajribasi

Yangi sanoatlashgan mamlakatlar (YaSM)ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tajribasi Shundan dalolat bermoqdaki, davlatning faol ishtirokisiz iqtisodiy o‘sish hamda ular xo‘jaliklarini modyernizatsiya qilish dasturlarini amalga oshirish bilan bog‘liq vazifalarni hal etishning iloji yo‘q.

Aynan avtoritar rejimlar tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy modyernizatsiya siyosati 80-90-yillarda demokratik o‘zgarishlarning muqarrarligini ta’minlagan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarni yuzaga keltirdi.

Ushbu mamlakatlarda strategiyaning asosiy maqsadlari va tamoyillari davlat darajasida shakllanadi va, o‘z navbatida, u milliy iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish jarayonida turli shakllarda ishtirok etuvchi davlatning faol roli bilan amalga oshiriladi. Mamlakat iqtisodiyotini boshqarish tizimini shakllantirishga kirishgan YaSM boshqa mamlakatlarda to‘plangan tajribadan foydalandi. Birinchi navbatda, ularning e’tiborini davlat-monopoliyani tartibga solishning yaponcha tizimi, xususan, iqtisodiy rivojlanish strategiyasining uzoq muddatli maqsadlarini shakllantirishning o‘ta qayishqoq va chuqur asoslangan usuli o‘ziga jalb qildi. Bunda gap, albatta, o‘zgalar tajribasini to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirish yoki undan nusxa ko‘chirish haqida bormadi. Lekin rivojlanishning eksport strategiyasida Yaponiya tajribasi

maksimal darajada hisobga olindi, u faqat davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin edi, bunga sabab ichki bozorning rivojlanmaganligi, milliy ishlab chiqaruvchilarning zaifligi, xorijiy investitsiyalar esa asosan davlatning nazorati ostida bo‘ladi. Bozor jarayonining davlatning aralashuvi bugungi kunda ham g‘oyat kuchli bo‘lib qolmoqda, bu bir necha sabablar bilan bog‘liq.

Birinchidan, xususiy tadbirkorlikning o‘z kuchi bilan modyernizatsiya vazifalarini bajarishga qodir emasligi. Xususiy tadbirkorlarning nisbatan zaifligi tufayli ular oldida paydo bo‘lgan yangi vazifalarni hal etish ular uchun qiyin edi. Tarixan shunday tendensiya yuzaga keldiki, u yoki bu qanchalik kech sanoatlashish yo‘liga o‘tsa, aynan xususiy sektor shunchalik murakkab muammolarni hal etishiga to‘g‘ri keladi, o‘z navbatida, davr qo‘yadigan talablar darajasida bo‘lish-ning real imkoniyatlari shunchalik kam bo‘ladi va iqti-sodiy rivojlanishda xususiy sarmoyaning o‘rnini to‘ldirish va o‘rnini bosishga da’vat etilgan davlatning roli shunchalik yuqori bo‘ladi.

Ikkinchidan, xususiy sarmoya faoliyat ko‘rsatishining o‘ziga xos xususiyatlari va shartlari. Bozor tadbirkorligining rivojlanishi foydaning o‘rtacha me’yori qonunining talablariga asoslangan: teng sarmoya-ga teng miqdordagi foyda. Shu bilan birga ushbu qonunning amal qilishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar ham mavjud, bularga sarmoya massasi, tarkibi va tezligidagi, demak, foyda me’yorlaridagi tarmoq farqlari kiradi. Sarmoya aylanmasi tezligidagi tarmoqlararo farqlar, foydaning tarmoq me’yorlarida birmuncha vaqt foydaning me’yorini o‘rtacha holatga keltirish tendensiyasiga qarama-qarshi turdi. Foydaning o‘rtacha miqdori qonunining ta’siri ozmi yoki ko‘pmi to‘liq darajada namoyon bo‘lishi uchun zarar ko‘rib ishlovchi yoki xususiy tadbirkorlikning asosiy talablarini qondirmayotgan tarmoqlarda tadbirkorlikni qo‘lga kiritish yo‘li bilan davlatning aralashuvi talab etildi. Shunday qilib, davlat takror ishlab chiqarishning zarur shart-sharoitlarini ta’minlashga va faoliyat ko‘rsatishi xususiy tadbirkorlikning tamoyillariga javob byermaydigan tarmoqlarni rivojlantirishga da’vat etilgan edi.

Uchinchidan, ushbu mamlakatlarda iqtisodiy tizmning o‘ziga xos xususiyatlari va evolyusiyasi. Mamlakatlarning ko‘p ukladli iqtisodiy

tarkibi o‘zining rivojlanish darajasiga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi xo‘jalik yuritishning jamoat shakllarining o‘zaro hamkorligini nazarda tutdi. Mustamlakachilik o‘tmish ko‘p ukladli iqtisodiy bazis, iqtisodiy tizimda an’anaviy sektorning yuqori salmog‘iga ega bo‘lgan iqtisodiyotning qoloqligini shart qilib qo‘ydi. Mamlakatlarning rivojlanishi jarayonida ularning ishlab chiqarishdagi ulushi asta-sekin pasaydi va zamonaviy hamda an’anaviy ukladlar doirasida takror ishlab chiqarishni bir xillashtirish tendensiyasi ko‘zlandi. Biroq 70-yillarda ushbu jarayonga iqtisodiyotdagi va tashqi muhitdagi tarkibiy nomutanosibliklar katta ta’sir ko‘rsatdi, bu, birinchi navbatda, keskin siyosiy ziddiyatlar va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqardi. Bundan tarmoqlararo va tarmoq ichidagi munosabatlarning tartibga solinishini ta’minlashda davlatning rolini oshirish zarurati paydo bo‘ldi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinlaShuvi. Yuqori texnologik darajada amalga oshiriladigan iqtisodiy modyernizatsiyalash jarayoni naqd va tez o‘suvchi mehnatga layoqatli aholi ommasiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining imkoniyatlari-ga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Bunday vaziyat aholi shini yuqori sur’atlari va ishchi kuchining qishloq xo‘jaligidan bo‘shatilishi oqibatida yuzaga keldi, ya’ni bu ishchi kuchi shaharga ko‘chib kelib, u yerda ishga joylashish imkoniyatiga ega bo‘lmadi. Ommaviy ishsizlik va qashshoqlik keng ko‘lamlarni qamrab oldi va ijtimoiy-siyosiy sohada jiddiy beqarorlashtiruvchi omilga aylandi. Bunday sharoitda davlat ishsizlikni cheklash, mayda ishlab chiqarishni tashkil qilish, aholi-ning eng qashshoq qatlamiga yordam ko‘rsatish, intensiv jarayon chog‘ida qat’iy belgilangan narxlar bo‘yicha hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan tovarlar bilan ta’minlashni tashkil etishga yo‘naltirilgan barqarorlashti-ruv choralarini amalga oshirishga majbur edi, ko‘plab mamlakatlardagi demografik portlash oqibatida ishsizlikni tugatish haqida gap bo‘lishi mumkin emas edi. Aksariyat mamlakatlarda aholi o‘sishining yuqori sur’atlari bilan tavsiflanuvchi demografik vaziyatni barqarorlashtirish uchun boshqaruvchi doiralar tug‘ilishni nazorat qilish, oilani rejalashtirish siyosatini o‘tkazishdi. Ushbu maqsadlarda minimal nikoh yoshi oshirildi, kam farzandli oilalarga soliq va ijtimoiy imtiyozlar

joriy etildi va h.k. Biroq bunday siyosat shu lahzadayoq natijalar byermadi, chunki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi siljishlar faqat birmuncha vaqtdan so‘ng oila xatti-harakatida namoyon bo‘la boshladi. Nihoyat, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun avvalgiga qaraganda yanada malakali kadrlar talab etildi.

20.4. Milliy iqtisodiyotdagi institutsional o‘zgarishlarning konseptual asoslari

O‘zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalari va tarmoqlarini erkinlashtirish va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning izchillik bilan amalga oshirilishi iqtisodiyotda yuz berayotgan jarayonlarni nazariy tuShunib yetishni taqozo etadi. Neoklassik nazariyaning umume’tirof etilgan qoidalariga tayanuvchi transformatsiyalashish modellari milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan institutsional infratuzilmaning roliga yetarlicha baho bermaydi. Ularda, shuningdek, raqobat muhitini yaratish jarayonining muhimligi va unga bog‘liq bo‘lgan ob’ektiv va sub’ektiv qiyinchiliklar hisobga olinmagan. Mamlakat iqtisodiyotining uning qay tarzda transformatsiyalanishiga bog‘liqligi xo‘jalikni isloh qilishda mintaqaviy omillar, albatta, hisobga olinishi kerakligini ko‘rsatadi. Bozor iqtisodiyoti institutlarini hududning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan, oddiygina joriy qilish faqat salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. O‘zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi muammolarini tadqiq etishga institutsional jihatlarni kiritish o‘tmishni tuShuntirish va ayni damdagi jarayonlarni anglab etish nuqtai nazaridan ham, istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini taxminlash nuqtai nazaridan ham voqelikni anchagina oydinlashtirish imkonini beradi.

Nazariy izlanishlar va ko‘p sonli empirik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, yangi institutlarning paydo bo‘lishi va, demak, xo‘jalik birliklarining yangicha o‘zaro ta’siri hamda ularni yangicha tashkil qilish shakllarining yuzaga kelishi bir-biriga chambarchas bog‘liq, chunonchi, xo‘jalik sub’ektlarining o‘zaro ta’sir qilish tamoyillari va qoidalari o‘zgarganda ularni tashkil qilish shakllari ham

transformatsiyalanadi (umuman iqtisodiyotning tashkiliy tuzilmasida va xususan. uning alohida sektorlarida ham o‘zgarishlar kuzatiladi).

Institutlarning tarkibiy o‘zgarishlardagi roli avvalambor, shukda ko‘rinadiki, u yoki bu transaksiya (bitim) ishtirokchisi o‘zining maqsad va manfaatlariga ega bo‘ladi, tashkiliy shakllar esa ayni paytdagi jamoat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ularni bir-biri bilan uyg‘unlashtiradi (muvofiqlashtiradi).

Mavjud iqtisodiy tuzilmalar ichida mulkchilik instituti, ya’ni xo‘jalik faoliyatining muayyan natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etish me’yorlari va qoidalari yig‘indisi alohida o‘rin tutadi, Buning sababi shundan iboratki, u samaradorlik mezonlari tizimini belgilaydi. Mulkchilik institutiga xos me’yor va qoidalar bilan birga, ularning bajarilishini ta’minlaydigan tashkilotlarning ham zarurligi haqidagi xulosa mulkchilik huquqi nazariyasining muxim xulosasidir. Bunday tashkilotlarga davlat va uning boshqaruv organlari tizimi kiradi.

Davlatning boshqa nazorat tuzilmalaridan farqi shundaki, u mulkchilik huquqlarining amalga oshirilishida tenglikni ko‘proq ta’minlaydi.

Xo‘jalik yurituvchi tuzilmalarning yig‘indisi yoki bu iqtisodiy tizimning institutsional muxitini shakllantiradi. Qanday iqtisodiy institutlar tashkil qilingani, ularning xo‘jalik faoliyatida qabul qilingan qonun-qoidalar va tuzilmaviy chegaralar, oxir oqibat sub’ektlar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarnkng qanday tusga egaligini belgilashdi. Ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shakllarining turli-tumanligi muayyan iqtisodiy tizimning instutsional tuzilmasini tashkil qiladi, u esa, o‘z navbatida, xo‘jalik sub’ektlarch o‘rtasidagi aloqa va nosabatlarni belgilab, iqtisodiy tuzilma pyuzaga keltiradi. Ya’ni, xo‘jalik birliklari o‘rtasidagi xo‘jalik faoliyatining qoidalari va tuzilmaviy chegaralari tashkiliy tuzilmani: o‘zaro ta’sir qanday shartlarda va shakllarda amal qilishini belgilab byeradi.

Shunday qilib, iqtisodiyotning institutsional tuzilmasi yoki uning alohida tarmog‘i har qanday davr oralig‘ida quyidagi uchlik bilan ta’riflanadi: "institutsional muhit (iqtisodiy institutlar yig‘indisi) - institutsional qurilma (o‘zaro ta’sir shakllari) - tashkiliy tuzilma (tashkiliy

shakllar yig‘indisi). Bunda mazkur uchlik doirasidagi sabab-oqibat aloqalari teskari yo‘nalishga ham ega.

Institutsional nazariya asosiy qoidalarining qisqacha tahlili ko‘rilayotgan muammoga nisbatan muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan qator xulosalarni keltirib chiqardi, ya’ni:

-iqtisodiy institutlar, xo‘jalik birliklarining o‘zaro ta’sir shakllari va ularning tuzilmasi o‘rtasida ancha mustahkam o‘zaro aloqa va o‘zaro bog‘liqlik mavjud;

-mazkur nazariya doirasida alohida iqtisodiy tashkilotlarning aktivlari va ular bilan bog‘liq ishlab chiqarish chiqimlari tavsifini to‘ldirish hisobiga ularning chegaralarini belgilovchi sabab va omillarni tuShuntirib byerish mumkin;

-davlatning iqtisodiy jarayonlardagi roli va o‘rni bozorning echilmagan muammolarini bartaraf qilishdangina emas, balki jamiyat uchun eng kam transaksiyaviy talafotlar bilan uning me’yor va qoidalarining bajarilishini ta’minlashdan ham iboratdir.

Boshqaruvning doimiy o‘zgarib boruvchi tashkiliy shakllariga qarab, odatda, birinchi galda institutsional muxitning alohida elementlari transformatsiyasi bashorat qilinadi. U ko‘pincha ob’ektiv tusga ega va jamiyat (davlat)dagi afzalliklar tizimidagi o‘zgarishlar bilan yoki narxlarning o‘zgarishi bilan belgilanadi. Shu bois, odatda, institutlarning va demak, institutsional muhitning ob’ektiv dinamikasi sharoitida maqsadli rejalashtirish doirasi juda torbo‘lib, davlat me’yoriy-huquqiy hujjatlarini tayyorlash va ularni qabul qilish jarayonida alohida me’yor va qoidalarni tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Bunda quyidagi holatlar alohida ahamiyat kasb etadi:

- alohida davlat tashkilotlarining institutsionalmuxitni ijtimoiy farovonlikning pasayishiga va “rentaga yo‘naltirilgan” deb atalmish xulq-atvorning kuchayishi uchun sharoit vujudga kelishi tomon o‘zgarishiga olib keluvchi kuchi va ta’sirini cheklashga intilishi;

- u yoki bu me’yoriy hujjat ta’siriga bog‘liq transaksiyaviy chiqimlarni hisobga olish va baholash hamda ularning alohida tashkilotlar tomonidan ham, davlat tomonidan ham sarf-xarajatlarni o‘z ichiga oladigan umumiy miqdorini kamaytirishga intilish.

Ob’ektiv umumiqtisodiy dinamikadan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan diskret dinamikaga o‘tishda vaziyat tubdan o‘zgaradi. Ushbu o‘zgarishlar asosiy iqtisodiy institutlar, birinchi galda, mulkchilik institutining o‘zgarishiga bog‘liq. Bunday sharoitda nafaqat institutsional muhitda, balki iqtisodiyotning butun tashkiliy tuzilmasi doirasida ham o‘zgarishlar yuz beradi. Diskret o‘zgarishlar muammosining murakkabligi, uning ko‘p qirrali tusi ularni amalga oshirishni bashoratlash zaruratini keltirib chiqaradi. Bunda zarur boshlang‘ich institutsional tuzilmaning shakllanishini ta’minlovchi omillar va shart-sharoitlarni to‘liq hisobga olish ham, ushbu o‘zgarishlarni amalga oshirishning vaqtinchalik doiralari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususiy mulkchilik institutining qaror topishi nazorat organlarining tegishli tizimi shakllanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Shubhasiz, yuqorida qayd etilgan shart-sharoitlarni qoniqtiradigan etarlicha to‘liq va samarali institutsional muxitni yaratish uchun ancha vaqt kyerak bo‘ladi. Diskret o‘zgarishlar jarayonida yangi institutlarning paydo bo‘lishi, oxir oqibat, iqti-sodiy o‘sish va jamoat farovonligining o‘sishi uchun sharoit yaratilishiga olib kelishi lozim. Institutsional tuzilmaning shakllanishi muvaffaqiyatsizlikga uchrasa - iqtisodiy o‘sish va jamoat farovonligini ta’minlashga emas, balki oldin yaratilgan va to‘plangan ijtimoiy boylikning qayta taqsimlanishiga yo‘naltirilgan institutlar paydo bo‘ladi.

Institutlar va institutsional o‘zgarishlarning samarasiz tizimi shakllanishining sabablari nafaqat shakllangan tizimning to‘liq emasligida, balki uning elementlari shakllanishi ketma-ketligining vaqt o‘lchamida buzilishida hamdir. Iqtisodiy islohotlar esa ko‘p jihatdan institutsional muxitdagi o‘zgarishlar bilan belgilanadigan yangi imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishga bog‘liq.

Milliy iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o‘tishi sharoitida ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish va yirik xo‘jalik majmualarini boshqarish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammoning yechimi umumrespublika bozorining muvaffaqiyatli qaror topishi uchun zarur sharoit yaratish bilan birga talay mintaqaviy vazifalarni amalga oshirish uchun ham zarur zamin yaratadi. Bunda

mintaqalar ikki tomonlama rol o‘ynaydi: ular bozor munosabatlari shakllanadigan va amal qiladigan bo‘shliq vazifasini o‘taydi va, shu bilan birga nisbatan mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar sifatida maydonga chiqadi, ushbu tizimlarning rivojlanishi esa hududlar manfaatiga bo‘ysundiriladi. Shundan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda tarmoqli hududiy majmualarni boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur va u bozorning shakllanishi va faoliyatini, shuningdek, mintaqaning kompleks rivojlanishini ko‘zda tutishi kyerak.

Umuman olganda, moddiy ishlab chiqarishni ishlab chiqarish bo‘g‘inlari - korxonalar yig‘indisi sifatida qarash mumkin, bu korxonalar yirik xo‘jalik tuzilmalari (birlashmalar, tarmoqlar, hududiy majmualar va hokazolar)ni tashkil qiladi.

Korxonalar iqtisodiy aloqalarning turli-tuman va maqsadlarning bir xil emasligi oqibatida : xo‘jalik tuzilmalari (ham tarmoqli, ham hudu diy)tarkibiga kirishi mumkin. Bu tashkiliy va iqtisodiy alohida ajralgan kichik xo‘jalik tizimlarining yoki turli darajadagi bo‘g‘ inlarning jami Shuningdek, ular o‘rtasidagi murakkab gashkiliy va boshqa aloqalar xo‘jalik sub’ektlarining tashkiliy tarkibini hamda ularning iyerarxiyasi darajasini aks ettiradi va moddiy ishlab chiqarishning tashkiliy tuzilmasini tashkil qiladi. U qator muhim jihat-larni o‘z ichiga olib, bu jihatlar itslab chiqarishni boshqarish jarayonini va umuman mini tahlil qilishda hal qiluvchi

Ishlab chiqarish ixtisoslashuvining chuqurlashishi koopyeratsiya aloqalari rivojlangan llohida korxonalarning ajralib chiqishi xo‘jalik faoliyati diffyerensiatsiyasini keltirib chiqaradi, shu bilan bir vaqtda, barqaror ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish va xo‘jalik aloqalari negizida oxirgi maqsadga yerishishni ta’minlaydigan turli faoliyat turlarining integratsiyasi ham kuzatiladi. Natijada iqtisodiy va boshqaruv funksiyalarining integratsiyasi hisobiga yuqori ishlab chiqarish samaradoradgiga yerishayotgan xo‘jalik majmualari paydo bo‘ladi.

Bunday majmualar turli tashkiliy shakllarda birlamchi bo‘g‘inlarni birlashtiradi va yuqoriroq darajadagi xo‘jalik sub’ektini tashkil qiladi.

Xo‘jalik tizimlari (tarkibiy bug‘inlar)ning xaraktyeri va shakllari, shuningdek, zamonaviy sharoitlardagi ular o‘rtasidagi aloqalar ancha murakkablashdi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda bir nechta iqtisodiy ukladli ko‘p darajali xo‘jalik tizimlari shakllanadi, qaror topayotgan barqaror ishlab chiqarish, texnikaviy va iqtisodiy aloqalar esa maqsadlar mushtarakligi bilan ham, tashkiliy birlik bilan ham ta’minlanadi. Ushbu munosabatlarga integratsiyalangan birlamchi bo‘g‘inlar yig‘indisining kiritilishi endi mutlaq emas, balki birlamchi bo‘g‘inning xususiy iqtisodiy va, demak, tashkiliy o‘ziga xosligini belgilaydi. Asosiy bo‘g‘in tashkiliy shakl/\arining rivojlanishi tarmoqli boshqaruv tizimini qayta qurish bilan bevosita bog‘liq. Mazkur muammo ustida ishlayotgan aksariyat mualliflarning fikrini umumlashtirib, quyidagilarni qayd etishni lozim topdik:

1. Yirik ishlab chiqarish-xo‘jalik majmualari, shuningdek, tarmoqlararo majmualar (sanoat korporatsiyalari, konsernlar, xo‘jalik uyushmalari, konsorsiumlar va hokazolar)ning paydo bo‘lishi ishlab chiqarishdagi ob’ektiv integratsiyaviy jarayonlarni aksettiradi, ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va ishchanlik faolligyni oshirish asnosida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirishga ko‘maklashadi.
2. Mamlakat uchun yangi bo‘lgan tuzilmalar, asosan,bevosita davlat ta’sirida bo‘lmasdan, tijorat asosida faoliyat yuritadi. Bu amalda o‘zini o‘zi boshqarish uchun sharoit yaratadi.
3. Bozor munosabatlari sharoitida ittifoq yoki uyushmaga birlashgan korxonalarning kelishilgan qaroriga muvofiq, shartnomada ko‘rsatilgan ishlab chiqarish-xo‘jalik vazifalarini markazlashtirilgan bajarilishi, shuningdek, moliyaviy, mehnat, moddiy va boshqa resurslarning ulushli asosda birlashtirilishi ittifoq yoki uyushmalar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Konsernlar, xo‘jalik uyushmalarining yuqori darajadagk funksional xizmatlarining aksariyati "xizmat ko‘rsatuvchi" tashkilotlar sifatida faoliyat yuritadi va bu prinsipial ahamiyatga ega. Ular ishlab chiqaruvchi firmalar bilan shartnoma asosida o‘zini o‘zi moliyalash va o‘zini o‘zi qoplash sharoitida ishlaydi.

Qisqacha xulosalar

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi - bu iqtisodiyotning muxim ko‘rsatkichlari holatini tashqi parametrlarga nisbatan yalpi baholashni o‘zida mujassam etgan qiyosiy tavsif hisoblanadi, shu sababli milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi halqaro raqobatda namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi namoyon bo‘lishning ko‘p darajali shakllariga ega:

- tovarning raqobatbardoshligi;
- xodimning raqobatbardoshligi;
- tovar ishlab chiqaruvchisining raqobatbardoshligi;
- tarmoqning raqobatbardoshligi;
- mamlakatning raqobatbardoshligi (yoki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi).

Sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishning davlat tomonidan tartibga solinishi respublika bozorlarida raqobatni rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish, bozorlarning monopollashtirishga urinishlarga yo‘l qo‘ymaslik, bozor iqtisodiyoti talablariga javob byeruvchi monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizm-larini takomillashtirish, shuningdek, iste’molchilar huquqlarini himoyalash chora-tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Yangi sanoatlashgan mamlakatlar (YaSM)ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tajribasi shundan dalolat byermoqdaki, davlatning faol ishtirokisiz iqtisodiy o‘sish hamda ular xo‘jaliklarini modyernizatsiya qilish dasturlarini amalga oshirish bilan bog‘liq vazifalarni hal etishning iloji yo‘q.

Aynan avtoritar rejimlar tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy modyernizatsiya siyosati 80-90-yillarda demokratik o‘zgarishlarning muqarrarligini ta’minlagan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarni yuzaga keltirdi.

Ushbu mamlakatlarda strategiyaning asosiy maqsadlari va tamoyillari davlat darajasida shakllanadi va, o‘z navbatida, u milliy

iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish jarayonida turli shakllarda ishtirok etuvchi davlatning faol roli bilan amalga oshiriladi

Institutsional nazariya asosiy qoidalarining qisqacha tahlili ko‘rilayotgan muammoga nisbatan muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan qator xulosalarni keltirib chiqardi, ya’ni:

- iqtisodiy institutlar, xo‘jalik birliklarining o‘zaro ta’sir shakllari va ularning tuzilmasi o‘rtasida ancha mustahkam o‘zaro aloqa va o‘zaro bog‘liqlik mavjud;
- mazkur nazariya doirasida alohida iqtisodiy tashkilotlarning aktivlari va ular bilan bog‘liq ishlab chiqarish chiqimlari tavsifini to‘ldirish hisobiga ularning chegaralarini belgilovchi sabab va omillarni tuShuntirib byerish mumkin;
- davlatning iqtisodiy jarayonlardagi roli va o‘rni bozorning echilmagan muammolarini bartaraf qilish-dangina emas, balki jamiyat uchun eng kam transaksiyaviy talafotlar bilan uning me’yor va qoidalarining bajarilishini ta’minlashdan ham iboratdir.

Mazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Iqtisodiyot raqobatbardoshligini baholovchi ko‘rsatkichlarga nimalar kiradi?
3. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?
4. Iqtisodiy rivojlanishning raqobatbardosh strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida chet el tajribasi
5. Milliy iqtisodiyotdagi institutsional o‘zgarishlarning konseptual asoslari.

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Jahon iqtisodiy hamjamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichi qanday tavsiflanadi

A) jahon xo'jaligi aloqalarining globallashuvi va baynalmillashuvi

B) qishloq xo'jaligi , tarmoqlari

C) jahon iqtisodiyotini globallashuvi

D) barcha javob to'g'ri

2. Ichki bozorda nimaning mavjudligi bozor xo‘jaligi muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi

A) raqobatning

B) taklifning

C) talabning

D) monopoliyaning

3. Raqobatbardoshlikni barpo etish va rivojlantirish kimning konsepsiyasiga asoslangan

A) M.Portyer

B) A.Jeyson

C) Artur Ouken

D) V.Tayler

4. Raqobatbardoshlikning yanada yuqori bosqichi qaysi

A) investitsiyalar asosidagi raqobatbardoshlik

B) talablar asosidagi raqobatbardoshlik

C) takliflar asosidagi raqobatbardoshlik

D) Monopolistik raqobatbardoshlik

5. O‘zbekistonda har yili taxminan necha tonna paxta xom ashyosi tayyorlanadi

A) 4,5 tonna

B) 5,5 tonna

C) 3,8 tonna

D) 2,9 tonna

6. O‘zbekiston qudratli resursli qishloq xo‘jaligi salohiyatiga va bir yilda necha mln. tonna meva-sabzavot mahsuloti ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.

A) 10mln

B) 8mln

C) 9mln

D) 7,8 mln

7. O‘zbekiston aholisining soni necha ming kishini tashkil qiladi.

A) 36400.0

B) 33267.8

C) 34568.4

D) 35322.5

8. O‘zbekistonda hozirgi vaqtgacha necha mingdan ortiq foydali qazilmalar va minyerallar koni aniqlangan

A) 2,7

B) 3,5

C) 2,8

D) 3,7

9. So‘nggi necha yil ichida O‘zbekistonda sabzavotchilik, polizchilik va uzumchilik jadal rivojlanmoqda

A) 25 yil

B) 18 yil

C) 23 yil

D) 24 yil

10. O'zbekistonda har yili necha mln. tonna turli xildagi sabzavot ekinlari etishtiriladi.

A) 2,7-3

B) 2,8-4

C) 3,2-2

D) 3,1-4

XXI bob. MAKROIQTISODIYOTDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING MUHIM ELEMENTLARI QO‘LLANILISHI

21.1. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish perspektivasi

Bilimlar uni yaratgan insondan ajralgan holda, kapital va ishchi kuchini to‘ldirib, ishlab chiqarishning mustaqil omiliga aylandi. Jamiyatimizni “bilimlar jamiyati” deyishga hali erta, ammo ijtimoiy rivojlanishdagi yangi yo‘nalishlar, iqtisodiyotdagi yangi qonunlar, kundalik hayotdagi o‘zgarishlar bu haqda ko‘proq o‘ylashga undamoqda. Dastlab shuni ta’kidlash kerakki, bilimlarning iqtisodiyotdagi muhim roli to‘g‘risidagi umumiy fikr yangilik emas. Ishlab chiqarish har doim turli shakldagi bilimlarga asoslangan. Kodifikatsiya qilingan ilmiy bilimlarga kelsak, ma’lumki, yangi davr ilm-fani boshidan o‘zining amaliy ahamiyati mafkurasida shakllangan. Insonning “bilim – bu kuch” g‘oyasida o‘z aksini topgan ishlab chiqarish faoliyatini o‘zgartiradigan dunyoda ilm-fanning yangi roli XVII asrdayoq Frensis Bekon asarlarida qayd etilgan.

Bilimlar iqtisodiyoti uchta muhim xususiyatga ega. Birinchisi, bilimning mahsulot sifatida diskretligi. Aniq bilimlar yaratilgan yoki yo‘q. Bilim yarimta yoki uchdan bir qismi bo‘lishi mumkin emas. Ikkinchi xususiyat, bilimlardan boshqa ijtimoiy boyliklar singari, barchaning istisnosiz foydalanishidan iborat. Uchinchi xususiyat, bu axborot mahsulotidir, axborot esa undan foydalanib bo‘lgach, oddiy moddiy mahsulot kabi yo‘qolmaydi:

- bilimlarni yaratish, ulardan foydalanish qobiliyati jahon maydonida raqobatbardoshlikni belgilaydigan asosiy omilga aylanmoqda;
- innovasion strategiyalar mamlakatlarning globallashuv sharoitida raqobatlashish va rivojlanish qobiliyatini ta’minlashda muhim o‘rin tutmoqda;
- bilimlarni yaratish, ulardan foydalanishni ta’minlash va joriy etishning yangi modellari paydo bo‘lmoqda (masalan, resurslardan ochiq foydalanish, bilimlar hamjamiyatlari);

- bilimlarni jadal qo‘llaydigan tarmoqlarga o‘tish yaxshi rivojlangan qobiliyat va iste’dod muhimligini qayd etadi;
- texnologiyalar imkoniyatlari davlat, biznes va fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlik uslublarini almashtirmoqda. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot bilimlardan raqobatbardosh rivojlanishning asosiy “lokomotivi” sifatida foydalanmoqda. Bunday iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashish maqsadida bilimlar egallanmoqda, yaratilmoqda, joriy etilmoqda va samarali qo‘llanilmoqda;
- an’anaviy iqtisodiyotdan bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga o‘tish ta’lim, innovatsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) uzoq muddatli investisiyalar sarflashni, shuningdek, resurslarni samarali yo‘naltirish va joylashtirishni ta’minlaydigan tegishli iqtisodiy hamda institusional sharoitlarni talab etmoqda.

2015 yilda elektron axborotlashtirish iqtisodiyotning barcha jabhalarini qamrab olindi. Elektron aloqa vositalari orqali davlat idoralari, biznes muhit, shuningdek, hukumat va uning xizmatlari iste’molchilari – biznes hamda aholi o‘rtasida axborot hujjat aylanishi ta’minlanadi.

Elektron axborot, monitoring va boshqaruv tizimlari barcha zamonaviy ishlab chiqarish va yirik xizmat ko‘rsatish sohalari, chunonchi, aholini elektr, suv va gaz bilan ta’minlash sohalari qamrab olinadi. Elektron boshqaruv barcha turdagi transport kommunikatsiyalari, shu jumladan, umumdavlat va davlatlararo avtomobil yo‘llari bilan ta’minlanadi. Sug‘oriladigan dehqonchilik tizimida elektron boshqaruv joriy etiladi.

Mamlakatlardagi raqobatchilik muhitining kuchayishi munosabati bilan Internet xizmatlari operatorlari va provayderlari soni muttasil ko‘payib bormoqda.

21.2. Iqtisodiy tuzilmaning mohiyati

Xalq xo‘jaligi bir-biri bilan juda izchil bog‘langan ko‘pgina makroiqtisodiy elementlardan iborat murakkab tizimdir. Bu elementlar orasidagi nisbatlar iqtisodiy tuzimni tashkil etadi.

Iqtisodiy tuzim halq xo‘jaligining muvozanatlashuvi, uning samarali va barqaror o‘sishi uchun muhim ahamiyatga ega. g‘arb davlatlarining ko‘pchiligi iqtisodiy o‘sishdagi muvaffaqiyatlar ko‘p hollarda chuqur tuzilmaviy o‘zgarishlar bilan bog‘langan. Bular ishlab chiqarishning umumiy o‘sishi va boshqa ijobiy sifat o‘zgarishlarini ta’minlaydi.

Janubiy Sharqiy Osiyoning qator yangi industrial davlatlaridagi ishlab chiqarishning tezkor o‘sishi avvalambor bu davlatlar uchun nostandart bo‘lgan tarmoqlarning joriy etilishi, ya’ni xo‘jalik tuzilmasining kuchli o‘zgarishi natijasida sodir bo‘ldi.

Sobiq Sovet hukumatining dastlabki 10 yilliklarida sanoat rivojlanishi foydasiga chuqur tuzilmaviy qayta qurish amalga oshirilgan edi. Bu mamlakatni qisqa muddatlarda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi bo‘yicha jahonda etakchi o‘rinlardan biriga chiqishiga imkon berdi. Shu bilan birga shakllangan iqtisodiyot tuzilma optimal emas ekan. Sanoat doirasida qazib chiqarish tarmoqlari va qurol ishlab chiqarish juda katta ulush (absolyut va nisbiy) ga ega bo‘ldi.

Umuman xo‘jalik tuzilmasi progressiv ijtimoiy yo‘nalishda borilmoqda edi. Qishloq xo‘jaligi va xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqarish tarmoqlari oqsay boshladi. Bu narsa bozor iqtisodiyotiga o‘tishni yanada qiyinlashtirdi va u tuzilmaiy qayta qurishni bizning mamlakatimiz tushib qolgan chuqur inqirozdan chiqishning markaziy muammolaridan biriga aylantirib qo‘ydi.

Tuzilma nazariyasi iqtisodiyotda yetarlicha faxrli o‘rinni egallaydi. Xususan, ushbu muammolarga Amerikalik olimlar V. Leontev, S. Ko‘znets, J. Gelbreyt va boshqalar o‘z e’tiborlarini qaratganlar.

21.3. Ijtimoiy tuzilma

Ijtimoiy tuzilma turli tashkiliy huquqiy tadbirkorlik shakllari o‘rtasidagi munosabatlarini ifoda etadi. G‘arb davlatlarining ko‘pchiligida kapital konsentratsiyalaShuvi va markazlashuvi jarayoni davom etmoqda. Mahsulot chiqarish hajmi kam sonli biroq yirik xo‘jaliklar qo‘lida to‘planmoqda.

21.3.1- jadval

Biznes tuzilmasi

Tashkiliy huquqiy shakl	Korxonalar soni		Oborot	
	Ming	%	mlrd dol	%
Yakka egalik firmalari	13091	71,3	610,8	6,0
O‘rtoqlik korxonalari	1648	9,0	411,4	4,0
Korporatsiyalar	3612	19,7	9185,5	90,0
Jami	18351	100	10207,7	100

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinadiki, yakka egalik firmalari va o‘rtoqlik korxonalari barcha biznes shakllarining 80%dan ortig‘ini tashkil etadi, ammo ularga jami oborotning bor-yo‘g‘i 10% to‘g‘ri keladi.

O‘zaro qo‘shilish va «yutib yuborish» jarayonlari davom etmoqda. Nafaqat mayda, balki yirik firmalar ham o‘z mustaqilligini yo‘qotmoqda.

Masalan, 1984 mlrd. dollarga ega bo‘lgan «Galf oyl» kompaniyasini yutib yubordi.

Bu bilan bir qatorda kichik va o‘rta biznesning intensiv rivojlanishi davom etmokda. AQSHda 50-yillarda yiliga 100 mingdan kam kichik firmalar tashkil etilardi, 80-yillarda esa 650 mingdan ortik tuzila boshlandi. Kichik biznesning uzluksiz rotatsiyasi jarayoni kechmokda. AQSHda har to‘rtinchi firma faoliyatining birinchi yilida bankrot bo‘ladi, qayta tashkil etilgan firmalarning 90%i 4 yildan ortik yashay olmaydi.

Germaniyada mayda va o‘rta korxonalarda jami band aholini 70%i to‘plangan. Bu korxonalarning yashovchanligi ularning yuqori ixtisoslashuvi, moslashuvchanligi, texnik yangiliklarga tezda javob berishi bilan izohlanadi. Qator davlatlarda kichik biznes yangi ish o‘rinlarining 80%gacha ta’minlaydi.

Ijtimoiy tuzilma o‘z ichiga turli aholi guruhlari daromadlarining differensiatsiyasini oladi. Unda tenglik va adolatlilik muammolari aks

etgan. Turli davlatlarda differetsiatsiya darajasi bir xil emas. Bozor iqtisodiyoti, odatda, daromadlar darajasida katta farqlarni nazarda tutadi. AQSHda 80-yillarning oxirida eng qashshoq 20% oilalar yalpi shaxsiy daromadning 5% dan kam qismini olishardi, eng boy 20% oilalar esa 44% ga yaqinini olishardi. Shu tahlil, aholining eng boy qatlami aholining eng kambag‘al qatlamiga qaraganda to‘qqiz barobar ko‘p daromad olgan. Shu bilan bir katorda zamonaviy taraqqiy etgan mamlakatlarda aholi guruhlari o‘rtacha daromadlarining nisbiy va absolut o‘sishi kelmoqda, bu ijtimoiy differensiatsiyaning umumiy darajasini sal kamaytiradi.

Rossiyada ijtimoiy tuzilma zamonaviy bozor iqtisodiyotini yaratish yo‘lida sezilarli o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Avvalgi sharoitlarda ijtimoiy tuzilma ishlab chiqarishning yuqori konsentratsiyasi hamda noqishloq xo‘jalik tarmoqlarda davlat mulkining yakka hokimligi bilan ajralib turar edi. 80-yillar oxirida personal soni 1000 kishidan ortik sanoat korxonalariga jami band aholining 88% dan ortig‘i hizmat qilgan. Bitta sanoat korxonasida o‘rtacha SSSRda 833 kishi, GFR va Yaponiyada 150 kishi, AQSHda esa bor-yo‘g‘i 53 kishi mehnat qilgan.

MDX davlatlarida islohotlarning amalga oshirilishi yetarlicha radikallik bilan ijtimoiy tuzilmani almashtiradi. Rossiya davlat statistika qo‘mitasining baholashicha, ro‘yxatga olingan yangi ho‘jalik shakllanmalarining soni 1992 yilda 950 mingga yetdi; ularning 400 mingdan ortig‘i o‘rtoqlik firmalari, 12 ming assotsiatsiya, konsern, konsorsiumlardir. 1993 yil oxirida Rossiyada faoliyatining barcha turi bilan band jami aholining (71 mln) dan 42 kishi davlat korxonalarida 29 mln.i esa xususiy va aralash korxonalarda mehnat qilishgan.

Shu bilan barcha kichik korxonalarning sekin rivojini ta’kidlab o‘tish joiz. 1992-yilda ular sanoat mahsulotlarining 4% dan ortig‘ini ishlab chiqarishgan.

21.4. Tarmoq tuzilmasi

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda siljishlarining umumiy qonuniyati qishloq xo‘jaligi va xom-ashyo tarmoqlari salmog‘ining sezilarli pasayishi, sanoatning texnik modernizatsiyasi va xizmatlar sohasi tarmoqlarining tezkor o‘sishida ko‘rinadi. Eng radikal o‘zgarishlar tarmoq osti sohalari darajasida yuz beradi, ularning doirasida eng yuqori dinamikaga ilm-fan ko‘p talab etadigan ishlab chiqarish sohalari ega bo‘ladi. AQSHda qayta ishlash sanoatida band bo‘lganlar sonining pasayishi asosan an’anaviy yuqori mehnat talab qiladigan ishlab chiqarish sohalari (oziq-ovqat, to‘qimachilik, tikuvchilik) hamda kapital ko‘p talab qiladigan tarmoqlar (xususan metallurgiya) hisobiga sodir bo‘ldi. Shu davrda elektrotexnika sanoati va uskunasozlikda band bo‘lganlarning soni so‘nggi besh yilda 1.5 baravaridan ko‘p o‘sdi.

Xarakterli o‘zgarishlar rivojlanayotgan mamlakatlar xususan yangi industrial davlatlar (YaID) ning tarmoq tuzilmaida yuz bermokda. Bu mamlakatlar birinchi navbatda Sharqiy Osiyo to‘rtligi (Singapur, Taivan, Janubiy Koreya va San Chang) yanada ko‘proq darajada mahsulot sifati va ishchilarning yuqori malakasiga tayangan holda texnik murakkab va ilmiy ishlab chiqarish tarmoqlariga ixtisoslashmoqda.

Oddiy, ko‘p mehnat talab qilinadigan buyumlar (masalan to‘qimachilik, kiyim-kechak, poyafzal) ni ishlab chiqarishning ustunligini saqlashga faqatgina arzon ishchi kuchiga ega, eksport ekspansiyasining yo‘liga kechroq kirgan davlatlar (Shri Lanka, Indoneziya, Filippin, Bangladesh) qodir bo‘lmoqdalar. Ular YaID o‘z pozitsiyalarni ishchi kuchi bahosining o‘sishi tufayli yo‘qotishi evaziga raqobatbordoshlikka erishmoqdalar. Shuning uchun mehnattalab ishlab chiqarish tarmoqlari ancha rivojlangan davlatlardan kam rivojlangan davlatlarga faol ko‘chib o‘tmoqda. Bunda yuqori muvaffaqiyatga arzon ishchi kuchi ustunligini zamonaviy ilmiy texnik yutuqlardan tanlab foydalanish bilan qo‘shib olib borganlar erishmoqdalar.

Tarmoq tuzilmasidagi o‘zgarishlar bizning mamlakatimiz uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Uzoq yillar davomida Rossiya

iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlari orasidagi munosabatlar yetarlicha **barqaror** bo‘lib keldi. Bu xalq xo‘jaligi tarmoqlarining milliy daromaddagi ulushini tasdiqlaydi.

21.4.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi va Samarqand viloyati bo‘yicha 2010-2023 yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha tarkibi (foizda)[30]

№	Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston			Samarqand		
		Yillar					
		2010	2023 yanvar - dekabr	2023 yil 2010 yilga nisbatan o‘zgarish (+ko‘p;- kam)	2010	2023 yanvar - dekabr	2023 yil 2010 yilga nisbatan o‘zgarish (+ko‘p;- kam)
1.	**Asosiy kapitalga kiritilgan investisiya jami**	100	100	0,0	100	100	0,0
2.	**Moddiy ishlab chiqarish shu jumladan:**	36,5	48,9	12,4	33,5	50,8	17,3
3.	**Sanoat**	31,6	38,9	7,3	30,8	37,4	6,6
4.	**Qishloq xo‘jaligi**	3,5	5,7	2,2	2,3	7,2	4,9
5.	**Qurilish**	1,4	4,3	2,9	0,4	6,2	5,8
6.	**Xizmat ko‘rsatish sohasi shu jumladan:**	63,5	51,1	-12,4	66,5	49,2	-17,3
7.	**Tashish va saqlash**	23,0	7,5	-15,5	6,7	13,9	7,2
8.	**Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari**	4,3		-4,3	2,3	9,0	6,7
9	**Turar-joy qurilishiga investisiyalar**	15,1	8,3	-6,8	27,3	11,9	-15,4
10	**Sog‘liqni saqlash, va ijtimoiy xizmatlar**	2,0		-2,0	1,9	1,9	0,0
11	**Ta’lim**	2,7	2,2	-0,5	23,0	10,7	-12,3
12	**Boshqalar**	16,4	33,1	16,7	5,3	1,8	-3,5

Inson hayoti va yashash falsafasiga ko‘ra, u o‘zining cheksiz ehtiyojlarini avvalambor egallab turgan kasbi, qo‘lidagi hunari orqali

[30] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi vaSamarqand viloyati statistik boshqarmasining 2007-2017 yy ma’lumotlari.

qondiradi. Har bir shaxsning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarining qondirilishi, orzu istaklarining amalga oshishi, o‘z manfaatlarini milliy manfaat darajasiga ko‘tarishi orqali mutaxassisligi bo‘yicha egallab turgan sohani, shu asosda tarmoqlarning rivojlanishiga erishiladi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘rta maxsus kasb-hunar bilim yurtlarida, oliy o‘quv yurtlarida tarmoq guruhlari bo‘yicha aholining bandligiga qarab, egallab turgan sohalarni kelajakdagi rivojlanish istiqboli aniqlanadi .

Aholi turmush darajasiga ta’sir etuvchi omillardan yana biri – moliyaviy ta’minot. Shu o‘rinda biz asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha o‘rganib chiqdik. Respublikada 2010 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarning 36,5 foizi moddiy ishlab chiqarish sohalariga sarflangan bo‘lsa, 63,5 foizi xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Moddiy ishlab chiqarishda asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarning ulushi 2010-2023 yillarda (mos ravishda 12,4 punktga) oshgan.

Xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlari bo‘yicha tahlilimiz quyidagi natijalarni berdi. Respublikada 2010 yilda eng ko‘p yo‘naltirilgan investisiya tashish va saqlash, turar-joy qurilish xizmatlariga to‘g‘ri kelgan. 2010-2023 yillarda turar-joy qurilishi xizmatida investisiyalarning ulushida sezilarli o‘sish sodir bo‘lgan. Tashish va saqlash xizmatlarida investisiyalarning ulushi sezilarli darajada qisqargan. Xattoki xorijiy investisiyalar salmog‘ining ko‘proq ulushi moddiy ishlab chiqarishning sanoat tarmog‘iga to‘g‘ri (mos ravishda 2010 yilda 22,4 foizni 2023 yilda 58,5 foiz) kelgan. 2010 yilda xorijiy investisiyalarning 74,2 foizi xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, eng yuqori ulush tashish va saqlash xizmatiga (46,0 foiz), axborot va aloqa xizmatiga (22,3 foiz) yo‘naltirilgan. 2023 yilda tashish va saqlash xizmatiga 13,1 foiz, axborot va aloqa xizmatiga 7,2 foizi yo‘naltirildi.

Xizmat ko‘rsatish sohasining yalpi milliy mahsulotdagi ulushi yildan-yilga ortib borar ekan, barqaror iqtisodiy rivojlanish asosini mehnat taqsimoti, yuqori malakali kadrlar, innovasion-integratsiyalashuv, investisiya va shunga o‘xshagan bir qancha omillar ta’sirida aholi turmush darajasi ham oshib boraveradi. Xulosa qilib shuni

aytishimiz mumkinki, asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar va xorijiy investisiyalarni ko‘proq ulushini xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga sarflash lozim.

21.5. Takror ishlab-chiqarish tuzilmasi

Bu iqtisodiyotning o‘sishi imkoniyatlari va uning samaradorligini aks ettiruvchi xo‘jalik tizimining kesimidir. Jamoatchilik takror ishlab chiqarish bo‘linmalari orasida uch xil munosabatlar juda muhimdir: jamoa takror ishlab chiqarish iste’mol o‘rtasidagi; iste’mol va jamg‘arish o‘rtasidagi; asosiy fondlar elementlari o‘rtasidagi munosabatlar.

1 va 2 bo‘linmalar o‘rtasidagi munosabatlar - sovet iqtisodiy fanlari uchun an’anaviy muammodir. Uzoq muddat texnik va iqtisodiy taraqqiyot hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning sharti deb 1 bo‘linmaning nisbatan ko‘proq o‘sishi hisoblanardi. Bu tamoyilning amalga oshirilishi SSSRda ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishning sanoatdagi salmog‘i 1986-yilda maksimal daraja - 75.3% ga etdi. Keyingi yillarda iste’mol buyumlari ishlab chiqarishi ancha tezroq o‘sdi, biroq uning salmog‘i 27.6% (1990 y) dan oshgani yo‘q. Shunga qaramay ko‘pgina sanoati rivojlangan mamlakatlarda iste’mol buyumlari ishlab chiqarishning ulushi ancha yuqori va bu iqtisodiy ko‘tarilishga to‘sqin qilmaydi.

Iste’mol va jamg‘arish o‘rtasidagi munosabatlar - kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning muhim shartidir. Odatda, jamg‘arish ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, iqtisodiyot o‘sish suroati ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Sobiq uchun milliy daromadning 25% ini tashkil etadigan jamg‘arish normasi xosdir. So‘nggi yillarda bu norma pasaydi va 1990 yilda 20.7% ni tashkil etdi. Rossiyada 1991-92 yillarda jamg‘arishning pasayishi (ham nisbiy, ham absolyut) davom etdi. 1992 yilda Rossiya iqtisodiyotidagi tuzilmaiy qayta qurish investitsion resurslarning cheklanganligi sharoitlarida amalga oshirilgandi. Kapital quyilmalari hajmi pasayishida davom etdi. Jamg‘armalarning YaIMdagi salmog‘i 8%gacha qisqardi. Bunda investitsiyalarning eng ko‘p miqdorda kamayishi tuzilmaiy siyosatning yo‘nalishi va dinamikasini belgilab beruvchi tarmoqlarda kechdi.

Investitsiyalarni qisqartirish hisobiga, ayniqsa, agar kapital quyilmalar samaradorligini oshirishga erishilsa, vaqtincha iste'mol hajmini kengaytirish mumkin. Birok istiqbolda investitsion tuzilmalarni to'xtatib qo'yish xo'jalikning umumiy o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Boshqa rivojlangan davlatlarda iste'mol va jamg'arish o'rtasida etarlicha turli va beqaror proporsiyalar shakllangan. Ko'p narsa siklik konyukturaga bog'liq. Ko'pincha jamg'arish milliy daromadning 15-20%i oralig'ida tebranib turadi. Ammo, masalan, Yaponiyada ba`zi yillarda jamg'arish 30%dan oshib ketgan.

Ishlab chiqarish tuzilmasida moddiy mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar infratuzilma deb ataluvchi, ushbu tarmoqlarning amal qilinishini ta'minlovchi iqtisodiy tizim elementlari o'rtasidagi nisbatlar muhim rol o'ynaydi.

U ikki guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish. Birinchi guruhga bevosita moddiy ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi tarmoqlar kiradi: temir va shosse yo'llar, energiya, suv va gaz ta'minoti, tabiatni muhofaza qilish inshootlari va x.k. Ikkinchi guruhga ishlab chiqarish bilan bilvosita bog'liq bo'lgan tarmoqlar kiradi: umumiy va kasb ta'limi, sog'liqni saqlash va x.k.

Infratuzilma tarmoqlari ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, ularning taraqqiyotsiz barcha ommaviy ishlab chiqarish samaradorligi keskin kamayib ketadi. Hozirgi sharoitlarda iqtisodiyotning miqdoriy va sifat taraqqiyotining infratuzilmasi holatiga bog'langanligi yaqqol ko'rinadi. Boshqa tomondan, infratuzilma elementlari, odatda kim ularga kapital yotqizsa, o'shanga darhol foyda keltirmaydi. Shu bilan birga ushbu kapital quyilmalarsiz iloji yo'q. Rossiya misolida ko'ringanidek, infratuzilmadagi nooqilona iqtisod ertami-kechmi ishlab chiqarishda texnik darajasining ortda qolishida ko'rinadi.

21.6. Hududiy tuzilma. Tashqi siyosat tuzilmasi

Hududiy tuzilma avvalambor ishlab chiqarish kuchlarining mamlakat hududida joylashishini belgilab beradi. Oqilona joylashtirish

korxonalarning xom-ashyo manbalari, energiya ta’minot, iste’mol hududlari, mehnat resurslari bilan joylashgan o‘rni o‘rtasidagi optimal aloqasini nazarda tutadi. Chuqur ommaviy mehnat taqsimoti sharoitlarida ma`lum mahsulot turlarini ishlab chiqarish bo‘yicha doimiy aloqalar, ya’ni ishlab chiqarish koopyeratsiyasi (hamkorligi vujudga keladi). Kooperatsiya aloqalari maksimal darajada ishlab chiqarish kuchlarining geografik joylashuvi bilan bog‘lanishi va yuk tashishlar uchun minimal xarajatlarni ta’minlashi maqsadga muvofiqdir.

Tashqi savdo tuzilmasi o‘ziga xos xalq xo‘jaligining aksi bo‘lib hisoblanadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun eksportda sanoat mahsuloti, ayniqsa, yakuniy, texnologik va ilmiy mahsulotlarning yuqori salmog‘iga ega. Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning importida xom-ashyo va materiallar ustuvor o‘rin tutadi.

Rivojlangan mamlakatlar importida xom-ashyo tovarlari, energiya tashuvchilari, ekologik zararli ishlab chiqarish mahsulotlari ustun turadi. Shu bilan birga bu mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimotidan foydalanib faol ravishda uskunalar, mashinalar, transport vositalarini sotib oladi. 80-yillar oxirida bu mahsulotlarning AQSH importidagi xissasi 40%, Buyuk Britaniyanikining 32%ni tashkil etdi.

Sobiq Sovetning tashqi savdo tuzilmai samarali emas edi. Eksportda energiya tashuvchilar va xom-ashyo matyeriallarining salmog‘i yuqori edi, bu sanoat ishlab chiqarishdagi imkoniyatlardan kuchsiz foydalanganlikdan dalolat beradi. Afsuski, bozor iqtisodiyotiga o‘tish tashki iqtisodiy aloqalar tuzilmasiga progressiv o‘zgarishlar kirita olmadi.

Shu bilan bir vaqtda Rossiya importida mashina-uskunalar va transport vositalari bilan bir qatorda qishloq ho‘jalik mahsulotlari va xalq iste’mol tovarlari yuqori o‘rinni egallaydi. Xususan, 1994-yilning birinchi yarmida Rossiya tovar importi to‘zilishi quyidagicha shakllangan: mashinasozlik mahsulotlari umumiy import hajmida 19%, yengil sanoat mahsulotlari 30%, oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jaligi xom-ashyosi esa 41%.

21.7. Iqtisodiy tuzilmaga ta’sir etuvchi vositalar

Iqtisodiy tuzilish bir xil ko‘rinishda qolmaydi. U o‘zgarishlar ta’sirida bo‘ladi. Va bu o‘zgarishlar qanchalik tezroq amalga oshsa, tuzilma ham elastik holda vaqt talablariga moslasha boradi va iqtisodiyot muvaffaqiyatli rivojlanadi. Ikkinchi Jahon urushidan keyin tuzilmaviy o‘zgarishlar amalda barcha mamlakatni egallab oldi: ularninng yo‘li bir xil bo‘lmasada, 2 ta asosiysini ajratish mumkin.

1-sida sof bozor munosabatlari vujudga keltirgan tabiiy kuchlar ustunlik qiladi. Tuzilma daromad me’yori o‘zgarishi natijasida almashadi. Istiqbolli bo‘lmagan elementlari bo‘lgan xo‘jalik korxonalari kam foydalilikka qanoat qilishadi yoki sinib ketishadi. Kapital, ishchi kuchi, tadbirkorlik bugungi kundagi foydali tomonga intiladi.

Boshqa yo‘l rivojlangan tuzilmaviy o‘zgarishlarni tezlashtirishda davlat dastaklaridan keng foydalanish yo‘lidir. Bu yerda odatda tuzilmaning qaysi elementlarini qisqartirishga tortilishi, qaysilariga maqsadga muvofiq yordam ko‘rsatish kerakligini oldindan aniqlashga yordam beruvchi zarur baholashlar qo‘llaniladi.

Birinchi yo‘lni shartli ravishda Amerika yo‘li deyish mumkin. U bo‘ylab 80-yillar Buyuk Britaniya yurdi. Bu yerda tayanch vazifasini davlatninng passiv aralashuvidagi bozor kuchlari bajardi. Bu yo‘l uzoqligi, sezilarli ijtimoiy yo‘qotishlarni o‘z ichiga olishi ko‘rindi, ishlab chiqarish samaradorligi o‘sishi sur`ati sekinligi kuzatildi.

Ikkinchi yo‘l Yapon yo‘li (bu yo‘lda Yaponiya 30 yildan beri va Janubiy Koreya bormoqda) markazlashtirilgan tartibga solish richaglari, davlat rejalashtirish va resurslarni tarmoqlararo tezkor taqsimlanishiga tayangan. Bu yo‘l kam ijtimoiy yo‘qotishlar va sezilarli samaradorlik o‘sishi su’ratlari bilan ancha tez kechadi.

Ustuvor tarmoqlarni aniqlashda qator mezonlar qo‘llaniladi. Ularni Janubiy Koreya misolida ko‘rib chiqamiz:

1) Eksport potensiali. Tarmoq avvalo milliy iqtisodiyotning afzalliklariga asoslanib, eksportni tez oshirish imkoniyatlarini namoyish qilishi kerak. Berilgan tarmoqninng tashki bozordagi raqobatbardoshligi, istikboli ko‘rib chiqiladi va baholanadi. Tabiiyki, soha eksport

potensialini baholashda jahon bozorida u yoki bu mahsulotga moslangan holda bozor kon`yunkturasi prognoz tuziladi.

2) Tarmoq mahsulotiga ichki bozorda talabning ko‘rinishi. g‘oya iqtisodiyotning importga tobeligini o‘sib borayotgan ichki ishlab chiqarish vositasida yumshatishga qaratilgan. Bu yerda asosan mahsulotga talab elastikligi an`anaviy holda aniqlanadi.

3) Millatning butunlikdagi rivoji. Sanoatning ustuvor tarmog‘i mamlakatni yanada industriallashgan boskichga yerishishiga ko‘maklashishi kerak. Masalan, Janubiy Koreya 5 ta besh yillik rejasi fan-texnika taraqqiyotini mamlakat kelajagi farovonligi zarur asosi sifatida aniqladi. Demak, ustunlik mamlakat fan va intellektual potensialini ko‘tara oladigan tarmoqlarga berildi.

4) Xom-ashyo va enyergiya importiga bog‘liqlikni kamaytirish, mamlakat resurs sig‘imini qisqartirish.

5) Mamlakat tovar balansidagi kamomadni minimallashtirish.

6) qulay qo‘shimcha samara. Agar byerilgan tarmoq tezlashtirilgan rivoji boshqa sektor yoki tarmoq ishlab chiqarish samaradorligi oshishini ta’minlasa, u ham ustun (nufuzli) soha sanalishi kerak.

Ustun sohalar aniqlanib va zarur akseptlar quyilgach, tuzilmaviy siljishlar rejasi ishlab chiqish va amalga oshirish boshlanadi.

Tuzilmaviy siyosatni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Turli mamlakatlarda tuzilmaviy siyosatni amalga oshirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. AQSHda tuzilmaviy siyosatida anoanaviy tartibga solish dastaklari qo‘llaniladi: kredit va soliq imtiyozlari, tashki iqtisodiy tarif siyosati.

Bu mamlakatda boshqa g‘arb davlatlari kabi (masalan, Buyuk Britaniya xokimiyatga M. Tetchyer kelgach) hukumat iqtisodiy siyosati tushkunlikdagi tarmoqlar (metallurgiya, kemasozlik, tekstil) ishlab chiqarishlari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bundan maqsad ularni sekin, yemirilishlarsiz qisqartirish.

AQSHda soliq va kredit imtiyozlari (Reygan ma`muriyati 80-yillar boshida krizisni bartaraf etish uchun keltirgan) hamma sohalarga tarqalgan. Moliyaviy yutuqninng katta qismi avvalo sanoatning kapital talab tarmoqlariga tushdi. Kongressning import tariflari sohasidagi

siyosati AQSHda dunyo bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni saqlashni rağbatlantirdi.

Yaponiya va qator o‘zga Osiyo mamlakatlariga yanada aktivrok tuzilmaviy siyosat xos. 50-yillar boshida Yaponiyada iqtisodiy qiyinchilik, ishlab chiqarishning to‘xtash va pastlashni boshdan kechirayotgan tarmoqlar tushkunlik karteli yaratila boshladi. Bundan maqsad ahamiyatini yo‘qotgan ishlab chiqarish tarmoqlarini umumiy hajmini kamaytirishdir. Yaponiya tashqi savdo va sanoat vazirligi ko‘mir sanoati keyingi rivojini maqsadga nomuvofiq sanab, 60-yillarda shaxtalarni qisqartirish va bo‘shatilgan shaxtyorlarni professional qayta tayyorlash davlat dasturi yuzaga keldi. 70-yillar oxirida faqat yuqori samarali shaxtalar ishlardi, ko‘mir sanoati ishchilari soni 10 marta kamaydi.

Tekstil sanoati ish haqi xarajatlari oshgach, u ham o‘zining avvalgi ustunligini yo‘qota bordi va Yaponiyada bu tarmoqni qisqartirish dasturi qabul qilindi. Faqat 70-yillarning birinchi yarmida bu tarmoqda 42% band bo‘lgan 800 dan ziyod fabrika yopildi.

70-yillar kemasozlikda mehnat sig‘imi ortdi va ishlab chiqarish samaradorligi o‘sish sur`ati sekinlashdi. Buning izidan Yapon kemasozligida qotib qolish boshlandi. Energiya manbalari bahosi oshganidan alyumin sanoati kam rentabelli sanoatga aylandi va 85 yil 15%ga to‘xtatildi. Shu vaqtning o‘zida avtomobilsozlik, elektron sanoati, sintetik materiallar ishlab chiqarish tezlik bilan rivojlana bordi. Bo‘lar hammasi davlat ko‘magida amalga oshirildi. 1978-yil “Sanoatning ba’zi tushkunlikdagi tarmoqlarini barqarorlashtirishning maxsus choralari to‘g‘risida”gi qonun paydo bo‘ldi. 1983 - yil uni “Sanoatning ba`zi tarmoq tuzilmalarini mukammallashtirishning maxsus choralari to‘g‘risida”gi qonun almashdi.

1983-yilgi qonunga muvofiq hukumat ITTKI o‘tkazishga kredit, subsidiya berish yo‘li bilan ko‘maklashuvi natijasida 26 sanoat tarmog‘i tubdan yangilandi.

Rivojlangan mamlakatlar tuzilmaviy o‘zgarishlar tajribasi shundan dalolat beradiki, u davlat tashkiliy ko‘maklashuvidagi sharoitda yuqori samara beradi.

21.8. O‘zbekiston iqtisodiy tuzilmasini qayta qurish yo‘nalishlari

O‘zbekiston oldida tuzilmaviy siyosat sohasida favqulodda muhim va zarur masalalar turibdi**.** Ular hamma soha bo‘yicha tuzilmani tubdan o‘zgartirishi kerak.

Ijtimoiy tuzilma mulkchilik tizimiga o‘zgartirishlar kiritishni talab qiladi. (korxonalarni xususiylashtirish, demonopollashtirish, kichik korxonalarni rivojlantirish, shu jumladan fermyer xo‘jaliklarni tez o‘stirish).

Tarmoq tuzilmasi harbiy sanoatni keskin o‘zgartiradigan extiyot predmetlarini ishlab chiqarish ustivor rivojlanishi tomonga o‘tishi kerak. Bir vaqtning o‘zida bugungi kun texnikaviy rivojlanish darajasiga mos keladigan tarmoqni rivojlantirish (ko‘p xollarda yangidan kiritish) asosiy masaladir. Ularga quyidagilar kiradi: EHMning beshinchi va keyingi avlodlarini, axborot tarmoqlarini, telekommunikatsiyani, dastur ta’minotini, hisoblash texnikasini, mikroelektronika vositalarini ishlab chiqarish.

Tuzilmani qayta qurish masalalari MDXdagi barcha iqtisodiy islohotlar dasturida o‘z ifodasini topgan. Xususan, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturida Rossiya Fedyeratsiyasi hukumati o‘zining maxsus «Tuzilmaviy siyosat»iga ega. Unda aytilishicha, tuzilmani qayta qurishning 1-bosqichida investitsion resurslar yetishmovchiligi kuchli seziladi, moliyaviy bozorning yetilmaganligi institutsional investorlar samarasi yo‘qligi kapital harakatini sustlashtirishni, mavjud investitsional resurslari samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun tuzilmani yaxshi tashkil qilish mavjud imkoniyatlarni katoiy chegaralashni, tarmoqlararo va tarmoq ichida resurslarni qayta taqsimlashni o‘zgarib turishni talab qiladi.

Bu dasturni amalga oshirish boshqa islohot dasturlari qatori xalq xo‘jaligida qator chuqur o‘zgarishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni talab etadi va ko‘p yillarga mo‘ljallanadi.

Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida tuzilma ijobiy o‘zgarishlari barcha bozor subyektlarini nafaqat makro, balki mikro darajada aktiv faoliyat ko‘rsatishiga qaratilgan. Xususan, ko‘p narsa

alohida birlashma va firmalar faoliyatiga bog‘liq. Mamlakatda o‘tkazilayotgan tuzilmaviy siyosatni hisobga olib har bir xo‘jalik subyekti o‘zining istiqbolini belgilab olishi kerak. Bir qator hollarda ma`lum egiluvchanlik va moslashuvchanlikka erishish uchun o‘z ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bu yerda davlat tuzilmani qayta qurish dasturi imtiyozlaridan foydalana olish, hamda davlat tuzilmaviy dasturida foydalanayotgan tartibga solish regulyatoriga aktiv ta’sir o‘tkazish muhimdir.

Tuzilmaviy qayta qurishda asosiy rolni korxona va firmalar tashki iqtisodiy faoliyati o‘ynaydi. Bu faoliyat tashki iqtisodiy aloqalar samarasini yuqori darajada ta’minlovchi yo‘nalishda aktivlashtirilsa, ular makro va mikro darajada ko‘proq foyda keltiradi.

Qisqacha xulosalar

1. Jamiyat iqtisodiy rivoji uning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bazasida yuruvchi ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari evolyusiyasidir. iqtisodiy rivojlanish dinamikasi ko‘rsatkichlari ko‘psonli, ular hamma vaqt ham sonli baholashga bo‘ysunmaydi va ko‘pincha turli yo‘nalishda harakat qiladi.

2. Iqtisodiy rivojlanish jarayonini o‘lchashdagi qiyinchiliklar tufayli maroiqtisodiyotda iqtisodiy o‘sish tahlil kilinadi. iqtisodiy o‘sish moddiy va qiymat ko‘rinishida o‘lchanishi mumkin.

3. Iqtisodiy o‘sish ishlab chiqarishning qator omillari bilan aniqlanadi: mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati. Ular o‘z navbatida yanada mayda omillar (elementlar)dan tashkil topadi. Ularning tashqi va ichki iqtisodiy omillar yoki o‘sishning ekstensiv va intensiv omili sifatida guruhlaymiz.

4. Iqtisodiy o‘sish agarda ishlab chiqarish omillarini ko‘paytirish hisobiga erishilsa ekstensiv va agar ular sifatini mukammallashtirish va yanada oqilona foydalanish hisobiga bo‘lsa intensiv bo‘ladi.

5. Iqtisodiy o‘sishning yetakchi elementi bo‘lib hozirgi davrda FTT hisoblanadi. FTT yutuqlari rivoji va ularni o‘zlashtirish bilan intensiv omillar ko‘paymoqda.

6. Iqtisodiy o‘sishning zamonaviy nazariyalari neoklassik va keynschilik yo‘nalishida rivojlanmokda va Davlat jamiyat iqtisodiy rivoji strategiyasi, davlat iqtisodiy o‘sishni tartibga solish shakl va uslublarida o‘z aksini topmoqda.

7. Xalq xo‘jaligi bir-biri bilan jins aloqadagi ko‘plab makroiqtisodiy elementlardan tashkil topgan murakkab tizimdir. Bu elementlar orasidagi munosabatlar iqtisodiy tuzilmani tashkil etadi. Odatda ijtimoiy, tarmoq, ishlab chiqarish, hududiy va tashki savdo tuzilmalari ajratiladi.

8. Ijtimoiy tuzilma tadbirkorlikning turli tashkiliy-huquqiy shakllari orasidagi o‘zaro munosabatlarni va aholi turli guruhlari daromadlari xilma-xilligini aks ettiradi.

9. Tarmoq tuzilmasi turli tarmoqlararo, tarmoq ichidagi o‘zaro munosabatlarni ifodalaydi.

10. Xalq xo‘jaligi juda murakkab tizim bo‘lib, juda ko‘p makroiqtisodiy elementlardan iborat. Odatda ijtimoiy tarmoq, takror ishlab-chiqarish, hududiy va savdo tuzilmani ajratishadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy tuzilmaning mohiyati.
2. Ijtimoiy tuzilma ko‘rsatkichlari.
3. Tarmoq tuzilmasi ko‘rsatkichlari
4. Takror ishlab-chiqarish tuzilmasi ko‘rsatkichlari
5. Hududiy tuzulmako‘rsatkichlari
6. Tashqi siyosat tuzulmasi ko‘rsatkichlari
7. Iqtisodiy tuzilmaga ta’sir etuvchi vositalar.
8. O‘zbekiston iqtisodiy tuzilmasini qayta qurish yo‘nalishlari.

Mavzular bo‘yicha test savollari

1. Iqtisodiyotning o‘sishi imkoniyatlari va uning samaradorligi aks ettiruvchi xo‘jalik tizimining kesimi bu qaysi tuzilma hisoblanadi.

A) Tarmoq tuzilmasi B

B) Takror ishlab chiqarish tuzilmasi

C) Hududiy tuzilma

2. Ijtimoiy tuzilma qanday namoyon buladi

A) Turli tashkiliy huquqiy tadbirkorlik shakllari o‘rtasidagi munosabatlarni ifoda etganda

B) YAiM ko‘rsatgichlari o‘zgarganda

C) Ishlab chiqarish kengayishida

D) Turli tamoqlar orasidagi munosabatlarni ifoda etsa

3. Iqtisodiy o‘sish qanday ko‘rinishda o‘lchanadi

A) agregat

B) moddiy va qiymat

C) klassik

D) nomoddiy

4. Hududiy tuzilma ishlab chiqarish kuchlarining qayerda joylashganini belgilaydi

A) mamlakat hududida

B) chet elda

C) sohalarda

D) xo‘jalik faoliyatida

5. Korxonalarning xom-ashyo manbalari, energiya ta’minot, iste’mol hududlari, mehnat resurslari bilan joylashgan o‘rni o‘rtasidagi optimal aloqasini nazarda tutadigan iqtisodiy kategoriya qaysi

A) hududiy tuzilma

B) oqilona joylashtirish

C) tarmoq tuzilma

D) iqtisodiy tuzilma

6. Qaysi tizim xalq xo‘jaligining muvozanatlashuvi, uning samarali va barqaror o‘sishi uchun muhim ahamiyatga ega

A) siyosiy tizim

B) moliyaviy tizim

C) Iqtisodiy tizim

D) ijtimoiy tizim

7. Iste’mol va jamg‘arish o‘rtasidagi munosabatlar qaysi tuzilmaning muhim sharti hisoblanadi

A) takror ishlab chiqarish .

B) tarmoq

C) ijtimoiy

D) hududiy

8. Ikkkinchi jahon urushidan keyin tuzilmaviy o‘zgarishlar necha yulda olib borildi

A) 4

B) 3

C) 2

D) 8

9. Tuzilmaviy uzgarishlarda davlatlar richak vazifasini o‘taganda qaysi davlatlar qatnashdi

A) XITOY VA ROSSIYA

B) AMERIKA VA YAPONIYA

C) BRAZILIYA VA FRANSIYA

D) GERMANIYA VA KOREYA

10. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng nechanchi yillarda kemasozlikda mehnat sig‘imi ortdi va ishlab chiqarish samaradorligi o‘sish sur`ati sekinlashdi.

A) 90-yillarda

B) 80-yillarda

C) 70-yillarda

D) 60-yillarda

Test javoblari

№	Mavzular nomeri																				
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21
1	A	A	C	B	A	A	A	A	A	A	D	A	B	B	C	A	A	A	C	A	C
2	C	C	A	A	A	A	C	B	D	D	D	A	A	D	A	C	A	A	D	B	A
3	D	B	B	B	A	A	B	A	B	C	D	A	D	A	B	C	A	A	A	A	B
4	B	D	D	D	A	A	B	C	C	A	A	D	C	B	D	B	A	A	B	D	C
5	A	A	A	C	A	A	A	C	A	D	A	A	A	A	A	A	A	A	C	C	A
6	C	C	C	A	A	A	A	A	D	B	A	D	C	D	B	C	A	A	C	A	D
7	B	B	A	C	A	A	D	D	B	C	A	A	A	C	D	D	A	A	B	C	C
8	D	D	C	B	A	A		A	A	A		A	C	A	A	B	A	A	A	B	
9	A	B	D	C	A	A		B	D	D			D	B	C	D		A	D	D	
10	C	A	A	A	A	A		B	B	B			C	C	B	B		A	B	D	

Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Abel A.B., Bernanke B.S, Croushore D. Macroeconomics. 8 th edition. USA: Amazon, 2013.
2. Edward Shapiro. Macroeconomic analysis. Fifth edition. Oxford. Copyright 2015.
3. McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 8
4. Махмудов Н.М., Асқарова М.Т., Умаров И.Ю. Макроиқтисодий таҳлил ва прогнозлаш. Дарслик. Т.: “Фан ва технологиялар”, 2014 – 338 б.
5. Макконнел К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. Учебник. 19-изд. - М.: ИНФРА-М, 2013. – 916 стр.
6. Аҳмедов Д.Қ, Ишмухаммедов А.Э., Жумаев Қ.Ж., Жумаев З.А. Макроиқтисодиёт Дарслик. Ўзбекистон ёшлар уюшмаси Адабиёт нашриёти, Тошкент 2004 239б.
7. Ташпулатова. Л.М. Макроэкономический анализ. Учебное пособие. Т.: УМЕД, 2006, 280 б.
8. T.Z.Teshabayev, Z.M.Otaqo‘ziyeva, Makroiqtisodiyot. Ma’ruzalar matni, T.: TATU, 2015, 480 b.
9. T.U.Bobokulov, N.G.Karimov, U.A.Abdullayev. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari. Ma’ruzalar matni. T.: TMI, 2015, 244 b.
10. R.T.Shomurodov. Monetarsiyosat. Ma’ruzalar matni. T.: TMI, 2015, 151 b.
11. Шодмонов Ш.Ш., Мамараҳимов Б.Э.Иқтисодиёт назарияси. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”нашриёти, 2016. – 261 бет.
12. Мухаммедов., Ю.П.Урунбаева ва бошқалар “Иқтисодиёт назарияси” –Ўқув қўлланма Самарқанд – 2016 –270 бет.,
13. Мухаммедов., Ю.П.Урунбаева ва бошқалар Иқтисодиёт назарияси. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2018. – 181 бет.
14. Жўраев Т.Т. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2017. – 337 бет.

15. Ўлмасов А. Ваҳабов А. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA” нашриёти, 2014. – 264 бет.

16. Мамаюнус Пардаев., Юлдуз Урунбаева “Макроиқтисодий кўрсаткичлар ва уларнинг ўзгаришларини баҳолаш йўллари” Самарқанд: 2020. 52 бет.

17. Мамаюнус Пардаев., Олтаев Ш.С., Х.А.Улашов., Урунбаева Ю.П. Макроиқтисодий таҳлил ва прозгозлаштириш. Маъруза курси. Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти С 2019.335 б.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va maьrifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. “MA’NAVIYAT HAYOTIMIZDA YANGI KUCH, YANGI HARAKATGA AYLANISHI KERAK”Xalk so‘zi 2023 yil 23 dekabr, №274 (8617) 2 bet.

2. Ш.М. Мирзиёев. O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida.

3. Ш.М. Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -48 б.

4.Ш.М. Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -488 б.

5.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), – 2023 й.

6.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

7.O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 1999-2022 yy.

8.Urumbaeva, Y. P., & Raximberdiyev, T. (2023). COMPREHENSIVE ANALYSIS OF POPULATION INCOME LEVELS. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 2(11), 8-14.

9.Urinboeva, Y. P., Khasanovna, D. D., & Shodmonovna, S. C. (2021). THEORETICAL APPROACHES TO THE FORMATION OF LIVING STANDARDS AND SERVICES OF THE POPULATION. International journal of trends in commerce and economics, 11(1).

10.Urunbayeva, Y. P. (2019). THE ROLE OF THE SERVICE INDUSTRY IN THE FORMATION OF POSTINDUSTRIAL SOCIETY. In Colloquium-journal (No. 26-8, pp. 11-15). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості= Голопристанский районный центр занятости.

11.Umirzakova, M. I., & Baratova, M. I. (2021). THE ESSENCE OF THE SERVICE SECTOR AND THE SOCIO-ECONOMIC SIGNIFICANCE OF RAPID DEVELOPMENT TODAY. Экономика и социум, (11-1 (90)), 591-597.

12.Урунбаева, Ю. П. (2023). Аҳоли бандлигини оширишда хизмат кўрсатиш соҳасининг ўрни. FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS", 14(1).

13.Уринбаева, Ю. П., Ҳимматова, Б. Б., & Уралов, Ш. А. (2019). Аҳоли бандлигини таъминлашда оилавий тадбиркорликнинг ўрни. молодой исследователь: вызовы и перспективы (pp. 472-475).

14.Урунбаева, Ю. П., Нуруллаева, Ш. И. К., Давлатова, Н. Б. К., Истамов, Ш. А. У., & Очилова, Ю. Т. К. (2019). Роль услуг в развитии инновационной экономики. Достижения науки и образования, (7 (48)), 15-17.

15.Урунбаева, Ю. (2016). Роль сферы услуг в социально-экономическом развитии страны. Экономика и инновационные технологии, (4), 38-46.

16.Урунбаева, Ю. П. (2013). Хизмат курсатиш сохдси ва ахоли турмуш даражаси: узаро богликлиги ва ривожланиш истикболлари. Монография. Тошкент:«ФАН, 156.

17.Урунбаева, Ю. П. (2020). Некоторые пути повышения уровня жизни население. In Российская экономика: взгляд в будущее (pp. 180-185).

18.Урунбаева, Ю. (2016). Возможности увеличения свободного времени населения на основе развития сферы услуг. Экономика и инновационные технологии, (5), 88-93.

19.Уринбаева, Ю. П. (2016). Перспективы повышения уровня жизни населения на основе развития малого и частного бизнеса. Научный альманах, (11-1), 321-326.

20.Урунбаева, Ю. П. (2016). Уровня жизни населения это социально-экономическая природа. In Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы (pp. 58-60).

21.Урунбаева, Ю. П. (2016). Сферы услуг и уровень жизни населения. In Наука сегодня фундаментальные и прикладные исследования (pp. 97-99).

22.Уралов, Ш. А., & Урунбаева, Ю. П. (2020). Теоретико-методологические проблемы развития сферы услуг. In ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ГОДА 2020 (pp. 116-123).

23.Уралов, Ш. А., Нурматова, С. А., & Урунбаева, Ю. П. (2020). Предпринимательская деятельность как главный фактор развития экономики, основанной на рыночных отношениях. In Студент года 2020 (pp. 105-112).

24.Урунбаева, Ю. П. (2024). Меҳнат ресурслари–тараққиётининг бош омили. Образование наука и инновационные идеи в мире, 43(3), 57-60.

25.Урунбаева, Ю. П. (2024). Хизмат кўрсатиш соҳасини–аҳоли турмуш даражасига таъсир этувчи омили. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 19(1), 166-171.

26.Урунбаева, Ю. П. (2024). Хизмат кўрсатиш соҳасининг аҳамияти. Ustozlar uchun, 56(1), 186-190.

27.Урунбаева, Ю. (2024). Меҳнат ресурслари–миллий иқтисодиётни ривожлантиришнинг асосий омилидир. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(2), 644-649.

28.Урунбаева, Ю. П. (2023). Роль малого бизнеса в развитии страны. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(9), 105-108.

Internet saytlari

1. http:// www.gov.uz
2. http:// www.lex.uz
3. http://www.mineconomy.uz
4. http://www.mf.uz
5. http://www.stat.uz
6. http://www. soliq.uz
7. http://www.cbu.uz
8. http://www.wordbank.org
9. http://www.ebrd.org.
10. http://www.imf.org
11. http://www.cemi.rssi.ru
12. http://www.nber.com
13. http://www.webofscience.com
14. http://www.scopus.com
15. http://www.elibraru.ru
16. http://www.emeraldinsight.com

MUNDARIJA

KIRISH 3
I bob. MAKROIQTISODIYOTGA KIRISH 12
1.1. “Makroiqtisodiyot” fanining shakllanish tarixi, predmeti va ob’ekti 12
1.2. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari.....17
1.3. “Resurslar- tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy oqimi modeli 20
Qisqacha xulosalar 24
Nazorat va muhokama uchun savollar 25
Mavzular bo‘yicha test savollari 25
II bob. ASOSIY MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR.....28
2.1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar.....28
2.2. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari.....38
2.3. YaIMni ishlab chiqarish usulida aniqlash 41
2.4. YaIMni xarajatlar bo‘yicha hisoblash 44
2.5. YaIMni daromadlar bo‘yicha hisoblash.....46
2.6. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko‘rsatkichlar va ular o‘rtasidagi nisbat 48
2.7. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar.....49
2.8. Nominal va real YaIM.....52
Qisqacha xulosalar 55
Mavzular bo‘yicha test savollari 57
III bob. IQTISODIY TEBRANISHLAR. ISHSIZLIK.....60
3.1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari 60
3.2. Mehnat bozori, ishsizlik tushunchasi, ishsizlikning turlari, o‘lchanishi va to‘la bandlik.....64
3.3. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. A. Ouken qonuni 67
3.4 .O‘zbekiston Respublikasida ishsizlar sonini hisoblash metodiksi .71
Qisqacha xulosalar 74
Nazarot va muhokama uchun savollar 74
Mavzular bo‘yicha test savollari 75
IV bob. INFLYATSIYA VA INFILYATSIYAGA QARSHI SIYOSAT 77
4.1. Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari 77
4.2. Inflyatsiyaning turlari. Talab va taklif inflyatsiyasi 79

4.3. Inflyatsiya va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlik. Fillips egri chizig‘i 82
4.4. Aksilinflyatsiya siyosati va uni amalga oshirish xususiyatlari 84
Qisqacha xulosalar 87
Nazarot va muhokama uchun savollar 88
Mavzular bo‘yicha test savollari 88
V bob. YALPI TALAB - YALPI TAKLIF MODELI.....91
5.1. AD-AS modeli xaqida tushuncha.....91
5.2. AD egri chizig‘i va unga ta’sir etuvchi omillar.....92
5.3. AS egri chizig‘i va unga ta’sir etuvchi omillar 95
5.4. AD-AS modelida narxlar va milliy ishlab chiqarish real hajmining muvozanatli darajalari.....98
Qisqacha xulosalar 101
Nazarot va muhokama uchun savollar 102
Mavzular bo‘yicha test savollari 103
VI bob. ISTE’MOL, JAMG‘ARISH VA INVESTITSIYA FUNKSIYALARI.....105
6.1. Daromad va iste’mol o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.....105
6.2. Iste’mol va jamg‘arish, ularning grafiklari 107
6.3. Iste’mol va jamg‘arishga o‘rtacha va chegaraviy moyillik.....110
6.4. Investitsiya va unga talab 113
Qisqacha xulosalar 118
Nazorat va muhokama uchun savollar 119
Mavzular bo‘yicha test savollari 119
VII bob. KEYNSNING TOVARLAR VA XIZMATLAR BOZORIDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT MODELI ..122
7.1. Klassik iqtisodchilarning iqtisodiy muvozanat nazariyasi.....122
7.2. Keynsning iqtisodiy muvozanat nazariyasi.....125
7.3. Klassik iqtisodchilar va keynschilar iqtisodiy muvozanat nazariyalarida jami talab va uning o‘zgarishi 129
7.4. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar. “Keyns xochi”. Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi.....131
7.5. Keynsning bandlik nazariyasi. Mustaqil xarajatlar multiplikatori 133
Qisqacha xulosalar 138
Nazorat va muhokama uchun savollar 139
Mavzular bo‘yicha test savollari 139
VIII bob. DAVLAT BYUDJETI, SOLIQLAR VA DAVLAT QARZI.....142

8.1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi 142
8.3. Soliq tizimi va uning vazifalari 148
Qisqacha xulosalar 150
Nazorat va muhokama uchun savollar 151
Mavzular bo‘yicha test savollari 151
IX bob. BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI 154
9.1. Byudjet-soliq siyosatning mohiyati, usullari va davlat xarajatlari multiplikatori 154
9.2. Soliq va balanslashgan byudjet multiplikatorlari 155
9.3. Fiskal siyosat turlari 157
9.4. Byudjet ortiqchaligini kamaytirish va byudjet kamomadini moliyalashtirish usullari. Ochiq iqtisodiyotda fiskal siyosat 161
Qisqacha xulosalar 163
Nazorat va muhokama uchun savollar 164
Mavzular bo‘yicha test savollari 164
X bob. PUL BOZORIDA MUVOZANAT 166
10.1. Pul taklifi modeli 166
10.2. Pul bozorida muvozanatga yerishish va pul multiplikatori 168
10.3. Pul-kredit tizimi.....171
Qisqacha xulosalar 174
Nazorat va muhokama uchun savollar 174
Mavzular bo‘yicha test savollari 175
XI bob. PUL - KREDIT SIYOSATI.....177
11.1. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari.....177
11.2. Pul-kredit siyosati va uni amalga oshirish vositalari.....179
11.3. Davlat pul-kredit siyosatining asoslari 185
Qisqacha xulosalar 187
Nazorat va muhokama uchun savollar 188
Mavzular bo‘yicha test savollari 188
XII bob. IS-LM MODELI 190
12.1. IS - egri chizig‘i va uning o‘zgaruvchilari 190
12.2. LM - egri chizig‘i va uning o‘zgaruvchilari.....192
12.3. IS - LM modeli va undagi makroiqtisodiy muvozanat.....196
Qisqacha xulosalar 197
Nazorat va muhokama uchun savollar 198
Mavzular bo‘yicha test savollari 198
XII bob. IQTISODIY O‘SISHNING UMUMIY TAVSIFI VA NEOKEYNSCHA MODELLARI 201

13.1. Iqtisodiy o‘sish tushunchasi 201
13.2. Iqtisodiy o‘sish o‘lchovi: potensial va xaqiqiy daromad dinamikasi 203
13.3. Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar.....204
Qisqacha xulosalar 207
Nazorat va mulohaza savollari.....208
Mavzular bo‘yicha test savollari 208
XIV bob. IQTISODIY O‘SISHNING NEOKLASSIK MODELLARI.....211
14.1.Iqtisodiy o‘sish modellari.....211
14.2. Robyert Solou modeli 212
Qisqacha xulosalar 214
Nazorat va muhokama uchun savollar 215
Mavzular bo‘yicha test savollari 215
XV bob. XALQARO SAVDO NAZARIYASI.....219
15.1. Xalqaro savdo nazariyasiga turli yondashuvlar 219
15.2. Xalqaro savdo rivojlanishining ahamiyati va uning asosiy ko‘rinishlari.....224
15.3.Tashki savdo kontraktlarini tuzish va ularning turlari 225
Qisqacha xulosalar 228
Nazorat va muhokama uchun savollar 228
Mavzular bo‘yicha test savollari 229
XVI bob. TASHQI SAVDO SIYOSATI 231
16.1.Savdo siyosatining mohiyati. Bojxona tariflari nazariyasi.....231
16.2. Bojxona tariflarining ishlab chiqaruvchilarga, iste’molchilarga va mamlakat aholisi turmush darajasiga ta’siri.....234
16.3. Proteksionizm siyosatining vazifalari va mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati 235
16.4. Import kvotalari va litsenziyalarini taqsimlash uslublari.....237
Qisqacha xulosalar 239
Nazorat va muhokama uchun savollar 240
Mavzular bo‘yicha test savollari 240
XVII bob. VALYUTA KURSI.....242
17.1. Valyuta kursi tushunchasi va valyuta ayirboshlash zaruriyati ...242
17.2. Valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari 244
17.3. Valyuta kursini aniqlovchi omillar.....248
17.4. Valyuta kursini aniqlash.....250

17.5. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valyuta kursiga ta’siri 252
Qisqacha xulosalar 254
Nazorat va muhokama uchun savollar 255
Mavzular bo‘yicha test savollari 256
XVIII bob. OCHIQ IQTISODIYOTDA MAKROIQTISODIY SIYOSAT 258
18.1. Yopiq va ochiq iqtisodiyot tushunchasi 258
18.2. Davlatning iqtisodiy funksiyalari va bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvining zarurligi 259
18.3. Davlat tomonidan yuritiladigan makroiqtisodiy siyosatlarning ko‘rinishlari 261
18.4. Resurslar va daromadlarni ijtimoiy manfaatlarni e’tiborga olgan holda qayta taqsimlash 263
18.5. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining monetar yo‘nalishlari 265
Qisqacha xulosalar 266
Nazorat va muhokama uchun savollar 267
Mavzular bo‘yicha test savollari 268
XIX bob. RAQAMLIN IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY JARAYONDAGI AMALIY MOHIYATI 270
19.1. Raqamli iqtisodiyotning mazmun mohiyati 270
19.2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida raqamli iqtisodiyotning o‘rni 271
19.3. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish holati va istiqbollari.....275
Qisqacha xulosalar 277
Nazorat va muhokama uchun savollar 278
Mavzular bo‘yicha test savollari 278
XX bob. O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI 281
20.1. Iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari va omillari 281
20.2. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining davlat tomonidan tartibga solinishi.....289
20.3. Iqtisodiy rivojlanishning raqobatbardosh strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida chet el tajribasi 292

20.4. Milliy iqtisodiyotdagi institutsional o‘zgarishlarning konseptual asoslari 295
Qisqacha xulosalar 301
Mazorat va muhokama uchun savollar.....302
Mavzular bo‘yicha test savollari 302
XXI bob. MAKROIQTISODIYOTDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING MUHIM ELEMENTLARI QO‘LLANILISHI 305
21.1. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish perspektivasi 305
21.2. Iqtisodiy tuzilmaning mohiyati 306
21.3. Ijtimoiy tuzilma.....307
21.4. Tarmoq tuzilmasi 310
21.5. Takror ishlab-chiqarish tuzilmasi.....313
21.6. Hududiy tuzilma. Tashqi siyosat tuzilmasi 314
21.7. Iqtisodiy tuzilmaga ta’sir etuvchi vositalar.....316
21.8. O‘zbekiston iqtisodiy tuzilmasini qayta qurish yo‘nalishlari.....319
Qisqacha xulosalar 320
Nazorat va muhokama uchun savollar 321
Mavzular bo‘yicha test savollari 321
Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari.....325

URUNBAYEVA YULDUZ PIRNAZAROVNA

MAKROIQTISODIYOT

DARSLIK

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: N. Ergashev

Darslik institut Kengashining 2024 - yil 24 - maydagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (10-sonli majlis bayoni).

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2024

ISBN: 978-9910-720-77-2

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 24.10. 2024 y.
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti.

8299

12.11.024 yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog’i 21.00
Buyurtma № 0129A/24. Adadi 100 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.